[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ―2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini ―Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to’g'risidagi farmoni. – T., 2018-yil 22-yanvar.

[2] Mirziyoyev Sh.M. ―Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi PQ-3775-sonli qarori. – T.: O’zbekiston, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06.06.2018-y. 07/18/3775/1313-son.


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

“independent researcher”, ya’ni mustaqil maqomini olishga yo‘l ochadi. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi qadrlash, shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan intilish, talabaning kelajakdagi qiziqish sohasida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, talaba yo‘l qo‘ygan xato-kamchiliklarini o‘qituvchi orqali aniqlab olishning sharoitlarini yuzaga chiqaradi. Ta’lim-tarbiyadagi individual yondashuv, talabani boshqalardan ajratib individual o‘qitishni bildirmaydi, balki talabaning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir talabaning individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Ta’limni modernizatsiyalash jarayoni faqat bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki talabada mustaqillik, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash kabi individual sifatlarni rivojlantirishni ham ko‘zda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali ta’lim tizimi talabaning individualligini e’tiborga olib, uning o‘z-o‘zini rivojlantirish va namoyon etishiga sharoit yaratishi zarur. [2, 3].

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishda individual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish o‘qituvchi hamda talabalar orasidagi demokratik munosabatlarni ta’minlash imkonini beradi. Individual ta’lim texnologiyalarining pedagogik omillarini quyidagicha tavsiflashimiz mumkin(1-rasm).

1-



rasm. Individual ta’lim texnologiyalarning pedagogik omillari


Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik faoliyatda pedagogik omillarga asoslanib, noan’anaviy ta’lim usullarining o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanildi. Ayni vaqtda talabalarga zamon talablariga mos tarzda bilim berish va ta'limning noan'anaviy usullaridan dars jarayonida kengroq qo‘llashga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki noan'anaviy ta’lim usullari hozirgi yangi zamonaviy ta’lim usullaridan tortib pedagogik texnologiya usullari, ta’limning samarali metod va vositalaridan foydalanish orqali talabalarga bilim berishga keng imkon beradi [4].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Hozirgi kunda o‘qitish jarayonining asosiy vazifasi ta’lim mazmunini yangilashning uzluksiz tizimini ro‘yobga chiqarishdan iborat. Bundagi asosiy maqsad har jiҳatdan rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Fikrlaydigan insonni, yangicha iqtisodiy sharoitda, aniqrog‘i bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday o‘zgarishlarga tayyor tura oladigan inson qilib tarbiyalash unga yangi-yangi texnologik axborotlarni qabul qilishga tayyorlash uzluksiz ta’limning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun talim mazmunini yangilashning o‘zi kifoya qilmaydi, balki ilg‘or tajribalarni o‘rganib, noan'anaviy ta'lim usullarini egallash zarur bo‘ladi [5].

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim olishning innavatsion texnologiyalariga asoslanganligini inobatga olgan holda, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini samaradorligini individual ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi.

“Informatikaning nazariy asoslari” fani bo‘yicha yaratilgan individual ta’lim texnologiyalari muhiti talabalarga bilimlarni tekshirish, fanni chuqur o‘rganish, mustaqil, yakka tartibda va hamkorlikda o‘zlashtirishlari uchun o‘quv jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Bu muhit “Informatikaning nazariy asoslari” faniga doir vizual dizaynli ta’lim resurslar, mobil ilova, onlayn nazorat va boshqa vositalarni birlashtirgan tizimdir (2-rasm).



Individual ta’lim texnologiyalari muhiti mediaresurslar, mobil ilova, Ispring quiz maker vositasi, Java dasturlash tili, baxolash, Firebase ma’lumotlar bazasi va chat funksiyasi kabi boyituvchi didaktik vositalari majmuasidan iborat [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Individual ta’lim texnologiyalari muhitida o‘quv jarayonini tashkil etuvchi o‘quv obyektlarini tavsiflaymiz:


Mediaresurslar – bu auditoriya mashg‘ulotlarida qo‘shimcha video va audio ma’lumotlar beruvchi, mavzu mazmunini ko‘rgazmali tarzda boyituvchi didaktik vositalari majmuasi.

Mobil ilova – “Informatikaning nazariy asoslari” faniga doir onlayn dasturi (Individual study) ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlardan mustaqil bilimlarni o‘zlashtirishda ko‘mak beruvchi vositadir. Muallif tomonidan yaratilgan “Individual study” mobil ilovasining tarkibiy asosi: 1. O‘quv va o‘quv-metodik materiallar – o‘quv moduli bo‘yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni samarali o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadigan materiallar. Bu turdagi materiallar sirasiga quyidagilar kiradi: Fan bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning materiallar to‘plami, videomaruzalar, elektron taqdimotlar, va testlar to‘plami. 2. Baholash quyidagi vositalar yordamida olib boriladi. Onlayn baholash. Muallif tomonidan yaratilgan “Individual study” mobil ilovasida kirish testi menyusi orqali talabalarni har bir mavzu oldidan mavjud

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bilimlarini tahlili amalga oshiriladi. Dasturning ushbu menyusida talabalar “Informatikaning nazariy asoslari” faniga doir har bir mavzu bo‘yicha 10-tadan test savollariga javob beradilar. Intelektual testlash tizimi natijalariga ko‘ra tabaqalashgan ta’lim dasturiga asosan gomogen guruhlarga moslashtirilgan o‘quv va o‘quv-metodik materiallar bilan tanishadilar. Har bir amaliy va ma’ruza materiallari o‘rganilgandan so‘ng, mustaqil ta’lim topshiriqlari bajariladi.


Muallif tomonidan yaratilgan “Individual study” mobil ilovasida chiqish testi menyusi orqali talabalarni shakllantiruvchi baholash amalga oshiriladi. Dasturning ushbu menyusida talabalar o‘tilgan har bir mavzu yuzasidan test topshiradilar. Topshirilgan testlar natijalari ma’lumotlar bazasiga yozib boriladi va semestr yakunida har bir talabaning oraliq nazorat bali sifatida avtomatik aniqlanadi(3-rasm).



a) b)

3-rasm. a) Kirish testi, b) Nazorat natijasi

Shuningdek, ta’limiy mobil ilovada turli xil shaklda interaktiv topshiriqlar yaratilgan bo‘lib, ular auditoriyada amaliy mashg‘uloti davomida talabalar ko‘nikma va malakalarini



CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

baholash hamda tahlil qilishga xizmat qiladi. Ushbu topshiriqlar Ispring QuizMaker dasturi yordamida amalga oshirildi(4-rasm).

4-rasm. Topshiriqlar yaratish uchun Ispring QuizMaker dasturi

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash va uni boshqarishda quyidagi savollarga javoblar izlanadi:

- talabalar oliy ta'lim muassasalarida nimani o'rganishi kerak?
- ta'lim natijalariga erishish uchun oliy ta'lim muassasalarida o'qish jarayoni qanday tashkil etilishi kerak?
- talabalarning o'quv jarayonidagi o'rni qanday?

Ba'zi tadqiqotchilar talabalar va oliy ta'lim muassasalari munosabatlarini o'rnatish bilan bog'liq konseptual tahminlarni ishlab chiqish orqali ushbu savollarga javob berishga harakat qiladilar. Biroq, bugungi kunda bunday konseptual modellarning tizimli tahlili yo'q, bu ularni solishtirish va oliy ta'lim muassasalari uchun uning tashqi sharoitlari va resurslariga ko'ra optimalini tanlashni qiyinlashtiradi. Ilmiy izlanishlarning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish modellarini tahlil qilish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishdir. Ta'lim oluvchilarni faol talabalar va hamkorlar sifatida tasavvur qiladigan modellar taqdim etilgan. Shuningdek, biz modellarni ikkita mezon bo'yicha tasniflashni taklif qilamiz:

1) talabalarning o'quv jarayonidagi faolligi;

2) bilimlarni o'zlashtirish va ta'lim samaradorligini yaratishda talabalarning ishtiroki.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash va uni boshqarish masalalari zamonaviy oliy ta'lim muassasalari uchun eng muhim masalalardan biridir. Bu masalalar XX asrning ikkinchi yarmida chet davlatlarda, xususan Rossiyada oliy ta'lim muassasalarida talabalar ta'limining o'zgaruvchan tabiati tufayli muhim axamiyatga ega bo'ldi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'qishini tashkil etishning konseptual modellarini tushunmasdan turib, bu savollarga javob berish mumkin emas, ular talaba nimani va qanday o'rganishi kerakligining me'yoriy tavsifini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkillashtirish uchun turli texnologiyalar va vositalardan foydalanish mumkin. Biroq ta'lim modeli yoki pedagogik modelsiz har ikkalasini faoliyatga tatbiq etish kerakli natijani bermasligi mumkin.

Model - bir xil muhim parametrlar va xususiyatlarga ega bo'lgan, ammo ahamiyatsiz xususiyatlar bilan haqiqiy ob'yektdan farq qiladigan haqiqiy ob'yektning tasviri.

Ta'lim modeli - bu uni amalga oshirishning samarali usullari va qurilishning samarali shakllari majmuasi bilan o'quv faoliyatini tashkil etish rejasidir. Zamonaviy jamiyatning beqarorligi va rivojlanish tezligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining dinamikligi tufayli ta'lim faoliyatini qayta yo'naltirish talab etiladi. Bu an'anaviy o'qitish usullaridan voz kechishga va o'quv faoliyatini tashkil etishning yangi modellaridan foydalanishga olib keladi [6].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ta’lim jarayonining modeli - bu inson ongida shakllangan va o‘quv jarayonini grafik tasvirlar, so‘zlar va raqamlar shaklida aks ettiruvchi o‘quv faoliyatining majoziy-belgili ifodasidir.

Zamonaviy ta’lim modellarining mohiyatini quyidagi parametrlar bilan tavsiflash mumkin:

- Yangi axborot resurslari va talabalar allaqachon egallagan bilimlar o‘rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilish hamda ta'lim dasturlarining moslashuvchan bo‘lishi. O‘quv mashg‘ulotlarining barcha bosqichlarida uzluksizlikni saqlash muhimdir.
- Belgilangan o‘quv vazifasini bajarish uchun ko‘p sonli variantlarning mavjudligi. Talabalarda muayyan masalani echish uchun bitta algoritm yoki shablon bo‘lmasligi kerak.Uni hal qilish uchun bir nechta variant bo‘lishi kerak, eng maqbulini tanlash talabaning huquqidir.
- O‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash uchun yangi shart-sharoitlarni yaratish. Bilimlar tez o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashib, turli ijtimoiy sharoitlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitishni tashkil etishning ko‘plab modellari mavjud. Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayoni o‘zgaruvchanlik va individual e'tibor bilan tavsiflanadi.

Ta’lim modellari doimo rivojlanib, takomillashib boradi. Eski modellar yangilari bilan almashtirilmoqda. Yaqinda innovatsion deb topilgan modellar fonga tushib, an’anaviy o‘qitish modellari (masalan, muammoli ta’lim modeli) o‘rnini egallaydi.

Zamonaviy ta’lim modellarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. O‘quv faoliyatining asosiy yo‘nalishi talabalarning mustagilligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga qaratilgan. Bu mashg'ulotning barcha bosqichlariga tegishli.

2. Talabalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish. Ijtimoiy makonda o‘zaro munosabatda bo‘lish, ijobiy muloqot aloqalari va munosabatlarini o‘rnatish qobiliyati faoliyatning turlari va jihatlarida muvaffaqiyatga erishish uchun asosdir.

3. Mustaqil qaror qabul qilish va tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish.

4. Kognitiv faollikni rivojlantirish.

5. O‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish va hayot davomida unga motivatsiya berish [7].

Zamonaviy ta’lim modellarining asosiy xususiyatlaridan foydalangan holda individual ta’lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish modeli quyidagi komponentlardan tashkil topgan: 1) maqsadli; 2) mazmunli; 3) faoliyatni amalga oshirish jarayoni; 4) natijaviy-baholovchi (5-rasm).

Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar, o‘quv jarayoni samaradorligini takomillashtirishning metodik modelini qurishning tarkibiy va funksional

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

aspektlarini asoslab berishimizga imkon yaratdi. Taklif etilayotgan modelning funksional aspekti, model tarkibini to‘rtta asosiy komponentdan tashkil topganligini hamda har bir komponent muayyan funksiyalarni bajarishi bilan ifodalanadi.

Model ishlashining samaradorligi quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmuasi tomonidan ta’minlanadi:

1) Fan bo‘yicha aniq o‘quv maqsadlarini belgilanganligi;
2) Talabalarning bilim darajalari va o‘rganish uslublaridagi farqlarni hisobga olinganligi, individual ta’lim uchun imkoniyatlar yaratilganligi va har bir talabaga individual yondashilganligi;
3) Talabalarga o‘zlari uchun eng qulayini tanlash imkonini berish uchun turli xil o‘quv formatlarini, jumladan ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlarini taqdim etilganligi;
4) Talabalar darsning moddiy yoki texnik muammolari bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelsalar, yordam so‘rashlari uchun mobil ilovada chat funksiyasini yaratilganligi;
5) Ta’lim jarayonining samaradorligini muntazam ravishda baholash va baholash natijalariga muvofiq o‘zgartirishlarni amalga oshirilganligi.
6) Shaxsni tarbiyalashga oid kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun o‘qituvchining nazariy tayyorgarligi;
7) Differensial va individuallashtirilgan ta’limni tashkil qilinganligi;
8) Talabalarning o‘zaro ta’limini tashkil etilganligi

Model komponentlari aniq ketma-ketlikda bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, ushbu modelning maqsadli komponenti – fanni o‘qitishning maqsadi va vazifalarini belgilab beradi. Unga ko‘ra biz o‘z oldimizga individual ta’lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishni maqsad qilib qo‘ydik. Belgilangan maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- ✓ Individual ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish mexanizmini takomillashtirish;
- ✓ Individual ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish.

Mazmunli komponent o‘z ichiga ta’lim jarayonini tashkil etishda qo’llaniladigan bosqichlar, yondoshuv va tamoyillarni qamrab olgan bo‘lib, unga ko‘ra biz o‘quv jarayonini tashkil etuvchi loyihalashtirish, bilimlarni tekshirish, amalga oshirish hamda nazorat qilish va baholash bosqichlardan foydalandik.


Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish – bu differensial ta’limni qo‘llash asosida ta’lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati, motivi, intellekti va imkoniyatini inobatga oluvchi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta’lim oluvchi bilimini rivojlantirishda samarali foydalanishdir. Individual ta’lim texnologiyalari asosida “Informatikaning nazariy asoslari” fanini o‘qitish didaktik tizimi individuallik, differensiallik, ko‘rgazmalilik va natijaviylik tamoyillariga tayanadi.

O‘quv jarayoni komponenti – ta’lim olish, o‘quv jarayonini va o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari, metod va vositalarining o‘zaro qo‘llanilish usullarini ta’minlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

“Informatikaning nazariy asoslari” fanini o‘qitishning didaktik tizimi sifatida, o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari – ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim, metodlar sifatida –debat ma’ruza, ierarxik diagramma, assesment, loyiha, think-Pair-Share, A, V, C dasturi va boshqa metodlar belgilab olindi. “Informatikaning nazariy asoslari” fanini ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlari aralash mobil ta’lim texnologiyalari asosida differensial ta’lim yondashuviga asoslanib, GROW va SAMR ta’lim modellarining perspektiv darajasini izchillik va uzviylik prinsiplariga ustuvorlik berish orqali tashkil etiladi, bu jarayonda turli darajadagi gomogen guruhlar uchun o‘qitish usullari, didaktik materiallar va o‘quv maqsadlari aniq belgilangan bo‘lib, talabalarning individual ta’lim trayektoriyalarini avtomatik aniqlovchi “Individual Study” mobil ilovasi yordamida ta’lim jarayoni samarali va individual moslashtirilgan tarzda boshqariladi. Mustaqil ta’limini tashkil etishda kreativlik usullaridan foydalangan holda, didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo‘ljallanganiga qarab– individual tartibda amalga oshiriladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



5-rasm. Individual ta'lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish modeli

Bunda differensiallashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: 'A'.'V'.'S' dasturlariga asosan tayyorlangan topshiriqlar asosida tashkil etiladi [8]. Dasturiy, texnik va metodik vositalar umumiy qo'llaniladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Unga ko‘ra talabalar har bir ma’ruza mashg‘ulot oldidan o‘z bilimlarini tekshirib, uning natijasiga ko‘ra turli darajadagi gomogen guruhlar uchun o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan nazariy va amaliy materiallarni oldindan o‘rganadilar va mavzu bilan tanish holatda auditoriyaga kelishadi. Auditoriya vaqti o‘qituvchi bilan paydo bo‘lgan barcha savollarni saralashga va amaliy masalalarni hal qilishga va nazorat ishlarini bajarishda o‘zlarini sinab ko‘rishga bag‘ishlanadi. Qoida tariqasida, nazariy material talabalarga o‘qituvchi tomonidan yaratilgan illyustrativ dizaynli ta’lim resurslari - turli xil video, taqdimotlar va mavzu hamda rejalar bankidan iborat elektron hujjat ko‘rinishida taqdim etiladi, ular muallif tomonidan yaratilgan Individual study mobil ilovasida joylashtirilgan, shuningdek talabalarda ushbu resurslarga kirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Muallif tomonidan yaratilgan Individual study mobil ilovasi barcha foydalanuvchilar uchun ochiq va Google Play onlayn dastur do‘konlaridan bepul yuklab olish mumkin.

Baholash komponenti baholash mezonlari, baholash usullari (neyron tarmoqlar usuli va avtomatlashtirilmagan) va baholash darajalarini o‘z ichiga oladi. Baholash komponenti talabalarning bilimlarini neyron tarmoqlar usuli yordamida ma’lumotlarni qanday yaxshi o‘rganganliklarini tahlil qilish, talabalarning bilim darajasini nazorat qilish va o‘qitish usullarini innovatsion tarzda yangilash imkonini beradi, shuningdek, motivatsion, texnologik va faoliyatli mezonlari ostida a’lo (yuqori), yaxshi (o‘rta), qoniqarli (quyi) va qoniqarsiz (past) baholar bilan qiyoslanadi.

Model o‘quv jarayoni samaradorligini takomillashtirishda maqsadli, mazmunli, faoliyatni amalga oshirish jarayoni va natijaviy-baholash komponentlari orqali pedagogik amaliyotga joriy etiladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar doirasida individual ta’lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur model “Informatikaning nazariy asoslari” fanini o‘qitish jarayonida qo‘llash uchun mo‘ljallangan (5-rasmga qarang).

Tadqiqot ishimizda o‘quv jarayonida foydalanilgan an’anaviy va ta’limiy mobil ilovalar integratsiyasidan foydalanish natijasida olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili sifatida 2016 yil Campus Technology o‘qituvchilar o‘rtasida ―Raqamli texnologiyalarni qo‘llab dars o‘tish mavzusida so‘rovnoma o‘tkazilib, bunda 71% o‘qituvchilar an’anaviy ta’lim bilan birga onlayn manbalardan foydalanishini aytganlar. Elektron ta’lim (adaptiv ta’lim, onlayn ta’lim modullarini qo‘llash) afzalliklarini an’anaviy ta’lim ijtimoiy texnologiyalari va media resurslarini birgalikda qo‘llanilishida ko‘rishimiz mumkin. Maqsad esa talabalarning gomogen guruh va ijtimoiylashuvidan kelib chiqqan holda ularning ehtiyojlarini hisobga olib ta’lim modelini ishlab chiqishdir. Tendensiyani yanada rivojlantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida talabalar ta’limi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Masalan, Londondagi Imper tibbiyot kolleji talabalari an’anaviy va elektron ta’limni birgalikdagi qo‘llanilishiga asoslangan ikkita tajribada ishtirok etdilar. Talabalar video ma’ruzani ko‘rib, vazifalarni bajarish imkoniyatini mavjudligini yuqori baholadilar. Talabalar ushbu model tushunarli animatsiyalar bilan yahshi tizimlashtirilgani va o‘z-o‘zini baholashda interaktiv

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

topshiriqlarga egaligini aytib o‘tishdi. Amerika OTMlari ham qabul qilingan yechim auditoriyada va auditoriyadan tashqarida amalga oshirsa bo‘ladi degan fikrdalar.

Ushbu tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim va elektron ta’lim resurslarini integratsiyalash talabalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini oshirish bilan birga, ta’limni individuallashtirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, ta’limni raqamlashtirish pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’limni individuallashtirish jarayonini quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali o‘zgartiradi.

Shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitini yaratish: Raqamli texnologiyalar talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘quv uslublariga mos o‘quv muhitini shakllantirish imkonini beradi. Masalan, adaptiv o‘quv platformalari (Moodle, Google Classroom) talabalarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan topshiriqlar taklif qiladi. Tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli vositalar talabalarning shaxsiy ehtiyojlariga mos ta’limni ta’minlash orqali o‘quv natijalarini 25% ga yaxshilaydi.

O‘quv jarayonining moslashuvchanligini oshirish: Raqamlashtirish o‘quv jarayonini vaqt va makon jihatidan moslashuvchan qiladi, bu esa talabalarga o‘zlarining individual o‘quv rejalarini tuzish imkonini beradi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida onlayn kurslar va mediaresurslarining joriy etilishi talabalarga ta’lim jarayonini moslashuvchan shaklda tashkil etish, o‘quv materiallarini individual sur’atda o‘zlashtirish hamda bilim olish jarayonining vaqt va makon jihatidan qulayligini ta’minlash imkonini beradi. D.R.Garrison [9] ta’kidlaganidek, raqamli platformalar o‘quv jarayonining moslashuvchanligini oshirib, talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Real vaqtda monitoring va fikr-mulohaza: Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarga talabalarning o‘quv jarayonidagi faoliyatini real vaqtda kuzatish va ularga tezkor fikr-mulohaza berish imkonini beradi. Bu talabalarning zaif tomonlarini aniqlash va o‘quv jarayonini individuallashtirishda muhim ahamiyatga ega. G.Siemens [10] tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, raqamli tahlil vositalari talabalarning o‘quv natijalarini real vaqtda tahlil qilib, moslashtirilgan yechimlar taklif qilish orqali ta’lim sifatini oshiradi.

Shularni hisobga olib, individual ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirishning dolzarbligini va uning bugungi kun ta‘lim vositalari orasida zaruratga aylanib ulgurganligini oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida foydalanish hamda o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga hizmat qilishi bilan asoslash mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, individual ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish o‘qitish jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion tizimga aylantiradi. Talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini kengaytiradi, o‘qituvchining o‘rgatuvchi emas, yo‘naltiruvchi sifatidagi rolini kuchaytiradi, raqamli ta’lim muhitida samaradorlikni oshiradi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Oliy ta’lim muassasalarida “Individual study” mobil ilovasiga asoslangan individual ta’lim modelini joriy etish;

2. O‘qituvchilar uchun interfaol va raqamli metodlar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Har bir fan bo‘yicha talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilovchi elektron portfoliolarni yaratish;

4. Individual o‘qitish natijalarini avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali monitoring qilish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jurayev B.T. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. – “Fan va ta’lim” nashriyoti. Buxoro. 2022 y. 18-25 betlar.
2. Alekseyev N.A. Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv: nazariya va amaliy savollar: Monografiya. Tyumen: Tyumen davlat universiteti nashriyoti, 1996. 216 bet.
3. Mamatqulova N.F. Tilga ixtisoslashtirilgan otm talabalarining xorijiy til kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ped.fan.dok. diss. avtoreferati – T.:O’DJTU, 2022. – 16 b.3. Rogers, C. (1983). Freedom to Learn for the 80s. Columbus, OH: Merrill.
4. Александрова Е. А. Эволюция методов и приемов воспитания: Сибирский педагогический журнал. 2017. № 6. С. 7–14
5. Majidov R.R. Informatika fanini o’qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – Iqtisodiyot – 2019
6. Малошонок Н. Г., Щеглова И. А.. Модели организации обучения студентов в университете: основные представления, преимущества и ограничения // Университетское управление: практика и анализ / University Management: Practice and Analysis// 2020; 24(2): 107–120 7. Nishonov, U.N. (2022). Raqamli ta’lim muhitida interfaol metodlarni qo‘llash. “Ta’lim va innovatsiya” jurnali, №3.
7. Rizayeva S.D. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishda individual yondashuvning konseptual modeli // Muallim Ilmiy metodologik jurnal 2023-yil, 4-son, ISSN 2181-7138, 63-71 b
8. Челноков В.А. Уровневая дифференциация обучения учащихся средней общеобразовательной и профессиональной школы: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Казань, 1996. - 20 с
9. Garrison, D. R., & Akyol, Z. (2021). “The Impact of Personalized Learning Technologies on Student Outcomes.” Educational Technology Research and Development, 69(4), 1235-1250. Springer.
10. Tojimamatov I. N., Mamalatipov O. M., Karimova, N. A. (2022). Sun’iy neyron tarmoqlarini o‘qitish usullari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 191-203.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rizayeva Sanobar**, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi, [**Ризаева Санобар**, доктор философии (PhD)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

по педагогическим наукам, старший преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета], [**Sanobar Rizayeva**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Senior Lecturer, Chirchik State Pedagogical University]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent viloyati, Chirchiq sh. [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, Ташкентская область], [address: Uzbekistan, Chirchik city, Tashkent region].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TALABALARNI DASTURLASH KO‘NIKMALARINI TAHLILIY BAHOLASH TIZIMLARI TAHLILI

© R.O. Sultanov[1]✉

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola talabalarning dasturlash ko‘nikmalarini tahliliy baholash tizimlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, zamonaviy ta’limda avtomatlashtirilgan baholash vositalarining ahamiyatini ko‘rib chiqadi. Tadqiqotning maqsadi mavjud tizimlarning afzalliklari, kamchiliklari va O‘zbekiston ta’lim tizimiga qo‘llanilishini o‘rganishdir. Adabiyotlar tahlili orqali xalqaro tajribalar sintez qilingan, metodologiyada esa sistematik review, solishtirma tahlil, so‘rovnoma va intervyular qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirilgan tizimlar baholashni obyektivlashtiradi va o‘qituvchilar yukini kamaytiradi, ammo ijodiy yechimlarni baholashda cheklovlarga ega. Maqola O‘zbekiston uchun mahalliy platformalar ishlab chiqish, o‘qituvchilarni tayyorlash va AI asosidagi yondashuvlarni joriy etish takliflarini beradi, shuningdek, kelajak tadqiqot yo‘nalishlarini belgilaydi.

MAQSAD: dasturlash ko‘nikmalarini baholashda avtomatlashtirilgan tizimlarning samaradorligini o‘rganish va ularning ta’lim jarayoniga integratsiya yo‘llarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: sistematik adabiyot tahlili, solishtirma tahlil, empirik kuzatuv, so‘rovnoma va intervyu metodlari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalariga ko‘ra, avtomatlashtirilgan tizimlar talabalarning texnik kompetensiyalarini aniq o‘lchaydi, biroq ijodiy fikrlashni to‘liq baholay olmaydi. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu texnologiyalarni tatbiq etish uchun mahalliy sharoitga mos modellar ishlab chiqish zarurligi qayd etiladi.

XULOSA: raqamli ta’lim sharoitida dasturlash ko‘nikmalarini tahliliy baholash tizimlarini joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Kalit so'zlar: dasturlash ko‘nikmalari, tahliliy baholash tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash, raqamli ta’lim, sun’iy intellekt.

Iqtibos uchun: Sultanov R.O. Talabalarni dasturlash ko‘nikmalarini tahliliy baholash tizimlari tahlili. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №10(1). B.34-41.

АНАЛИЗ СИСТЕМ ОЦЕНКИ АНАЛИТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ

© Р.О. Султанов [1]✉

[1]Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья посвящена анализу систем аналитической оценки навыков программирования студентов и рассматривает значение автоматизированных средств оценивания в современном образовании. Цель исследования — изучить преимущества и недостатки существующих систем, а также возможности их применения в образовательной системе Узбекистана. На основе анализа литературы синтезирован международный опыт; в методологии использованы систематический обзор, сравнительный анализ, анкетирование и интервью. Результаты показывают, что автоматизированные системы объективизируют оценку и снижают нагрузку преподавателей, однако имеют ограничения в оценке творческих решений.

ЦЕЛЬ: изучить эффективность автоматизированных систем оценки навыков программирования и определить пути их интеграции в учебный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: применялись систематический анализ литературы, сравнительный метод, эмпирические наблюдения, анкетирование и интервью.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: автоматизированные системы позволяют точно оценивать технические компетенции студентов, но требуют адаптации для оценки креативности. Для Узбекистана важно разработать локальные модели, сочетающие технологические и педагогические принципы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в условиях цифровой трансформации внедрение аналитических систем оценки навыков программирования является важным фактором повышения качества образования.

Ключевые слова: навыки программирования, аналитические системы оценки, автоматизированная оценка, цифровое образование, искусственный интеллект.

Для цитирования: Султанов Р.О. Анализ систем оценки аналитических навыков программирования у студентов. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №10(1). С. 34-41.

ANALYSIS OF SYSTEMS FOR ASSESSING STUDENTS' PROGRAMMING SKILLS

© Ravshonbek O. Sultanov[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article focuses on the analysis of analytical assessment systems for evaluating students' programming skills and highlights the importance of automated assessment tools in modern education. The aim of the research is to explore the advantages, limitations, and applicability of these systems in Uzbekistan's educational context. Based on literature synthesis, the study incorporates international experiences and uses systematic review, comparative analysis, surveys, and interviews as methodological tools. Findings indicate that automated systems ensure objectivity and reduce teachers' workload but face limitations in assessing creativity.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: to evaluate the effectiveness of automated systems in assessing programming skills and to determine strategies for integrating them into educational practice.

MATERIALS AND METHODS: systematic literature analysis, comparative study, empirical observation, survey, and interview methods were applied.

DISCUSSION AND RESULTS: results show that automated systems accurately assess students' technical abilities but fail to fully capture creative problem-solving. The study recommends developing localized assessment platforms for Uzbekistan, teacher training, and AI-based improvements.

CONCLUSION: implementing analytical systems for programming skill assessment under digital education transformation is a crucial step toward improving the quality of education.

Keywords: programming skills, analytical assessment systems, automated evaluation, digital education, artificial intelligence.

For citation: Ravshonbek O. Sultanov. (2025) 'Analysis of systems for assessing students' programming skills', Inter education & global study, vol.3 (10(1)), pp.34-41. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning dasturlash ko'nikmalarini baholash jarayoni muhim o'rin tutadi. Dasturlash ko'nikmalari nafaqat informatsiya texnologiyalari sohasida, balki boshqa fanlar va kasblarda ham talab qilinadigan asosiy kompetensiyalardan biriga aylandi. Biroq, an'anaviy baholash usullari (masalan, qo'l baholash yoki oddiy testlar) ko'pincha subyektivlik, vaqtni ko'p talab qilish va samaradorlikning pastligi bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Shu sababli, tahliliy baholash tizimlari, ya'ni avtomatlashtirilgan va algoritmik asosidagi baholash yondashuvlari rivojlanmoqda. Ushbu tizimlar talabalarning kodini tahlil qilish, xatolarni aniqlash, loyiha sifatini baholash va o'quv jarayonini optimallashtirishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarning dasturlash ko'nikmalarini tahliliy baholash tizimlarini tahlil qilish, ularning afzalliklari, kamchiliklari va amaliy qo'llanilishini o'rganishdir. Tadqiqot doirasida mavjud tizimlarning samaradorligi baholanadi, shuningdek, ularni ta'lim jarayonida joriy etishning mumkin bo'lgan yo'llari taklif etiladi. Tadqiqot savollari quyidagicha: Tahliliy baholash tizimlari talabalarning dasturlash ko'nikmalarini qanchalik aniq va adolatli baholaydi? Mavjud tizimlarning qanday cheklovlari bor va ularni takomillashtirish mumkinmi? Ushbu mavzu O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida ayniqsa dolzarb, chunki mamlakatdagi universitetlarda dasturlash o'qitish ko'lamlari kengaymoqda, ammo baholash tizimlari hali yetarlicha avtomatlashtirilmagan.

Talabalarning dasturlash ko'nikmalarini tahliliy baholash tizimlari bo'yicha mavjud adabiyotlar asosan avtomatlashtirilgan baholash vositalari, ularning samaradorligi va ta'lim jarayoniga ta'siri haqida. Quyida ushbu sohadagi asosiy tadqiqotlar va reviewlar qisqacha

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tahlil qilinadi. Birinchi navbatda, Ihantola va boshqalar (2016) tomonidan o‘tkazilgan sistematik literature reviewda dasturlash topshiriqlarini baholash uchun vositalar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda 2006-2010 yillarda yaratilgan avtomatlashtirilgan tizimlarning rivojlanishi tahlil qilingan bo‘lib, ularning asosiy komponentlari (kodni kompilyatsiya qilish, testlash va xatolarni aniqlash) ta’kidlangan. Ushbu reviewda baholash tizimlarining samaradorligi ta’lim jarayonini tezlashtirishi, ammo murakkab loyihalarda subyektiv baholashni to‘liq o‘rnini bosa olmasligi ko‘rsatilgan. Shunga o‘xshash reviewda Souza va boshqalar (2016) dasturlash kurslari uchun baholash tizimlarini o‘rganib, ularning avtomatik baholashdagi foydasiga e’tibor qaratganlar. Tadqiqotda baholash tizimlarining talabalarning motivatsiyasini oshirishi va o‘qituvchilarning yukini kamaytirishi ta’kidlangan. Bundan tashqari, Caiza va Del Alamo (2022) tomonidan o‘tkazilgan sistematik reviewda kompyuter fanlari ta’limida avtomatlashtirilgan baholashning holati tahlil qilingan. Tadqiqotda statik tahlil yondashuvi (kodni kompilyatsiya qilmasdan tahlil qilish) va dinamik testlash usullari solishtirilgan bo‘lib, ularning dasturlash ko‘nikmalarini baholashdagi samaradorligi ko‘rsatilgan. Reviewda baholash tizimlarining cheklovlari, masalan, ijodiy yechimlarni baholay olmasligi muhokama qilingan. Shuningdek, Ullah va boshqalar (2022) talabalarning dasturlash ko‘rsatkichlarini o‘rganib, peer review (talabalar o‘rtasidagi baholash) va o‘qituvchi baholashini solishtirganlar. Natijada peer review natijalari o‘qituvchi bahosi bilan farq qilishi, ammo talabalarning o‘rganish samaradorligini oshirishi aniqlangan. So‘nggi tadqiqotlarda, masalan, Hadi va boshqalar (2023) avtomatlashtirilgan baholash va feedback vositalarini sistematik review qilganlar. 2017-2021 yillardagi 121 ta maqolani tahlil qilib, baholash tizimlarining mashina o‘rganishiga asoslangan yangi yondashuvlari ta’kidlangan. Reviewda tizimlarning talabalarning dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi, ammo ma’lumotlar sifati va algoritm aniqligiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, Ihantola va boshqalar (2010) avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining rivojlanishini review qilgan bo‘lib, ularning dasturlash topshiriqlarini baholashdagi rolini ta’kidlaganlar. Lin (2012) esa peer code review asosidagi onlayn baholash tizimini taklif qilgan bo‘lib, uning dasturlash o‘rganishdagi samaradorligini ko‘rsatgan. Umumiy xulosada, mavjud adabiyotlar avtomatlashtirilgan tahliliy baholash tizimlarining afzalliklarini (samaradorlik, obyektivlik) ta’kidlaydi, ammo cheklovlari (ijodiy yechimlarni baholay olmaslik, texnik muammolar) bo‘shliqlarini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirilgan yondashuvlarni taklif etadi.

Ushbu tadqiqot talabalarning dasturlash ko‘nikmalarini tahliliy baholash tizimlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tahliliy va deskriptiv yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mavjud tizimlarning samaradorligini baholash, ularning afzalliklarini va kamchiliklarini aniqlash hamda O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirilgan takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlar va usullarga asoslanadi, bu esa natijalarning ishonchliligi va obyektivligini ta’minlaydi.

Tadqiqot aralash metodologiyaga (mixed-methods research) asoslanadi, ya’ni sifat va miqdoriy tahlilning kombinatsiyasidan foydalaniladi. Bu yondashuv tanlangan, chunki

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mavzu bir tomondan adabiyotlar va mavjud tizimlarni chuqur tahlil qilishni (sifat tahlili), ikkinchi tomondan esa statistik ma'lumotlar va so'rovnoma natijalarini qayta ishlashni (miqdoriy tahlil) talab qiladi. Tadqiqotning asosiy usullari:

- **Sistematik adabiyotlar tahlili (Systematic Literature Review, SLR)**: Mavzu bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqish va sintez qilish.
- **Solishtirma tahlil (Comparative Analysis)**: Mavjud baholash tizimlarini solishtirish.
- **Empirik tadqiqot**: So'rovnoma va intervyu orqali amaliy ma'lumotlar yig'ish.

Tadqiqotning vaqt doirasi: 2023-2024 yillar, chunki so'nggi yillarda raqamli ta'lim texnologiyalari tez rivojlanmoqda. Tadqiqot geografik jihatdan O'zbekiston universitetlariga (masalan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Milliy universitet) qaratilgan, ammo xalqaro tajribalarni ham hisobga oladi.

Ma'lumot yig'ish usullari va vositalari

Ma'lumotlar yig'ish jarayoni quyidagi bosqichlar va usullardan iborat bo'lib, ular tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash uchun standart protokollarga asoslanadi (masalan, PRISMA standartlari adabiyotlar tahlili uchun).

1. **Adabiyotlar tahlili**:
   - **Qidiruv strategiyasi**: Google Scholar, ResearchGate, ACM Digital Library, IEEE Xplore va Scopus kabi akademik bazalardan foydalanish. Kalit so'zlar: "analytical assessment systems for programming skills", "automated programming evaluation", "programming skills assessment tools", "code analysis in education" (ingliz tilida), shuningdek, "dasturlash ko'nikmalarini baholash tizimlari", "avtomatlashtirilgan kod tahlili" (o'zbek va rus tillarida).
   - **Inkluziya va eksklyuziya mezonlari**: 2010-2023 yillardagi ilmiy maqolalar, tahlillar va konferensiya materiallari tanlab olinadi. Umumiy soni: kamida 50 ta manba. Eksklyuziya: ta'limdan tashqari sohalardagi maqolalar, faqat abstraktlari mavjud bo'lmagan materiallar.
   - **Jarayon**: Qidiruv natijalarini EndNote yoki Zotero kabi vositalar yordamida tartiblash. Har bir manbani abstrakt, metodologiya va natijalar bo'yicha ko'rib chiqish. Natijada, adabiyotlarning sintezi uchun tematik kategoriyalar (masalan, tizim turlari, samaradorlik ko'rsatkichlari) yaratiladi.
2. **Mavjud baholash tizimlarining tahlili**:
   - **Tanlangan tizimlar**: Codeforces, HackerRank, LeetCode, Moodle integratsiyalari (masalan, VPL plugin), CodeChef va maxsus ishlab chiqilgan tizimlar (masalan, GitHub Classroom).
   - **Tahlil usuli**: Tizimlarning texnik hujjatlarini (API dokumentatsiyasi, foydalanuvchi qo'llanmalari) o'rganish. Funksiyalarni sinab ko'rish: kodni avtomatik testlash, statik tahlil (misol uchun, pylint yoki SonarQube kabi vositalar), dinamik tahlil (runtime xatolari). Foydalanuvchi tajribasini baholash uchun onlayn forumlar va reviewlarni (masalan, Stack Overflow) ko'rib chiqish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- **Ma'lumotlar turi**: Tizimlarning mezonlari bo'yicha jadval: kod sifati (style checking), tezlik (time complexity), xatolarni aniqlash (error detection), foydalanuvchi interfeysi.

3. **Empirik ma'lumotlar yig'ish**:

- **So'rovnoma**: O'zbekiston universitetlarining informatika va dasturlash kurslaridagi 100 nafar talaba va 20 nafar o'qituvchiga onlayn so'rovnoma o'tkazish. Vosita: Google Forms yoki SurveyMonkey. Savollar: Likert shkalasi bo'yicha (1-5 ball), masalan, "Tahliliy baholash tizimlari sizning dasturlash ko'nikmalaringizni yaxshilaydi deb o'ylaysizmi?" va ochiq savollar ("Qanday kamchiliklarni ko'rasiz?").
- **Intervyu**: 10 nafar o'qituvchi va 20 nafar talaba bilan yarim strukturalangan intervyu o'tkazish (Zoom yoki Telegram orqali). Davomiyligi: 20-30 daqiqa. Savollar: Baholash tizimlarining amaliy qo'llanilishi, muammolari va takomillashtirish takliflari.
- **Ishtirokchilarni tanlash**: Tasodifiy tanlov (random sampling) va maqsadli tanlov (purposive sampling) kombinatsiyasi. Talabalar: 1-4-kurs, o'qituvchilar: dasturlash bo'yicha tajribali mutaxassislar. Ishtirokchilar soni cheklangan bo'lishi mumkin (masalan, pandemiya yoki texnik cheklovlar sababli), ammo minimal 80% javoblar talab qilinadi.

Ma'lumotlar yig'ish jarayonida etika qoidalari saqlanadi: ishtirokchilardan rozilik olish, ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash (GDPR standartlariga muvofiq).

Ma'lumotlar qayta ishlash quyidagi usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi:

1. **Sifat tahlili**:

- **Kontent-tahlil (Content Analysis)**: Adabiyotlar va intervyu natijalarini NVivo yoki ATLAS.ti vositalari yordamida tahlil qilish. Tematik kodlash: asosiy mavzular (afzalliklar, kamchiliklar, takliflar) aniqlash.
- **Solishtirma tahlil**: Tizimlarning baholash mezonlarini jadval shaklida solishtirish. Misol uchun:

Tizim	Kod sifati tahlili	Tezlik baholash	Xatolarni aniqlash	Foydalanuvchi qulayligi
HackerRank	Yuqori	O'rta	Yuqori	Yuqori
Codeforces	O'rta	Yuqori	O'rta	O'rta

2. **Miqdoriy tahlil**:

- **Statistik ishlov berish**: So'rovnoma natijalarini SPSS, R yoki Python (Pandas va SciPy kutubxonalari) yordamida tahlil qilish. Usullar: deskriptiv statistika (o'rtacha, median), inferentsial statistika (t-test, ANOVA), korrelyatsiya (Pearson yoki Spearman) va regressiya modellarini qo'llash (masalan, baholash tizimining talabalar motivatsiyasiga ta'sirini modellashtirish).
- **Ishonchlilikni baholash**: Cronbach's alpha koeffitsienti so'rovnoma ishonchliligini o'lchash uchun (minimal 0.7).

Tadqiqotning cheklovlari va xavflari

- **Cheklovlar**: Ma'lumotlar asosan xalqaro manbalarga asoslanadi, O'zbekistonga oid mahalliy tadqiqotlar cheklangan. Ishtirokchilar soni (120 nafar) katta miqyosli

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

generalizatsiya uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Texnik cheklovlar: ba’zi tizimlarning bepul versiyalari cheklangan funksiyalarga ega.

- **Xavflar va ularni bartaraf etish**: Ma’lumotlarning subyektivligi – bir necha mutaxassis tomonidan qayta baholash orqali. Vaqt cheklovlari – tadqiqotni bosqichma-bosqich rejalashtirish.

Ushbu tadqiqot talabalarning dasturlash ko‘nikmalarini tahliliy baholash tizimlarini tahlil qilishga qaratildi va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini, afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot natijasida aniqlandiki, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari (masalan, HackerRank, Codeforces, Moodle VPL) kod sifatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tezkor feedback taqdim etishda muhim afzalliklarga ega. Ushbu tizimlar o‘qituvchilarning ish yukini kamaytiradi, talabalarning motivatsiyasini oshiradi va baholash jarayonida obyektivlikni ta’minlaydi. Biroq, tadqiqotda tizimlarning cheklovlari ham aniqlandi: ijodiy yechimlarni baholay olmaslik, texnik infratuzilma talablari va O‘zbekiston ta’lim tizimiga to‘liq moslashmaganligi kabi muammolar mavjud.

O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Mahalliy platformalar ishlab chiqish**: O‘zbek tilida interfeysga ega, mahalliy ta’lim standartlariga moslashtirilgan avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini yaratish. Masalan, Python va C++ kabi O‘zbekistonda keng o‘qitiladigan tillarga moslashtirilgan tizimlar.
2. **O‘qituvchilarni tayyorlash**: O‘qituvchilarga avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish bo‘yicha maxsus treninglar tashkil qilish, bu ularning raqamli savodxonligini oshiradi.
3. **Integratsiya va sinov**: Mavjud platformalarni (masalan, Moodle) mahalliy universitetlarning o‘quv dasturlariga integratsiya qilish va sinovdan o‘tkazish orqali samaradorlikni oshirish.
4. **Mashina o‘rganishiga asoslangan yondashuvlar**: Kelajakda sun’iy intellekt va mashina o‘rganishiga asoslangan tizimlarni joriy etish, bu talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan feedback taqdim etish imkonini beradi.

Tadqiqotning kelajakdagi yo‘nalishlari sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- O‘zbekistonda dasturlash o‘qitishning maxsus ehtiyojlariga moslashtirilgan baholash tizimlarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish.
- Katta miqyosli empirik tadqiqotlar o‘tkazish, ko‘proq ishtirokchilarni jalb qilish orqali natijalarni generalizatsiya qilish.
- Ijodiy dasturlash topshiriqlarini baholash uchun yangi algoritmlarni ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli transformatsiyani tezlashtirish va dasturlash ko‘nikmalarini baholash jarayonini takomillashtirish uchun muhim zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari nafaqat akademik doiralarda, balki ta’lim siyosatini shakllantirishda ham qo‘llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Ihantola, P., Ahoniemi, T., Karavirta, V., & Seppälä, O. (2010). Review of recent systems for automatic assessment of programming assignments. In Proceedings of the 10th Koli Calling International Conference on Computing Education Research (pp. 86-93). ACM.
2. Souza, D. M., Felizardo, K. R., & Barbosa, E. F. (2016). A Systematic Literature Review of Assessment Tools for Programming Assignments. In 2016 IEEE 29th International Conference on Software Engineering Education and Training (CSEET) (pp. 147-156). IEEE.
3. Caiza, J. C., & Del Álamo, J. M. (2022). Automated Assessment in Computer Science Education: A State-of-the-Art Review. ACM Transactions on Computing Education, 22(3), 1-40.
4. Ullah, Z., Lajis, A., Jamjoom, M., Altalhi, A. H., & Shah, A. (2022). Students' Performances in Computer Programming of Higher Education: The Effects of a Peer-Evaluation-Based Reflection Strategy. Behavioral Sciences, 12(10), 403.
5. Hadi, H., Messer, S., Brown, D., Parry-Hill, J., & Smogorzewski, J. (2023). Automated Grading and Feedback Tools for Programming Education: A Systematic Review. arXiv preprint arXiv:2306.11722.
6. Lin, Y. L. (2012). Assessment of programming language learning based on peer code review model: Implementation and experience report. Computers & Education, 59(2), 412-422.
7. PRISMA Group. (2020). *Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses (PRISMA) Statement*. PLoS Medicine, 6(7), e1000097.
8. HackerRank Documentation. (2024). *Automated Coding Assessment System User Guide*. Retrieved from: https://www.hackerrank.com/
9. Moodle VPL Plugin. (2023). *Virtual Programming Lab Documentation*. Retrieved from: https://vpl.dis.ulpgc.es/

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sultanov Ravshonbek Otonazarovich,** Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi, [**Султанов Равшонбек Отаназарович**, старший преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета], [**Ravshonbek Otonazarovich Sultanov,** Senior Lecturer, Chirchik State Pedagogical University]; manzil: O'zbekiston, Toshkent viloyati, Chirchiq sh. [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, Ташкентская область], [address: Uzbekistan, Chirchik city, Tashkent region], E-mail: r.sultanov@cspu.uz, tel.: +99891-779-77-26.

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA REFLEKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

© Z.Q. Abdullayeva[1]✉
[1]Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar (interfaol metodlar, loyiha asosida ta’lim, AKT, “teskari sinf”) yordamida talabalarda reflektiv tafakkurni shakllantirish zarurati va dolzarbligi asoslanadi. Refleksiya talabaning o‘z o‘rganish faoliyatini anglash, baholash va boshqarishida tayanch mexanizm sifatida ko‘riladi.

MAQSAD: talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslarini tizimlashtirish hamda zamonaviy texnologiyalarning ushbu jarayondagi samaradorlik shartlari va mexanizmlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: DEWEY, Kolb, Schön, Vygotskiy va boshqalarning nazariy qarashlari asosida adabiyotlar sharhi, konseptual tahlil va pedagogik dizayn yondashuvi; portfel, reflektiv kundalik, o‘zaro baholash kabi amaliy vositalar modeli tavsiflandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: refleksiyani faollashtiruvchi asosiy omillar sifatida talaba-markazli muhit, reflektiv madaniyat, guruhli muhokama, o‘zini va o‘zaro baholash, hamda AKT asosidagi kuzatuv vositalari (e-portfolio, LMS) belgilandi. Interfaol va loyiha metodlari metakognitiv faoliyatni kuchaytirib, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalarini yuksaltirishi ko‘rsatildi.

XULOSA: zamonaviy pedagogik texnologiyalar reflektiv tafakkurni rivojlantirish uchun samarali didaktik platforma yaratadi; ularni tizimli qo‘llash talabaning mustaqil o‘qishi, o‘zini baholashi va kasbiy yetukligini oshiradi. Amaliyotga yo‘naltirilgan reflektiv topshiriqlar va raqamli kuzatuv vositalarini integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: reflektiv tafakkur; zamonaviy pedagogik texnologiyalar; interfaol metod; metakognitiv faoliyat; loyiha asosida ta’lim; teskari sinf; AKT; o‘zini baholash.

Iqtibos uchun: Abdullayeva.Z.Q. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3. №10(1). B.42–48.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

© З.К. Абдуллаева[1]✉
[1]Ферганский политехнический институт, Фергана, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: обоснована актуальность формирования рефлексивного мышления студентов средствами современных педагогических технологий (интерактивные методы, проектное обучение, ИКТ, «перевёрнутый класс»). Рефлексия рассматривается как ключевой механизм осознанного управления собственным учением.

ЦЕЛЬ: систематизировать педагогические основы развития рефлексивного мышления у студентов и определить условия и механизмы эффективности современных технологий в данном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: обзор литературы (Дьюи, Колб, Шён, Выготский и др.), концептуальный анализ и подход педагогического дизайна; описаны модели e-portfolio, рефлексивного дневника, взаимного и самооценивания.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выделены факторы активизации рефлексии: студентоцентрированная среда, культура рефлексивного анализа, групповая рефлексия, само- и взаимооценка, а также цифровые инструменты мониторинга (LMS, электронный портфель). Показано, что интерактивные и проектные методы усиливают метакогнитивную деятельность, критическое мышление и саморегуляцию.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: современные педагогические технологии создают действенную дидактическую платформу для развития рефлексии; их системное применение укрепляет самостоятельное обучение, самооценку и профессиональное становление студентов. Рекомендуется интеграция практико-ориентированных рефлексивных заданий и цифровых средств мониторинга.

Ключевые слова: рефлексивное мышление; современные педагогические технологии; интерактивные методы; метакогнитивная деятельность; проектное обучение; перевёрнутый класс; ИКТ; самооценка.

Для цитирования: Абдуллаева.З.К. Педагогические основы формирования рефлексивного мышления у студентов посредством современных педагогических технологий.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №10(1). С.42–48.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING STUDENTS' REFLECTIVE THINKING THROUGH MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

©Ziroatxon Q. Abdullayeva[1]✉
[1]Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper substantiates the need to foster students' reflective thinking through modern pedagogical technologies (interactive methods, project-based learning, ICT, and the flipped classroom). Reflection is framed as a core mechanism for conscious regulation of learning.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: to systematize the pedagogical foundations for developing reflective thinking and to identify the conditions and mechanisms by which modern technologies enhance this process.

MATERIALS AND METHODS: literature review (Dewey, Kolb, Schön, Vygotsky, etc.), conceptual analysis, and instructional design approach; models of e-portfolios, reflective journals, and self/peer assessment are outlined.

DISCUSSION AND RESULTS: Key enablers include learner-centered environments, a culture of reflection, group reflection, self- and peer-assessment, and digital monitoring tools (LMS, e-portfolio). Interactive and project-based methods intensify metacognitive activity, critical thinking, and self-regulation.

CONCLUSION: modern pedagogical technologies provide an effective didactic platform for cultivating reflection; their systematic use strengthens independent learning, self-evaluation, and students' professional growth. Practice-oriented reflective tasks and digital tracking tools should be integrated.

Keywords: reflective thinking; modern pedagogical technologies; interactive methods; metacognitive activity; project-based learning; flipped classroom; ICT; self-assessment.

For citation: Ziroatxon.Q. Abdullayeva. (2025) 'Pedagogical foundations of developing students' reflective thinking through modern pedagogical technologies', Inter education & global study, vol.3. (10(1)), pp.42–48. (In Uzbek).

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirish va jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa — mustaqil fikrlovchi, yangilikka intiluvchi, o'z faoliyatini tahlil qila oladigan va uni doimiy takomillashtirishga qodir kompetent mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Shaxs tafakkurining rivojlanishida refleksiya alohida o'rin tutadi. Reflektiv tafakkur — bu shaxsning o'z fikr va harakatlarini tahlil etish, ularni baholash hamda zaruratga qarab takomillashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Bu jarayon talabaning faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi, o'z o'rganish faoliyatini boshqaruvchi subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonida reflektiv tafakkurni shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Chunki bunday texnologiyalar ta'limni talaba markazida tashkil etadi, ularni mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashuvga va o'z tajribasini baholashga undaydi. Shu jihatdan, pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash talabalarda reflektiv fikrlashni rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

"Refleksiya" atamasi lotincha reflectere so'zidan olingan bo'lib, "o'ylab ko'rmoq", "orqaga qaytmoq" ma'nosini bildiradi. Falsafiy jihatdan u inson tafakkurining o'z-o'ziga yo'nalgan shakli sifatida, psixologiyada esa — shaxsning o'z fikr va faoliyatini tahlil qilish, ularni baholash va ongli boshqarish jarayoni sifatida talqin etiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

J. Dewey (1933) reflektiv fikrlashni “inson tafakkurining ongli va maqsadli nazorati” sifatida izohlaydi. Uning fikricha, haqiqiy o‘rganish insonning o‘z tajribasini anglab, undan xulosa chiqara olish qobiliyatiga asoslanadi. D. Kolb (1984) o‘zining tajribaviy o‘qitish modelida refleksiya o‘rganish jarayonining markazida turishini ta’kidlaydi — ya’ni inson o‘z tajribasini tahlil qilgan sari bilimni chuqurroq anglaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan reflektiv tafakkur o‘qitishning sifatini oshiruvchi va o‘quv faoliyatini anglashga yo‘naltiruvchi metakognitiv jarayon hisoblanadi. Bu jarayon talabaning o‘rganish strategiyalarini tahlil qilish, o‘z bilimini baholash va yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yordam beradi.

Reflektiv tafakkur rivojlangan shaxs o‘z faoliyatining natijalarini baholay oladi, xatolarini anglaydi va ularni tuzatishning konstruktiv yo‘llarini izlaydi. Shu bois refleksiya ta’limda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va o‘z-o‘zini rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

Reflektiv tafakkur va uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish masalasi so‘nggi o‘n yilliklarda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng ilmiy tahlil etilayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiya ta’limning psixologik, didaktik va metodik jihatlarida chuqur o‘rganilgan bo‘lib, u shaxsning o‘rganish faoliyatiga ongli yondashuvini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dewey (1933) refleksiyani inson tafakkurining ongli nazorat va o‘z-o‘zini boshqarish bosqichi sifatida talqin etadi. U o‘zining “How We Think” nomli asarida refleksiyani o‘rganish jarayonining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlaydi. Deweyning ta’kidlashicha, haqiqiy ta’lim insonning o‘z tajribasini tahlil qilib, u orqali yangi bilimlarni yaratish qobiliyatiga asoslanadi. Shu bois reflektiv tafakkur shaxsning o‘z bilish faoliyatini baholash, mas’uliyat bilan boshqarish va o‘qish jarayonini ongli tashkil etish qobiliyatidir.

D. Kolb (1984) o‘zining “Tajriba asosida o‘rganish” modelida reflektiv tafakkurni o‘rganish tsiklining markaziy komponenti sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, bilim bevosita tajriba natijasida emas, balki ushbu tajribani refleksiya orqali qayta anglash jarayonida hosil bo‘ladi. Kolb o‘rganishni to‘rtta bosqichda — tajriba orttirish, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo‘llash — tarzida izohlaydi hamda aynan tahlil bosqichida reflektiv fikrlash faollashishini ta’kidlaydi.

D. Schön (1983) o‘zining “The Reflective Practitioner” asarida reflektiv tafakkurni o‘qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishida asosiy omil sifatida ko‘radi. U “refleksiya faoliyat davomida” (reflection-in-action) va “refleksiya faoliyatdan so‘ng” (reflection-on-action) tushunchalarini ilgari surib, o‘qituvchining o‘z amaliyotini tahlil etish orqali professional o‘sishga erishishini asoslab beradi. Schönning fikricha, refleksiya pedagogni o‘z faoliyatiga tanqidiy qarash, o‘quvchilarning ehtiyojiga mos yondashuvni ishlab chiqish va o‘z o‘qitish uslubini takomillashtirishga undaydi.

Rus psixologi L. S. Vygotskiy (1978) refleksiyani inson tafakkurining ijtimoiy va individual rivojlanish omili sifatida izohlaydi. U “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi orqali bilim olish jarayonini ijtimoiy muloqot va ichki tafakkur faoliyati bilan bog‘laydi. Vygotskiy fikricha, refleksiya inson tafakkurida ichki dialogni faollashtiradi, bu esa yangi bilimlarning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

chuqurroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

F. Klafki (2001) o‘zining didaktik tahlil konsepsiyasida refleksiyani ta’lim jarayonining markaziy elementi sifatida qaraydi. Uning fikricha, o‘qituvchi bilimni shunchaki uzatmasligi, balki o‘quvchida o‘rganilgan ma’lumotning shaxsiy ma’nosini shakllantirishi zarur. Bu jarayon reflektiv fikrlash orqali amalga oshadi, chunki u o‘quvchining o‘z tajribasini tahlil qilib, o‘zining bilish faoliyatini boshqarishiga yordam beradi.

D. Boud (1995) o‘rganish jarayonini “tajribani ongli qayta ishlash” deb izohlaydi. U refleksiyani shaxsning o‘rganilgan bilimni tahlil etish, his-tuyg‘ularni baholash va yangi o‘rganish yo‘nalishlarini belgilashdagi asosiy mexanizm sifatida ko‘radi. Boudning fikricha, reflektiv tafakkur nafaqat o‘qish samaradorligini oshiradi, balki shaxsiy o‘sish va o‘zini rivojlantirishning poydevorini ham yaratadi.

A. Anderson (2019) esa zamonaviy raqamli texnologiyalar reflektiv tafakkurga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlarida onlayn platformalar, elektron portfoliolar va raqamli reflektiv kundaliklar talabalarda o‘z o‘rganish faoliyatini baholash, kuzatish va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiruvchi samarali vositalar sifatida baholanadi.

J. Moon (2004) reflektiv tafakkurni “bilimni qayta ishlash orqali yangi ma’no yaratish” deb izohlaydi. Uning fikricha, o‘quvchi o‘z tajribasini chuqur tahlil qilish orqali bilimni shaxsiy tajribasi bilan bog‘laydi va shu tarzda yangi kognitiv darajaga ko‘tariladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan G. Mamedova (2021) zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida o‘rganib, interfaol metodlarning reflektiv fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritgan. Unga ko‘ra, pedagogik texnologiyalar o‘quvchi faoliyatini faollashtiradi, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi va o‘z-o‘zini tahlil qilish imkonini kengaytiradi.

D. Shirinova (2022) o‘z tadqiqotlarida reflektiv tafakkur va tanqidiy fikrlashning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilib, refleksiyani nafaqat o‘qish natijalarini baholash, balki shaxsiy o‘sish va kasbiy rivojlanishning psixologik mexanizmi sifatida talqin etadi.

N. Kadirova (2020) esa reflektiv tafakkurni rivojlantirishda interfaol metodlar bilan bir qatorda, muammoli o‘qitish, loyiha yondashuvi va keys-stadi metodlarining samaradorligini asoslaydi. Unga ko‘ra, ushbu texnologiyalar talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy fikrlash va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

L. Florian (2014) esa reflektiv yondashuvni inklyuziv pedagogikaning ajralmas elementi sifatida ko‘rsatadi. U refleksiyani o‘qituvchining har bir talaba ehtiyojiga mos metod tanlash, o‘quv muhitini individualizatsiya qilish va ta’lim jarayonini doimiy takomillashtirish vositasi deb hisoblaydi.

Umuman olganda, Dewey, Kolb, Schön, Vygotskiy, Klafki, Boud, Anderson, Moon, Florian hamda mahalliy olimlar — Mamedova, Shirinova va Kadirovalarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, reflektiv tafakkur ta’lim jarayonining sifatini oshirish, talabaning bilish faoliyatini chuqurlashtirish va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa bu jarayonni faollashtiruvchi,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talabaning o‘z o‘rganish jarayonida subyekt sifatida shakllanishiga imkon beruvchi samarali vositalar majmuasidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvni olib kirib, talabalarning tafakkurini faollashtiruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ular o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida subyekt-subyekt munosabatini qaror toptiradi, bilimni biryoqlama uzatish emas, balki uni hamkorlikda yaratish jarayoniga aylantiradi.

Interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Debat”, “Sinkveyn”, “Klaster” kabi usullar o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etadi, ularni o‘z fikrini asoslash, dalillash va tahlil qilishga o‘rgatadi. Bu metodlar talabalarning o‘z bilimini amaliyotda qo‘llash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Loyiha asosida o‘qitish reflektiv tafakkurni rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Talaba loyiha ustida ishlash jarayonida o‘z faoliyatini rejalashtiradi, natijalarni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Natijada, o‘quvchi o‘z bilimini real vaziyatlarda sinovdan o‘tkazadi, bu esa refleksiyani tabiiy ravishda kuchaytiradi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) ham reflektiv o‘qitishning muhim komponentlaridan biridir. Elektron portfoliolar, onlayn ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom), reflektiv kundaliklar va elektron testlar talabalarga o‘z o‘rganish natijalarini kuzatish, baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘z-o‘zini tahlil qilish va metakognitiv fikrlashni rivojlantiradi.

“Teskari sinf” (Flipped Classroom) modeli ham reflektiv tafakkurni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuvda talaba darsga tayyorgarlikni mustaqil amalga oshiradi, dars jarayonida esa tahliliy muhokama, tajriba almashish va o‘z fikrini himoya qilish orqali bilimni chuqurlashtiradi.

D. Schön (1983) o‘qituvchini “reflektiv amaliyotchi” sifatida ta’riflab, u o‘z faoliyati jarayonida ham, undan so‘ng ham doimiy tahlil olib borishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv o‘qituvchi va talaba faoliyatida refleksiyani pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylantiradi.

Reflektiv tafakkurni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlar zarur. Ular quyidagilardan iborat:

1. Faol o‘quv muhiti — talaba o‘quv jarayonining markazida turadi, u o‘z fikrini erkin ifoda etish, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2. Reflektiv tahlil madaniyatini shakllantirish — o‘qituvchi talabalarga o‘z o‘rganish faoliyatini baholash va natijalari ustida tahlil yuritish imkonini beradi.

3. Guruhli refleksiya — mashg‘ulotlar yakunida talabalar o‘z o‘rganish natijalarini muhokama qiladi, “Nimani o‘rgandim?”, “Qanday natijaga erishdim?” kabi savollar orqali xulosa chiqaradi.

4. O‘zini va o‘zaro baholash tizimi — o‘qitish jarayonida o‘zini baholash, o‘zaro tahlil qilish, fikr almashish imkoniyatlarini joriy etish zarur.

5. O‘qituvchi shaxsining reflektiv modeli — pedagog o‘z darslarini tahlil qiladi, yangi metodlarni sinovdan o‘tkazadi va o‘quvchilarning o‘rganish jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bu shart-sharoitlar ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratadi, o‘quvchilarning mustaqil tafakkurini qo‘llab-quvvatlaydi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga zamin hozirlaydi.

Reflektiv tafakkur shaxsning o‘z fikr va faoliyatini ongli tahlil qilish, natijalarini baholash hamda takomillashtirish jarayonidir. U ta’lim jarayonida nafaqat bilim olish, balki o‘z bilimini boshqarish, o‘rganish usullarini tahlil qilish va o‘z faoliyatini anglashga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar — interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va teskari sinf modeli — reflektiv tafakkurni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu yondashuvlar talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, o‘z-o‘zini tahlil qilish, shuningdek, o‘z faoliyatini ongli boshqarish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Natijada, o‘quvchi o‘z o‘rganish jarayonini mustaqil boshqaruvchi, yangilik yaratuvchi va jamiyat talablariga mos yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Dewey, J. (1933). How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. — Boston: D.C. Heath and Company, 301 p.
2. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 256 p.
3. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 374 p.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 159 p.
5. Klafki, F. (2001). Didaktik Analysis as the Core of Instruction Preparation. — Journal of Curriculum Studies, Vol. 33, No. 6, pp. 701–710.
6. Boud, D., Keogh, R., & Walker, D. (1995). Reflection: Turning Experience into Learning. — London: Kogan Page, 210 p.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna**, mustaqil tadqiqotchi [**Абдуллаева Зироатхон Курбоновна**, независимый исследователь], [**Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna,** independent researcher]; manzil: Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: город Фергана, улица Мураббийлар, 19], [address: The city of Fergana, Murabbiylar street, 19.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

© M.A. G'ofurova[1]✉, M.Sh. Abdusalomova[2]✉
[1,2]Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlashning o'rni va ahamiyatini yoritadi. Vizual vositalar orqali mantiqiy fikrlash, tahlil va talqin qilish ko'nikmalarini erta bosqichda shakllantirish zarurligi asoslanadi.

MAQSAD: Vizual ma'lumotlar (jadval, diagramma, grafik) asosida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali metodlarini tizimlashtirish hamda ularni boshlang'ich sinf sharoitida qo'llash yo'llarini ko'rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: pedagogik va psixologik manbalar sharhi, darslik materiallari tahlili; kuzatish, ko'rgazmali va amaliy metodlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish; kichik loyiha-topshiriqlar orqali ma'lumot to'plash va vizualizatsiya qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: jadval bilan ishlash o'quvchilarda ma'lumotni tuzish va taqqoslashni, diagrammalar tendensiyalarni ko'rishni, grafiklar esa bog'lanishlarni modellashtirishni osonlashtirdi. Metodik qiyinchiliklar (ustun/satr tanlovi, ma'lumotni joylashtirish, talqin qilish) bosqichma-bosqich ko'rsatmalar, namunaviy vazifalar va raqamli vositalar bilan kamaytirildi; natijada analitik fikrlash, xulosa chiqarish va axborot bilan ishlash ko'nikmalari yaxshilandi.

XULOSA: interfaol va vizual yondashuvlarni integratsiyalash kognitiv kompetensiyalarni barqaror rivojlantiradi, o'quvchini faol subyektga aylantiradi va fanlararo integratsiyani kuchaytiradi. O'qituvchi uchun muntazam vizual topshiriqlar hamda IT vositalari bilan qo'llab-quvvatlangan mashg'ulotlar eng samarali yechim sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: jadval; diagramma; grafik; kognitiv kompetensiya; mantiqiy fikrlash; ko'rgazmalilik; amaliy topshiriq; axborot savodxonligi.

Iqtibos uchun: G'ofurova M.A, M.Sh. Abdusalomova. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №10(1). B.49–56.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

© М.А. Гофурова[1]✉, М.Ш. Абдусаломова[2]✉
[1,2]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья раскрывает значение работы с таблицами, диаграммами и графиками для развития когнитивных компетенций младших школьников на уроках математики. Обосновывается необходимость раннего формирования логического мышления, анализа и интерпретации данных средствами визуализации.

ЦЕЛЬ: систематизировать эффективные методы развития когнитивных компетенций на основе визуальных данных и показать пути их применения в начальной школе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: обзор педагогической и психологической литературы, анализ учебников; наблюдение, наглядные и практико-ориентированные методы, использование ИКТ; мини-проекты по сбору и визуализации данных.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: таблицы формируют умения структурировать и сравнивать информацию, диаграммы — видеть тенденции, графики — моделировать зависимости. Методические трудности (выбор столбцов/строк, размещение и трактовка данных) снижены за счёт пошаговых инструкций, образцов заданий и цифровых средств; улучшены аналитическое мышление, выводы и работа с информацией.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция интерактивных и визуальных подходов устойчиво развивает когнитивные компетенции, делает ученика активным субъектом и усиливает межпредметные связи. Регулярные визуальные задания и поддержка ИКТ рекомендуются как наиболее результативное решение.

Ключевые слова: таблица; диаграмма; график; когнитивная компетентность; логическое мышление; наглядность; практические задания; информационная грамотность.

Для цитирования: Гофурова.М.А., Абдусаломова М.Ш. Эффективные методы развития познавательных компетенций учащихся на уроках математики в начальной школе.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №10(1). С.49–56.

EFFECTIVE METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCIES IN ELEMENTARY SCHOOL MATH LESSONS

© Mahfuza A. G'ofurova[1]✉, Mohidil Sh. Abdusalomova[2]✉
[1,2] Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article highlights the role of working with tables, charts, and graphs in developing primary students' cognitive competencies in mathematics. It argues for early formation of logical reasoning, analysis, and data interpretation through visual representations.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: to systematize effective methods for enhancing cognitive competencies via visual data and to outline feasible classroom applications in the primary grades.

MATERIALS AND METHODS: review of pedagogical/psychological sources and textbook content; observation, visual and hands-on methods, ICT integration; mini-projects for data collection and visualization.

DISCUSSION AND RESULTS: tables support structuring and comparing information; charts reveal trends; graphs help model relationships. Step-by-step scaffolds, exemplar tasks, and digital tools reduced typical difficulties (column/row choice, data placement, interpretation), leading to improved analytical thinking, inference, and information handling skills.

CONCLUSION: integrating interactive and visual approaches reliably strengthens cognitive competencies, positions learners as active agents, and deepens cross-curricular links. Regular visual tasks supported by ICT are recommended as the most effective pathway.

Keywords: table; chart; graph; cognitive competence; logical reasoning; visualization; hands-on tasks; information literacy.

For citation: Mahfuza A. G'ofurova. Mohidil Sh. Abdusalomova (2025) 'Effective methods of developing students' cognitive competencies in elementary school math lessons', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.49–56. (In Uzbek).

Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofda kechayotgan voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda hamda ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Uning har bir tarmog'i borki, qiziqtirmasdan qo'ymaydi. Jadval, diagramma va grafikli topshiriqlar bilan ishlash aynan boshlangich sinf oq'uvchilari uchun qiziqarli hamda mantiqiy, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mavzulardan hisoblanadi. Shu bois ularning o'qitish metodikasiga alohida e'tibor qaratmoq darkor. Zero, bugungi boshlang'ich sinf matematika darsliklari orqali berilayotgan jadval, diagramma hamda grafiklar avvalgilaridan farq qilib o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Boshlang'ich ta'limda jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham aynan bu yo'nalishning o'quvchilarning fikrlash va tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

OECD (2022) tomonidan o'tkazilgan PISA tadqiqotida o'quvchilarning diagramma, grafik va jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati "funksional savodxonlik"ning muhim ko'rsatkichi sifatida belgilangan.

Pedagogik adabiyotlarda jadval, diagramma va grafiklardan foydalanish ko'rgazmalilik tamoyilining amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Xususan, bu borada K. D. Ushinskiy (1868) "Inson tarbiyasining asoslari" asarida "bola ko'rganini tezroq o'rganadi" deb ta'kidlaydi. Bu g'oya keyinchalik zamonaviy ko'rgazmali ta'lim

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

konsepsiyalarining asosiga aylanganini alohida e'tirof etish zarur.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 7–10 yoshdagi bolalarda ko'rish orqali idrok qilish eshitish orqali idrok qilishdan ancha ustun. Bu yoshda bola obrazli fikrlashdan mantiqiy fikrlashga o'tish bosqichida bo'ladi. Shu sababli jadval va grafiklar bu o'tish jarayonini yengillashtiruvchi vosita hisoblanadi.

"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" (TDPU, 2021[1]) darslikda o'quvchilarga har chorakda kamida bir marotaba statistik ma'lumot asosida diagramma tuzish topshirig'i berilishi kerakligi aytilgan. O'qituvchi uchun esa bu vositalar darsni ko'rgazmali, tahliliy va qiziqarli o'tkazish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

O'z navbatida boshlang'ich sinflarda jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlash o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tarzda tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi quyidagi metod va usullardan foydalanib tushuntirishi samarali hisoblanadi:

1. Kuzatish metodi – o'quvchilarga tayyor jadval yoki diagrammani berib, ular asosida savol-javob o'tkazish.

2. Amaliy metod – o'quvchilar o'zlari ma'lumot to'plashadi (masalan, sinfdoshlarning sevimli mevalari) va natijani jadval yoki diagramma shaklida ko'rsatadilar.

3. Ko'rgazmali metod – rangli grafik va diagrammalardan foydalanib, ma'lumotlarni oson anglashga yordam berish.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – kompyuter yoki interfaol doska yordamida elektron diagramma va grafiklar tuzish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jadval va grafiklar bilan ishlashning ushbu usul va metodlarini qo'llash orqali biz boshlang'ich sinflarda quyidagi bilim, ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi:

1.o'quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

2.matematik savodxonlikni oshiradi;

3.ma'lumotni taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi;

4.o'qishga qiziqish va ijodkorlikni kuchaytiradi.

1.Jadvallar boshlang'ich sinflarda eng keng tarqalgan topshiriq turlaridan biri hisoblanadi. Jadval usulidan foydalanish uchun, avvalo, o'quvchi jadvalni o'qiy olishi kerak. Jadval bilan ishlash 2-sinf matematika darslaridan boshlab o'rgatiladi. Darslikda jadvalda berilganlarni o'qish va jadvalni to'ldirish haqida ko'pgina misollar berilgan. Lekin o'quvchilar uchun bu usulda masala yechish ancha qiyinchilik tug'diradi. Chunki, boshlang'ich sinflarda masala yechish deyarli masaladagi berilganlarni qisqa yozuv orqali yozish bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham jadval usuli ularga qiyindek tuyulishi mumkin, aynan shuning uchun ham ushbu usulning ijobiy tomonlari va qulayliklarini o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, bugungi kun o'quvchilarda jadval usulida masala yechishda kuzatiladigan quyidagicha kamchiliklar mavjud:

[1] D.A.Muhamedova D.Shodmoqulova "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" (TDPU, 2021[1])

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

– masala shartiga ko'ra jadvalda nechta satr yoki nechta ustun tanlashni bilishmaydi;

– jadvalga berilganlarni qanday tartibda joylashtirishni anglashmaydi;


– masalada berilgan ma'lumotlarning ma'nosini tushunishmaydi;

– merilgan ma'lumotlarni bir-biridan ajrata olishmaydi;

– jadvalga hamma ma'lumotlarni joylashtira olishmaydi.


Bundan ko'rinib turibdiki, jadval usulidan foydalanish haqida ularda yetarli ma'lumot yetishmaydi, bu esa o'z-o'zidan ba'zi topshiriqlarga ham murakkab usullarda yondashishni talab etadi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida buni bartaraf etish uchun o'quvchilarga ushbu usul haqidagi ma'lumot va manbalarni tushunarli va qiziqarli usullarda bera olsak, bizda ko'zlagan maqsadga erishish osonlashadi.

Bilamizki, boshlang'ich sinflarda topshiriqlar osondan murakkabga tamoyili asosida beriladi. Dastlab, jadvallar va uning mohiyatini o'quvchilar misollar orqali anglagan bo'lsa-lar, endi 4-sinf I qismga kelib jadvallar asosida masalalar tuzish va uni yechishga e'tibor qaratiladi. 12-topshiriq aynan o'quvchilarni jadvaldan foydalanib mustaqil fikrlashga undaydi. O'quvchilar jadvaldan foydalanib dastlab avtobusning I qavatida qancha sayyoh borligini so'ng keying qavatda qancha sayyoh ekanligini hisoblashlari lozim. Bunda alohida berilgan shart tuzish shart bo'lmay, to'g'ridan-to'g'ri jadvalga hisoblanib, yechish osonlashadi, oxirida natijalar jamlanmasi hisoblab qo'shib qo'yiladi.



12. Yaponiya va Xitoydan kelgan sayyohlar ikki qavatli sayyohlik avtobusida sayohat qilishadi. Jadvaldan foydalaning va avtobusda qancha sayyoh borligini aniqlang.

	I qavat	II qavat
Yaponlar	8 nafar ←	?, 8 nafar ko'p →
Xitoyliklar	?, 5 marta ko'p →	17 nafar ←



12. Yaponiya va Xitoydan kelgan sayyohlar ikki qavatli sayyohlik avtobusida sayohat qilishadi. Jadvaldan foydalaning va avtobusda qancha sayyoh borligini aniqlang.

	I qavat	II qavat
Yaponlar	8 nafar ←	?, 8 nafar ko' 25 nafar
Xitoyliklar	?, 5 marta 40 nafar →	17 nafar ←

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. Diagramma- jadval ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni grafik ko'rinishda tasvirlash usuli bo'lib, unda tasvirlangan ma'lumot tushunishga oson bo'libgina qolmay, balki ishni ham tezlashtiradi. Xususan, ko'p sonlar va bu sonlar orasidagi bog'liqlikni tasvirlashda diagrammaning roli juda muhimdir. Jarayonning strukturasi va undagi o'zgarishlarni diagramma yordamida aniqlash mumkin. Masalan quyidagi 3-sinf matematika I qism darslikdagi 7-topshiriqdagi diagrammaga e'tiborni qaratsak: unda O'zbekiston tabiati qanday zonalardan tashkil topganligi so'ralgan bo'lib, bu diagrammada sariq rang qismi orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda:

Cho'l va dashtlar—eng kata


Suv havzalari esa eng kichik qismni tashkil etishi namoyon bo'lmoqda.



Umuman olganda, diagrammalar bilan ishlash qiziqarli jarayon bo'lib, o'quvchilarni mustaqil va erkin yondashishga undaydi.

3. Grafiklar bilan ishlash ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega topshiriqlardan biri hisoblanadi. Qolaversa, chizma va grafiklar bilan ishlash jarayonlari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziq va maroqli jarayonlardandir. Masalan, quyida berilgan grafikli topshiriq 3-sinf matematikasida keltirilgan bo'lib, tenglamalarni tuzish va uni yechish, tekshirish kabi matematik jarayonlar bilan bog'liq. Chizma asosida berilganligi uchun o'quvchilar buni tuzib ishlashga qiynalishmaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



Jadval, diagramma va grafiklardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtiradi, ularni mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, bu mavzu boshqa fanlar bilan integratsiya qilish imkonini ham beradi (masalan, tabiatshunoslik, texnologiya).

O‘qituvchi dars davomida bolalarni ma’lumot to‘plash, uni tahlil qilish va vizual shaklda ifodalashga yo‘naltirsa, bu nafaqat matematik, balki axborot madaniyatini ham rivojlantiradi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlash – bu nafaqat matematika darsining bir qismi, balki bolalarni hayotiy ma’lumotlar bilan ishlashga tayyorlovchi muhim bosqichdir. O‘qituvchilar interfaol metodlardan foydalanib, har bir o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etishlari zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Turon-Iqbol” 2016 yil. 426 b.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlangi’ch sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiya” 2005 yil.
3. Jumayev M.E, Boshlangi’ch sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (O O‘Y uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent. “O‘qituvchi” 2004 yil.
4. Tadjiyeva Z.G`., Abdullayeva B.S., Jumayev M.E., Sidelnikova R.I., Sadikova A.V. Методика преподавания математики.–T.:Turon-Iqbol,2011. 336 s.
5. A.Asimov “O’quvchilarni masala tuzishga o’rgatishda inovatsion g’oyalardan foydalanish”, FaDU xabarlari, 2018-yil 6-son.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. G. Samatova. Maktablarda matematika fanini o'qitishning dolzarb masalalari/ SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 323-24 betlar.
7. Karimova K.R, Yarmetova M.R.. va b. O'QUVCHILARNI DIAGRAMMALAR BILAN ISHLASHGA O'RGATISH. ПСИХОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. 2023-yil 9-mart
8. Mamatov Dilshod "TALABALARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH" Том 2 № 1 (2024): FAN JURNALI TA'LIM VA MADANIYAT
9. Repyova I.V. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, I,II, III, IV qismlar. - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 100 b.
10. Repyova I.V. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik, I,II, III, IV qismlar. - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.
11. Repyova I.V. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I,II, III, IV qismlar. - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.
12. Repyova I.V. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I,II, III, IV qismlar. - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **G'ofurova Mahfuza Abbosovna**, o'qituvchi [**Гофурова Махфуза Аббосовна**,преподаватель], [**G'ofurova Mahfuza Abbosovna** teacher]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19], [address: Murabiylar str., 19, Ferghana, 150100.]

✉ **Abdusalomova Mohidil Sherali qizi**, magistr [**Абдусаломова Мохидил Шерали кизи**,мигистр], [**Abdusalomova Mohidil Sherali qizi** master's student]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19], [address: Murabiylar str., 19, Fergana, 150100.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA SUN'IY INTELLEKT ORQALI TALABALARGA INGLIZ TILIDA GAPIRISHNI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

© M.X. Abdusamadova [1]✉

[1]Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (AI) ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, tezkor tahlil va adaptiv mashqlar orqali ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish imkonini beradi. An’anaviy usullar (munozara, rolli o‘yinlar) individual ehtiyojlarni to‘liq qoplay olmaydi. AI asosidagi platformalar talaffuz, grammatika va lug‘atni real vaqt rejimida tahlil qilib, xatolarni darhol tuzatishga yordam beradi.

MAQSAD:AI texnologiyalari yordamida talabalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini samarali shakllantirish metodikasini takomillashtirish va shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitini yaratish.

MATERIALLAR VA METODLAR: 1–2-kurs talabalari ikki guruhga ajratildi: an’anaviy o‘qitish va AI-platformasi bilan qo‘shimcha mashg‘ulotlar. Sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash amalga oshirildi: talaffuz aniqligi, grammatik to‘g‘rilik, o‘ziga ishonch. Ma’lumotlar nutqni tanish va tahlil modullari hamda so‘rovnomalar orqali yig‘ildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: AI guruhida talaffuz aniqligi 25% ga, grammatik to‘g‘rilik 20% ga oshdi; 85% talaba ishonchi ortganini bildirdi. AI tezkor fikr-mulohaza va individual topshiriqlar orqali faol muloqotni rag‘batlantirdi. Shu bilan birga, AI o‘qituvchini to‘liq almashtirmaydi; eng samarali yechim — gibrid yondashuv.

XULOSA: AI vositalari og‘zaki nutqni o‘rgatishni samaraliroq, moslashtirilgan va motivatsion qiladi. Ularni tizimli joriy etish xorijiy til ta’limining sifatini oshiradi va talabalarning global raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ingliz tili, gapirish ko‘nikmasi, raqamli texnologiyalar, metodika, og‘zaki nutq, neyron tarmoqlar.

Iqtibos uchun: Abdusamadova M.X. Raqamli texnologiyalar asrida sun'iy intellekt orqali talabalarga ingliz tilida gapirishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.57–62.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ГОВОРЕНИЮ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

© М.Х. Абдусамадова[1]✉

[1]Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: цифровые технологии и искусственный интеллект (ИИ) обеспечивают персонализацию обучения, быстрый анализ и адаптивные упражнения для развития устной речи на английском языке. Традиционные методы не всегда учитывают индивидуальные потребности. ИИ-платформы в реальном времени анализируют произношение, грамматику и лексику, предлагая точечную коррекцию.

ЦЕЛЬ: совершенствовать методику обучения навыкам говорения с применением ИИ, повышая эффективность и создавая персонализированную образовательную среду.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: студенты 1–2 курсов разделены на две группы: традиционное обучение и обучение с поддержкой ИИ. Оценка проводилась по показателям точности произношения, грамматической правильности и уверенности. Данные собраны с помощью модулей распознавания/анализа речи и анкетирования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в группе ИИ точность произношения выросла на 25%, грамматическая правильность — на 20%; 85% отметили рост уверенности. ИИ усилил активную коммуникацию за счёт мгновенной обратной связи и индивидуальных заданий. Оптимальной является гибридная модель, где ИИ дополняет преподавателя.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: технологии ИИ делают обучение устной речи более эффективным, индивидуализированным и мотивирующим. Их системное внедрение повышает качество преподавания иностранных языков и конкурентоспособность студентов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, английский язык, навыки разговорной речи, цифровые технологии, методика, образование, устная речь, нейронные сети.

Для цитирования: Абдусамадова М.Х. Совершенствование методики обучения студентов говорению на английском языке с помощью искусственного интеллекта в эпоху цифровых технологий.// Inter education & global study.2025. vol. №10(1). С.57–62.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH SPEAKING SKILLS TO STUDENTS THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE AGE OF DIGITAL TECHNOLOGY

©Marufa X. Abdusamadova[1]✉
[1] Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: digital technologies and artificial intelligence (AI) enable personalized learning, rapid feedback, and adaptive practice for developing English

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

speaking skills. Traditional methods often fail to address individual needs. AI platforms analyze pronunciation, grammar, and lexis in real time and provide targeted corrections.

AIM: to enhance the methodology of teaching English speaking skills through AI technologies by increasing effectiveness and fostering a personalized learning environment.

MATERIALS AND METHODS: first- and second-year students were split into two groups: traditional instruction and AI-supported practice. Outcomes were measured on pronunciation accuracy, grammatical correctness, and learner confidence. Data came from speech recognition/analysis modules and surveys.

DISCUSSION AND RESULTS: the AI group achieved a 25% gain in pronunciation accuracy and a 20% improvement in grammar; 85% reported higher confidence. AI boosted active communication via instant feedback and individualized tasks. A hybrid model, where AI complements the teacher, proved most effective.

CONCLUSION: AI tools make speaking instruction more efficient, individualized, and motivating. Systematic integration can raise the quality of foreign language education and strengthen students' global competitiveness.

Keywords: artificial intelligence, English language, speaking skills, digital technologies, methodology, education, oral communication, neural networks.

For citation: Marufa X. Abdusamadova. (2025) 'Improving the methodology of teaching english speaking skills to students through artificial intelligence in the age of digital technology', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.57–62. (In Uzbek).

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa vositasi, balki ta'lim, fan va biznes sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikma hisoblanadi. An'anaviy ta'lim metodikasida ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun asosan jonli suhbatlar, munozaralar va rolli o'yinlardan foydalaniladi. Biroq, bu usullar ba'zi cheklovlarga ega: guruhdagi har bir talabaga yetarli darajada e'tibor qaratish imkoniyatining cheklanganligi, xatolarni tezkor va aniq tahlil qilishning qiyinligi, hamda talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchsizligi natijasida gapirishdan tortinishi kabi muammolar mavjud. Raqamli texnologiyalar va ayniqsa sun'iy intellektning jadal rivojlanishi ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. AI nafaqat ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash, balki individual talabalarning ehtiyojlariga moslashgan holda o'quv jarayonini boshqarish imkoniyatini ham beradi [1]. Ushbu tadqiqot ishi orqali biz sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini o'rgatish metodikasini qanday takomillashtirish mumkinligini ko'rib chiqamiz. Maqsadimiz – AI vositalarini joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish va har bir talaba uchun shaxsiy, interaktiv va rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratishdan iborat [2].

Ingliz tilini o'qitish metodikasiga oid mavjud adabiyotlar an'anaviy yondashuvlar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hamda zamonaviy texnologiyalarning ta'sirini o'rganadi. H. D. Brown o'zining "Teaching by Principles" asarida til o'rgatishning asosiy tamoyillarini bayon etib, interaktivlikning muhimligini ta'kidlaydi [3]. T. Bates esa "Learning in the Age of Digital Technologies" kitobida raqamli asrda ta'limning o'zgarishini ko'rsatib, texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish muhimligini aytib o'tadi [4]. M. Chen va X. Liu "The Application of Artificial Intelligence in English Language Teaching" nomli tadqiqotlarida AIning til o'rgatishdagi roli, jumladan, nutqni tanish tizimlari va chat-botlardan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatib o'tishgan [5]. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodlar zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirilishi orqali yangi imkoniyatlar yaratiladi. Biroq, mavjud manbalarda AIning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy, bosqichma-bosqich metodologiyasi yetarlicha yoritilmagan. Shuning uchun ushbu maqolada aynan shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qilinadi.

Tadqiqotning metodologiyasi AI asosida ishlovchi o'quv platformalarini tahlil qilish va ularning talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga ta'sirini baholashga qaratilgan. Bunda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Maqsadli guruh sifatida oliy o'quv yurtlarining 1-2-kurs talabalari tanlab olindi. Ular ikki guruhga bo'lindi: birinchi guruh an'anaviy usullarda (darsliklar, o'qituvchi bilan jonli suhbatlar) o'qitildi, ikkinchi guruh esa AIga asoslangan o'quv platformasi (virtual suhbatdosh, nutqni tanish va tahlil qilish funksiyalari bilan) orqali qo'shimcha amaliyot o'tkazdi. Tadqiqot davomida quyidagi natijalar olingan:

• AI platformasidan foydalangan guruhning talaffuz aniqligi 25% ga yaxshilandi.

• Ushbu guruh talabalari grammatik xatolarni aniqlash va tuzatishda 20% yuqori natija ko'rsatdi.

• Sotsial so'rovnomalar natijasida AI platformasi bilan shug'ullangan talabalarning 85%i o'ziga bo'lgan ishonch oshganligini bildirdi va bu texnologiya til o'rganishni qiziqarliroq qilganini ta'kidladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

AI platformalari har bir talabaga individual yondashish, ularning xatolarini tezkorlik bilan tahlil qilish va shaxsiy ehtiyojlariga mos ravishda mashqlarni taklif qilish imkonini beradi. An'anaviy darslarda o'qituvchi barcha talabalarga bir vaqtning o'zida yordam bera olmaydi, bu esa AIning muhim afzalligi hisoblanadi. sun'iy intellekt ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda muhim va hal qiluvchi rol o'ynamoqda. An'anaviy ta'lim metodikasidan farqli o'laroq, AI platformalari har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi. Har bir o'quvchining nutqini sinxron tahlil qilib, uning talaffuzidagi, grammatikasidagi va leksikasidagi xatoliklarni tezkorlik bilan aniqlaydi va tuzatish bo'yicha shaxsiy tavsiyalar beradi. Bu jarayon an'anaviy darslarda imkonsiz bo'lgan darajada samarali va aniqdir, chunki o'qituvchi 20-30 kishilik guruhda har bir talabaga bir vaqtning o'zida bir xil e'tibor qarata olmaydi.

Tadqiqotimiz davomida virtual suhbatdoshlar va nutqni tanish tizimlaridan foydalangan guruhning sezilarli yutuqlarga erishgani kuzatildi. Ularning talaffuz aniqligi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

25% ga, grammatik xatolarini tuzatish ko'nikmasi esa 20% ga yaxshilanganligi aniqlandi. Bunday natijalar AI vositalarining nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy, ya'ni og'zaki nutq ko'nikmalarini ham mustahkamlashga qodirligini isbotlaydi.

Bundan tashqari, ijtimoiy so'rovnomalar natijasi AIning yana bir muhim afzalligini ko'rsatdi: talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchining oshishi. An'anaviy darslarda talabalar xato qilishdan qo'rqib, gapirishdan tortinishlari mumkin. AI esa bu to'siqni olib tashlaydi. Virtual suhbatdosh bilan xato qilishdan qo'rqmasdan, istalgancha mashq qilish imkoniyati motivatsiyani oshiradi va o'quv jarayonini yanada rag'batlantiruvchi va qiziqarli qiladi. AI platformalari talabalarga doimiy, sabrli va professional "murabbiy" bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'quvchining o'zini erkin his qilishiga yordam beradi.

AI o'qituvchilar uchun ham qimmatli ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Platformalar har bir talabaning o'zlashtirish darajasi, ko'p uchraydigan xatolari va qaysi mavzularda qiynalayotgani haqida to'liq tahliliy ma'lumotlarnitaqdim etadi. Bu ma'lumotlar asosida o'qituvchilar dars rejasini individual ehtiyojlarga moslab, o'quv jarayonini yanada samaraliroq rejalashtirishlari mumkin. AI o'qituvchining o'rnini to'liq bosmaydi, balki uning yordamchi vositasi bo'lib, uning ishini yengillashtiradi va ta'lim sifatini tubdan oshiradi. O'qituvchi AI tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida guruhdagi zaif nuqtalarga e'tibor qaratib, individual yordamga muhtoj talabalar bilan chuqurroq ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Albatta, AI texnologiyalarining o'z chegaralari ham mavjud. Ular insonga xos bo'lgan emosional aloqa, madaniy nuanceva spontan muloqot kabi jihatlarni to'liq o'rgata olmaydi. Shu sababli, AIga asoslangan metodika an'anaviy o'qitish usullarini butunlay almashtirish emas, balki ularni to'ldirish va mustahkamlash maqsadida joriy etilishi lozim. Kelajakda ta'limda eng yuqori samaraga erishish uchun AI va inson o'rtasidagi hamkorlikni, ya'ni gibrid yondashuvnirivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, AI o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonini o'lchash va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'qituvchilar uchun qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'qituvchilarga darslarni samaraliroq rejalashtirishga yordam beradi. Albatta, AI o'qituvchining o'rnini to'liq bosmaydi, balki uning yordamchi vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt talabalarga ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. AIga asoslangan interaktiv platformalar, nutqni tanish tizimlari va virtual suhbatdoshlar orqali o'quv jarayoni yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va motivatsion xarakterga ega bo'ladi. Tadqiqot natijalari AI vositalarining talaffuzni, grammatikani va nutqiy amaliyotni sezilarli darajada yaxshilashini isbotladi. Ushbu texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish orqali O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitish sifatini sezilarli darajada oshirish va yosh avlodning global axborot makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jorayev, A. A. (2021). Sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati. Pedagogika va psixologiya, 2(10), 12-16.
2. Qodirov, I. (2022). Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning til o'rgatishdagi samaradorligi. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, 1(4), 45-50.
3. Brown, H. D. (2015). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.
4. Bates, T. (2012). Learning in the Age of Digital Technologies. Routledge.
5. Chen, M., & Liu, X. (2020). The Application of Artificial Intelligence in English Language Teaching. Journal of Educational Technology Development and Exchange, 13(1), 1-14.
6. Xasanova, M. S. (2020). Ingliz tili darslarida interfaol usullardan foydalanish. Til va adabiyot ta'limi, 3(7), 89-94.
7. Niyozov, T. A. (2021). Sun'iy intellekt asosidagi til o'rganish ilovalari tahlili. Zamonaviy ta'lim, 4(12), 34-39.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi**, doktorant [**Абдусамадова Маъруфа Хайрулло кизи**, докторант], [**Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi,** doctoral student]; manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar,Universitet ko'chasi 129-uy, [адрес: 170100, Республика Узбекистан,г. Андижан, ул. Университетская, д. 129], [address: 129 Universitetskaya str., Andijan, 170100, Republic of Uzbekistan.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

HARBIY XIZMATCHILARDA METAKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ATRIBUTLARI

© Z.Sh. Alimardonov[1]✉

[1]O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: metakommunikativ kompetensiya — “muloqot haqidagi muloqot”ni idrok va boshqarish, yashirin signallarni (ohang, mimika, proksemika) talqin qilish qobiliyatidir. Harbiylarda u buyruqlarni aniq qabul qilish, stress ostida hamkorlik va nizolarni boshqarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xalqaro amaliyot (SoTL yondashuvi, dialogik treninglar) ofitserlarning refleksiv va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta’kidlaydi.

MAQSAD: harbiy xizmatchilarda metakommunikativ kompetensiyaning ijtimoiy-psixologik atributlarini aniqlash, gender va roldagi farqlarni baholash hamda amaliy rivojlantirish strategiyalarini asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot nazariy-metodik tahlil va empirik kesimni birlashtirdi (N≈638). Psixodiagnostik vositalar: nizoli xulq strategiyalari (Tomas), refleksiv-kommunikativ ko‘rsatkichlar (Neshadovskiy, Mixelson bloklari), shuningdek, Mann–Uitni U va Kolmogorov–Smirnov testlari, taqqoslovchi tavsifiy statistika va korrelyatsion tahlil ($p<0,05$; $p<0,01$).

MUHOKAMA VA NATIJALAR: jins bo‘yicha ko‘p ko‘rsatkichlarda ishonchli farqlar kuzatilmadi; bu harbiy ijtimoiylashuv va institutsional rollarning neytrallovchi ta’sirini ko‘rsatadi. Moslashuvchanlik ayrim holatlarda yigitlarda yuqoriroq, empatiya va “tobe” indikatorlari qizlarda yaqqolroq namoyon bo‘ldi; agressivlik erkaklarda ko‘proq instrumental shaklda ko‘rindi. Shaxslararo chegaralarni belgilash ko‘rsatkichi erkaklarda yuqoriroq bo‘lib, ierarxik muvozanat va semantik filtrlashga moyillikni bildiradi. Umuman, metakommunikativ kompetensiya — kognitiv (anglash), pragmatik (nutq aktlari), refleksiv va didaktik komponentlarning uyg‘un tizimi sifatida ish beradi.

XULOSA: metakommunikativ kompetensiyani rivojlantirish harbiy jamoalarda psixologik barqarorlik, axborot xavfsizligi va strategik muloqotni kuchaytiradi. Amaliyot uchun: dialogik debrifinglar, rol-o‘yinli ssenariylar, madaniyatlararo signalni talqin qilish bo‘yicha treninglar va raqamli “hamrohlik” (nazorat emas) tamoyillari tavsiya etiladi. Baholashda refleksiya, empatiya, chegaralarni belgilash va moslashuvchanlik indikatorlari kompleks monitoringda qo‘llanishi lozim.

Kalit so‘zlar: metakommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-psixologik atributlar, empatiya, refleksiya, emotsional intellekt, kommunikativ moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik, harbiy psixologiya, axborot xavfsizligi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Alimardonov Z.Sh. Harbiy xizmatchilarda metakommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ijtimoiy-psixologik atributlari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.63–74.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АТРИБУТЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕТАКОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

© З.Ш. Алимардонов[1]✉
[1] Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: метакоммуникативная компетенция — способность осознавать и управлять “коммуникацией о коммуникации”, корректно интерпретировать скрытые сигналы. В военной среде она критична для точного принятия приказов, координации и управления конфликтом под стрессом. Международные практики (SoTL, диалоговые тренинги) подтверждают значимость рефлексивной и межкультурной компоненты.

ЦЕЛЬ: выявить социально-психологические атрибуты метакоммуникативной компетенции у военнослужащих, оценить гендерно-ролевые различия и обосновать практические стратегии её развития.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: соединены теоретический обзор и эмпирическое исследование (N≈638). Использованы методики Томаса (конфликт-стратегии), блоки Нешадовского/Михельсона (рефлексивно-коммуникативные индикаторы), критерии Манна–Уитни и Колмогорова–Смирнова, описательная статистика и корреляционный анализ ($p<0,05$; $p<0,01$).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: для большинства шкал значимых гендерных различий не выявлено; это отражает нормирующую роль военной социализации. Адаптивность выше у мужчин, эмпатия и “зависимость/подчинённость” — у женщин; агрессивность у мужчин чаще носит инструментальный характер. Более высокие показатели построения межличностных границ у мужчин указывают на склонность к иерархической дистанции и семантической фильтрации. Компетенция функционирует как система когнитивного, прагматического, рефлексивного и дидактического компонентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие метакоммуникативной компетенции повышает устойчивость подразделений, снижает риск искажений приказов и укрепляет инфобезопасность. Рекомендуются диалоговые дебрифинги, ролевая отработка сценариев, тренинги по межкультурной интерпретации сигналов и цифровое “сопровождение” вместо контроля. Мониторинг должен интегрировать рефлексию, эмпатию, границы и адаптивность.

Ключевые слова: метакоммуникативная компетенция, социально-психологические атрибуты, эмпатия, рефлексия, эмоциональный интеллект,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

коммуникативная гибкость, стрессоустойчивость, военная психология, информационная безопасность.

Для цитирования: Алимардонов З.Ш. Социально-психологические атрибуты формирования метакоммуникативной компетенции у военнослужащих.// Inter education & global study.2025. vol.3, №10(1). С.63–74.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ATTRIBUTES OF DEVELOPING METACOMMUNICATIVE COMPETENCE IN MILITARY PERSONNEL

©Zohid Sh. Alimardonov[1]✉
[1] University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: metacommunicative competence entails perceiving and steering “communication about communication” and decoding implicit cues. In the military, it is pivotal for precise order uptake, coordination, and conflict management under stress. International practice (SoTL, dialogic training) underscores progressive development of reflective and intercultural skills.

AIM: to identify the socio-psychological attributes of metacommunicative competence among service members, assess gender/role differences, and ground practical enhancement strategies.

MATERIALS AND METHODS: a mixed design combined theoretical review with an empirical study (N≈638). Instruments included Thomas’s conflict-mode scales and reflective-communicative indices (Neshadovskii/Michelson blocks). Analyses used Mann–Whitney U and Kolmogorov–Smirnov tests, descriptive statistics, and Pearson correlations ($p<0.05$; $p<0.01$).

DISCUSSION AND RESULTS: most scales showed no significant gender gaps, evidencing the normalizing effect of military socialization. Adaptability tended to be higher in men; empathy and “subordination” scores were higher in women; male aggressiveness appeared more instrumental. Men scored higher on interpersonal boundary-setting, reflecting hierarchy-consistent distancing and semantic filtering. Overall, the competence functions as an integrated system of cognitive, pragmatic, reflective, and didactic components.

CONCLUSION: enhancing metacommunicative competence improves unit resilience, reduces command-interpretation errors, and bolsters information security. Practice should include dialogic debriefings, scenario-based role-play, intercultural cue-reading training, and digital companionship rather than surveillance. Monitoring ought to track reflection, empathy, boundary-setting, and adaptability indicators.

Keywords: metacommunicative competence, socio-psychological attributes, empathy, reflection, emotional intelligence, communicative flexibility, stress resilience, military psychology, information security.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

For citation: Zohid Sh. Alimardonov. (2025) 'Socio-psychological attributes of developing metacommunicative competence in military personnel', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.63–74. (In Uzbek).

Metakommunikativ kompetentlik konfliktlarni samarali boshqarish jarayonida muhim psixologik mexanizm hisoblanadi. U shaxsning muloqot haqidagi muloqotni anglash qobiliyatini ifodalaydi, ya'ni so'z ortidagi ma'no, ohang, mimika, tana tili va kontekstni to'g'ri talqin qilishni nazarda tutadi. Harbiy ta'lim tizimida metakommunikativ kompetentlikni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ofitserlar murakkab ijtimoiy va operativ vaziyatlarda rahbarlik qiladi. Xorijiy amaliyotda, xususan, AQSh Harbiy-havo kuchlari universitetida SoTL (Scholarship of Teaching and Learning) yondashuvi qo'llaniladi. Bu modelda ofitserlarning muloqot ko'nikmalari teskari aloqa, hamda dialogik konferensiyalar orqali bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Masalan, yozma topshiriqlar orqali strategik fikrlash va kommunikativ maqsad uyg'unlashtiriladi, auditoriyani tahlil qilish va nutqning maqsadini aniqlashga o'rgatiladi. IJTRD (2019) tadqiqotida metakommunikativ kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlar orqali rivojlanishi ko'rsatilgan:

- Kognitiv komponent - nazariy bilimlar tizimi;
- Pragmatik komponent - nutq aktlarini samarali qo'llash;
- Refleksiv komponent - o'z va boshqalar nutqini tahlil qilish;
- Didaktik komponent - bilimlarni uzatish qobiliyati.

Bu model harbiy kontekstda, xususan, xalqaro hamkorlikdagi operatsiyalarda madaniy farqlarni inobatga olish va moslashuvchan kommunikatsiyani ta'minlashda qo'llanilishi mumkin [1].

Metodlar (Methods). Zamonaviy tadqiqotlarda gender omili metakommunikativ kompetensiyaning shakllanishini biologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilaydi, xususan, erkaklar odatda agentik (direktiv, vazifa yo'naltirilgan) kommunikatsiya uslubini, ayollar esa kommunal (munosabatga yo'naltirilgan) uslubini afzal ko'radi, bu esa harbiy muhitdagi ierarxik aloqada farqlarga olib keladi. Masalan, D.Tannenning genderlekt nazariyasiga (1990) ko'ra, erkaklar «hisobot» uslubida (faktlar va statusni ta'kidlash), ayollar «munosabat» uslubida (empatiya va hamkorlik) aloqa qiladi, bu non-verbal ishoralar (jestlar, mimika) orqali metakommunikativ darajada namoyon bo'ladi [2].

1-jadval

Tomasning "Nizoli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyalarini aniqlash" metodikasining jins omili bo'yicha farqlari (N-638)

Shkalalar	O'rtacha ranglar		Mann Uitni U mezoni	Ishonchlilik darajasi (p)
	Yigitlar (N-589)	Qizlar (N-49)		
Raqobatlilik	320,08	312,47	14086	0,708
Hamkorlik	320,99	301,56	13551,5	0,476
Murosalilik	321,04	301,04	13526	0,462

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tortishuvdan qochish	318,92	326,46	14089,5	0,782
Moslashuvchanlik	341,67	293,39	13151	0,009**

Izoh: ** - *p<0,01*

Tomasning “Nizoli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyalarini aniqlash” metodikasining jins omili bo‘yicha farqlari o‘rganilganda raqobatlilik (U=14086; p>0,05), hamkorlik (U=13551,5; p>0,05), murosalilik (U=13526; p>0,05), tortishuvdan qochish (U=14089,5; p>0,05) kabi shkalalarda ishonch darajasidagi farqlar qayd etilmadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, bu natijalar jinsiy dimorfizmning konflikt xulq-atvoridagi rolini cheklanganligini ko‘rsatadi. Aksincha, konflikt strategiyalari shaxsiy tajriba, ijtimoiy fon, madaniy kontekst va ierarxik munosabatlar kabi omillarga ko‘proq bog‘liq. Masalan, ish joyidagi ierarxiya jinsiy farqlarni kuchaytirishi mumkin, ammo bu tadqiqotda bunday ta’sir kuzatilmagan. Bu natijalar jinsiy stereotiplarni rad etib, konfliktlarni hal qilishda individual yondashuvni ta’kidlaydi, xususan bo‘lajak ofitserlar uchun, chunki ularning rahbarlik rollarida konfliktlarni boshqarish metakommunikativ ko‘nikmalarga bog‘liq bo‘ladi.

Xorijiy tadqiqotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, jins va konflikt strategiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik turli natijalarni beradi. Masalan, Kilmann Diagnostics (2007) tomonidan 8000 respondent (4000 erkak va 4000 ayol) ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda statistik jihatdan farqlar aniqlangan bo‘lsa-da, ular amaliy nuqtayi nazardan sezilarli emasligi qayd etilgan. Konflikt strategiyalarining normativ ko‘rsatkichlari jins, irq, yosh va tashkilot darajasidan qat’i nazar deyarli bir xil bo‘lib chiqqan. GCU (2017) tadqiqotida ham shunga o‘xshash natijalar olingan, jinsiy farqlar bo‘yicha o‘tkazilgan tizimli sharhda faqat ikkita ishda sezilarli tafovut qayd etilgan, biroq ko‘pchilik tadqiqotlarda ayollar ko‘proq munosabatga yo‘naltirilgan, erkaklar esa maqsadga yo‘naltirilgan xulq strategiyalarini tanlashga moyil ekani ta’kidlangan [2].

PMC (2020) bazasida keltirilgan Brahnam et al. (2005) va Chusmir & Mills (1989) tadqiqotlariga ko‘ra, ayollar konflikt vaziyatida hamkorlik va moslashuvga moyil bo‘lsa, erkaklar ko‘proq qochish yoki raqobat strategiyasini tanlaydi. Biroq, Gbadamosi et al. (2014) tadqiqoti bunga zid natijalarni ko‘rsatib, ayrim holatlarda ayollar raqobat strategiyasiga ham faol murojaat qilishini qayd etgan. Ushbu izchillikning yo‘qligi tadqiqot metodologiyasi, madaniy kontekst, shuningdek, yosh va tajriba omillari bilan izohlanadi [3].

Shuningdek, yuqoridagi nizoli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyalaridan moslashuvchanlik ko‘rsatkichi bo‘yicha yigit va qiz harbiy xizmatchilarda ishonchli farqlar qayd etildi (U=13151; p<0,01). Unga ko‘ra, yigit harbiy xizmatchilarda moslashuvchanlik baland bo‘lib, nizoli vaziyatlardan qochish, muloqot strategiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali suhbatdoshining pozitsiyasiga moslashish ko‘rsatkichi yaqqolroq namoyon bo‘lishi aniqlandi. Psixologik nuqtayi nazardan, bu holat emotsional barqarorlik, o‘zini nazorat qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik va kognitiv yetuklik bilan bevosita bog‘liqdir. Erkak harbiy xizmatchilar ko‘pincha instrumental rol va maqsadga yo‘naltirilgan fikrlash modelini egallagan bo‘lib, bu ularga vaziyatni tahlil qilib, eng samarali yo‘lni tanlashga yordam


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

beradi. Shuningdek, harbiy xizmatdagi ierarxik tizim, intizom va jamoaviy muvofiqlik talablari yigitlarda xulqiy moslashuvchanlikning amaliy tajriba orqali mustahkamlanishiga olib keladi. Qiz harbiy xizmatchilarda esa moslashuvchanlikning pastroq ko‘rsatkichlari emotsional sezgirlik va sotsial empatiyaning yuqori darajasi bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi mumkin. Bunda ular konflikt vaziyatida munosabatlarni saqlash va emotsional barqarorlikni tiklashga intiladi, ammo aynan strategik yo‘naltirilgan muloqot jarayonida ehtiyotkorlik ko‘proq namoyon bo‘ladi. Moslashuvchanlikning yuqori darajasi, ayniqsa, harbiy faoliyatda, operativ fikrlash, qaror qabul qilish tezligi va tashabbusni muvofiqlashtirish jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U shaxsning metakommunikativ kompetentligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, harbiy jamoada samarali muloqot, ierarxik muvozanat va stressga bardoshlilikni ta’minlaydi. Psixologik jihatdan, bunday natijalar A.Banduraning ijtimoiy kognitiv nazariyasi nuqtayi nazaridan tushuntiriladi: shaxs o‘zini boshqalarning reaksiyalari orqali kuzatadi, o‘z xatti-harakatini ijtimoiy kontekstga moslashtiradi va shu tarzda o‘z o‘zini samarali boshqarish tizimini shakllantiradi. Shu sababli, yigit harbiy xizmatchilarda kuzatilgan yuqori moslashuvchanlik ijtimoiy o‘zini boshqarish, ijtimoiy signallarni tahlil qilish va moslashgan kommunikativ strategiyalarni tanlash qobiliyatining ifodasidir [4].

Natijalar (Results). Yuqoridagi natijalar jinsiy farqlarni minimallashtiruvchi omillar ya’ni harbiy ijtimoiylashuv, jamoaviy intizom, institutsional rollar tizimi va metakommunikativ madaniyatning bir xilligi bilan izohlanadi. Bu ko‘rsatkichlar E.Goffmanning “ijtimoiy rol” konsepsiyasi va A.Banduraning “ijtimoiy o‘rganish” nazariyasi bilan hamohangdir: harbiy muhitda shaxsiy farqlar emas, balki normativ xulq andozalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, jinsiy tafovutlarning yo‘qligi bu psixologik yetuklikning belgisi, ya’ni har ikkala jins vakillari kasbiy kommunikativ kompetentlikni bir xil me’yorda o‘zlashtirganini ko‘rsatadi.

Boshqalarga hamdardlik va qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish ko‘nikmasi shkalasidan qiz bolalarda ustunlik kuzatilgan bo‘lib, bu ulardagi xizmat faoliyatidagi emotsional komponentning yigitlarga qaraganda yaqqolroq hamda ta’sirchanroq tarzda namoyon bo‘lishini anglatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshqalarga hamdardlik va qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish ko‘nikmasi bo‘yicha qiz harbiy xizmatchilarda ustunlik kuzatilgan. Bu natija ularning xizmat faoliyatida emotsional komponentning yigitlarga nisbatan kuchliroq, yaqqolroq va ta’sirchanroq tarzda namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Psixologik nuqtayi nazardan, bu holat empatiya boshqalarning hissiy holatini sezish, tushunish va unga mos ravishda javob bera olish qobiliyatining yuqoriligi bilan bog‘liqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



1-rasm. Mixelson metodikasi ko‘rsatkichlarining jins bo‘yicha farqlari

Tadqiqotlar (Eisenberg, 2000; Davis, 1994) shuni ko‘rsatadiki, ayollarda affektiv empatiya va parvarish yo‘nalgan xulq ko‘proq namoyon bo‘ladi, bu esa ijtimoiy munosabatlarda emotsional qo‘llab-quvvatlovchi rolni mustahkamlaydi [5]. Qiz harbiy xizmatchilarda bu xususiyat sotsial-psixologik adaptatsiya jarayonida ijobiy funksiyani bajaradi ular jamoada o‘zaro ishonch muhitini yaratadi, sheriklarining hissiy holatini sezib, muloqotda barqarorlikni ta’minlaydi. Bunday xulq harbiy jamoalarda psixologik xavfsizlik, emotsional birdamlik va stressni kamaytirish omili sifatida muhim ahamiyatga ega. Yigit harbiy xizmatchilarda esa emotsional javob ko‘proq instrumental shaklda ya’ni amaliy yordam, tashkiliy yechim yoki mas’uliyatni bo‘lishish tarzida ifodalanadi ($U=12385$; $p<0,01$).

Shu bois, ularning hamdardlik ko‘rsatish uslubi ko‘proq ratsional, qizlarniki esa emotsional-affektiv xarakterga ega bo‘ladi. Psixologik jihatdan, bu tafovut ijtimoiy-madaniy rollar nazariyasi (Eagly, 1987) bilan hamohangdir, ayollar ko‘proq qo‘llab-quvvatlovchi va hamkorlikka yo‘naltirilgan ijtimoiy rollarni bajarishga moyil bo‘lsalar, erkaklar odatda mustaqillik va instrumental samaradorlikni namoyon etadilar [6]. Harbiy xizmat kontekstida esa bu farq kasbiy psixologik muvozanatni ta’minlashda ijobiy ahamiyat kasb etadi: ayollarning emotsional sezgirligi va hamdardligi jamoada psixologik integratsiyani mustahkamlaydi, erkaklarning ratsional yondashuvi esa vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlaydi. Natijada, bu ikki jihat bir-birini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Tobe shkalasida ham ishonchli farqlar qayd etilgani holda mazkur ko‘rsatkichda ham qiz harbiy xizmatchilarda ustunliklar mavjudligi dalillanadi. Ushbu natijani mental xususiyatlarga xos bo‘lgan qiz bolalardagi ko‘nikish, o‘zidan kattaning gaplariga “quloq tutish” ko‘nikmasining amaliy faoliyatga bevosita tatbiq etish orqali muloqot jarayonida eshitish, hamfikr bo‘lish pozitsiyasini egallash ustunlik qilishi oydinlashadi ($U=13238$; $p<0,01$). Psixologik nuqtayi nazardan, “tobe” shkalasi shaxsning ijtimoiy muvofiqlik,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

moslashuvchanlik va muloqotda subordinatsiyani saqlay olish qobiliyatini ifodalaydi. Qiz harbiy xizmatchilarda bu ko‘rsatkichning yuqoriligi ularning mental xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu xususiyatlar o‘z navbatida ko‘nikish, itoatkorlik va sotsial moslashuv elementlarini o‘z ichiga oladi. Bu holatni psixologik jihatdan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi orqali izohlash mumkin. Qizlar odatda ijtimoiylashtirish jarayonida “eshitish”, “ko‘rsatmalarga amal qilish”, “katta yoshdagilarning fikrini hurmat qilish” kabi qadriyatlar asosida tarbiyalanadi. Shuning uchun ular harbiy faoliyatda muloqot jarayonida diqqat bilan tinglash, hamfikr bo‘lish va rahbarlik signallarini to‘g‘ri qabul qilish strategiyalarini tabiiyroq tarzda amalga oshiradilar. Bu esa ularning kommunikativ jarayonda passiv emas, balki refleksiv qabulchanlik pozitsiyasini egallashiga olib keladi. Ya’ni, ular suhbatdoshning fikrini tinglab, u orqali o‘z pozitsiyasini shakllantirishga moyildirlar. Shu tarzda, “tobe”lik bu yerda psixologik zaiflik emas, balki emotsional sezgirlik va ijtimoiy moslashuvchanlikning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Harbiy muhitda bu sifatlar ijobiy funksional ahamiyat kasb etadi. Qiz harbiy xizmatchilarning boshqalarga “quloq tuta olish” va “fikrni qabul qilish” ko‘nikmasi metakommunikativ kompetentlikning kognitiv komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. U rahbarlik va bo‘ysinuv tizimida samarali muloqot o‘rnatish, topshiriqlarni aniq tushunish va jamoaviy uyg‘unlikni ta’minlashga yordam beradi. Demak, “tobe” shkalasidagi yuqori ko‘rsatkich qiz harbiy xizmatchilarda emotsional ixtiyorni boshqarish, ixtiyoriy bo‘ysunish va ijtimoiy konformlikning uyg‘un shaklda shakllanganini anglatadi. Bu esa ularning kommunikativ madaniyati va psixologik moslashuvchanligining yuqori darajada ekanidan dalolat beradi.

Agressivlik namoyon etish bo‘yicha esa yigit harbiy xizmatchilarda yaqqola ustunlik ifodalangani holda, erkaklik tabiatiga xos bo‘lgan qattiqqo‘llik, jazavaga berilish, reaktiv sezuvchanlik, o‘z kuchini namoyon etishda jismoniy bosimdan foydalanish kabi elementlar birikuvi asosida ham ularda yuqori natijani qayd etgan bo‘lishi mumkinligi bilan tushuntiriladi ($U=13389$; $p<0,01$). Biopsixologik yondashuv nuqtayi nazaridan, erkaklarda testosteron darajasining yuqoriligi reaktiv javoblar va raqobatga moyillikni kuchaytiradi. Shu bois, ular konflikt vaziyatida faol, tashabbuskor va ba’zida impulsiv javob berishga moyil bo‘ladilar. Bu holat Z.Freydning “agressiya energiyaning tashqi chiqish shakli” haqidagi konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, erkaklarda ichki energiya ko‘pincha faol harakat yoki dominant pozitsiya orqali ifodalanadi [7].

Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan, bu xulq namunasi erkaklarga ijtimoiy jihatdan yuklatilgan “himoyachi”, “rahbar” yoki “faol qaror qabul qiluvchi” rollar bilan ham bog‘liqdir. Shunday ijtimoiy kutilmalar ularni o‘z kuchini ko‘rsatish, nazoratni saqlash yoki vaziyatni o‘z foydasiga burish uchun agressiv yoki assertiv xulqqa turtki beradi. Shuningdek, harbiy xizmat sharoiti o‘zining yuqori stress va tezkor reaksiya talab qiluvchi muhitiga ega. Bu esa erkak harbiy xizmatchilarda reaktiv agressivlikni ijtimoiy jihatdan maqbul, hattoki kasbiy jihatdan zarur himoya mexanizmi sifatida shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, bu agressivlikning destruktiv emas, balki instrumental (maqsadga yo‘naltirilgan) shaklda namoyon bo‘lishi ehtimoli yuqori ya’ni u topshiriqlarni bajarish, xavfga javob qaytarish yoki jamoani himoya qilishga yo‘naltiriladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3


Qiz harbiy xizmatchilar esa, tadqiqot natijalariga ko‘ra, agressivlikni odatda bilvosita (passiv) yoki verbal shaklda ifoda etadilar. Ular konfliktni kuchaytirishdan ko‘ra, emosional barqarorlikni saqlash va munosabatni tiklash strategiyalariga ko‘proq tayanadilar. Bu jihat Carol Gilligan (1982) tomonidan ayollar ijtimoiy qaror qabul qilish jarayonida “g‘amxo‘rlik etikasi”ni ustun qo‘yishiga oid nazariya bilan hamohangdir. Demak, erkak harbiy xizmatchilarda agressivlik ko‘rsatkichining yuqoriligi biologik, ijtimoiy va kasbiy omillar birikuvi natijasi bo‘lib, ularning harbiy faoliyatda tezkorlik, qat’iyat, tashabbuskorlik va himoyaviy javobga tayyorlik ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, agressiv xulqning nazorat ostida bo‘lishi emotsional intizom va psixologik barqarorlikning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi [8].

Muhokama (Discussion). Neshadovskiy metodikasining jins omili bo‘yicha farqlari solishtirilganda quyidagi ko‘rsatkichlar qayd etildi: suhbatdoshni tushunish qobiliyati shkalasi shaxsning muloqot jarayonida boshqa insonning holati, niyati va emotsional signallarini to‘g‘ri talqin qilish darajasini ko‘rsatadi. Yigitlar (318,84) va qizlar (327,39) o‘rtasidagi farq statistik ahamiyatga ega emas, demak, bu qobiliyat jinsdan mustaqil tarzda shakllanadi. Suhbatdoshni to‘g‘ri tushunish komandir va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida muloqotning aniqligi va tezkor axborot almashinuvini ta’minlaydi ayniqsa, “bir so‘z – bir harakat” tamoyili amal qiladigan harbiy muhitda ko‘rsatkich metakommunikativ kompetensiyaning neytral komponenti sifatida baholanadi ($U=14040$; $p>0,05$). O‘zini anglash va tushunish (refleksiya) qobiliyati o‘z hissiyotlari, motivlari va fikrlarini anglay olish darajasini ifodalaydi. Jins omili bu ko‘rsatkichga ta’sir qilmasligi tufayli refleksiya darajasi yuqori bo‘lgan harbiylar o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilib, xatolardan tez saboq oladi. Bu komponent barcha harbiy xizmatchilarda bir xil darajada rivojlangan bo‘lib, avtomatik tahlilning mavjudligini bildiradi ($U=14371,5$; $p>0,05$). Shaxslararo chegaralarni qurish qobiliyati bo‘yicha ishonchli farqlar qayd etilib, shaxsning boshqalar bilan muloqotda psixologik masofa, ya’ni chegarani belgilay olish layoqatini ifodalaydi. Yigitlarda (369,43) bu ko‘rsatkich ancha yuqori, bu ularning “xizmat ierarxiyasini” qat’iy saqlashga moyilligini anglatadi, komandir-subordinatsiya munosabatlarida zarur fazilat bo‘lib, chegara qo‘yish intizomni, mas’uliyatni va hissiy boshqaruvni mustahkamlaydi. Olingan natijalar erkak harbiylarda psixologik masofa va metakommunikativ filtrlash mexanizmlarining kuchliroq shakllanganidan dalolat beradi ($U=13948,5$; $p<0,01$).

Muloqotdagi xabarlarning xususiyatlarini baholash xabarni semantik, hissiy va kontekstual jihatdan tahlil qilish ko‘nikmasi bo‘lib, jins farqi ahamiyatsiz ko‘rinish oldi, ushbu natija axborot tahlilida har ikki jins vakillari o‘xshash strategiyadan foydalanishini dalillaydi. Bu komponent jangovar buyruqlarni noto‘g‘ri talqin qilmaslik uchun zarur bo‘lib, ahamiyatli farq yo‘qligi harbiy o‘quv tizimining kommunikativ neytrallashuv natijasidir ($U=13560$; $p>0,05$). Muloqotda umumiy refleksiya darajasi muloqot davomida o‘z fikrlarini va suhbatdoshning fikrini qayta tahlil qilish ko‘nikmasini ifodalab, har ikki jinsda o‘xshash darajada shakllangan ekan. Harbiy sharoitda bu ko‘rsatkich jamoaviy muhokamalarda, masalan, mashg‘ulot tahlilida muhim indikator hisoblanadi ($U=14390$; $p>0,05$). Empatiya

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jarayoni boshqalar hissiyotini his qilish, “hissiy rezonans” darajasini ifodalab qizlarda (353,73) biroz yuqoriroq ko‘rinish olishi ularning emotsional sezuvchanligi bilan tushuntiriladi. Zero, bo‘lajak ofitser bo‘lmish qizlarda komandirlarini, tengdoshlarini so‘zsiz tushunish ko‘nikmasi instinktiv tarzda shakllangan bo‘lishi mumkinligini dalillaydi (U=12806,5; p>0,05).



2-rasm. Shaxslararo chegaralarni qo‘yishning jins omili bo‘yicha tafovutlari

Empatiya komandirga shaxsiy tarkib holatini to‘g‘ri baholashda yordam berishi bilan jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar faoliyatida psixologik richag sifatida muloqot jarayonida muhim hisoblanadi. “Manzillilik” xabarni konkret shaxsga, vaziyatga yoki kontekstga moslab yetkazish qobiliyati bo‘lib, buyruqlarning aniq manzilga qaratilishi zarurligini bildiradi. Har ikki jinsda bu ko‘nikma bir xilda shakllanganligi ularning yosh, faoliyat turi hamda burch jihatdan motivlar o‘xshashligi kabilar bilan izohlanishi mumkin (U=13820,5; p>0,05).

Adekvat tushunish xabarni real ma’noda talqin qilish darajasi bo‘lib, qizlarda biroz yuqoriroq ko‘rinish olgani holda, harbiy axborot oqimida bu xatoliklardan qochish, jazoga tortilmaslik uchun ehtiyotkorona munosabat bildirish chastotasining metakommunikativ kompetentlik komponenti sifatida yaqqol faoliyat jarayonida namoyon bo‘lganini anglatadi (U=12753; p>0,05). Shaxslararo chegaralarni belgilash munosabat doirasida masofa va chegarani saqlay olishda jins omili nuqtayi nazaridan ishonch darajasidagi tafovutlar qayd etilmagan bo‘lib, xizmat faoliyati bilan uzviy ravishda psixologik chidamlilikning, o‘zini psixik boshqarishning yuqori darajada rivojlanishi natijasida “men” va “sen” nuqtayi nazaridan aniq belgilangan psixologik “semantik maydon”ning konkret chizilganidan dalolat beradi (U=13196,5; p>0,05).

Suhbatdoshni tushunish qobiliyati (U=14040; p>0,05) komponenti boshqalar fikrini, hissiyotini va maqsadini idrok etish bilan bog‘liq bo‘lib, empatik tinglash, verbal va noverbal signallarni tahlil qilish qobiliyatini ifodalaydi. Farqning ahamiyatsiz chiqishi har ikki jins vakillarida muloqotdagi kognitiv empatiya bir xil darajada shakllanganini bildiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bu esa harbiy ta’lim tizimida kommunikativ standartlarning bir xil qo‘llanishi, rollar va vazifalarning jinsdan qat’i nazar baravar yuklanishi bilan izohlanadi. O‘zini anglash va tushunish (refleksiya) qobiliyati (U=14371,5; p>0,05) shaxsning o‘z ichki holatini, motivlarini va xatti-harakat sabablarini idrok etish qobiliyatini anglatadi. Farqning yo‘qligi, o‘zini anglash jarayoni jinsiy tafovutdan mustaqil psixologik mexanizm ekanligini tasdiqlaydi. Bu o‘quv jarayonida har ikki jinsda ham o‘z-o‘zini nazorat qilish, introspektiv tahlil va o‘z fikrlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarning samarasi sifatida qaraladi. Shaxslararo chegaralarni qurish qobiliyati (U=13948,5; p<0,01) yagona shkala bo‘lib, ishonchli farq kuzatildi. Yigitlarning yuqori ko‘rsatkichi ularning muloqotda psixologik mustaqillik, ierarxik pozitsiyani saqlash, ichki intizom va masofa hissini ko‘proq namoyon etishini bildiradi. Qizlarda esa iliqlik, sezgirlik va sotsial yaqinlik tendensiyasi mavjud bo‘lib, bu ularning “ochiq ijtimoiy kontakt” modeliga moyilligini ko‘rsatadi. Bu holat gender sotsializatsiyasi hamda harbiy muhitdagi rollar tizimi bilan bog‘liq: erkaklar o‘z pozitsiyasini qat’iy himoya qiladi, ayollar esa ko‘proq integrativ yondashuvni tanlaydi.

Xulosa (Conclusion). Muloqotdagi xabarlarning xususiyatlarini baholash qobiliyati xabarni semantik, hissiy va kontekstual tahlil qilish ko‘nikmasi bo‘lib, jins farqi ahamiyatsiz chiqdi. Bu natija har ikki jins vakillari axborotni tahlil qilishda o‘xshash strategiyadan foydalanishini dalillaydi. Harbiy faoliyatda bu jihat buyruqlarni noto‘g‘ri talqin qilmaslik, semantik aniqlikni saqlash uchun muhim. Farq yo‘qligi harbiy ta’limning kommunikativ neytrallashuvga erishganligini bildiradi. Muloqotda umumiy refleksiya darajasi muloqot davomida o‘z va boshqalarning fikrlarini tahlil qilish, o‘zaro baholash va o‘zgarishga tayyorlikni anglatadi. Jins bo‘yicha farq yo‘qligi har ikki jins vakillarida analitik fikrlash va kommunikativ refleksiyaning bir xil shakllanganini ko‘rsatadi. Muloqotda ochiqlik darajasi muloqot jarayonida fikr va hissiyotlarni erkin ifoda etish ko‘nikmasidir. Farqning yo‘qligi, ochiqlikni belgilovchi omil jins emas, balki muloqot muhitining xavfsizlik hissi ekanligini ko‘rsatadi. Harbiy ta’limda bu psixologik xavfsizlik hissi teng shakllanadi. Diqqatni barcha ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash kommunikatsiyada diqqatni teng taqsimlay olish ijtimoiy e’tiborning tarqoq emas, balki tizimli shaklda ifodalanishidir. Har ikki jinsda bu ko‘nikma o‘xshash darajada shakllangan, bu esa guruh dinamikasi va liderlik madaniyati bir xil yo‘nalishda rivojlanganligini bildiradi. Harbiy ta’lim sharoitida motivlar ko‘p jihatdan umumiy xizmat burchi, intizom va o‘zini amalga oshirish qadriyati bilan belgilanadi. Jinsiy farq yo‘qligi bu jihatning psixofiziologik tayyorgarlik bilan bog‘liqligini, jins bilan emas, harbiy xizmatdagi jismoniy barqarorlik bilan belgilanayotganini ko‘rsatadi. Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, Neshadovskiy metodikasi bo‘yicha o‘rganilgan refleksiv muloqot ko‘rsatkichlarida jinsiy farqlar asosan psixologik neytrallik bilan tavsiflanadi. Faqat “shaxslararo chegaralarni qurish” ko‘rsatkichida yigitlarning ustunligi aniqlangan bo‘lib, bu psixologik avtonomiya va pozitsion qat’iylik bilan izohlanadi. Qizlarda esa empatiya va adekvatlik tendensiyasi yuqoriroq, biroq statistik jihatdan ishonchsiz. Demak, harbiy o‘quv tizimida kommunikativ refleksiya, empatiya va muloqot samaradorligi jinsdan ko‘ra, kasbiy ijtimoiylashuv va intizomiy kommunikatsiya tizimi bilan belgilanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бейтсон Г. Коммуникация: социальная матрица психиатрии. - М.: АСТ, 2003. - 270 с.
2. Брум А. Психология невербальной коммуникации. - СПб.: Речь, 2014. - 198 с.
3. Ван дер Меулен Э., Варела Р. Е. Психологическая устойчивость и коммуникативная компетентность военнослужащих. - Military Behavioral Science, 2018, № 23(1), с. 51-67.
4. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект: почему он может значить больше, чем IQ. - М.: Манн, Иванов и Фербер, 2013. 480 с.
5. Делор Ж. Учение - сокровище, заключённое внутри. - Париж: ЮНЕСКО, 1996. 145 с.
6. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. - 42 с.
7. Янгибоева М. Shaxsning emotsional barqarorligini ta’minlovchi psixologik mexanizmlar. - Ijtimoiy Fikr, 2022, № 4(2), b. 67-74.
8. Крычевский В.Ю. Психологические основы формирования компетентности личности. - СПб.: Речь, 1998. - 192 с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Alimardonov Zohid Shukurillayevich**, PhD, dotsent, [**Алимардонов Зохид Шукуриллаевич**, PhD, доцент], [**Alimardonov Zohid Shukurillayevich** PhD associate professor]; manzil: Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni, 100109, 86, [адрес: Ташкентская область, Зангиатинский район, Курган Чорсу, 100109], [address: Tashkent region, Zangiatinsky district, Kurgan Chorsu, 100109.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TALABALARDA DEONTOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

© J.U. Boboxujayev [1]✉

[1]Guliston davlat universiteti, Guliston, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada talabalarda pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda deontologik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. O‘qituvchi–talaba munosabatlarini insonparvarlik, mas’uliyat va kasbiy etikaga muvofiq tashkil etish zarurati asoslanadi.

MAQSAD: deontologik yondashuvlar asosida talabalarda pedagogik qadriyatlarni rivojlantirishning samarali usullarini tizimlashtirish va ularning ta’lim jarayonidagi qo‘llanilish mexanizmlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: adabiyotlar sharhi va konseptual tahlil; interaktiv, motivatsion va reflektiv metodlar bo‘yicha tajribalar hamda pedagogik portfolioni joriy etish amaliyoti, raqamli resurslardan foydalanish holatlarining kuzatuvi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: deontologik treninglar, keys-stadilar, rolli o‘yinlar va refleksiv tahlil axloqiy qaror qabul qilish, muloqot, hamkorlik va kasbiy mas’uliyatni sezilarli kuchaytiradi. Raqamli platformalar va birgalikdagi loyihalar talabalarning kasbiy o‘sishi, o‘zini baholashi va etik me’yorlarga sodiqligini mustahkamlaydi.

XULOSA: deontologik asoslangan yondashuvlar talabalarda barqaror pedagogik qadriyatlar, kasbiy etika va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning samarali yo‘lidir; metodlarning kompleks integratsiyasi ta’lim sifatini oshiradi.

Kalit so‘zlar: deontologik yondashuv, pedagogik qadriyatlar, kasbiy etika, refleksiya, interaktiv metodlar, raqamli resurslar, o‘qituvchi–talaba munosabatlari.

Iqtibos uchun: Boboxujayev.J.U. Talabalarda deontologik yondashuvlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish usullari. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.75–81.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ НА ОСНОВЕ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ У СТУДЕНТОВ

© Ж.У. Бобохужаев[1]✉

[1] Гулистанский государственный университет, Гулистан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: Статья раскрывает значение деонтологических подходов в формировании педагогических ценностей у студентов и необходимость гуманистически выстроенных отношений «преподаватель–студент».

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЦЕЛЬ: систематизировать эффективные способы развития педагогических ценностей на основе деонтологии и определить механизмы их внедрения в образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Обзор литературы и концептуальный анализ; апробация мотивационных, интерактивных и рефлексивных методов; использование педагогического портфолио и цифровых ресурсов, наблюдение за совместными проектами.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Тренинги по этике, анализ кейсов и ролевые игры усиливают способность к моральному выбору, коммуникацию и ответственность; цифровые платформы и проектная деятельность укрепляют профессиональную идентичность и приверженность этическим нормам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Деонтологически ориентированная методика эффективно формирует устойчивые педагогические ценности и повышает качество подготовки будущих педагогов; комплексная интеграция методов обеспечивает устойчивый эффект.

Ключевые слова: деонтологический подход, педагогические ценности, профессиональная этика, рефлексия, интерактивные методы, цифровые ресурсы, отношения преподаватель–студент.

Для цитирования: Бобохужаев.Ж.У. Методы формирования педагогических ценностей на основе деонтологических подходов у студентов.// Inter education & global study. 2025. №10(1). С.75–81.

METHODS OF FORMING PEDAGOGICAL VALUES BASED ON DEONTOLOGICAL APPROACHES AMONG STUDENTS

© Joxonmirzo U. Boboxujayev [1]✉
[1] Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper examines the role of deontological approaches in cultivating pedagogical values among students and argues for humanistic, responsible, and ethically grounded teacher–student relations.

AIM: to systematize effective methods for developing pedagogical values through deontological perspectives and to specify mechanisms for their implementation in educational practice.

MATERIALS AND METHODS: literature review and conceptual analysis; application of motivational, interactive, and reflective techniques; adoption of pedagogical portfolios and digital resources; observation of collaborative projects.

DISCUSSION AND RESULTS: ethics trainings, case analyses, and role-plays strengthen moral decision-making, communication, collaboration, and professional responsibility; digital platforms and joint projects consolidate professional identity and adherence to ethical norms.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

CONCLUSION: deontology-based pedagogy effectively fosters stable pedagogical values and enhances teacher preparation quality; an integrated toolkit yields durable outcomes.

Keywords: deontological approach, pedagogical values, professional ethics, reflection, interactive methods, digital resources, teacher–student relations.

For citation: Joxonmirzo U. Boboxujayev. (2025) 'Methods of forming pedagogical values based on deontological approaches among students', Inter education & global study, (10(1)), pp.75–81. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etilishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda axloqiy-etik me'yorlarga rioya qilish, o'qituvchining kasbiy burchi, mas'uliyati va ijtimoiy vazifalarini ongli ravishda anglash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarda deontologik yondashuvlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Deontologiya – bu kasbiy axloq me'yorlari va burch tushunchasini o'rganadigan fan sifatida, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida muhim o'rin tutadi. U talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalar, axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati va kasbga sadoqat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Deontologik yondashuv pedagogik faoliyatda axloqiy me'yorlar va prinsiplarni inobatga olgan holda, talabalar shaxsida pedagogik qadriyatlar va kasbiy etikaning shakllanishi muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv asosida talabalarda pedagogik qadriyatlarni mustahkamlash va kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish uchun bir nechta samarali usullar qo'llanilishi mumkin. Birinchidan, talabalarni pedagogik axloqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirish va ularni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan treninglar tashkil etish lozim. Bu treninglar talabalarni axloqiy qarorlar qabul qilishga, murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlashga tayyorlaydi va ularning kasbiy mas'uliyat hissini oshiradi. Ikkinchidan, pedagogik muammolarni hal etishda interaktiv metodlarni qo'llash, masalan, guruhli muhokamalar, rolli o'yinlar va simulyatsiyalar orqali talabalarning fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Bu usullar talabalarni turli kasbiy vaziyatlarga moslashishga, o'z fikrlarini aniq va erkin ifoda etishga o'rgatadi. Uchinchidan, talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy yangilashga, o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish zarur. Buning uchun seminarlar, konferensiyalar va onlayn kurslar kabi imkoniyatlar taqdim etish lozimTo'rtinchidan, talabalarni ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish, ularni jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini anglashga o'rgatish pedagogik qadriyatlarning shakllanishini mustahkamlaydi. Bu faoliyat talabalarda deontologik yondashuvni chuqurlashtiradi va ularning kasbiy madaniyatini rivojlantiradi. Beshinchidan, pedagogik konfliktlar va murakkab vaziyatlarda deontologik prinsiplarni qo'llashni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu talabalar kasbiy faoliyatda axloqiy me'yorlarga sodiq qolishga yordam beradi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hamda ularning o‘zaro munosabatlarini yanada mustahkamlaydi.

“Deontologik yondashuvlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish usullari talabalarning kasbiy faoliyatga axloqiy mas’uliyat bilan yondashuvini, doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishga intilishini hamda ta’lim sohasidagi yangiliklarga moslashuvchanlikni namoyon etishini ta’minlashga qaratilgan” [1]. Ushbu jarayon quyidagi asosiy usullarni o‘z ichiga oladi:

1. Interaktiv usullar: Deontologik yondashuvlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda interaktiv usullar muhim ahamiyatga ega. Deontologik dilemmalarni muhokama qilish, keys-stadilar tahlili, rolli o‘yinlar va munozaralar bo‘lajak pedagoglarga turli xil axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va o‘z fikrlarini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Lourens Kolberg tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasi insonning axloqiy fikrlash qobiliyati qanday bosqichma-bosqich shakllanishini tushuntiradi. Kolberg odamlarning axloqiy qaror qabul qilish usullarini o‘rganib, ularning axloqiy rivojlanish darajalarini aniqlagan. Shu bois, interaktiv usullar talabalar axloqiy fikrlash darajasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, “o‘z darslarini tahlil qilish, hamkasblar bilan tajriba almashish, o‘quvchilarning fikrlarini o‘rganish va o‘z faoliyatini baholash bo‘lajak pedagoglarga o‘z kamchiliklarini aniqlash, o‘z ustida ishlash va kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi” [2]. Bu usul metodologik jihatdan Donald Schönning “Refleksiv amaliyotchi” konsepsiyasiga asoslanadi [3]. Schön an’anaviy professional ta’lim usullariga qarshi chiqib, professional amaliyotda refleksiyaning, ya’ni o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonining ahamiyatini ta’kidlagan.

2. Malaka oshirish kurslari va treninglar: Malaka oshirish kurslari va treninglar talabalarning pedagogik qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu kurslar orqali talabalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv ta’lim metodlari, baholash usullariA hamda inklyuziv ta’lim kabi yo‘nalishlarda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi [4]. Malaka oshirishning ahamiyatini alohida ta’kidlagan OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) o‘zining "Teachers Matter: Attracting, Developing and Retaining Effective Teachers" nomli hisobotida o‘qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi ta’lim sifatini oshirishdagi eng muhim omillardan biri ekanligini qayd etadi. Bu esa talabalar uchun pedagogik qadriyatlarni chuqur anglash, o‘z ustida ishlash va zamonaviy ta’lim talablariga moslashishda muhim zamin yaratadi.

3. Ilmiy izlanishlar: Ilmiy izlanishlar talabalarning intellektual rivojlanishini rag‘batlantirishda, shuningdek, ularning pedagogik qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, eng avvalo, talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliyotda uchraydigan muammolarni innovatsion yondashuvlar orqali hal qilish imkonini ham yaratadi. Amerikalik pedagog va tadqiqotchi Ernest Boyer o‘qituvchilarning ilmiy faoliyatini kengroq ko‘lamda qarashni taklif qiladi — u ilmiy izlanishlarni o‘qitish, qo‘llash va integratsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq deb hisoblaydi. Ushbu yondashuv

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talabalarning pedagogik qadriyatlarini chuqurlashtirishda muhim o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat ilmiy fikrlashga, balki amaliy pedagogik jarayonlarga faol jalb etiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali talabalar axborotni ob’ektiv baholash, dalillarni tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. Bu esa, o‘z navbatida, ta’limdagi mavjud muammolarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqishda yordam beradi. Yangi, innovatsion g‘oyalar yaratish qobiliyatini shakllantirish ham ilmiy izlanishlarning muhim jihatlaridan biridir. Talabalar ta’lim sohasida yangicha metodlarni ishlab chiqish va o‘quv jarayonini takomillashtirishga qodir bo‘lishadi. Bu jarayon ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirib, pedagogik qadriyatlar asosida yangiliklar yaratishga undaydi.

4. Pedagogik portfolioni shakllantirish: Talabalarda pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik portfolioni yaratish muhim ahamiyatga ega. Portfolio — bu talabaning o‘quv jarayonidagi individual yutuqlari, kasbiy o‘sish yo‘li va o‘z ustida ishlash faoliyatining tizimli tarzda aks ettirilgan hujjatlar to‘plamidir. U talabaning o‘zini baholashi, kasbiy refleksiyasi va shaxsiy rivojlanishini tahlil etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik portfolio quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: O‘quv va amaliyot natijalari: Talabaning o‘zlashtirgan nazariy bilimlari va o‘quv-amaliyot jarayonidagi tajribalari. Refleksiv yozuvlar: Dars tahlillari, o‘z faoliyati yuzasidan yozilgan fikr-mulohazalar, xatoliklar va yutuqlar bo‘yicha o‘z-o‘zini tahlil qilish. Innovatsion yondashuvlar: Talaba tomonidan ishlab chiqilgan yoki qo‘llangan yangicha metodlar, ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi haqidagi ma’lumotlar. Ilmiy-tadqiqot ishlari: Kurs ishlari, maqolalar, ilmiy loyihalar va tadqiqot natijalari. Ijtimoiy faoliyat: Ta’lim muassasasi yoki jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, tarbiyaviy loyihalarda ishtirok etish tajribalari. Baholash va tavsiyanomalar: O‘qituvchilar yoki amaliyot rahbarlari tomonidan berilgan fikrlar, baholar va tavsiyalar. Pedagogik portfolioni shakllantirish talabaning deontologik yondashuv asosida o‘zini kasbiy shaxs sifatida anglashiga, axloqiy javobgarlikni his qilishiga va pedagogik qadriyatlarni chuqurroq singdirishiga imkon yaratadi. Bu jarayon shuningdek, talabaning mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘z ustida ishlash va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Ta’limiy dasturlar va raqamli resurslardan foydalanish: Ta’limiy dasturlar bilan ishlash, internet resurslari va onlayn ta’lim platformalaridan samarali foydalanish talabalarning raqamli savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu ko‘nikmalar ularning masofaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali tarzda olib borishga yordam beradi. Zamonaviy ta’limda bu jarayon ayniqsa dolzarbdir, chunki hozirgi o‘quvchilar "raqamli avlod"ga mansub bo‘lib, ular texnologiyalar bilan kundalik hayotda chambarchas bog‘langan. Marc Prenskyning “Raqamli avlod” konsepsiyasi bu haqiqatni yorqin aks ettiradi va yoshlarning texnologiyalarga bo‘lgan munosabatlari va foydalanish usullaridagi farqlarni ko‘rsatib beradi [7]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta’limdagi roli tobora ortib borayotganligi sababli, talabalarni raqamli kompetentlikka tayyorlash zaruriyati ham keskin oshmoqda. UNESCOning "ICT Competency Framework for Teachers" hujjatida o‘qituvchilarning AKT sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatini yaxshilash uchun

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muhim deb e’tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, ta’limiy dasturlar, internet resurslari va onlayn platformalardan foydalanish talabalarga nafaqat kompyuter savodxonligini oshirish, balki axborotni izlash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi [8]. Bu esa ularning pedagogik qadriyatlari va kasbiy malakalarini zamonaviy talablarga mos shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Birgalikda loyihalar va kasbiy hamkorlik: Birgalikda loyihalar amalga oshirish talabalarga o‘quvchilarning bilimini oshirishga qaratilgan innovatsion ta’lim loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Bu jarayon ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali ta’lim muhitini yaratishga yordam beradi. Birgalikdagi loyihalar talabalar faol ishtirokini talab qilib, ularning hamkorlik, muloqot va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini yanada mustahkamlaydi. Bu ko‘nikmalar pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy hamkorlik esa talabalarga o‘z kasbdoshlari bilan tajriba almashish, yordam va qo‘llab-quvvatlash olish imkoniyatini taqdim etadi. Bu ularga kasbiy qiyinchiliklarni yengishda, stressni kamaytirishda va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishda yordam beradi. Ayniqsa, yangi boshlovchi pedagoglar uchun tajribali ustozlarning maslahatlari va ko‘magi nihoyatda muhimdir. Shuningdek, kasbiy hamkorlik talabalarga o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, kasbiy tarmoqlar yaratish va ta’lim sohasidagi yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo‘lib turish imkonini beradi. Bu esa ularning pedagogik qadriyatlarini chuqurlashtirib, kasbiy o‘sishiga hamda ta’lim sohasidagi islohotlarda faol ishtirok etishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda deontologik yondashuvlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Axloqiy prinsiplar va kasbiy mas’uliyatni chuqur anglash pedagogik faoliyatning sifatini oshirishga xizmat qiladi hamda talabalarni o‘z kasbiga sadoqatli, mas’uliyatli va insonparvar pedagoglar sifatida shakllantiradi. Ushbu jarayonda interaktiv usullar, malaka oshirish kurslari, ilmiy izlanishlar, pedagogik portfoliolarni yaratish, raqamli resurslardan foydalanish va birgalikdagi loyihalar kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur usullar talabalarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, kasbiy hamkorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular talabalarda professional etika va axloqiy me’yorlarga rioya qilish madaniyatini mustahkamlash, pedagogik qadriyatlarni chuqur singdirish imkonini yaratadi. Deontologik yondashuvlar asosida shakllangan pedagogik qadriyatlar talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi, ularni jamiyatda ta’lim sifatini yaxshilash va yosh avlodni tarbiyalashda samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. S.R.Erkinova Teaching english precedent phenomena at linguistic university. Science and innovation. International scientific journal volume 4 issue 2 february 2025. Issn: 2181-3337 | scientists.uz. Pp. – 275
2. Tojiyev M., Ziyomuhammadov B. Milliy pedagogik texnologiyaning ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbig'i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni. Monografiya // T.: "Mumtoz so'z",2011. - 272 b.
3. Schön, D. A. The reflective practitioner: How professionals think in action. 1983
4. Tojiyev M., Ziyomuxammadov B., O'ralova M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash (Pedagogik texnologiya milliy modelining amaliyotga tatbig'i). O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur-bo'stoni", 2012. -196 b.
5. Lyons, N. Portfolios as assessment and learning. Boynton/Cook Publishers, Inc. 1993 y.
6. Marc Prensky. Digital Natives Digital Immigrants. From On the Horizon MCB University Press, Vol. 9 No. 5, October 2001. P.- 6
7. Л. П. Гадзаова, И.Ж. Макамбаева, Б. Т. Мурзаева Современные вопросы педагогики и психологии: теоретико-методологические подходы и практические результаты исследований: Монография Чувашский республиканский институт образования. – Чебоксары: среда, 2025. – 288 с. Isbn 978-5-907965-22-5.
8. Wenger, E.Communities of practice: Learning, meaning, and identity. 1998 y

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Boboxujayev Joxonmirzo Umar o'g'li**, tadqiqotchi [**Бобохужаев Жохонмирзо Умар угли** , исследователь,], [**Boboxujayev Joxonmirzo Umar o'g'li** researcher,]; manzil: O'zbekiston, Guliston shahri, 4-mavze, [адрес: Узбекистан, город Гулистан, 4-й микрорайон], [address: Uzbekistan, Gulistan city, 4th microdistrict.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA ONA TILINI METODIK O‘RGATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

© Z.Sh. Burxanov [1]✉

[1] Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: boshlang‘ich ta’limda ona tili — tafakkur, muloqot va nutq madaniyatini shakllantiruvchi markaziy fan. Til tizimining barcha tomonlari o‘zaro ta’sirdagi yaxlit hodisa sifatida qaralmasa, o‘quvchi bilimlari parchalangan bo‘lib qoladi. Shu bois lingvistik bilimlarni metodik yondashuvlar bilan integratsiyalash ta’lim samaradorligining sharti sifatida ko‘riladi.

MAQSAD: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ona tilini o‘qitishga tayyorlashda lingvistik komponentlarning (fonetika–leksikologiya–so‘z yasalishi–grammatika) metodik integratsiyasi asosida ilmiy dunyoqarash va nutq savodxonligini rivojlantiruvchi konseptual asosni bayon qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: nazariy-tahliliy yondashuv: o‘quv dasturlari va darsliklar mazmuni tahlili, til tizimi komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtirish, metodik tamoyillar (ilmiylik, izchillik, tizimlilik, mantiqiylik)ni xaritalash. Didaktik dizayn misollari “So‘z” va “Gap” mavzulari atrofida kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga yo‘naltiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tilning aloqa funksiyasi yetakchi prinsip sifatida qabul qilinganda 1–4-sinflarda fonetika–leksikologiya–so‘z yasalishi–grammatika o‘rtasidagi o‘tishlar tabiiy uyg‘unlashadi. O‘qituvchi til birliklarini (tovush–morfema–so‘z–so‘z birikmasi–gap) yaxlit tahlil qilishi o‘quvchilarda lisoniy tafakkur, og‘zaki/yozma nutq, imlo va mantiqiy ifoda ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Didaktik materiallarni yosh xususiyatlariga mos tanlash leksik-uslubiy aniqlik va metodik izchillikni ta’minlaydi.

XULOSA: lingvistik asoslar metodik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilganda bo‘lajak o‘qituvchilarda ilmiy dunyoqarash, sistemali tahlil va kommunikativ kompetensiyalar barqaror shakllanadi. Amaliy mashg‘ulotlarda integrativ topshiriqlar, matn ustida ishlash va reflektiv tahlil metodlari qo‘llansa, boshlang‘ich sinf ona tili ta’limining natijaviyligi oshadi.

Kalit so‘zlar: metodika, lingvistik asoslar, fonetika, leksikologiya, so‘z yasalishi, grammatika, lisoniy tafakkur, leksik-uslubiy aniqlik.

Iqtibos uchun: Burxanov Z.Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ona tilini metodik o‘rgatishning lingvistik asoslari. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.82–92.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

© З.Ш. Бурханов[1]✉
[1] Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в начальном образовании родной язык формирует мышление, коммуникацию и культуру речи. Игнорирование внутренней взаимосвязи компонентов языковой системы ведёт к фрагментарному усвоению. Поэтому интеграция лингвистических знаний с методическими подходами рассматривается как условие эффективности обучения.

ЦЕЛЬ: представить концептуальную основу методической подготовки, в которой интеграция лингвистических компонентов (фонетика–лексикология–словообразование–грамматика) развивает научное мировоззрение и речевую грамотность будущих учителей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: теоретико-аналитический подход: анализ программ и учебников, моделирование связей между компонентами языка, картирование методических принципов (научность, последовательность, системность, логичность). Дидактический дизайн демонстрируется на темах «Слово» и «Предложение».

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: при принятии коммуникативной функции языка как ведущей в 1–4 классах естественно выстраиваются переходы между фонетикой, лексикой, словообразованием и грамматикой. Комплексный анализ единиц (звук–морфема–слово–словосочетание–предложение) усиливает лингвистическое мышление, устную/письменную речь, орфографию и логичность высказывания. Возрасто-адекватный подбор материалов обеспечивает лексико-методическую точность и методическую последовательность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: синхронизация лингвистических оснований и методики формирует у будущих учителей системный анализ и коммуникативные компетенции. Интегративные задания, работа с текстом и рефлексивный разбор повышают результативность обучения родному языку в начальной школе.

Ключевые слова: методика, лингвистические основания, фонетика, лексикология, словообразование, грамматика, лингвистическое мышление, лексико-методическая точность.

Для цитирования: Бурханов.З.Ш. Лингвистические основы методического обучения родному языку будущих учителей начальных классов.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.82–92.

LINGUISTIC FOUNDATIONS OF METHODICAL TEACHING OF THE NATIVE LANGUAGE TO FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

© Zavqiddin.Sh. Burxanov [1]✉

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in primary education, mother-tongue instruction shapes thinking, communication, and speech culture. If the internal links of the language system are overlooked, learning becomes fragmented. Hence, integrating linguistic knowledge with methodological approaches is a prerequisite for effective instruction.

AIM: to present a conceptual basis whereby integrating linguistic components (phonetics–lexicology–word formation–grammar) develops future teachers' scientific worldview and language literacy.

MATERIALS AND METHODS: a theoretical-analytical design: curriculum and textbook content analysis; modeling inter-component links of the language system; mapping methodological principles (scientificity, coherence, systemacity, logic). Didactic design is exemplified through the topics "Word" and "Sentence."

DISCUSSION AND RESULTS: when the communicative function of language is taken as the leading principle in grades 1–4, transitions among phonetics, lexicon, word formation, and grammar align naturally. Holistic analysis of units (sound–morpheme–word–phrase–sentence) strengthens linguistic thinking, oral/written expression, orthography, and logical structuring. Age-appropriate material selection ensures lexical-methodical accuracy and instructional consistency.

CONCLUSION: synchronizing linguistic foundations with methodology cultivates systematic analysis and communicative competences in future teachers. Integrative tasks, text-based work, and reflective review enhance the outcomes of mother-tongue teaching in primary school.

Keywords: methodology, linguistic foundations, phonetics, lexicology, word formation, grammar, linguistic thinking, lexical-methodical accuracy.

For citation: Zavqiddin.Sh. Burxanov. (2025) 'Linguistic foundations of methodical teaching of the native language to future primary school teachers', Inter education & global study, (10(1)), pp.82–92. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va o'quv jarayoniga zamonaviy metodlarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu jarayon muhim, chunki ular kelajak avlodning bilim olamiga ilk qadamini tashlaydigan shaxslardir. Ona tili ta'limi bu jarayonda markaziy o'rin tutadi. U nafaqat tilni o'rgatish, balki fikrlash, muloqot va tafakkur madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili o'qitishning metodik asoslarini puxta egallagan o'qituvchi o'quvchilarning bilimini ilmiy asosda shakllantirishga, ularni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va mantiqiy xulosalar chiqarishga o'rgata oladi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda metodika fanining o'rni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

beqiyosdir.

Ona tili ta'lini o'qituvchini quyidagi yo'nalishlarda shakllantiradi:

1. Til va tafakkur birligini anglash-bu o'qituvchining ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi;

2. Til hodisalarini tahlil qilish malakasi-o'quvchilarni ham ilmiy fikrlashga o'rgatish imkonini beradi;

3. Lisoniy tafakkurni rivojlantirish-o'quvchilarni og'zaki va yozma nutq madaniyatiga tayyorlaydi;

4. Metodik yondashuvlar orqali o'qitish-ilmiy asoslangan darsni tashkil etishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarga ona tilini metodik o'rgatishda lingvistik asoslar alohida o'rin tutadi. Lingvistik bilimlar grammatik, fonetik, leksik va uslubiy jihatdan til tizimini anglashga yordam beradi. Metodika esa bu bilimlarni qanday o'qitish, qanday izchil tarzda o'quvchiga yetkazish masalasini hal etadi.

Lingvistik asoslarda tayyorlangan bo'lajak o'qituvchi:

-til birliklarining tuzilishi va ma'nosini tahlil qilishni biladi;

-o'quvchilarning til sezgisi va nutq madaniyatini shakllantira oladi;

-didaktik materiallarni to'g'ri tanlaydi va ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtiradi.

Ona tili ta'limining metodik tizimi o'z navbatida ilmiylik, izchillik, tizimlilik va mantiqiylik tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tamoyillar bo'lajak o'qituvchining dunyoqarashini kengaytiradi, tilga ilmiy yondashuvni shakllantiradi va o'quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Tilning barcha (leksik, fonetik, so'z yasash, grammatik) tomonlari o'zaro bog'liqligini va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanini hisobga olib, o'quvchilar tilni ongli o'zlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishni o'zlashtirishlari zarur.

1-4-sinflarda ona tilini o'rganish tizimi fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi va grammatikaning o'zaro bog'lanishi mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hol dastur materiallarini o'rganish tartibini belgilashda ham, ta'lim mazmunini (dastur bo'limlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishni) aniqlashda ham hisobga olinadi.

Tilning barcha jihatlarining bir-biriga ta'siri uning aloqa quroli vazifasida namoyon bo'ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so'zni to'g'ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli bo'lishi, gapda grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi kerak.

Shularni hisobga olib, kichik yoshdagi o'quvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining o'zaro bog'lanishi mohiyatini tushunishlari uchun dastur materialini o'rganishda tilning aloqa vazifasi etakchi ekani nazarda tutiladi, ya'ni kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda foydalanilishi hisobga olinadi. Shu maqsadda tilning fonetik tomonini o'rganishda so'zning ma'no va talaffuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning so'z ma'nosini farqlashdagi o'rnini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi. “So‘z” mavzusi o‘tilayotganda o‘quvchilar tomonidan so‘zning talaffuzi, leksik ma’nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalishi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda o‘qituvchi so‘zning nom bo‘lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma’nosining bir-biriga ta’sirini ham o‘quvchilarning tushunib olishlariga erishishi lozim. “Gap” mavzusini o‘rganish vaqtida esa ishning asosiy yo‘nalishi nutqda gapning til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rganish ona tilini o‘rgatishning etakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o‘suvchan, bir-biriga o‘zaro ta’sir etadigan tomonlari mavjud bo‘lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi.

Maktabda o‘quv predmeti sifatida tilni o‘rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, yani fonetikasi, leksikasi, so‘z yasalishi va gram-matikasi (morfologiya va sintaksis)ning o‘zaro ichki bogianishlariga asoslanadi. Tilning barcha tomonlari o‘zaro bog‘lanishining ko‘p qirraliligi va murakkabligi, ularning dialektik birligi, avalo, uning aloqa vositasidagi vazifasida namoyon boiadi. Aloqa vositaligi tilning muhim xususiyati, asosidir. Bu vazifani tilning har bir qismi boshqa qismlar bilan o‘zaro bog‘lanishda bajaradi. Har bir so‘zga xos bo‘lgan tovush shakli kishilarga aloqa uchun imkoniyat yaratadi. Ammo so‘zning to¬vush qurilishi, shakli mazmunsiz, aqlga to‘g‘ri kelmaganidek, o‘zicha yashamaydi. Istalgan tovushlar yig‘indisi emas, balki ma’lum ma’no bildiradigan tovushlar yig‘indisigina aloqa maqsadiga xizmat qilishi mumkin.

Ma’lumki, ma’no bildiradigan tovushlar yig‘indisi so‘zdir. Tilning lug‘at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o‘ziga xos qurilish materialidir. Tilning lug‘ati qanchalik boy bo‘lsa ham grammatikasiz u o‘lik hisoblanadi. Tilning lug‘at boyligi o‘z-o‘zicha aloqa vazifasini bajar-maydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun lug‘at boyligidagi so‘zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o‘zaro bog‘lanib, gap tuziladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi. Tishning har bir tomonining xususiyati undagi til birliklarining o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma’nosi va qoilanishi nuqtai nazardan so‘z; grammatika uchun so‘z shakllari, shuningdek, so‘z birikmasi va gap; so‘z yasalishi uchun morfema, tuzilishi va yasalishi jihatdan so‘z hisoblanadi. So‘z, so‘z birikmasi va gap grammatik tomondan ko‘pgina xu-susiyatlarga ega. So‘zning o‘z morfemik qurilishi, o‘zining so‘z yasa-lish turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), ma’lum sintaktik vazifasi bor. So‘z birikmasi ham so‘z kabi so‘z o‘zgarishi (ko‘proq ergash so‘z o‘zgaradi) shakllariga ega. Gap o‘z qurilishiga ko‘ra so‘zdan sifat jihatdan farqlanadi: so‘z o‘zi alohida kelganda mustaqil ma’no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma’no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma’nosi yana oydinlashadi. Gap va so‘z birikmasi,”qurilish materiali” sifatida xilma-xil tuzilgan so‘zdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir. Shunday qilib, tilning har birjihatining o‘ziga xos xususiyatini ko‘rib chiqishning o‘zi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ularning o‘zaro munosabatini, bir-biriga o‘tishining murakkabligini ta’kidlaydi.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslik fani bo‘limlari o‘rtasidagi munosabatlar ham shunga o‘xshash murakkabdir. Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog‘lanadi. Tovushlar, fonemalar, bo‘g‘inlar tilda alohida emas, balki ma’lum leksik ma’no bildiradigan so‘z tarkibida yashaydi. Fonetikaning sintaksis bilan bog‘lanishi, xususan, har bir gapda ma’lum ohangda boiishida ko‘rinadi. Grammatik va semantik jihat-dan bog‘langan so‘zlar majmuasi ma’lum ohangga ega bo‘lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so‘zlovchining gapda ifodalan-gan ohangiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, ohang gapda so‘z tartibi, yordamchi so‘zlardan foydalanish, so‘z o‘zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi. Leksikologiya so‘z yasalishi bilan jips bog‘lanadi: birinchidan, tilning lug‘at tarkibi, asosan, tilda mavjud bo‘lgan so‘zlardan yangi so‘zlar yasalishi hisobiga to‘ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so‘zlarning leksik ma’nosi yasama negizning moddiy ma’nosiga asoslanadi. Morfologiya leksikologiya va so‘z yasalishi bilan jips bog‘langan. Morfologiya, asosan, so‘zning grammatik xususiyatlarini o‘rganadi. So‘zning grammatik ma’nosi doimo leksik ma’nosi bilan birga namoyon bo‘ladi, har bir so‘z, bir tomondan, shu so‘zga tegishli bo‘lgan ma’lum o‘ziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so‘zning o‘z leksik ma’nosi bo‘ladi.

So‘zdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o‘rganiladi. So‘z uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli bo‘lib, bunga so‘zning leksik ma’nosi va qator grammatik belgilari bog‘liq bo‘ladi. Yangi so‘z qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va o‘zining leksik ma’nosiga ega bo‘ladi. Har bir so‘z turkumida so‘z yasalishining xarakterli xususiyatlari mavjud. So‘zning morfemik tarkibi va yangi so‘z yasalish usullari tilshunoslik fanining so‘z yasali¬shi bo‘limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o‘rganiladi. Morfologiya va sintaksis har tomonlama o‘zaro bog‘lanadi. Morfologiyada, asosan, so‘zlarning grammatik ma’nosi va uni ifo-dalash shakllari o‘rganiladi; sintaksisda so‘zlarni o‘zaro bog‘lanib so‘z birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatilishi o‘rganiladi. So‘z morfologiyada ham, sintaksisda ham o‘rganiladi, ammo o‘rganish obyekti har xil bo‘ladi. Sintaksisning o‘rganish obyekti gapdir; unda so‘z gap yoki so‘z birikmasida boshqa so‘zlar bilan ma’no va grammatik jihatdan bog‘langan holda o‘rganiladi. Morfologiyada so‘z gapdan tashqarida ham o‘rganilishi mumkin; so‘zga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan so‘zlar bilan o‘zaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda so‘zga bunday har xil yondashish ularning bir-biriga bog‘liqligini inkor etmaydi, aksincha, ular so‘z va gapning o‘zida yashaydi. So‘zlar so‘z o‘zgarish tizimiga ega bo‘lgani tufayli gaplar aloqa vazifasini bajaradi. Shakl yasalishi va so‘z yasalishi morfologiyada o‘rganiladi, ammo gapda tatbiq etiladi, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish qoidalarini o‘rganish esa sintaksis sohasiga taalluqlidir. “So‘z birikmasi” tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish usulini aniqlashda shu so‘z birikmasiga kirgan so‘z turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rganiladigan til

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo qilsa ham, grammatikaning mustaqil bo‘limi ekanini ta’kidlash uchun yetarli. Keltirilgan fikrlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga predmetlararo ichki bog‘lanishni hisobga olgan holda ona tilini o‘rgatish metodikasini belgilaydi:

1.Tilning barcha (leksik, fonetik, so‘z yasash, gramrnatik) tomonlari o‘zaro bog‘liqligini va ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanini hisobga olib, o‘quvchilar tilni ongli o‘zlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘zlashtirishlari zarur. 1-4-sinflarda ona tilini o‘rganish tizimi fonetika, leksikologiya, so‘z yasalishi va grammatikaning o‘zaro bog‘lanishi mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hoi dastur materiallarini o‘rganish tartibini belgilashda ham, ta’lim mazmunini (dastur bo‘limlari o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni) aniqlashda ham hisobga olinadi.

2.Tilning barcha jihatlarining bir-biriga ta’siri uning aloqa quroli vazifasida namoyon bo‘ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so‘zlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli bo‘lishi, gapda grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi kerak. Shularni hisobga olib, kichik yoshdagi o‘quvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so‘z yasalishi va grammatik tomonlarining o‘zaro bog‘lanishi mohiyatini tushunishlari uchun dastur materialini o‘rganishda tilning aloqa vazifasi etakchi ekani nazarda tutiladi, ya’ni kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda foydalanilishi hisobga olinadi. Shu maqsadda tilning fonetik tomonini o‘rganishda so‘zning ma’no va talafifuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning so‘z ma’nosini farqlashdagi o‘rnini tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi. “So‘z” mavzusi o‘tilayotganda o‘quvchilar tomonidan so‘zning talaffuzi, leksik ma’nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalishi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi.

Bunda o‘qituvchi so‘zning nom bo‘lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma’nosining bir-biriga ta’sirini ham o‘quvchilarning tushunib olishlariga erishishi lozim. Gap” mavzusini o‘rganish vaqtida esa ishning asosiy yo‘nalishi nutqda gapning til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri biian bog‘liq hoida o‘rganish ona tilini o‘rgatishning etakchi metodik tamoyili hisobla¬nadi. Buni amalga oshirish til o‘suvchan, bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi-gan tomonlari mavjud bo‘lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning etakchi sharti − o‘quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir.

Tilning rivojlanishi, ayrim so‘zlarning ma’nolari haqidagi bilimni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, fe’lni o‘rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o‘rinda “So‘zning tarkibi” bo‘limi katta imkoniyatga ega. O‘quvchilar bu bo‘lim materiallarini o‘rganish jarayonida tilimizning yangi so‘zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so‘z yasalishi bilan tanishadilar. Ma’lumki, ko‘pgina yangi so‘zlar tilda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mavjud bo‘lgan so‘zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi: limon tipida limonzor, suvchi tipida bo‘zchi kabi. Tilda yangi so‘zning paydo bo‘lishi o‘zidan keyin bir xil o‘zakli so‘zlar guruhining hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi: ishli, ishsiz, ishchi kabi. Boshlang‘ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o‘rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratpsh muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan xarakatchan, tez rivojlanadigan bo‘lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘qituvchi va o‘quvchilarning kuzatishlari o‘quvchilarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi. Tildan bilim berishda o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O‘qituvchi nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo‘lgan daliliy materiallarni yig‘ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o‘rganish natijasida o‘quvchilar nutk faoliyatining sifati o‘zgaradi, ongliligi ortadi. Dialektik tafakkur keng ma’noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog‘liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig‘indisi bilan rivojlanishda ko‘rish ko‘nikmasini ta’riflaydi. Tafakkurning bunday sifati o‘quvchilarda asta-sekin shakllana boradi va o‘z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o‘rganiladigan hodisalarning ayrim tomonlari o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda o‘quvchilarning o‘quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo‘lmoqda. Tilni o‘rganishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida o‘quvchilarning o‘zlari “topgan” yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish etakchi hisoblanadi.

Ona tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o‘rgatishga asos bo‘ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy ifodaliligi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg‘ulariga ta’sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o‘quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o‘stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Keyigi yillarda maktab ona tili darsliklari va o‘qituvchilar uchun nashr qilingan qo‘llanmalar materiali mazmuniga qo‘yilgan talablar anchagina ortdi. Materialning asosiy mezoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog‘lanishi, matnlarning g‘oyaviy-mavzuviy yo‘naltirilganligi, kichik yoshdagi o‘quvchilarga mosligidir. Shunday qilib, tilni o‘rganish jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga o‘qituvchining metodologik yondashuvi, o‘quvchilar o‘zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o‘quvchilar o‘rganib oladigan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bilish usuli, tilni o‘rganishga asos bo‘ladigan materialning bilim berishdagi, g‘oyaviy-siyosiy va badiiy qimmati hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatar ekan.

O‘quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘rgatishning lingvistik asoslari Maktabda o‘quv predmeti sifatida tilni o‘rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, ya’ni fonetikasi, leksikasi, so‘z yaslishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis)ning o‘zaro ichki bog‘lanishlariga asoslanadi. Tilning barcha tomonlari o‘zaro bog‘lanishining ko‘p qirraliligi va murakkabligi, ularning dialektik birligi, avvalo, uning aloqa vositasidagi vazifasida namoyon bo‘ladi. Aloqa vositaligi tilning muhim xususiyati, asosidir. Bu vazifani tilning har bir qismi boshqa qismlar bilan o‘zaro bog‘lanishda bajaradi. Har bir so‘zga xos bo‘lgan tovush shakli kishilarga aloqa uchun imkoniyat yaratadi. Ammo so‘zning tovush qurilishi, shakli mazmunsiz aqlga to‘g‘ri kelmaganidek, o‘zicha yashamaydi. Istalgan tovushlar yig‘indisi emas, balki ma’lum ma’no bildiradigan tovushlar yig‘indisigina aloqa maqsadiga xizmat qilishi mumkin. Ma’lumki, ma’no bildiradigan tovushlar yig‘indisi so‘zdir. Tilning lug‘at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o‘ziga xos qurilish materialidir. Tilning lug‘ati qanchalik boy bo‘lsa ham grammatikasiz u o‘lik hisoblanadi. Tilnnng lug‘at boyligi o‘z-o‘zicha aloqa vazifasini bajarmaydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun lug‘at boyligidagi so‘zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o‘zaro bog‘lanib, gap tuziladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi. Tilning har bir tomonining xususiyati undagi til birliklarining o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi.

Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma’nosi va qo‘llanishi nuqtai nazardan so‘z; grammatika uchun so‘z shakllari, shuningdek, so‘z birikmasi va gap; so‘z yasalishi uchun morfema, tuzilishi va yasalishi jihatdan so‘z hisoblanadi. So‘z, so‘z birikmasi va gap grammatik tomondan ko‘pgina xususiyatlarga ega. So‘zning o‘z morfemik qurilishi, o‘zining so‘z yasalish turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), ma’lum sintaktik vazifasi bor. So‘z birikmasi ham so‘z kabi so‘z o‘zgarishi (ko‘proq ergash so‘z o‘zgaradi) shakllariga ega. Gap o‘z qurilishiga ko‘ra so‘zdan sifat jihatdan farqlanadi: so‘z o‘zi alohida kelganda mustaqil ma’no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma’no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma’nosi yana oydinlashadi. Gap va so‘z birikmasi “qurilish materiali” sifatida xilma-xil tuzilgan so‘zdan foydalanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ona tili ta’limining metodik o‘rni beqiyosdir. Chunki aynan ona tili o‘qitish jarayonida o‘qituvchi nafaqat lingvistik bilimlarni, balki tafakkur, muloqot, tahlil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ona tilini metodik o‘rgatishda lingvistik asoslarni chuqur o‘zlashtirish, amaliy mashg‘ulotlarda ularni qo‘llash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish zarurdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абдуллаева Қ. Биринчи синфда нутқ ўстириш. – Т.: Ўқитувчи, 1968. – 114 б.
2. Мавлонова Р.А. Теория и практика начального образования в Узбекистане: Дис. док. пед. наук. – Т.: 1989.
3. Тошпулатова М.И. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш: Дис. пед. фан. док. (PhD). – Т.: 2017.
4. Боймуродова Г. Бошланғич синф ўқитувчилари касбий-шахсий тайёргарлигини таъминлашнинг технологик тизими. – Т.: Фан ва технология, 2007.
5. Бакиева Ҳ.С. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси. Пед.фан.ном. дисс. –Т.: 2019. – 144б.,
6. Эрназарова М.С.Таълим қорқалпоқ тилида олип бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси. Пед. фан. ном. ... дисс. – Т.: 1999. – 22 б.
7. Сариев Ш.У.Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти (1-2-синф материаллари мисолида). Пед. фан. номз. дисс. –Т.:2020. 161 б.
8. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2003. - 280 б.
9. Yembergenova A.A. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarining imloviy savodxonligini takomillashtirish metodikasi (ta’lim qoraqalpoq tilida olin boriladigan maktablar misolida) Ped. fan. fal.(PhD) dok. ... diss. avtoreferat. – Nukus.: 2023. – 52 b.,
10. Жумашева Г.Икки тиллилик шароитида қорқалпоқ тилида сўзлашиш кўникмаларини шакллантириш (таълим рус тилида олиб бориладиган мактабгача таълим ташкилотларида ва умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида): Пед. фан. док дисс. автореф. –Нукус.: 2021. – 68 б.
11. Науризбаева А.С. Методика обучения конструированию предложений: на уроках Каракалпакского языка в начальных классах школ с русским языком обучения. Автореф. дисс. канд.пед.наук.– Т.: 2002. – 31 б.
12. Бекниязова Н.И. Таълим қорақлпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг бошланғич синфларида ўқувчилар сўз бойлигини ошириш (предмет белгисини билдирган сўзлар мисолида). Пед. фан. номли дисс. – Т.:1998. 134 б.
13. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-2-3-4 sinflar darsliklari. –T.: 2021.-118 б.,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

14. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Shodmonqulova D. (Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari uchun) Ona tili. Darslik. –T.: O‘qituvchi, 2020. – 158 b.,
15. Axmedova M.E., Rasulova G.K., Hamroyev G‘.H., Kuranbayeva X.A. Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi. Darslik. “Zuxra baraka biznes” MCHJ. -T.: 2023. – 298 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Burxanov Zavqiddin Sherali o‘g‘li**, tadqiqotchi[**Бурханов Завкиддин Шерали угли**, исследователь,], [**Burxanov Zavqiddin Sherali o‘g‘li** researcher,]; manzil: Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4- uy, pochta indeksi: 130100., [адрес: Джизакская область, г. Джизак, ул. Шарафа Рашидова, д. 4, почтовый индекс: 130100.], [address: Jizzakh region, Jizzakh, Sharafa Rashidova str., 4, postal code: 130100.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINI FUNKSIONAL SAVODXONLIK ASOSIDA GLOBAL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

© M.A. G‘ofurova [1]✉

[1]Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida global kompetensiyalarni funksional savodxonlik asosida rivojlantirish zarurati asoslanadi. UNESCO va OECD talqinlari doirasida global va madaniyatlararo masalalarni anglash, samarali muloqot va hamkorlikning boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni yoritiladi.

MAQSAD: funksional savodxonlikni markazga qo‘ygan holda, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida global kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik amaliyotlar va metodik yondashuvlarni aniqlash va tizimlashtirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: konseptual va tizimli adabiyotlar sharhi (UNESCO, OECD/PISA, Mansilla & Jackson, Banks va b.); kompetensiyaga yo‘naltirilgan, konstruktivistik va reflektiv yondashuvlar tahlili; muammoli, interfaol, hamkorlikda, tadqiqotga yo‘naltirilgan va modulli ta’lim texnologiyalarining taqqosiy ko‘rib chiqilishi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: funksional savodxonlik (bilimni real vaziyatlarda qo‘llash, axborotni tahlil qilish, hamkorlikda yechim ishlab chiqish) global kompetensiyaning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulqiy komponentlari bilan uzviy bog‘liq. Ta’lim jarayoniga tizimli integratsiya qilinganda talabalarda nuqtai nazarlarni qadrlash, madaniyatlararo muloqot va mas’uliyatli harakat ko‘nikmalari kuchayadi; amaliy tajribalar global kompetensiyalar ko‘rsatkichlarida 30–37 % gacha o‘sishni ko‘rsatadi.

XULOSA: bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlovida funksional savodxonlikka tayangan kompetensiyaviy va reflektiv yondashuvlar global kompetensiyalarni barqaror rivojlantiradi. Bu boshlang‘ich ta’limda global fuqarolik, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo hamkorlikni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim; global kompetensiya; funksional savodxonlik; tanqidiy fikrlash; muloqot; hamkorlik; boshlang‘ich ta’lim; metodika.

Iqtibos uchun: G‘ofurova.M.A. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini funksional savodxonlik asosida global kompetensiyalarni rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.93–99.

РАЗВИТИЕ ГЛОБАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

© М.А. Гофурова [1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1] Ферганский политехнический институт, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: обосновывается необходимость развития глобальной компетентности у будущих учителей начальных классов на основе функциональной грамотности; рассматриваются подходы UNESCO и OECD, значение межкультурного взаимодействия, коммуникации и сотрудничества.

ЦЕЛЬ: идентифицировать и систематизировать организационно-педагогические практики и методические решения, развивающие глобальную компетентность студентов на базе функциональной грамотности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: концептуальный и системный обзор литературы (UNESCO, OECD/PISA, Mansilla & Jackson, Banks и др.); анализ компетентностного, конструктивистского и рефлексивного подходов; сравнительный разбор проблемного, интерактивного, кооперативного, исследовательского и модульного обучения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: функциональная грамотность (применение знаний, анализ информации, совместное решение задач) органично связана с когнитивными, социально-эмоциональными и поведенческими измерениями глобальной компетентности. При системной интеграции усиливаются принятие перспектив, межкультурная коммуникация и ответственное действие; практические данные указывают на прирост глобальных компетенций до 30–37 %.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: компетентностно-ориентированные и рефлексивные модели подготовки учителей, опирающиеся на функциональную грамотность, обеспечивают устойчивое развитие глобальной компетентности и её эффективное внедрение в начальной школе.

Ключевые слова: образование; глобальная компетентность; функциональная грамотность; критическое мышление; коммуникация; сотрудничество; начальное образование; методика.

Для цитирования: Гофурова.М.А. Развитие глобальных компетенций на основе функциональной грамотности у будущих учителей начальной школы.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.93–99.

DEVELOPMENT OF GLOBAL COMPETENCIES BASED ON FUNCTIONAL LITERACY AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

©Mahfuza.A. G‘ofurova [1]✉
[1] Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper substantiates the need to cultivate global competence in prospective primary teachers through functional literacy, drawing on UNESCO/OECD frameworks and emphasizing intercultural understanding, communication, and collaboration.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: to identify and systematize organizational–pedagogical practices and methodological solutions that develop student global competence anchored in functional literacy.

MATERIALS AND METHODS: conceptual/systematic literature review (UNESCO, OECD/PISA, Mansilla & Jackson, Banks, etc.); analysis of competency-based, constructivist, and reflective pedagogies; comparative appraisal of problem-based, interactive, collaborative, inquiry-based, and modular instructional technologies.

DISCUSSION AND RESULTS: functional literacy—applying knowledge in real contexts, analyzing information, co-creating solutions—aligns with the cognitive, socio-emotional, and behavioral dimensions of global competence. When embedded systematically, perspective-taking, intercultural communication, and responsible action strengthen; practical evidence indicates gains in global competence of up to 30–37%.

CONCLUSION: competency-based and reflective teacher-education models centered on functional literacy robustly build global competence, enabling effective integration of global citizenship, critical thinking, and intercultural collaboration in primary education.

Keywords: education; global competence; functional literacy; critical thinking; communication; collaboration; primary education; methodology.

For citation: Mahfuza.A. G‘ofurova. (2025) ‘Development of global competencies based on functional literacy among future primary school teachers’, Inter education & global study, (10(1)), pp. 93–99. (In Uzbek).

XXI asrda ta’lim jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki shaxsni global miqyosda fikrlash, harakat qilish va hamkorlik qilishga tayyorlashdan iboratdir. Shu bois, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida global kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Global kompetensiyalar shaxsning turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish, global muammolarni anglash va ularni hal etishda faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu esa ta’lim jarayonida funksional savodxonlikni chuqur shakllantirish va uni amaliy faoliyatga integratsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Global kompetensiyalar — bu shaxsning global miqyosdagi muammolarni tushunish, turli madaniyat va qadriyat vakillari bilan samarali hamkorlik qilish, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qila olish kabi qobiliyatlarini anglatadi. UNESCO (2018) ta’rifiga ko‘ra, global kompetensiyalar:

a) turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish,
b) global masalalarni tushunish va ularga faol fuqarolik pozitsiyasi bilan yondashish,
c) hamkorlikda ishlash va muammolarni hal etish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

d) insoniyat qadriyatlari va barqaror rivojlanish tamoyillarini tushunish va amalda qo‘llash

kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi bu kompetensiyalarga ega bo‘lishi orqali o‘z o‘quvchilarini nafaqat bilimli, balki dunyoqarashi keng, ijtimoiy faol va global tafakkurga ega shaxslar qilib tarbiyalay oladi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) global kompetensiyani — mahalliy, global va madaniyatlararo o‘lchamlarga ega bo‘lgan masalalarni tushunish va ularga yechim topa olish qobiliyati sifatida ta’riflaydi (Boix Mansilla & Jackson, 2011, 13-bet). Bu mualliflar global kompetensiya tushunchasi doirasida to‘rtta o‘lchovni ajratib ko‘rsatganlar:

1. Dunyoni o‘rganish,
2. Nuqtai nazarlarni qadrlash,
3. G‘oyalarni samarali yetkazish va
4. Harakat qilish.

Birinchi o‘lchovga ko‘ra, global kompetensiyaga ega bo‘lgan talabalar atrofdagi dunyoni va uning qanday ishlashini tushunishga qiziqish bildiradilar. Ular mahalliy, global va madaniy kontekstlarni tahlil qiladilar.

Ikkinchi o‘lchov nuqtai nazaridan, bunday talabalar o‘zlarining dunyo haqidagi qarashlari mavjudligini va boshqalar bu qarashlarni baham ko‘rmasligi mumkinligini anglaydilar hamda turli dunyoqarash va nuqtai nazarlarning mavjudligini tan oladilar.

Uchinchi o‘lchovga kelsak, global kompetensiyaga ega talabalar o‘z g‘oyalarini turli auditoriyalar bilan, og‘zaki hamda og‘zaki bo‘lmagan shakllarda samarali tarzda yetkazib bera oladilar va madaniyatlararo samarali muloqot o‘rnatishga qodirdirlar.

Nihoyat, to‘rtinchi o‘lchov bo‘yicha, global kompetensiyaga ega talabalar umumiy farovonlik va barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishish yo‘lida hamkorlikda harakat qilish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, jamiyatda o‘zgarishlar qiluvchi shaxslar sifatida faol ishtirok etadilar

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi — bilimlarni o‘zlashtirgan shaxsni tayyorlashdan ko‘ra, global tafakkurga ega, madaniyatlararo muloqotga qodir, ijtimoiy mas’uliyatli fuqaroni shakllantirishga qaratilgan (Banks, 2020). Shu nuqtai nazardan, global kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

UNESCO (2018) ta’kidlaganidek, global kompetensiya bu shaxsning turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot olib borish, global muammolarni tushunish va ularni hal etishda faol ishtirok etish, shuningdek, barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq qarorlar qabul qila olish qobiliyatidir. Bu kompetensiyalarni rivojlantirish, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida muhim bo‘lib, aynan shu davrda o‘quvchilarning global tafakkuri, empatiyasi va ijtimoiy mas’uliyat hissi shakllana boshlaydi.

OECD (2018) tomonidan ishlab chiqilgan “PISA Global Competence

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Framework”da global kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlar orqali izohlanadi: global muammolar haqida bilimga ega bo‘lish, turli madaniy nuqtai nazarlarni tahlil qilish, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini egallash, shuningdek, global kontekstda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Ushbu yondashuv, o‘z navbatida, funksional savodxonlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, axborotni tahlil qilish, hamkorlikda yechim ishlab chiqish kabi amaliy ko‘nikmalarni talab etadi.

Mansilla va Jackson (2011) global kompetensiyalarni rivojlantirishni shaxsning dunyo bilan faol muloqotda bo‘lish qobiliyati sifatida talqin qilib, bu jarayonni ta’lim tizimiga integratsiya qilishda o‘qituvchilarning roli alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari global kontekstda darslarni loyihalash, madaniyatlararo muloqot vaziyatlarini yaratish va o‘quvchilarni xalqaro masalalar haqida fikrlashga o‘rgatish orqali global tafakkurni rivojlantirishda muhim vositachilardir.

Mahalliy tadqiqotlarda ham ushbu yo‘nalishning ahamiyati e’tirof etiladi. Masalan, Qodirova (2021) funksional savodxonlikni zamonaviy pedagogikaning asosiy natijaviy ko‘rsatkichi sifatida talqin etar ekan, u global kompetensiyalarni shakllantirish bilan uzviy aloqada ekanligini ta’kidlaydi. Chunki funksional savodxonlik bilimlarni faqat nazariy emas, balki global miqyosdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik vaziyatlarda ham samarali qo‘llashni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, global kompetensiyalarni rivojlantirish — bu alohida pedagogik yo‘nalish emas, balki funksional savodxonlikni rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismidir. Bu jarayon talabalarni global o‘zgarishlarga moslashuvchan, ijtimoiy ma’suliyatli, madaniyatlararo hamkorlikka tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida global kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari, metodik yondashuvlar va reflektiv pedagogik amaliyotlar alohida o‘rin tutadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida global kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari tayyorlov jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, funksional savodxonlik asosida global kompetensiyalarni shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat bilimli va malakali mutaxassis sifatida, balki global miqyosda fikrlay oladigan, turli madaniyat va qadriyat vakillari bilan samarali hamkorlik qila oladigan pedagog sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining funksional savodxonlik asosida global kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni o‘zining nazariy, ilmiy, pedagogik va metodik asoslariga ega bo‘lgan murakkab tizimli hodisa sanaladi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun, eng avvalo, zamonaviy pedagogik paradigmalarga, xalqaro kompetensiyalar standartlariga, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga tayanish zarur. Tadqiqotning metodologik asosini konstruktivizm, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi, reflektiv pedagogika, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

umr bo‘yi ta’lim (lifelong learning) konsepsiyasi tashkil etadi. Konstruktivistik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning bilimni faol tarzda o‘zlashtirishi, uni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi hamda yangi bilimlar bilan integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi esa funksional savodxonlikni nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish layoqati bilan ham belgilaydi. Bu esa global kompetensiyalarning — ya’ni madaniyatlararo muloqot, tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash, ijtimoiy javobgarlik va global fuqarolik kabi sifatlarning shakllanishini ta’minlaydi. Shuningdek, metodologik yondashuv sifatida reflektiv pedagogikadan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va professional o‘sishga intilish jarayonini rag‘batlantiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa har bir talabaning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularning o‘quv jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini kafolatlaydi.

Tadqiqotning metodologik asoslari sifatida, shuningdek, UNESCO (2018), OECD (2019) va PISA (2022) tomonidan ishlab chiqilgan global kompetensiyalar modeli, shuningdek, X. Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi, J. Deweyning tajribaga asoslangan ta’lim g‘oyalari hamda M. Fullan (2020)ning zamonaviy o‘qituvchi kompetensiyalari haqidagi qarashlari asos sifatida xizmat qiladi. Bu yondashuvlarning barchasi integrativ holda qo‘llanilganda, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida funksional savodxonlik bilan uyg‘unlashgan global kompetensiyalarni rivojlantirish uchun puxta ilmiy-metodologik asosni yaratadi.

Bu natijalar hozirgi boshlang‘ich ta’lim pedagoglarini tayyorlash tizimida global kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha metodik ta’minot yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi. Shuningdek, funksional savodxonlikning barcha komponentlari o‘rtasida tizimli bog‘liqlikni shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Kognitiv: o‘quvchilar mahalliy, mintaqaviy, milliy va global muammolar hamda turli mamlakat va xalqlarning o‘zaro bog‘liqligi, hamkor ekani to‘g‘risida bilim va tushunchalarga, tanqidiy fikrlash hamda tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ijtimoiy-emotsional: o‘quvchilar butun insoniyatga daxldorlik tuyg‘usini egallaydilar, inson huquqlari doirasida qadriyatlar hamda burchlarni farqlaydilar, ularda mehr-oqibat, birdamlik, xilmaxillikni hurmat qilish hissi rivojlanadi. Xatti-harakat: o‘quvchilar tinch va barqaror dunyoni barpo etish uchun mahalliy, mintaqaviy, milliy va global darajada samarali hamda mas’uliyat bilan harakat qiladilar. Global ta’lim taraqqiyot ta’limi, inson huquqlari bo‘yicha ta’lim, barqarorlik uchun ta’lim, tinchlik va nizolarning oldini olish uchun ta’lim va madaniyatlararo ta’limni qamrab oladi. Global fuqarolik ta’limi kengayib borayotgan sohadir. Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining rivojlanish tendensiyalari milliy davlatlar chegaralaridan tashqariga chiqdi va xalqaro hayotning bir qismiga aylandi. Bu esa integratsiyalashuv jarayonlarining yanada tezlashishi va xalqaro miqyosda dunyo fuqarosi sifatida harakatlanishga imkon beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv texnologiyalari qo‘llanilganda, talabalarning global kompetensiyalari 30–37% gacha

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

sezilarli darajada oshadi. Bu esa taklif etilgan yondashuvlarning samaradorligini amaliy jihatdan isbotlaydi.

Jamiyatda funksional savodxonlikni shakllantirishning muhim asosi sifatida ta’lim texnologiyalari, ya’ni muammoli ta’lim, interfaol ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, tadqiqotchilik ta’lim, modulli ta’lim va boshqa ta’lim texnologiyalarining ta’lim jarayonida keng tatbiq etilishini qarashimiz mumkin. Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining funksional savodxonligi asosida global kompetensiyalarni rivojlantirish — bu zamonaviy pedagogikaning strategik yo‘nalishidir. Bu jarayon orqali tayyorlangan pedagoglar nafaqat o‘z kasbiy vazifalarini yuqori darajada bajaradi, balki o‘quvchilarni global dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlay oladigan yetuk mutaxassislar sifatida shakllanadi. Global kompetensiyalarni rivojlantirish funksional savodxonlik bilan uzviy bog‘liq jarayon bo‘lib, uni alohida ko‘nikma sifatida emas, balki kompleks pedagogik faoliyatning natijasi sifatida qarash zarur. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, funksional savodxonlik asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarni global fuqarolik pozitsiyasiga ega, tanqidiy fikrlovchi va madaniyatlararo hamkorlikka tayyor pedagoglar sifatida tayyorlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: Sano-standart, 2017. – 416 b.
2. OECD. (2018). Preparing our youth for an inclusive and sustainable world: The OECD PISA global competence framework. OECD Publishing.
3. Qodirova, M. (2021). Funksional savodxonlik zamonaviy ta’limning sifat ko‘rsatkichi sifatida. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
4. Mansilla, V. B., & Jackson, A. (2011). Educating for global competence: Preparing our youth to engage the world. Council of Chief State School Officers.
5. Banks, J. A. (2020). Diversity and citizenship education: Global perspectives. Jossey-Bass.
6. UNESCO. (2018). Global citizenship education: Preparing learners for the challenges of the 21st century. Paris: UNESCO.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**G‘ofurova Mahfuza Abbosovna**, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) [**Гофурова Махфуза Аббосовна**, Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,], [**G‘ofurova Mahfuza Abbosovna** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy., [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19.], [address: Murabiylar str., 19, Fergana, 150100]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK AHAMIYATI

© A.A . Gulyamova[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati va uning zamonaviy ta’lim tizimidagi dolzarbligi yoritiladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida defektologik kadrlar tayyorlashda shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv va empatik yondashuvlarning ahamiyati asoslanadi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyatini aniqlash, ularni nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida tayyorlashga oid metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida maxsus pedagogika, defektologiya, psixologiya va inklyuziv ta’lim sohasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Kuzatuv, refleksiv tahlil, simulyatsion vaziyatlar va loyiha asosidagi ta’lim metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetentligini rivojlantirish shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv va faoliyatga asoslangan yondashuvlar orqali samarali kechadi. O‘quv jarayoniga AKT vositalarini, trening va interaktiv metodlarni joriy etish talabalarning empatiya, kommunikativ madaniyat va ijtimoiy moslashuv qobiliyatini oshiradi.

XULOSA: kasbiy kompetentlikni rivojlantirish pedagogik jihatdan muhim bo‘lib, bu jarayon nafaqat o‘qituvchining shaxsiy o‘sishini, balki maxsus ehtiyojli bolalarning to‘laqonli ta’lim olishini va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi. Shu sababli, bu yo‘nalishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va refleksiv metodlarni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: oligofrenopedagog, kasbiy kompetentlik, inklyuziv ta’lim, refleksiya, empatiya, innovatsion metodlar, defektologik tayyorgarlik.

Iqtibos uchun: Gulyamova A.A. Bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik ahamiyati. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.100–107.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ОЛИГОФРЕНОПЕДАГОГОВ

© А.А. Гулямова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1] Узбекский национальный педагогический университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье раскрывается необходимость развития профессиональной компетентности будущих олигофренопедагогов и её актуальность в современной образовательной системе. Обоснована важность личностно-ориентированного, рефлексивного и эмпатийного подходов при подготовке дефектологических кадров в условиях инклюзивного образования.

ЦЕЛЬ: цель исследования – определить педагогическое значение развития профессиональной компетентности будущих олигофренопедагогов и разработать методические подходы к их подготовке на основе интеграции теории и практики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования были проанализированы научные источники по специальной педагогике, дефектологии, психологии и инклюзивному образованию. Использованы методы наблюдения, рефлексивного анализа, симуляционных ситуаций и проектного обучения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что развитие профессиональной компетентности будущих олигофренопедагогов эффективно реализуется через личностно-ориентированные, рефлексивные и деятельностные подходы. Внедрение ИКТ, тренингов и интерактивных методов способствует развитию эмпатии, коммуникативной культуры и социальной адаптации студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие профессиональной компетентности имеет важное педагогическое значение, так как обеспечивает не только личностный рост педагога, но и полноценное обучение и социальную интеграцию детей с особыми образовательными потребностями. Внедрение инновационных технологий и развитие рефлексивных методов являются стратегически значимыми направлениями.

Ключевые слова: олигофренопедагог, профессиональная компетентность, инклюзивное образование, рефлексия, эмпатия, инновационные методы, дефектологическая подготовка.

Для цитирования: Гулямова.А.А. Педагогическое значение развития профессиональной компетентности будущих олигофренопедагогов.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.100–107.

THE PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE OLIGOPHRENOPEDAGOGUES

©Aziza.A. Gulyamova [1]✉
[1] Uzbek National Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: The article highlights the necessity and relevance of developing professional competence among future oligophrenopedagogues within the modern

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

educational system. The importance of person-centered, reflective, and empathic approaches in training defectology specialists for inclusive education is emphasized.

AIM: the study aims to determine the pedagogical significance of developing professional competence in future oligophrenopedagogues and to elaborate methodological approaches for integrating theoretical and practical training.

MATERIALS AND METHODS: the research involved analyzing scientific sources in special pedagogy, defectology, psychology, and inclusive education. Observation, reflective analysis, simulation-based situations, and project-based learning methods were applied.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that developing professional competence in future oligophrenopedagogues is most effective through person-centered, reflective, and activity-based approaches. The use of ICT tools, interactive training, and practical simulations enhances students' empathy, communicative culture, and social adaptability.

CONCLUSION: the pedagogical significance of developing professional competence lies in ensuring not only teachers' personal growth but also full educational inclusion and social integration of children with special needs. Therefore, implementing innovative educational technologies and developing reflective teaching practices represent key strategic priorities.

Keywords: oligophrenopedagogue, professional competence, inclusive education, reflection, empathy, innovative methods, defectological training.

For citation: Aziza.A. Gulyamova. (2025) 'The pedagogical importance of developing the professional competence of future oligophrenopedagogues', Inter education & global study, (10(1)), pp.100–107. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning joriy etilishi natijasida maxsus ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi pedagoglardan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik, insonparvarlik va psixologik sezgirlik talab qilinmoqda. Ayniqsa, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar — oligofrenopedagoglar — o'z faoliyatida nafaqat maxsus pedagogik bilim va metodik ko'nikmalarga, balki har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini chuqur anglay olish salohiyatiga ega bo'lishlari lozim. Shu bois, bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy pedagogik, psixologik va texnologik yondashuvlar asosida takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Oligofrenopedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish deganda, nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki maxsus pedagogika va defektologiya sohasida amaliy faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan pedagogik mahorat, kommunikativ madaniyat, diagnostik ko'nikma va refleksiv tahlil qobiliyatlarini shakllantirish tushuniladi. Bunday kompetentlik mutaxassisning har bir o'quvchi shaxsini alohida o'rganish, uning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

psixofiziologik rivojlanish darajasiga mos individual ta’lim dasturini ishlab chiqish, ijobiy motivatsion muhit yaratish hamda ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” doirasidagi davlat dasturlari asosida maxsus ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, inklyuziv pedagogik kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini oshirish, ularni inklyuziv ta’lim muhiti talablariga mos ravishda tayyorlash, zamonaviy psixodiagnostik metodlar, AKT vositalari va interfaol ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar (M. Akramova, Z. To‘xtayeva, L. Qodirova, T. Booth, M. Ainscow va boshqalar) shuni ko‘rsatmoqdaki, maxsus ta’lim tizimida samarali natijaga erishish uchun pedagogning kasbiy kompetentligi, ijtimoiy-emotsional barqarorligi, empatiyasi va kommunikativ madaniyati yetakchi omil hisoblanadi. Shu sababli, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda shakllantirish, ularni nazariya va amaliyotning integratsiyasi asosida tayyorlash, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvni tatbiq etish zarur.Shunday qilib, bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati shundaki, u nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar bilan samarali ishlashni ta’minlaydi, balki jamiyatda inklyuziv qadriyatlar, bag‘rikenglik, hamkorlik va inson qadrini ulug‘lash g‘oyalarini hayotga tatbiq etadi. Shu boisdan, ushbu masalani ilmiy asosda o‘rganish, samarali pedagogik shart-sharoit va mexanizmlarni aniqlash, innovatsion o‘qitish texnologiyalarini joriy etish hozirgi ta’lim tizimining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi defektologiya, maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim yo‘nalishlarida olib borilgan ilmiy izlanishlarda markaziy o‘rinni egallaydi. Jahon miqyosidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda pedagogning kasbiy tayyorgarligi, insonparvar yondashuvi va psixologik sezgirligi ta’lim jarayonining sifatini belgilovchi eng muhim omillardandir (Ainscow, Booth, Dyson, 2006; Florian, 2014).

Maxsus pedagogika klassiklari L. S. Vygotskiy, S. L. Rubinshteyn, P. Ya. Galperin, A. R. Luriya, M. S. Pevznerlarning asarlarida aqli zaif bolalar rivojlanishining psixologik-pedagogik qonuniyatlari chuqur tahlil etilgan. L. S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi oligofrenopedagog faoliyatining metodologik asosi bo‘lib, bolalarning imkoniyatlarini ularning real rivojlanish darajasi bilan emas, balki o‘qituvchi bilan o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat orqali namoyon bo‘ladigan potensial imkoniyatlar asosida baholash zarurligini ta’kidlaydi. Bu g‘oya bugungi kunda maxsus ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirishning nazariy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

poydevoriga aylangan.

Xorijiy olimlardan T. Booth va M. Ainscow (2006) o‘zlarining “Index for Inclusion” nomli ishlarida inklyuziv ta’limda pedagogning kasbiy kompetentligini, shuningdek, ijtimoiy hamkorlik, empatiya, adaptiv metodlarni tanlash va o‘quvchilar individual ehtiyojlariga mos o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatini asosiy komponent sifatida ko‘rsatadilar. Ularning tadqiqotlarida ta’limdagi muvaffaqiyatning mezoni sifatida pedagogning o‘z faoliyatini doimiy refleksiya asosida takomillashtirishi, yangi pedagogik texnologiyalarni integratsiya qila olishi va o‘quvchilar bilan insonparvarlik asosida muloqot o‘rnatish qobiliyati e’tirof etilgan.

Shuningdek, G. L. Zaitseva (2017) va L. M. Shipitsina (2019) tomonidan olib borilgan izlanishlarda oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, diagnostik kuzatuvlar, simulyatsion vaziyatlar muhim metodik vositalar sifatida e’tirof etiladi. Ularning fikricha, defektologlarni tayyorlashda nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi, har bir talabaning refleksiv tahlil qilish va pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish kasbiy kompetentlikning asosiy shartidir.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish — bu faqat nazariy tayyorgarlikni emas, balki amaliy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish, individual yondashuvni amalga oshirish, ijtimoiy-hissiy intellektni shakllantirish va shaxsiy refleksiya madaniyatini rivojlantirish jarayonidir. Ilmiy adabiyotlarda bu yo‘nalishning pedagogik ahamiyati nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar ta’limi sifatini oshirishda, balki jamiyatda insonparvarlik, bag‘rikenglik va inklyuziv qadriyatlarni mustahkamlashda ham namoyon bo‘lishi qayd etilgan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, u nafaqat kasbiy mahoratni, balki shaxsiy va axloqiy qadriyatlarni uyg‘un holda shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bois, bu yo‘nalishda pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish, refleksiv metodlarni joriy etish va empatik o‘qitish muhitini yaratish hozirgi defektologik ta’lim rivojining muhim ilmiy-metodik yo‘nalishidir.

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish – bu nafaqat maxsus ta’lim sifati, balki inklyuziv jamiyat qurilishining asosiy sharti hisoblanadi. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash murakkab psixologik va pedagogik jarayon bo‘lib, u yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, insonparvar yondashuv, sabr-toqat va empatiyani talab qiladi. Shu boisdan, oliy ta’lim muassasalarida defektologik yo‘nalishda ta’lim olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv zarur.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, kasbiy kompetentlik tarkibiga kiruvchi bilim, ko‘nikma, qadriyat, motivatsiya va refleksiya komponentlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivojlanishi bo‘lajak oligofrenopedagog shaxsining professionallik darajasini belgilaydi. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar, psixologik treninglar, diagnostik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kuzatuvlar, simulyatsion vaziyatlar va loyihaviy o‘qitish metodlari katta ahamiyat kasb etadi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida talaba o‘zining empatiya, kommunikativ madaniyat, stressga bardoshlilik va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kasbiy kompetentligini rivojlantirishda motivatsion omillar muhim o‘rin tutadi. Talabalarning o‘z kasbiga bo‘lgan ijobiy munosabati, defektologik faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglash va o‘zini shu sohada foydali shaxs sifatida ko‘rish hissi ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli, pedagogik jarayonni shunday tashkil etish kerakki, talaba nafaqat bilim oluvchi, balki o‘z kasbiy rivojlanishining faol subyekti sifatida ishtirok etsin.

Amaliy kuzatuvlar natijalari shuni tasdiqlaydiki, refleksiv yondashuvdan foydalanilgan dars va seminar mashg‘ulotlari bo‘lajak oligofrenopedagoglarda o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va to‘g‘rilash, shuningdek, o‘z pedagogik qarorlarini asoslash qobiliyatini oshiradi. Talabalarning o‘zaro tajriba almashuvi, kichik guruhlarda muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, psixologik mashg‘ulotlarda qatnashish ularning kasbiy o‘zini anglashini mustahkamlaydi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi ta’lim jarayonida AKT vositalaridan foydalanish, virtual amaliyotlar, onlayn seminarlar va interaktiv test tizimlari orqali bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirish mumkin. Bu, ayniqsa, masofaviy o‘qitish sharoitida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi.

Natijalar shundan dalolat beradiki:

- Bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, refleksiv yondashuv va faoliyatga asoslangan metodika eng samarali vositalardan biridir;
- Kasbiy tayyorgarlikni samarali shakllantirish uchun o‘qituvchi-tadqiqotchilar o‘rtasida hamkorlik, mentorlik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim;
- Maxsus ta’limda kasbiy kompetentlikning asosiy belgisi – bu o‘qituvchining har bir bolaga nisbatan insonparvar, tolerant, individual yondashuvni amalga oshirish qobiliyatidir.

Shunday qilib, olingan natijalar asosida aytish mumkinki, bo‘lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish – bu ularning nazariy bilim, amaliy mahorat, psixologik barqarorlik va insonparvar qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydigan kompleks pedagogik jarayondir. Bu jarayonning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi kelgusida maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va nogironligi bo‘lgan bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish — zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Chunki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan samarali ishlash, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish va ta’lim jarayoniga to‘laqonli jalb etish uchun pedagogda yuqori darajadagi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kasbiy, psixologik va kommunikativ tayyorgarlik talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni o‘rgatish, balki amaliy faoliyat, refleksiya va empatiya asosida kompetensiyalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlik — bu kompleks tushuncha bo‘lib, u pedagogning bilim, ko‘nikma, qadriyat, shaxsiy mas’uliyat va ijodiy yondashuvini o‘zida mujassam etadi. Oligofrenopedagog o‘z faoliyatida maxsus pedagogika, psixologiya, defektologiya va kommunikatsiya sohalariga oid bilimlarni integratsiyalash orqali har bir bolaning individual ehtiyojiga mos ta’lim muhitini yaratishga qodir bo‘lishi kerak. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv va faoliyatga asoslangan yondashuvlar bilan boyitish zarur.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati shundaki, u nafaqat pedagogning shaxsiy o‘sishiga, balki maxsus ehtiyojli bolalarning to‘laqonli ta’lim olishiga, ularning ijtimoiylashuviga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv, o‘z navbatida, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish, insonparvarlik tamoyillarini ta’lim tizimida mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish — bu shunchaki kasbiy tayyorgarlik jarayoni emas, balki inson qadriyatlariga asoslangan, jamiyatda bag‘rikenglik, hamjihatlik va inklyuzivlik madaniyatini shakllantiruvchi keng qamrovli pedagogik tizimdir. Shu sababli, bu yo‘nalishda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish, amaliy mashg‘ulotlar va psixologik treninglarni tizimli o‘tkazish, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida empatiya va refleksiya sifatlarini rivojlantirish kelajakdagi maxsus ta’lim sifati va samaradorligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Выготский, Л. С. Проблемы дефектологии. — М.: Просвещение, 1983. — 432 с.
2. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 2019. — 720 с.
3. Booth, T., Ainscow, M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. — Bristol: CSIE, 2006. — 128 p.
4. Florian, L. The Sage Handbook of Special Education. — London: SAGE Publications, 2014. — 569 p.
5. Akramova, M. X. Maxsus ta’limda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 178 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. To‘xtasinova, N. R. Bo‘lajak maxsus pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. // Pedagogika va psixologiya jurnali. — 2021. — №4. — B. 25–32.
7. Zaytseva, G. L. Формирование профессиональной компетентности будущих дефектологов в условиях инклюзивного образования. // Вестник педагогических наук. — 2017. — №2. — С. 41–47.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Gulyamova Aziza Anvarovna**, o'qituvchi [**Гулямова Азиза Анваровна** ,преподаватель], [**Gulyamova Aziza Anvarovna** teacher]; manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy., [адрес: Г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, дом 27.], [address: Tashkent, Chilanzar district, Bunyodkor St., 27.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

© M.N. Israilova [1]✉

[1]Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, Toshkent,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Ta’lim modernizatsiyasi sharoitida pedagog shaxsining kompetentligini rivojlantirish strategik vazifadir. O‘qituvchi endilikda nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchi shaxsini rivojlantiruvchi, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois kompetentlik yondashuvi ta’lim jarayonini insonparvarlik va innovatsion amaliyot bilan bog‘laydi.

MAQSAD: Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan nazariy model va amaliy mexanizmlarni asoslash, kompetensiya turlarini (metodik, AKT, ijtimoiy-kommunikativ, shaxsiy-refleksiv) aniqlash hamda ularni rivojlantirish yo‘llarini belgilash.

MATERIALLAR VA METODLAR: Pedagogik va psixologik manbalar kontent-tahlili, komparativ tahlil va tizimli yondashuv qo‘llandi. Amaliy jihatdan dars kuzatuvlari, reflektiv tahlil, portfel va mikrota’lim (microteaching) elementlari integratsiya qilindi. “Uzluksiz ta’lim” doirasida kurs/seminarlar, mentorlik va amaliy loyihalar tajribasi umumlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Taklif etilgan model“Uzluksiz ta’lim–refleksiya–innovatsiya” sikliga tayanib, darsni loyihalash, raqamli vositalarni qo‘llash, hamkorlik va muloqotni kuchaytirish orqali kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Amaliy tatbiq natijasida dars samaradorligi, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashi, baholashning shaffofligi va o‘qituvchining motivatsiyasi oshadi. Maktab darajasida esa ta’lim sifati va ijtimoiy nufuz yaxshilanadi.

XULOSA: Kasbiy kompetentligini tizimli rivojlantirish pedagogni raqamli transformatsiya va global islohotlar talablariga moslashtiradi. Integratsiyalashgan yondashuv (nazariya+amaliyot+refleksiya) o‘qituvchini raqobatbardosh, innovatsion va kommunikativ yetakchiga aylantiradi hamda ta’lim sifatini barqaror oshiradi.

Kalit so‘zlar: pedagog; kasbiy kompetentlik; uzluksiz ta’lim; raqamli pedagogika; metodik kompetensiya; AKT; kommunikativ kompetensiya; refleksiya; innovatsiya.

Iqtibos uchun: Israilova M.N. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.108–114.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

© М.Н. Исраилова[1]✉

[1] Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в условиях модернизации образования развитие компетентности педагога является стратегической задачей. Учитель выступает не только носителем знаний, но и лидером развития личности учащегося, стимулируя креативность и самостоятельное мышление. Компетентностный подход связывает обучение с гуманистическими и инновационными практиками.

ЦЕЛЬ: обосновать модель и механизмы развития профессиональной компетентности педагога, определить спектр компетенций (методическая, ИКТ, социально-коммуникативная, личностно-рефлексивная) и пути их усиления.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: контент-анализ и сопоставительный анализ психолого-педагогических источников, системный подход. Практически интегрированы наблюдения уроков, рефлексивный анализ, портфолио, микропреподавание, курсы/семинары, наставничество и проектная деятельность.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: модель, опирающаяся на цикл «непрерывное обучение–рефлексия–инновация», поэтапно наращивает компетенции через проектирование уроков, использование цифровых средств и развитие сотрудничества. Отмечены рост эффективности занятий, самостоятельности и креативности учащихся, прозрачности оценивания и профессиональной мотивации учителя; на уровне школы улучшаются качество и социальный престиж.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системное развитие компетентности позволяет педагогу соответствовать требованиям цифровой трансформации и глобальных реформ. Интеграция теории, практики и рефлексии формирует конкурентоспособного, инновационного и коммуникативного лидера, обеспечивая устойчивое повышение качества образования.

Ключевые слова: педагог; профессиональная компетентность; непрерывное образование; цифровая педагогика; методическая компетенция; ИКТ; коммуникативная компетенция; рефлексия; инновация.

Для цитирования: Исраилова.М.Н. Развитие профессиональной компетентности педагога.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.108–114.

DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TEACHER

© Maxsuda N. Israilova ✉
[1] Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: Amid education modernisation, advancing teacher competence is strategic. The teacher acts not only as a knowledge transmitter but as a leader of learner development, fostering creativity and independent thinking. A competence-based approach links pedagogy with humanistic and innovation-driven practice.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: To justify a model and mechanisms for developing teachers' professional competence, to identify key competence domains (methodological, ICT, socio-communicative, personal-reflective) and to outline pathways for their enhancement.

MATERIALS AND METHODS: Content and comparative analysis of psycho-pedagogical sources with a systems approach. Practically, lesson observations, reflective analysis, portfolio, micro-teaching, CPD courses/seminars, mentoring and project-based activities were integrated.

DISCUSSION AND RESULTS: The proposed model, anchored in the "continuous learning–reflection–innovation" cycle, incrementally builds competences via lesson design, purposeful use of digital tools and strengthened collaboration. Results include higher lesson effectiveness, greater student autonomy and creativity, more transparent assessment and increased teacher motivation; at school level, quality and social standing improve.

CONCLUSION: Systemic competence development equips teachers for digital transformation and global reforms. Integrating theory, practice and reflection shapes a competitive, innovative and communicative professional and delivers sustained gains in education quality.

Keywords: teacher; professional competence; continuous professional development; digital pedagogy; methodological competence; ICT; communicative competence; reflection; innovation.

For citation: Maxsuda N. Israilova. (2025) 'Development of the professional competence of the teacher', Inter education & global study, (10(1)), pp.108–114. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta'lim tizimining modernizatsiyasi jarayonida pedagog shaxsining kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Chunki ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, kreativ shaxs sifatida tarbiyalash bevosita o'qituvchi kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish — bu faqatgina bilim va ko'nikmalarni egallash emas, balki o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, yangilikka intilish va ta'lim jarayonini ijodkorlik bilan tashkil eta olishni ham anglatadi. Yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Pedagogning siyosiy etukligi talabalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi.Demak, pedagog avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi tarbiya pedagogikasini, talabalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va talabalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik Pedagogning hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

oshirishga imkon beradi. Yosh avlodni komil inson qilib, kamolot sari etaklashdagi erishgan yutuqlari uchun va pedagoglar, metodist, katta, metodist pedagog va boshqa shunga o‘xshash unvonlar bilan taqdirlanadilar. O‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash vazifasining hamma tomonlarini qamrab ololmaydi. Lekin pedagog ishlarga asoslanib, talabalarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash ishini ma’lum bir maqsad bilan samaraliroq amalga oshirish mumkin. Pedagogning yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Zamonaviy murabbiy o‘zini mutaxassisligi bo‘yicha chuqur puxta bilimga ega bo‘lish, o‘z ustida tinimsiz ishlashi kerak.Pedagog ta’lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Pedagog yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olish lozim. Pedagog talabalarni ko‘zata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak.

Pedagogik kompetentlik tushunchasi bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borgan. Xususan, A.V. Xutorskiy, N.V. Kuzmina, Sh.A. Amonov va B.X. Raximovlar o‘z tadqiqotlarida pedagogning kompetentligini kasbiy tayyorgarlikning yuqori bosqichi sifatida talqin etadilar.Xorijiy tadqiqotlarda (J. Raven, P. Hymes, D. Boyatzis) kompetentlik - bu shaxsning bilim, ko‘nikma, qadriyat va munosabatlar uyg‘unligidan iborat murakkab tizim sifatida izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning “O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ularning mehnatini munosib rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi qarorida ham pedagogning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga uvofiqdir.Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishida o‘zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir. O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi ob’ektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetentlik yondashuvi zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy talabi bo‘lib, o‘qituvchining professional faoliyatida innovatsion, axborot-kommunikatsion va metodik kompetensiyalarni uyg‘un rivojlantirishni taqozo etadi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim jarayoniga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Shuning uchun pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchidan faqat dars berish mahoratini emas, balki axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, innovatsion fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni ham

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talab qiladi.Bugungi kunda raqamli ta’lim resurslari, masofaviy o‘qitish tizimlari, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv platformalarining joriy etilishi pedagogdan yangicha yondashuvni, doimiy o‘rganish va moslashuvchanlikni taqozo etmoqda. Shu bois kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat uzluksiz o‘qish, tajriba almashish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi.Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda quyidagi omillar alohida ahamiyat kasb etadi:

Axborot-kommunikatsion kompetensiya – raqamli vositalardan foydalangan holda dars jarayonini interfaol tashkil etish;

Metodik kompetensiya – fan mazmuniga mos metodik yondashuvlarni tanlash, darsni samarali rejalashtirish;

Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiya – o‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan ijobiy muloqot o‘rnatish, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish;

Shaxsiy va refleksiv kompetensiya – o‘z faoliyatini tahlil qila olish, o‘z ustida ishlashga intilish.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida kompetent pedagoglar faoliyati natijasida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash va kommunikativ ko‘nikmalari sezilarli darajada oshmoqda. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish, STEAM-ta’lim, “lifelong learning” (umrbod ta’lim) va raqamli pedagogika kabi zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogning kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirib borish:

1. Ta’lim sifatini oshiradi;
2. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi;
3. Ta’lim jarayonini innovatsion va interfaol shaklga keltiradi;
4. Pedagogning mehnat motivatsiyasi va kasbiy barqarorligini ta’minlaydi;
5. Ta’lim muassasasining ijtimoiy nufuzini oshiradi.

Shu boisdan, zamonaviy pedagog o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirishni strategik maqsad deb bilmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘z bilimini yangilash, yangi metodlarni sinovdan o‘tkazish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish orqali jamiyatda raqobatbardosh mutaxassis sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlashi zarur. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Nazariy tayyorgarlikni mustahkamlash - fan asoslarini chuqur o‘zlashtirish, didaktika va psixologiya bo‘yicha bilimlarni amaliyotga tatbiq etish.
2. Amaliy faoliyatni takomillashtirish - ilg‘or tajribalarni o‘rganish, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish.
3. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash - AKTdan foydalanish, raqamli resurslarni yaratish va darsni vizuallashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish.
4. Kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish - jamoada ishlash, o‘quvchi va ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatish.
5. O‘z-o‘zini rivojlantirish - o‘z ustida ishlash, yangi ilmiy manbalarni o‘rganish, kurs

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va seminarlar orqali malaka oshirish.

Natijada, kasbiy kompetentlikni rivojlantirgan pedagog ta’lim sifatini oshiradi, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltira oladi. Bunday o‘qituvchi jamiyatda raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda yetakchi rol o‘ynaydi. Pedagoglik sharafli, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada talabalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi, yosh individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – pedagoglarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishdir. Chunki raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar, global ta’lim islohotlari sharoitida o‘qituvchining kasbiy salohiyati ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omilga aylangan. Zamonaviy pedagog endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi shaxsini rivojlantiruvchi, mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka yo‘naltiruvchi yetakchi shaxs bo‘lishi zarur.Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish - bu uzluksiz o‘rganish, o‘z ustida ishlash, o‘z faoliyatini tahlil etish va yangi yondashuvlarni tatbiq etish jarayonidir. Bunda o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi, metodik tayyorgarligi hamda kommunikativ salohiyati uyg‘unlashgandagina haqiqiy kompetentlik shakllanadi.Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kompetent pedagog — ta’lim sifati, o‘quvchi motivatsiyasi va milliy taraqqiyot kafolatidir. Shu bois, O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagoglarning malakasini oshirish, raqamli pedagogika va “lifelong learning” (umrbod ta’lim) konsepsiyalarini joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish o‘qituvchining zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishni innovatsion, kreativ va ijtimoiy jihatdan faol shaxslarni tarbiyalashni va milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishni ta’minlaydi.Demak, kompetent pedagog - bu zamon bilan hamnafas, o‘z kasbini sevuvchi, doimiy yangilanishga intiluvchi, ta’lim jarayonini insonparvarlik va ijodkorlik ruhida tashkil eta oladigan shaxsdir. Ana shunday o‘qituvchilar jamiyatning ma’naviy yuksalishi va intellektual salohiyati poydevorini mustahkamlovchi asosiy kuch hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son. www.lex.uz
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.– Toshkent, 2015.
3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi pedagoglarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

4. Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 126-130.
5. Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
6. Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.
7. Kabilova, E. B. "FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 10.10 (2023): 68-74.
8. Qabilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
9. QOBILOVA, E'ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." Journal of Positive School Psychology 7.2 (2023).
10. E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo'qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722
11. E'zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166
12. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO'QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100. https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999
13. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son 383-bet SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT
14. E.Qobilova.Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT)Orcid: 0009-0001-1275-3080

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Israilova Maxsuda Nigmatullaevna**, PhD dotsent [**Исраилова Махсуда Нигматуллаевна**, PhD доцент], [**Israilova Maxsuda Nigmatullaevna** PhD associate professor]; manzil: Taraqqiyot ko'chasi 103, 100047, Toshkent, Toshkent, [адрес: Улица Тараккиёт 103, 100047, Ташкент, Ташкент], [address: 103 Tarakkiet Street, 100047, Tashkent, Tashkent.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV O‘QUV METODLARIDAN FOYDALANISH MODELI

© D.Z. Isaboyeva [1]✉

[1]Qo‘qon davlat universiteti, Qo‘qon,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: boshlang‘ich ta’limda o‘quvchini bilimning passiv qabulchisi emas, balki uni yaratib, fikr bildiradigan va faol muloqotga kirishadigan sub’yekt sifatida shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Bunda fanlararo integratsiya kommunikativ ko‘nikmalarni tabiiy muloqot muhitida rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun integrativ o‘quv metodlaridan foydalanish modelini nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: L.S. Vigotskiy (yaqin rivojlanish zonasi), V.V. Davыdov (faol-tahliliy o‘qitish) va J. Bruner (ma’no yaratish) konsepsiyalariga tayangan holda adabiyotlar tahlili; fanlararo dars ssenariylari va muloqotni faollashtiruvchi topshiriqlar (rolli vazifalar, matnlar bilan ishlash)ning amaliy kuzatuvi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: integrativ mashg‘ulotlar muloqotni vosita emas, maqsadga aylantiradi; o‘quvchilarda og‘zaki/yozma nutq, tinglash, hamkorlikda yechim topish, ijtimoiy anglash va shaxsiy ma’no yaratish sezilarli faollashadi. Ta’lim mazmuni real hayotiy kommunikatsiya konteksti bilan uyg‘unlashadi; DTSdagi funksional savodxonlik va kommunikativ kompetensiya talablari bilan mos keladi.

XULOSA: taklif etilgan integrativ model boshlang‘ich ta’limda kommunikativ kompetensiyani samarali shakllantiradi va o‘quvchini ijtimoiy faol, hamkorlikka tayyor muloqotchi shaxsga aylantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: integrativ ta’lim, kommunikativ ko‘nikma, fanlararo bog‘lanish, faol o‘qitish, boshlang‘ich ta’lim, funksional savodxonlik.

Iqtibos uchun: Isaboyeva.D.Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda integrativ o‘quv metodlaridan foydalanish modeli. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.115–121.

МОДЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРАТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

© Д.З. Исабоева[1]✉

[1] Кокандский государственный университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: современное начальное образование ориентируется на формирование ученика как активного создателя знаний и участника общения; межпредметная интеграция обеспечивает развитие коммуникативных навыков в естественной речевой среде.

ЦЕЛЬ: теоретически и практически обосновать модель использования интегративных методов обучения для развития коммуникативных умений младших школьников и определить возможности её внедрения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ литературы по концепциям Л.С. Выготского, В.В. Давыдова и Дж. Брунера; наблюдение за интегрированными уроками и заданиями, активизирующими речь (ролевые задания, работа с текстом).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: интегративные занятия переводят общение в статус цели, усиливая устную/письменную речь, слушание, групповое взаимодействие и осмысленное высказывание. Учебный процесс сближается с реальными коммуникативными ситуациями и согласуется с требованиями стандартов по функциональной грамотности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: модель доказала эффективность в формировании коммуникативной компетенции и способствует становлению социально активной, сотрудничающей личности школьника.

Ключевые слова: интегративное обучение, коммуникативные навыки, межпредметные связи, активное обучение, начальная школа, функциональная грамотность.

Для цитирования: Исабоева.Д.З. Модель использования интегративных методов обучения в развитии коммуникативных навыков младших школьников.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.115–121.

THE MODEL OF USING INTEGRATIVE TEACHING METHODS IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION SKILLS OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN

© Dilyora Z. Isaboyeva [1]✉
[1]Kokand State University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: primary education increasingly aims to develop learners as active creators of knowledge and purposeful communicators; interdisciplinary integration situates communicative skills within authentic discourse contexts.

AIM: to design and substantiate a model that employs integrative teaching methods to develop communicative skills in primary school students and to determine pathways for implementation.

MATERIALS AND METHODS: literature review grounded in the frameworks of L.S. Vygotsky (zone of proximal development), V.V. Davydov (activity-based analysis), and J. Bruner (meaning-making); classroom observations of integrated tasks activating discourse (role-play, text-based activities).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: integrative lessons reframe communication as a learning goal, markedly enhancing oral/written expression, listening, collaboration, and socially situated meaning-making. The approach aligns instruction with real-life communication and with standards emphasizing functional literacy.

CONCLUSION: the proposed integrative model effectively builds communicative competence in primary education and fosters socially engaged, collaborative learner identities.

Keywords: integrative learning, communicative competence, interdisciplinary links, active learning, primary education, functional literacy.

For citation: Dilyora Z. Isaboyeva. (2025) 'The model of using integrative teaching methods in the development of communication skills of younger schoolchildren', Inter education & global study, (10(1)), pp.115–121. (In Uzbek).

Kommunikativ ko'nikmalar bu o'quvchining tengdoshlari, kattalar va ijtimoiy muhit bilan fikr almashish, yozma va og'zaki nutq orqali o'z fikrini ifoda etish, tinglash va munosabat bildirish qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi kompleks tafakkur va nutq faoliyatidir. Mazkur ko'nikmalar faqat til darslarida emas, balki barcha fanlarda, ayniqsa, fanlararo bog'lanish jarayonida rivojlanishi kerak bo'lgan asosiy kompetensiya sifatida qaralmoqda.

YUNESKO, OECD, CEFR kabi xalqaro ta'lim platformalari ta'limning maqsadlaridan biri sifatida funksional savodxonlik (functional literacy) va kommunikativ kompetensiya (communicative competence)ni belgilar ekan, buni shaxsni har qanday ijtimoiy vaziyatda muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini ifoda etadigan, boshqalarni tinglaydigan va yechim taklif etadigan darajaga olib chiqish sifatida tushuntiradi. Shu jihatdan, boshlang'ich sinflarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish nafaqat lingvistik, balki tarbiyaviy, madaniy, ijtimoiy va axloqiy maqsadlarni ham o'z ichiga olgan tarkibiy vazifa hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fanlar o'rtasida bog'lanish, integrativ usullar, amaliy topshiriqlar va muloqotni rag'batlantiruvchi faoliyat turlari zarur bo'ladi. Ana shunday yondashuv orqali bolalarda nafaqat savodxonlik, balki so'zlashish, fikrlash va tengdoshlari bilan ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyati ham rivojlanadi. Shunday qilib, kommunikativ ko'nikmani zamonaviy ta'limda ustuvor maqsad sifatida belgilash pedagogik zaruratga aylangan. Bu esa integrativ ta'lim modellarini yaratish, fanlar kesimidagi bilimlarni uyg'unlashtirish va ta'limni faqat nazariy emas, amaliy muloqot asosida tashkil etishga ehtiyoj tug'diradi.

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda integrativ yondashuvning alohida o'rni shundaki, u ta'limni tabiiy muloqot muhitiga yaqinlashtiradi. Ya'ni, o'quvchi muayyan fanning doirasida emas, balki turli fanlar o'rtasidagi mazmunli bog'lanish asosida fikr bildirishga, tinglashga va so'z orqali o'z munosabatini anglatishga undaladi. Integrativ mashg'ulotlarda muloqot vosita emas, balki maqsadga aylanadi. Bu esa nutq faolligini sun'iy shaklda emas, tabiiy va hayotiy kontekstda faollashtirish imkonini beradi. Masalan, tabiiy fanlarda "Suv manbalarilari" (2-qism; 22-bet) mavzusini o'rganayotgan o'quvchi o'qish savodxonligida "Suvda xotira bor" (3-qism; 31-bet) kabi badiiy matn bilan tanishsa,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

u nafaqat bilimni o‘zlashtiradi, balki sevgan, his qilgan va anglagan ob’yekt haqida mulohaza yuritishga moyil bo‘ladi. Agar shu darsda *“Sen suvsan, odamlarga qanday murojaat qilar eding?”* kabi rolli ijodiy topshiriq berilsa, bola o‘zini so‘zda ifoda etishga, hissiy munosabatini muloqot orqali bayon qilishga harakat qiladi.

Integrativ yondashuvda fanlar nafaqat mazmuniy, balki nutqiy, ijtimoiy va ma’naviy nuqtai nazardan ham bog‘lanadi. Natijada, bola bir vaqtning o‘zida axborotni oladi, tahlil qiladi, taqqoslaydi, munosabat bildirishga harakat qiladi. Bu jarayonda muloqot tafakkurning tashqarilangan shakli sifatida vujudga keladi va bolada ma’no yaratish, nutqni maqsadli qo‘llash, ijtimoiy holatni anglash qobiliyati shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida fanlararo integratsiya imkoniyatlarini tizimlashtirish va metodik yo‘naltirish uchun mukammal model zarur. Bunday model nazariy asosga ega, amaliy yo‘nalishdagi, muloqotni ta’limning markaziy elementi sifatida tashkil etuvchi, fanlararo uyg‘unlikda shakllantirilgan pedagogik tizimdir. Mazkur tadqiqot doirasida yaratilgan modelni ishlab chiqishga ilmiy asos sifatida avvalo L.S.Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi”, V.V.Davыdovning faol-tahliliy o‘qitish nazariyasi, J.Brunerning ma’no yaratish va muloqotli anglashga asoslangan ta’lim konsepsiyalari xizmat qildi. Ushbu yondashuvlarda ta’lim faol muloqot va kognitiv jarayonlar uyg‘unligida amalga oshirilishi ta’kidlangan.

Amaliyot nuqtai nazaridan esa hozirgi ta’lim tizimida fanlar o‘rtasidagi mazmunli bog‘lanish yetishmasligi, o‘quvchining bilimni faqat passiv o‘zlashtirishi, muloqotga kirishishda ishonchsizlik va nutqiy qiyinchiliklarning kuzatilishi bunday model yaratishga ehtiyoj tug‘dirdi. Har bir fanning muloqotga xos imkoniyatlarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladigan ta’lim bolada shaxsiy munosabat, ijtimoiy anglash va ma’noli fikr bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, yaratilgan model integrativ yo‘nalishdagi ta’lim mazmuni, faol muloqotni rag‘batlantiruvchi texnologiyalar, pedagogik ko‘mak mexanizmlari va belgilangan kommunikativ ko‘nikmalarni baholash indikatorlari bilan to‘laqonli tizim sifatida shakllantirildi. U ta’limda kognitiv va muloqotga asoslangan rivojlanishni uyg‘un tarzda ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldidagi asosiy ijtimoiy buyurtma bilimligina emas, ishonchli muloqotchi, anglovchi, munosabat bildiruvchi, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan faol shaxsni shakllantirishdir. Zamonaviy jamiyat kommunikatsiya tezligi, axborot oqimi va interaktiv munosabatlar to‘lqinida yashar ekan, unga moslashuvchan, so‘z bilan anglash va anglatish qobiliyatiga ega inson talab etiladi. Ta’lim esa bu jarayonning fundamental asosi sifatida bolani boshlang‘ich bosqichdanoq muloqotchi shaxsga aylantirishi zarur.

Kommunikativ shaxs – bu nafaqat gapira oladigan, balki mazmun yaratadigan, fikrni anglaydigan, murakkab ijtimoiy holatlarda tengdoshi va kattalar bilan to‘g‘ri munosabat qurishni biladigan shaxsdir. U darsda savol beradi, fikr bildirishdan qo‘rqmaydi, o‘z nuqtai nazarini himoya qiladi, bir vaqtning o‘zida guruhda ishlash, tinglash, tushunish va to‘g‘ri javob qaytarish qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Bunday

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qobiliyat esa nazariy bilimni o‘zlashtirish emas, balki muloqot muhitida faol ishtirok etish orqali shakllanadi.

Pedagogik jihatdan qaralganda, o‘quvchiga so‘zlash uchun sharoit yaratish yetarli emas; unda so‘z orqali fikr bildirish ehtiyojini uyg‘otish, uni so‘zda faoliyat ko‘rsatuvchi subyektga aylantirish zarur. Buning uchun esa fanlarni izolyasiyalangan holda emas, balki mazmunan bog‘liq, muloqotni talab etuvchi kontekstda taqdim etish maqsadga muvofiq. Ana shunda o‘quvchida “gapirish uchun” emas, “aytmoqchi bo‘lgani uchun gapirish” ehtiyoji paydo bo‘ladi. Boshlang‘ich sinfda bunday ehtiyojni shakllantirish uchun badiiy obrazlar orqali hissiy munosabat, tabiiy fanlar orqali axborotli tahlil, tarbiya fanlari orqali ijtimoiy-madaniy anglash uyg‘unligidagi ta’lim kerak. Bunday fanlararo yondashuv bolada muloqotni nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy, ma’naviy va shaxsiy funksiya sifatida shakllantiradi.

Shu jihatdan, kommunikativ ko‘nikmani shakllantirish bu faqat metod emas, balki ijtimoiy ehtiyojga mos ravishda shakllangan ta’lim maqsadi hisoblanadi. Ya’ni, bugungi ta’lim muloqotchi, tengdoshlari bilan fikr almashuvchi, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, mas’ul, gapi ta’sirli va mazmunli shaxsga ehtiyoj bildirmoqda. Bu esa model yaratishning asosiy ijtimoiy asosidir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amal qilayotgan davlat ta’lim standartlari (DTS) zamonaviy xalqaro mezonlar asosida qayta ishlanib, o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishdan tashqari ularni hayotda qo‘llash, muloqot qilish, ijtimoiy munosabatga kirishish, axborotni tahlil qilish va shaxsiy munosabat bildirish salohiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu esa ta’limni natijaga yo‘naltiruvchi kompetensiyaviy yondashuvni talab etadi.

Aynan shu yondashuv asosidagi DTSda boshlang‘ich ta’lim uchun belgilangan funksional savodxonlik, kommunikativ faollik, integral anglash va jamoaviy faoliyatda ishtirok kabi yo‘nalishlar o‘quvchida fanlararo bilimlarni uyg‘unlashtirish va muloqotchi shaxs sifatida rivojlanishni ko‘zda tutadi. Bu talablarni amalga oshirishda integrativ o‘quv modellari ayniqsa samarali platforma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda integrativ o‘quv metodlaridan foydalanish modeli” aynan shunday standart va yondashuvlarga uyg‘un ravishda ishlab chiqilgan bo‘lib, u fanlararo bog‘lanish orqali ta’lim mazmunini hayotga yaqinlashtiradi, o‘quvchilarda shaxsiy ma’no, ijtimoiy faollik va muloqot salohiyatini rivojlantiradi. Modelning markaziy g‘oyasi ta’lim mazmunini integrativ shaklda qurish orqali o‘quvchilar o‘rtasida muloqot, hamfikrlik, vazifani birgalikda hal qilish, jamoada ishlash va o‘zaro o‘rgatishni rag‘batlantirishdir. Ushbu modelni nazariy jihatdan asoslashda zamonaviy ta’lim psixologiyasi va pedagogikasidagi ilg‘or g‘oyalar, xususan, V.V.Davidov, L.S.Vigotskiy va J.Bruner kabi olimlarning nazariy konsepsiyalari asos qilib olindi.

V.V.Davidovning faol-tahliliy o‘qitish nazariyasiga ko‘ra bola faqat ma’lumotni o‘zlashtirmasligi, balki bilimni tahlil qilish, tuzish, qayta qurish, yangi mazmun yaratish jarayonida faol sub’yekt sifatida ishtirok etishi lozim. Uningcha, rivojlanish bilim

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

orttirishdan emas, bilim tuzishdan boshlanadi. Bu yondashuv asosida modelda fanlararo ma'nolar yaratish, mulohaza qilish, tengdosh fikrini inobatga olish kabi ko'nikmalar nazariy asos sifatida olingan.

L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra bola u yoki bu bilim va ko'nikmani faqat mustaqil emas, balki kattalar yordamida, muloqot va hamkorlik jarayonida o'zlashtiradi. Uningcha, ta'lim muloqot muhitida kechishi kerak va fikrlash so'z orqali shakllanadi. Bu qarash modelda hamkorlikda bilim yaratish, tengdoshlar bilan muhokama, pedagogik ko'mak kabi mexanizmlarning metodologik poydevorini tashkil etadi.

Jerom Bruner esa ta'limni ma'no yaratish jarayoni sifatida talqin qilib, fanlararo bog'lanish, muloqot va hissiy anglash orqali bilimlar shaxsiy tafakkurda mustahkamlanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, integratsiya so'z va fikrni birlashtiradi, o'quvchi ma'lumotni emas, ma'noni anglaydi. Uning "The Culture of Education" asarida ta'kidlanishicha, "Fanlararo o'qitish o'quvchini mazmunli aloqa, tahlil va maqsadli til vositasida muloqotga chorlaydi, bu esa tafakkur va muloqotni bir paytda faollashtiradi". Shu tariqa, modelning metodologik asoslari ilmiy asoslangan pedagogik qarashlar bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, ular orqali bolaning muloqotchi shaxs sifatida shakllanishidagi qadamlar nazariy jihatdan mustahkamlangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES\

1. Abdelghani R., Oudeyer P.-Y., Law E. Conversational agents for fostering curiosity-driven learning in children // arXiv:2204.03546. 2022.
2. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 2005. – P. 4.
3. Duschanova N.S. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar: qiyosiy tahlil. Academic Research in Educational Sciences . Volume 3, Issue 3, March, 2022.
4. Haiman G. Group communication in school environments. – New York: Palgrave Macmillan, 2015. – P. 67.
5. Indiaminov N., Babajanov B. Ta'lim samaradorligini oshirida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim // Zamonaviy ta'lim. 2014. №8. 18-22 betlar.
6. Matkarimov M.A. "PISA" xalqaro o'quvchilarining savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari/ "Zamonaviy ta'lim" jurnali, №8(93) 2020 yil.
7. Najmitdinova T.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: dis. kand. ped. nauk.- Toshkent, 2006. - 159 b.
8. Nishonova Z. Mustakil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalk ta'limi. - Toshket, 2001. №1.- 38 – 40 b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉**Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi**, o‘qituvchi [**Исабоева Дилйора Зокиржон кизи**,преподаватель], [**Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi** teacher]; manzil: O‘zbekiston, Qo‘qon Turon ko‘chasi, 23, [адрес: Узбекистан, ул. Коканд Туран, 23], [address: 23 Kokand Turan St., Uzbekistan]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHGA TAYYORLASH NAZARIYASI

© Karimova N.A [1]✉

[1]O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: umumta’lim maktablarida kasbga yo‘naltirish ta’limning ajralmas qismiga aylanib, ayniqsa biologiya darslari orqali o‘quvchilarning kasbiy o‘zini aniqlashi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchisi fanni o‘qitish bilan birga kasbiy ma’lumot, maslahat va amaliy tajriba bilan tanishtirish vazifasini ham bajarishi zarur. Mavzuning dolzarbligi biologiyaning amaliy hayotga yaqinligi va mehnat bozoridagi zaruratlar bilan belgilanadi.

MAQSAD: biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga tayyorlashning nazariy-metodik modelini ishlab chiqish, uning bosqichlari va pedagogik shart-sharoitlarini asoslash hamda yuqori sinflarda qo‘llash yo‘llarini belgilash.

MATERIALLAR VA METODLAR: pedagogik va psixologik manbalar kontent va komparativ tahlil qilindi; “Inson va uning salomatligi” hamda “Umumiy biologiya” bo‘limlarining kasbga yo‘naltirish salohiyati xaritalandi. Nazariy modellashtirish orqali to‘rt bosqichli tayyorlov modeli ishlab chiqildi; STEAM integratsiyasi, loyiha va laboratoriya ishlari, amaliyot hamda maslahat elementlari metodik paketga kiritildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: taklif etilgan model: (1) motivatsion bosqich—kasbiy qiziqish va ijtimoiy-axloqiy mas’uliyatni uyg‘otish; (2) axborot-analitik—kasblar ekotizimi va biologiya bilan bog‘liqligini tahlil qilish; (3) metodik tayyorgarlik—kasbga yo‘naltiruvchi dars va loyihalarni loyihalash; (4) amaliyot—laboratoriya, ekspeditsiya, tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy faoliyatni tashkil etish. Natijada o‘quvchilarda kasbiy motivatsiya, mehnatsevarlik, tabiat va salomatlikka ongli munosabat hamda kompetensiyalar rivojlanadi; o‘qituvchilarda esa maslahat berish va yo‘naltirish ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

XULOSA: biologiya asosida kasbga yo‘naltirishning tizimli modeli o‘quvchilarning kasbiy o‘zini aniqlashini tezlashtiradi va ta’lim–mehnat bozori bog‘liqligini kuchaytiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nazariya, metodika va amaliyotning uzviyligi, STEAM integratsiyasi hamda individual maslahat mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: kasbga yo‘naltirish; biologiya o‘qituvchisi; kasbiy tayyorgarlik; motivatsiya; kompetensiya; STEAM; amaliyot; maslahat; o‘quvchi shaxsini rivojlantirish; biologik ta’lim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Karimova N.A. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishga tayyorlash nazariyasi. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.122–127.

ТЕОРИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ

© Каримова Н.А. [1]✉
[1] Национальный педагогический университет Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: профориентация становится неотъемлемой частью общего образования, а уроки биологии создают условия для осознанного профессионального самоопределения. Будущий учитель биологии, помимо преподавания, должен обеспечивать профессиональную информацию, консультацию и практический опыт. Актуальность темы обусловлена прикладным характером биологии и запросами рынка труда.

ЦЕЛЬ: разработать теоретико-методическую модель подготовки учителей биологии к профориентации учащихся, обосновать её этапы и педагогические условия, определить пути внедрения в старших классах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведены контент- и компаративный анализ педагогических и психологических источников; картирование профориентационного потенциала разделов «Человек и его здоровье» и «Общая биология». Посредством теоретического моделирования создана четырёхэтапная модель; в методический пакет включены STEAM-интеграция, проекты, лабораторные работы, практика и консультирование.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: модель включает: (1) мотивацию—стимулирование интереса и ответственности; (2) информационно-аналитический этап—анализ экосистемы профессий и их связи с биологией; (3) методическую подготовку—проектирование профориентационных уроков и проектов; (4) практику—лаборатории, выезды, партнёрства с организациями. Результат—рост мотивации, трудолюбия, осознанного отношения к природе и здоровью, развитие компетенций у учащихся и укрепление консультационных навыков у учителя.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системная модель профориентации на основе биологии ускоряет профессиональное самоопределение и укрепляет связь образования с рынком труда. Критичны согласованность теории, методики и практики, STEAM-интеграция и механизмы индивидуального консультирования.

Ключевые слова: профориентация; учитель биологии; профессиональная подготовка; мотивация; компетенция; STEAM; практика; консультирование; развитие личности учащегося; биологическое образование.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Для цитирования: Каримова Н.А. Теория профессионально-ориентированной подготовки будущих учителей биологии.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.122–127.

THEORY OF PROFESSIONAL-ORIENTED TRAINING OF FUTURE BIOLOGY TEACHERS

© Karimova N.A [1]✉
[1] National Pedagogical University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: career guidance is becoming integral to schooling, and biology lessons provide fertile ground for informed career choice. Beyond teaching content, the prospective biology teacher should provide professional information, counseling, and authentic practice. The topic's relevance stems from biology's applied nature and labor-market demands.

AIM: to design a theoretical-methodical model for preparing biology teachers to guide students' careers, justify its stages and pedagogical conditions, and outline implementation in upper-secondary classes.

MATERIALS AND METHODS: content and comparative analysis of pedagogical/psychological sources; mapping of career-guidance potential in "Human and Health" and "General Biology" units. Through theoretical modeling, a four-stage framework was built; the method set integrates STEAM, project and laboratory work, school–industry practice, and individualized counseling.

DISCUSSION AND RESULTS: the model comprises: (1) motivation—triggering interest and social-ethical responsibility; (2) information-analytics—analyzing the profession ecosystem and its ties to biology; (3) methodological preparation—designing guidance-oriented lessons and projects; (4) practicum—labs, fieldwork, and partnerships. Outcomes include heightened motivation, diligence, conscious attitudes to nature and health, and competence growth in students, with strengthened counseling skills in teachers.

CONCLUSION: a systemic biology-based guidance model accelerates students' career self-determination and tightens education–labor market alignment. Coherence of theory, methods, and practice, STEAM integration, and individualized counseling mechanisms are pivotal.

Keywords: career guidance; biology teacher; professional training; motivation; competence; STEAM; practicum; counseling; student personal development; biological education.

For citation: Karimova N.A. (2025) 'Theory of professional-oriented training of future biology teachers', Inter education & global study, (10(1)), pp. 122–127. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, biologiya fanining o'ziga xos xususiyati — tirik tabiat,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

inson salomatligi, ekologiya va biotexnologiya bilan bevosita bog‘liqligi — o‘quvchilarda kasbiy qiziqish va ekologik mas’uliyatni shakllantirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Shuning uchun biologiya o‘qituvchisi nafaqat fan asoslarini o‘rgatishi, balki o‘quvchilarni kasbiy yo‘nalish tanlashga tayyorlovchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatini ongli ravishda tanlashiga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, kasbga yo‘naltirish ishlari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar – xususan, biologiya darslarida kasbiy yo‘naltirishning o‘rni beqiyosdir. Bo‘lg‘usi biologiya o‘qituvchilari esa bu jarayonning asosiy subyekti bo‘lib, ularning nazariy va amaliy tayyorgarligi ushbu faoliyat samaradorligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi yuqori sinflarda biologiya fanini o‘qitishda kasbga yo‘naltirish ishlarining metodik asoslarini ishlab chiqish va asoslash, yuqori sinf o‘quvchilarining biologiyaga bo‘lgan kognitiv va kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash jarayonini faollashtirish, chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirishdan iborat. Tadqiqot farazi - yuqori sinf o‘quvchilarini o‘qitish va kasbga yo‘naltirish jarayonining samaradorligi quyidagi hollarda sezilarli darajada oshishi mumkin:

• "Inson va uning salomatligi" va "Umumiy biologiya" bo‘limlari mazmunining kasbga yo‘naltirish imkoniyatlarini aniqlash;

•biologiyani o‘qitishda kasbga yo‘naltirish ishlarining eng oqilona usullarini aniqlash;

•biologiyani o‘qitishda kasbga yo‘naltirish metodikasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning metodik shart-sharoitlarini aniqlash.

Biologiya fanining kasbga yo‘naltirishdagi o‘rni

Biologiya — tirik organizmlar, ularning tuzilishi, hayotiy jarayonlari va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganuvchi fan sifatida turli kasblar bilan bevosita bog‘liqdir. Sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, farmatsevtika, biotexnologiya kabi sohalarga qiziquvchanlik aynan biologiya fanidan boshlangan bilimlar orqali shakllanadi. Shu bois biologiya o‘qituvchisi dars jarayonida o‘quvchilarni mazkur sohalar haqida ma’lumot bilan qurollantirishi, ularning qiziqishlarini aniqlab, yo‘naltirishi kerak.

Kasbga yo‘naltirishning pedagogik asoslari

Kasbga yo‘naltirish — bu o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda ularni muayyan kasb yoki soha haqida ongli tanlov qilishga tayyorlash tizimidir. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

Kasbiy axborot berish: biologiya bilan bog‘liq kasblar haqida ma’lumotlar yetkazish;

Kasbiy maslahat: o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, mos kasb haqida yo‘l-yo‘riq berish;

Kasbiy tanlovga tayyorlash: laboratoriya ishlari, loyiha faoliyati, amaliyotlar orqali kasbiy muhitni simulyatsiya qilish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbga yo‘naltirish

Pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbga yo‘naltirish faoliyatiga tayyorlash quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi kerak:

Nazariy tayyorgarlik: kasbga yo‘naltirish nazariyasi, psixologiyasi va metodikasini o‘rganish;

Amaliy tayyorgarlik: maktablarda amaliyot o‘tash jarayonida kasbga yo‘naltiruvchi mashg‘ulotlarni olib borish;

Integratsion yondashuv: biologiya fanini kasbiy ma’lumotlar bilan boyitish, STEAM ta’limi asosida fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatish;

Innovatsion metodlar: kasbiy yo‘naltirishda AKT, interaktiv metodlar va loyiha usullaridan foydalanish.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbga yo‘naltirishga tayyorlash bo‘yicha quyidagi bosqichli nazariy modelni taklif qilish mumkin:

1. Motivatsion bosqich: o‘qituvchilik kasbining ahamiyatini anglash va kasbga yo‘naltirishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.

2. Axborot-analitik bosqich: kasblar haqida chuqur tahlil va ularning biologiya bilan bog‘liqligini o‘rganish.

3. Metodik tayyorgarlik bosqichi: kasbga yo‘naltiruvchi dars va mashg‘ulotlar loyihasini ishlab chiqish.

4. Amaliyot bosqichi: o‘quvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kasbiy yo‘naltirish ishlarini amalga oshirish.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning metodik tizimini ishlab chiqish jarayonida "Inson va uning salomatligi" va "Umumiy biologiya" bo‘limlarini o‘rganishda o‘qitish va kasbga yo‘naltirishni amalga oshirishga tizimli, kompleks va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, biologiyani o‘qitish nazariyasi va amaliyotida, bir tomondan, maktab o‘quvchilariga, ayniqsa, bitiruvchi sinf o‘quvchilariga kasbga yo‘naltirishda yordam ko‘rsatish zarurati, ikkinchi tomondan, kasbga yo‘naltirish muammosining hal etilmaganligi o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keldi. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbga yo‘naltirishga tayyorgarligi ularning professional faoliyatining ajralmas qismidir. Bunday tayyorgarlik nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unligiga asoslanishi kerak. Biologiya fanining amaliy hayotga yaqinligi esa o‘quvchilarni kelajakdagi kasbiga ongli yondashishga undashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Эргашева Г.С. Умумий ўрта таълим мактаб биология дарсликлари ўқув материалларини лойиҳалашнинг дидактик асослари. Дис’’ автореф. п.ф.н. – Тошкент, −2006. − 245 б.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. N.A.Karimova Biologiya fanini kasbga yo‘naltirib o‘qitish metodikasini takomillashtirish (8-9 sinflar misolida). Monografiya. Toshkent 2023
3. Abduqodirov A.X. “Pedagogik mahorat va kasbiy yo‘naltirish asoslari”, Toshkent, 2021.
4. D.M.Elmuratova, N.A.Karimova, S.Sh.Karimova. Tabiiy fanlarni o`qitish metodikasi O`quv qo`llanma. Ilm-ziyo-zakovat nashriyoti 2023. 1-279
5. Nematovna A. M. Effectiveness of students in research activities in teaching biology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2021. – Т. 9. – №. 4.
6. www.ziyonet.uz — ZiyoNET ta’lim axborot tarmog‘i.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Karimova N.A**, PhD dotsent [**Каримова Н.А**, PhD доцент], [**Karimova N.A** PhD associate professor]; manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy., [адрес: Г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, дом 27.], [address: Tashkent, Chilanzar district, Bunyodkor St., 27.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI GENDER YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

© B. Jumayeva[1]✉

[1]Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola yuqori sinf o‘quvchilarida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda gender yondashuvning ahamiyatini yoritadi. Ta’limda gender tengligini joriy etish ijtimoiylashuv, me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish hamda teng imkoniyatlarni kafolatlashga xizmat qilishi ko‘rsatildi.

MAQSAD: o‘quvchilarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga gender yondashuvni integratsiyalash tamoyillari, mazmuni va mexanizmlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar kontent-tahlili, ta’lim jarayonini kuzatish, genderga sezgir pedagogik vaziyatlar bo‘yicha amaliy misollarni tahlil qilish hamda konseptual taqqoslash usullari qo‘llandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: genderga sezgir metodika qo‘llanganda o‘quvchilarning kommunikativ, hamkorlik va mas’uliyat kompetensiyalari kuchaydi; stereotiplarni qayta ko‘rib chiqish va tenglik tamoyillarini ongli qabul qilish ijtimoiy ishtirokni oshirdi. Kasbga yo‘naltirish, o‘quv mehnatini taqsimlash va sinfdagi rollarni adolatli tashkil etish ijtimoiy kompetentlikning barqaror o‘sishini ta’minladi.

XULOSA: gender yondashuv ijtimoiy kompetentlikni tizimli rivojlantirish uchun samarali asos bo‘lib, teng imkoniyatlar, hurmat va hamkorlik madaniyatini mustahkamlaydi; u uzluksiz ta’limning barcha pog‘onalarida metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya; ijtimoiy kompetentlik; gender yondashuv; teng imkoniyatlar; uzluksiz ta’lim.

Iqtibos uchun: Jumayeva.B. Yuqori sinf o‘quvchilarida ijtimoiy kompetentlikni gender yondashuv asosida rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.128–132.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА

© Б. Жумаева[1]✉

[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья раскрывает значимость гендерного подхода в формировании социальной компетентности старшеклассников. Подчёркнуто, что

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

внедрение гендерного равенства в образование поддерживает социализацию и обеспечивает равный доступ к качественным знаниям.

ЦЕЛЬ: определить принципы, содержание и механизмы интеграции гендерного подхода в развитие социальной компетентности учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: применены контент-анализ нормативных актов и научных источников, наблюдение за образовательным процессом, анализ гендерно чувствительных кейсов и концептуальные сопоставления.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: гендерно чувствительная методика усиливает коммуникативные, кооперативные и ответственные поведенческие практики; переосмысление стереотипов и принятие принципов равенства повышают социальную включённость. Справедливое распределение учебного труда и профориентация способствуют устойчивому росту социальной компетентности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: гендерный подход является эффективной основой системного развития социальной компетентности, укрепляя культуру уважения и сотрудничества; необходима методическая поддержка на всех уровнях непрерывного образования.

Ключевые слова: модернизация; социальная компетентность; гендерный подход; равные возможности; непрерывное образование.

Для цитирования: Жумаева.Б. Развитие социальной компетентности старшеклассников на основе гендерного подхода.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.128–132.

DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE IN HIGH SCHOOL STUDENTS BASED ON GENDER APPROACH

© Jumayeva.B[1]✉
[1] Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this paper examines the role of a gender approach in developing social competence among high school students. Embedding gender equality in schooling is shown to foster socialization, value internalization, and equitable access to quality learning.

AIM: to identify the principles, content, and mechanisms for integrating a gender approach into the development of students' social competence.

MATERIALS AND METHODS: content analysis of policy and scholarly sources, classroom observation, analysis of gender-responsive pedagogical cases, and conceptual comparison were employed.

DISCUSSION AND RESULTS: gender-responsive pedagogy strengthened students' communication, collaboration, and responsibility; revisiting stereotypes and

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

embracing equality increased social participation. Fair task distribution, career guidance, and inclusive classroom roles promoted sustained gains in social competence.

CONCLUSION: a gender approach provides an effective basis for systematically building social competence, reinforcing a culture of respect and cooperation; consistent methodological support is required across all stages of lifelong education.

Keywords: modernization; social competence; gender approach; equal opportunities; continuous education.

For citation: Jumayeva.B. (2025) 'Development of social competence in high school students based on gender approach', Inter education & global study, (10(1)), pp. 128–132. (In Uzbek).

Ijtimoiy hayotga moslashuvchan, jamiyat va davlat rivojlanishi uchun ulkan hissa qo'sha oladigan barkamol shaxsni tarbiyalash bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan desak yanglishmaymiz.Hozirgi jamiyatda o'sib borayotgan shaxs jamiyatda o'z o'rni va rolini bilishi lozim. Bu tushunchalar to'grisida bilim, ko'nikma va malakalarni yosh avlod uzluksiz ta'lim tizimini olish jarayonida o'zlashtirib boradi. Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi. O'zbekiston Raspublikasining 2022-yilgi yangi Konstitutsiyasida gender tengligiga sodiqlik yanada kuchaytirildi va davlat tomonidan ayollar va erkaklarga jamoat va davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek,jamiyat va davlatning boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni taqdim etishi aniqlandi (58-modda).

Gender tengligi va jinsiy tenglik aniqrog'i erkak va ayollar o'rtasidagi tenglik- bu oilada erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlartizimi tushuniladi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi – bu patrialxal tizimdan keyingi ijtimoiy- jinsiy munosabatlarning keying bosqichi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning inson huquqlari, erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan siyosati ana shu ijtimoiy farqlarni yumshatishga, iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida ularga teng imkoniyatlar yaratishga gender tenglik g'oyasini shakllantirishga qaratilgandir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 22-fevraldagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida ilgari surilgan gender siyosati masalalari hamda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirish g'oyasi yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashning yaqqol namunasidir.

Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim olayotgan tarbiyalanuvchilarga ilk tahsil olayotgan davridan boshlab berib borilsa bevosita

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ko`zlangan natijaga erishish samaraliroq va qulayroq tarzida tashkillanadi. Ta'lim oluvchi shaxsga ta'lim berilib borilar ekan ularni avvalo yosh davridan kelib chiqqan holatda ham alohida ta'lim, tarbiya berilib boradi. Pedagoglar bolalarga ta'lim berib borish mobaynida ularni har tomonlama individual xususiyatlarini hisobga olinishi lozim. Bundan tashqari, gender tengligi orqali ijtimoiy taraqqiyotda hurmat va hamkorlik madaniyati bacha jinsdagi shaxslar orasida kuzatiladi. O‘z navbatida ularni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida gender yondashuvini ham hisobga olish zaruriy hisoblanadi. Kompetentlik so'zining izohli ma'nosi, bu so'z ingliz tilidan olingan bo`lib "competence"- tushungan, qobiliyatli ma'nosini anglatadi. Tub mohiyatiga to`xtaladigan bo'lsak ma'lum bir soha yoki faoliyatda zarur bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`lish hisoblanadi. Ijtimoiy kompetentlik- bu insonning sotsial hayotda muvafaqqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalar, bilimlar va mahoratlardir. Yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalashning eng muhim ahamiyati ularni, birinchi galda, qiz bolalarni o'zligini anglashiga, ijtimoiy muhitni, ijtimoiy ruhiyatni, ichki uyushtiruvchi, xarakatga keltiruvchi va yetaklovchi, inson qadr-qimmatining jinsiga qarab belgilanmasligini isbotlovchi kuchga aylanishiga xizmat qilishidir. Bu holda gender tenglik g‘oyasi (o‘g‘il va qiz bolalarga teng huquq hamda teng imkoniyatlar yaratish) shaxsning ham, jamiyatning ham ma'naviy yuksalishiga ta'sir qiladi, insonlarini anglashga, ijtimoiy tafakkurning o'zgarishiga olib keladi.

Gender tenglik g'oyasi jamiyatda yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishga, mustaqil fikrlashga, ma'naviy-ruhiy jihatdan tenglik tamoyillarini o'ziga singdirishga undovchi va uni harakatga keltiruvchi bunyodkor g'oyadir. Jamiyat hayotida chuqur o'rin olgan gender notenglik (jinsiga qarab ustunlikni belgilash;bu yerda o‘g‘il bolalar maqomining, «men»ining qiz bolalar maqomidan va «men»idan yuqorida turishi) shaxs taraqqiyotiga, o'sishiga sabab bo'lmoqda. Qiz bolalarning inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida o'z kuchlarini sinashga, salohiyat va qobiliyatlariga tayanib qaysidir bir murakkab sohani egallashga intilishlarini cheklaydi,ba'zi hollarda umuman imkon bermaydi. Gender tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yoshlar xulq-atvorining, dunyoqarashining ijtimoiy foydali, adolatli, insonparvar, demokratik sifatlarini shakllantirish ishiga yordam berishi shubxasiz. Chunki gender tenglik g'oyalari bilan sug'orilgan ta'lim-tarbiya yoshlarda gender bilimlarni hosil qilishi, ularning dunyoqarashiga va e'tiqodiga aylanib borishi, ruhiyatiga ta'sir etishi mumkin.Bu, ayniqsa, qiz bolalarning mas'uliyat va qat'iyatlik, qiziqish bilan o'zlari istagan sohalarni o'rganishlariga intilishlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganib, ular ongida jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida faoliyat ko'rsata olishlariga ishonch hosil qilish mumkin. Bu esa ularda tegishli ma'naviy axloqiy sifatlar bilan bir qatorda, Vatanga muhabbat, uning yuksakligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shishga ishonch tuyg'usini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida gender tarbiyaning imkoniyatlaridan izchil foydalanish yoshlarni barkamol shaxs sifatida kamol toptirishda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida gender tarbiyaning imkoniyatlaridan izchil foydalanish yoshlarni barkamol shaxs sifatida kamol

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

toptirishda katta rol o'ynaydi.

Gender me'yorlar va mezonlar ta'lim oluvchilarda shakllantiriladigan faoliyat turlari orqali mustahkamlanadi. O'quv jarayonida gender ijtimoiylashtirish bu o'quvchi tomonidan jamiyatda gender madaniy tizimining o'zlashtirilishi jarayonidir. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muhim belgilari sifatida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, o'quv mehnatini to'g'ri taqsimlash, ularda gender xoslikka asoslangan shaxsiy sifatlarni qaror toptirishdan iborat. Yosh avlodni to`g`ri tarbiyalab borishda bevosita uzluksiz ta'limda olib boriladigan davomli jarayonga muroja'at qilishimiz tabiiydir. Fudamental asosdan tuzatish yoki tog'ri tarbiyalash boshlansa davomi ham mustahkam, chiroyli tarzda tashkillanadi deya olamiz. Avvalo, o'smir yoshlarda gender xususiyatlarini shakillantirshda ularda mavjud bo'lgan striotiplarni o`zgartirishdan boshlash zarur hisoblanadi. Ularda bu tushunchani shakillantirish orqali sotsial hayotga yondashishlarini ham o'zgartirish mumkin. Bu jarayonlar albatta nazariy va amaliy tarizda olib borilsaga ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mo'minova Z. Gender ta'lim – samaradorlik omili sifatida// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2021 yil Maxsus son). –B. 212.
2. Musurmonova O. Oila ma'naviy-milliy g'urur. –T: O'qituvchi, 1999.
3. Narbaeva T. K. Ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish gender tenglikni ta'minlash omili. // Falsafa va huquq. T.,2019/1. (№13). 5-9 b.
4. Narbaeva T. K. Mamlakatimizda ta'lim va tarbiyani rivojlantirishda xotin-qizlarning o'rni. // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. – Nukus, 2018. №4. 37-39 b.
5. Берн Ш. Гендерная психология. 2-е межд. изд., СПб.: Нева, 2001. — 318с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jumayeva Baxtilaxon**, magistr [**Жумаева Бахтилахон**,магистр], [**Jumayeva Baxtilaxon** master's student]; manzil: Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19- uy, pochta indeksi: 150100, [адрес: Ферганская область, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19, почтовый индекс: 150100], [address: Fergana region, Fergana, Murabiylar str., 19, postal code: 150100.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV SHAROITIDA TIZIMLI FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI PEDAGOGIK STRATEGIYALAR TIZIMI

© Kasimova D[1]✉

[1]Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada kompetensiyaviy yondashuv sharoitida talabalarda tizimli fikrlashni shakllantirish zarurati va uning XXI asr ta’limi uchun ahamiyati yoritiladi. Tizimli fikrlash hodisa va jarayonlarni sabab–natija bog‘liqligida ko‘rish, fanlararo integratsiyani ta’minlash hamda asosli qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

MAQSAD: tizimli fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik strategiyalar tizimini ishlab chiqish, ularning metodik asoslarini aniqlash va ta’lim jarayonidagi samaradorligini asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: pedagogik va psixologik manbalar (Piaget, Vygotskiy, Bloom, Gardner, Senge va b.) hamda milliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili; kompetensiyaviy yondashuv asosida dars ssenariylari loyihalash; muammoli ta’lim, loyiha, kvest, klaster va refleksiv tahlil strategiyalarini integratsiyalashga doir kontseptual model yaratish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: taklif etilgan tizim izchillik, integrativlik, faollik, refleksivlik va muammolilik tamoyillari asosida talabalarda analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlash jarayonlarini uyg‘unlashtiradi. Strategiyalar o‘quvchini passiv qabul qiluvchidan faol izlanuchi sub’ektga aylantirib, sabab–natija tahlilini chuqurlashtiradi, fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga undaydi.

XULOSA: kompetensiyaviy yondashuvga tayangan kompleks strategiyalar tizimli fikrlash madaniyatini shakllantiradi, ta’lim sifatini oshiradi va talabaning amaliy, refleksiv hamda ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Model umumta’lim va oliy ta’lim sharoitida moslashtirilishi va baholash mezonlari orqali monitoring qilinishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, tizimli fikrlash, pedagogik strategiyalar, innovatsion ta’lim, analitik fikrlash, ijodkorlik, metodik yondashuv.

Iqtibos uchun: Kasimova D. Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida tizimli fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik strategiyalar tizimi. // Inter education & global study. 2025. №8. B.133–142.

СИСТЕМА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ, РАЗВИВАЮЩИХ СИСТЕМНОЕ МЫШЛЕНИЕ В УСЛОВИЯХ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

© Касимова Д[1]✉

[1]Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье обосновывается необходимость формирования системного мышления у студентов в условиях компетентностного подхода и его значимость для образования XXI века. Системное мышление обеспечивает видение явлений в причинно-следственных связях, междисциплинарную интеграцию и принятие обоснованных решений.

ЦЕЛЬ: разработать систему педагогических стратегий формирования системного мышления, определить её методические основания и доказать эффективность в учебном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ педагогических и психологических источников (Пиаже, Выготский, Блум, Гарднер, Сенге и др.) и национальных нормативных документов; проектирование сценариев занятий на основе компетентностного подхода; разработка концептуальной модели интеграции проблемного, проектного, квест-обучения, кластеров и рефлексивного анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: предложенная система, опираясь на принципы последовательности, интегративности, активности, рефлексивности и проблемности, синхронизирует аналитическое, критическое и творческое мышление. Стратегии преобразуют студента из пассивного получателя знаний в активного исследователя, углубляют причинно-следственный анализ, усиливают междисциплинарные связи и стимулируют разработку инновационных решений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: комплекс стратегий, базирующийся на компетентностном подходе, формирует культуру системного мышления, повышает качество образования и развивает практический, рефлексивный и творческий потенциал обучающихся. Модель масштабируема для общего и высшего образования и может сопровождаться мониторингом по критериям оценки.

Ключевые слова: компетентностный подход, системное мышление, педагогические стратегии, инновационное обучение, аналитическое мышление, креативность, методический подход.

Для цитирования: Касимова.Д. Система педагогических стратегий, развивающих системное мышление в условиях компетентностного подхода.// Inter education & global study.2025. №8. С.133–142.

A SYSTEM OF PEDAGOGICAL STRATEGIES THAT DEVELOP SYSTEMS THINKING IN A COMPETENCY-BASED APPROACH

© Kasimova D[1]✉
[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper substantiates the need to cultivate systemic thinking within a competency-based paradigm and highlights its relevance for 21st-century

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

education. Systemic thinking enables causal reasoning, cross-disciplinary integration, and evidence-based decision making.

AIM: to design a system of pedagogical strategies for developing systemic thinking, specify its methodological foundations, and justify its effectiveness in instructional practice.

MATERIALS AND METHODS: review of pedagogical and psychological scholarship (Piaget, Vygotsky, Bloom, Gardner, Senge, etc.) and national policy documents; competency-oriented lesson design; development of a conceptual model integrating problem-based learning, project work, quest activities, clustering, and reflective analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: grounded in the principles of coherence, integrativity, learner activity, reflexivity, and problematization, the proposed system aligns analytical, critical, and creative thinking processes. The strategies shift learners from passive recipients to active inquirers, deepen causal analysis, strengthen cross-disciplinary connections, and foster innovative problem solving.

CONCLUSION: a competency-based, multi-strategy framework nurtures a culture of systemic thinking, enhances educational quality, and develops students' practical, reflective, and creative capacities. The model is adaptable to general and higher education and can be monitored using explicit assessment criteria.

Keywords: competency-based approach, systemic thinking, pedagogical strategies, innovative education, analytical thinking, creativity, methodological approach.

For citation: Kasimova D. (2025) 'A system of pedagogical strategies that develop systems thinking in a competency-based approach', Inter education & global study, (8), pp.133–142. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tizimi jadal o'zgarayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik jarayonlarga mos ravishda yangilanib bormoqda. XXI asrda inson kapitalini shakllantirish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va innovatsion fikrlashga ega shaxsni tarbiyalash har bir mamlakat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masalalardan biridir. Kompetensiyaviy yondashuv o'quv jarayonini bilimlarni mexanik o'zlashtirishdan ko'ra, ularni amaliyotda qo'llay olish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltiradi[1].

Ta'lim sohasida global o'zgarishlar, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi o'quvchilardan tizimli fikrlash ko'nikmalarini talab etmoqda. Tizimli fikrlash — bu voqea va jarayonlarni izchil, bog'liqlikda, sabab–natija zanjiri asosida tahlil qilish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikma insonni turli fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'ra bilishga, muammoga kompleks yondashishga, shuningdek, samarali qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Shu sababli tizimli fikrlashni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining eng muhim maqsadlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston — taraqqiyot strategiyasi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi” kabi hujjatlar ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni keng qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa o‘qituvchilardan zamonaviy pedagogik strategiyalarni tanlash va ularni o‘quv jarayonida samarali qo‘llay olish mahoratini talab etadi[1,2].

Pedagogik strategiyalar tizimi – bu o‘qituvchining didaktik faoliyati, metodik yondashuvi va o‘quvchilar bilan muloqotini yagona tizim sifatida tashkil etuvchi yondashuvlar majmuasidir. Ushbu strategiyalar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi, ularni mustaqil tahlil qilishga, muammolarni aniqlab, yechim topishga undaydi. Tizimli fikrlashni rivojlantirishda o‘yin texnologiyalari, muammoli ta’lim, loyihaviy yondashuv, “aqliy hujum”, kvest, klaster va “mind-map” texnikalari yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda.

Biroq mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida tizimli fikrlashni shakllantirish ko‘plab o‘qituvchilar tomonidan yetarlicha chuqur tushunilmagan. Ba’zi hollarda o‘quvchi faqat faktlarni yodlaydi, lekin ularni tahlil qilish, ularning o‘zaro aloqalarini ko‘ra bilish qobiliyati shakllanmaydi. Shu bois, kompetensiyaviy yondashuv sharoitida tizimli fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchining o‘z pedagogik strategiyasini qayta ko‘rib chiqishi, zamonaviy metodlarni integratsiya qilishi, fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirishi zarur[3,4].

Mazkur maqolada aynan shu jarayon – kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimli fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik strategiyalar tizimini shakllantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tizimli fikrlashning psixologik-pedagogik mohiyati, uni rivojlantirishda o‘qituvchi kompetensiyasining o‘rni hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ta’siri o‘rganiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi davrda nafaqat bilimga ega bo‘lgan, balki uni tahlil qila oladigan, yangilik yarata oladigan, tizimli fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash ta’lim tizimining eng muhim vazifasiga aylangan. Shu boisdan, maqolada ilgari surilgan pedagogik strategiyalar tizimi o‘quv jarayonining mazmunini yangilash, o‘qituvchining metodik salohiyatini oshirish va talabalarda tizimli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi[5].

Adabiyotlar tahlili.Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va tizimli fikrlashni rivojlantirish muammosi so‘nggi yillarda jahon miqyosida ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bilimni egallash jarayoni shunchaki faktlarni o‘zlashtirish emas, balki ularni tizimlashtirish, mantiqiy bog‘liqlikda tushunish va amaliyotga tatbiq etish jarayonini o‘z ichiga oladi.

J. Piaget (Jean Piaget)ning kognitiv rivojlanish nazariyasida tizimli fikrlash inson tafakkurining yuqori bosqichi sifatida talqin etiladi. Uning fikricha, o‘quvchi o‘z tajribasi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

orqali o‘rganadi, bilimlarni yangi sharoitlarga moslashtirish (assimilyatsiya) va ularni qayta tuzish (akkomodatsiya) orqali tizimli fikrlashni shakllantiradi. L. S. Vygotskiy esa tafakkur taraqqiyotida ijtimoiy muhit, muloqot va o‘qituvchining yetakchi rolini ta’kidlaydi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi tizimli fikrlashni rivojlantirish uchun shaxsning mavjud bilimlari va yangi o‘zlashtirilayotgan bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi[6].

B. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan “Bilimlar taksonomiyasi” modeli ham tizimli fikrlashni rivojlantirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Taksonomiya bosqichlarida bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash darajalari o‘quvchining fikrlash jarayonini izchil tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, H. Gardnerning “Ko‘p qirrali intellekt nazariyasi” tizimli fikrlashni rivojlantirishda shaxsning turli aqliy qobiliyatlarini uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi.

So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotchilar — P. Senge, J. Sterman, D. Meadows kabi olimlar “System thinking” (tizimli fikrlash)ni ta’lim tizimida muammolarni kompleks tahlil qilish, sabab–natija zanjirlarini anglash va kelajakdagi oqibatlarni oldindan baholash qobiliyati sifatida talqin etishgan. P. Senge o‘zining “The Fifth Discipline” (“Beshinchi intizom”) asarida tizimli fikrlashni tashkilotlar va ta’lim muassasalarida barqaror o‘sish va o‘zgarishlarni boshqarishning asosiy elementi sifatida e’tirof etadi[7].

V. A. Slastenin, I. Ya. Lerner, N. F. Talizina, A. K. Markova kabi rus olimlari pedagogik kompetensiyani o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tizimli tashkil etish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish va ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, o‘qituvchi kompetensiyasi nafaqat bilim va ko‘nikmalardan, balki o‘quv jarayonini tahlil qila olish, tizimli fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatidan ham iborat.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu yo‘nalishda muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. A. A. Abduqodirov, S. Q. To‘raqulov, O. A. Musurmonova, B. H. Rahimov, N. S. Saidahmedov kabi pedagog olimlar kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, uni o‘quv jarayoniga tatbiq etish metodikasi va natijaviyligini oshirish yo‘llarini o‘rganishgan. Xususan, Abduqodirov (2020) o‘z ishlarida ta’limda kompetensiyaviy modelni joriy etish orqali talabalarda tahliliy va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkinligini ta’kidlaydi[8,9].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy, tanqidiy va tizimli fikrlashni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjat ta’limda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim mazmunini yangilash zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham tizimli fikrlashni shakllantirishning samarali usullari sifatida muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim, “kvest” texnologiyasi, STEAM yondashuvi va interfaol metodlar samarali natija berayotgani aniqlangan. Masalan, N. To‘laganova (2023) o‘z tadqiqotida talabalar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tafakkurini tizimlashtirishda interfaol o‘yin texnologiyalari va refleksiv tahlil mashg‘ulotlarining muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tizimli fikrlashni rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning tafakkur jarayonini izchil, mantiqan bog‘langan va natijaga yo‘naltirilgan holga keltiradi. Biroq, amaliyotda ushbu yondashuvni to‘liq amalga oshirish uchun pedagogik strategiyalar tizimini metodik asosda ishlab chiqish, o‘qituvchilarni tayyorlash va ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirish zarurligi ko‘plab tadqiqotlarda e’tirof etilgan[10].

Muhokama va natijalar.Kompetensiyaviy yondashuv va tizimli fikrlashning o‘zaro bog‘liqligi

Kompetensiyaviy yondashuv bugungi kunda ta’lim jarayonining markazida turib, o‘quvchining bilimni qo‘llay olish, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni tahliliy hal etish qobiliyatini shakllantirishni maqsad qiladi. Bunda tizimli fikrlash – shaxsning axborotlarni mantiqiy, izchil va tarmoqli tarzda idrok etish qobiliyati – kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Tizimli fikrlovchi shaxs muammoni alohida fakt sifatida emas, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning butun tizimi orqali ko‘ra oladi. Bu esa ta’lim jarayonida bilimni chuqurroq tushunishga, fanlararo integratsiyani ta’minlashga hamda ijodiy qarorlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Asosiy tushuncha	Mazmuni
Kompetensiya	Shaxsning o‘z faoliyatida bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali qo‘llay olish qobiliyati
Tizimli fikrlash	Axborotlarni tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va mantiqiy tizim asosida qaror qabul qilish jarayoni
Pedagogik strategiya	O‘qituvchining o‘quv jarayonini maqsadga yo‘naltirilgan, bosqichma-bosqich tashkil etish usullari majmuasi
Innovatsion yondashuv	Ta’lim jarayonida yangi texnologiyalar, usullar va faol o‘qitish shakllaridan foydalanish orqali natijadorlikni oshirish

Tizimli fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari

Tizimli fikrlashni shakllantirish uchun pedagog o‘z faoliyatida quyidagi pedagogik tamoyillarga tayangan holda ish olib borishi zarur:

Izchillik tamoyili – bilimlarni ketma-ketlikda, mantiqiy tizim asosida berish;

Integrativlik tamoyili – fanlararo aloqadorlikni ta’minlash;

Faollik tamoyili – o‘quvchini ta’lim jarayonining faol sub’ekti sifatida shakllantirish;

Refleksivlik tamoyili – o‘z fikrini tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatish;

Muammolilik tamoyili – o‘quv jarayonini tahliliy fikrlashni rag‘batlantiruvchi muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish.

Quyidagi jadvalda tizimli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

strategiyalar turlari keltirilgan:

Strategiya turi	Metodik yo‘nalish	Tizimli fikrlashga ta’siri
Muammoli ta’lim strategiyasi	Talabalarni muammoli vaziyatga qo‘yish, mustaqil yechim topishga undash	Muammoni kompleks tahlil qilish va sabab–natija aloqalarini aniqlashni rivojlantiradi
Loyihaviy ta’lim strategiyasi	Fanlararo loyihalar ishlab chiqish va ularni himoya qilish	Integrativ fikrlash va amaliy tahlil ko‘nikmalarini shakllantiradi
Kvest (quest) texnologiyasi	O‘yin asosidagi topshiriqlar orqali bilimlarni tizimlashtirish	Tizimli va ijodiy fikrlashni birlashtiradi
Klaster (g‘oya xaritasi) usuli	Axborotlarni tarmoqli tarzda tasvirlash	Axborot o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlashni kuchaytiradi
Refleksiv tahlil strategiyasi	O‘z fikrini tahlil qilish, xulosalar chiqarish	Mantiqiy ketma-ketlikni va o‘z-o‘zini anglashni rivojlantiradi

Tizimli fikrlashni rivojlantirish bosqichlari

Tizimli fikrlashni rivojlantirish jarayoni uzluksiz bosqichli yondashuvni talab etadi. Quyidagi jadvalda ushbu bosqichlar mazmuni yoritilgan:

Bosqich	Mazmuni	Pedagogik vazifalar
1. Idrok etish bosqichi	O‘quvchi yangi axborotni qabul qiladi, asosiy tushunchalarni anglaydi	Mavzuga qiziqish uyg‘otish, asosiy tushunchalarni aniqlash
2. Tahlil bosqichi	Axborot tahlil qilinadi, bog‘liqliklar aniqlanadi	Muammoli savollar orqali sabab–natija tahlilini o‘rgatish
3. Tizimlashtirish bosqichi	Olingan ma’lumotlar umumlashtiriladi, mantiqiy tizim shakllantiriladi	G‘oyalar xaritasini tuzish, asosiy va ikkilamchi tushunchalarni ajratish
4. Tatbiq bosqichi	Bilimlar amaliy vaziyatlarda qo‘llaniladi	Hayotiy vaziyatlarga mos topshiriqlar bajarish
5. Refleksiya bosqichi	O‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi	O‘z fikrini asoslash, xulosalar chiqarish

Pedagogik strategiyalar tizimining modelini taklif etish

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tizimli fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik strategiyalar tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin:

Tarkibiy qism	Mazmuni
Maqsadli blok	Tizimli fikrlashni rivojlantirishni o‘quv maqsadi sifatida belgilash
Mazmuniy blok	Fanlararo integratsiya, muammoli mavzular, hayotiy kontekst asosida o‘quv materiali tanlash
Faoliyat bloki	Talabalarning mustaqil, interfaol va loyiha asosida ishlashini tashkil etish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Refleksiv blok	O‘quvchilarni o‘z faoliyatini baholash, natijalarni tahlil qilishga o‘rgatish
Natijaviy blok	Tizimli fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanishi

Tizimli fikrlashni baholash mezonlari

Pedagogik amaliyotda tizimli fikrlashni rivojlanish darajasini aniqlash uchun quyidagi baholash mezonlari qo‘llanilishi mumkin:

Mezon	Past daraja	O‘rta daraja	Yuqori daraja
Analitik fikrlash	Faktlarni yodlaydi	Tahlil qilishga urinadi	Sabab–natija bog‘lanishini aniq ko‘rsatadi
Integrativ yondashuv	Alohida fan doirasida fikrlaydi	Ba’zi fanlarni bog‘lay oladi	Fanlararo aloqadorlikni to‘liq tahlil qiladi
Muammoni hal qilish	Tayyor yechimdan foydalanadi	O‘zgartirilgan yechim taklif etadi	Mustaqil, innovatsion yechim ishlab chiqadi
Refleksiya	Fikrini ifoda etishda qiynaladi	Qisman o‘z fikrini tahlil qiladi	Fikrini asoslaydi, xulosa chiqaradi

Tizimli fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik strategiyalarni joriy etish ta’lim jarayonida quyidagi natijalarga olib keladi:

Talabalarda mantiqiy, analitik va ijodiy fikrlash uyg‘unlashadi;

O‘quv jarayoni passiv bilim olishdan faol tahliliy o‘rganish shakliga o‘tadi;

Fanlararo integratsiya ta’minlanadi;

O‘qituvchilarning metodik kompetensiyasi va innovatsion faoliyati kuchayadi.

Shu tarzda ishlab chiqilgan pedagogik strategiyalar tizimi nafaqat o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantiradi, balki ta’lim jarayonining sifatini oshirish, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Xulosa.Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida tizimli fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik strategiyalar tizimini ishlab chiqish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayoni faqat bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan chegaralanib qolmasdan, balki o‘quvchilarda chuqur, mantiqiy, refleksiv va tizimli fikrlash madaniyatini tarbiyalashni ham talab etmoqda. Tizimli fikrlash orqali shaxs voqelikdagi hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi, bu esa ularning qaror qabul qilish, tahlil qilish va innovatsion yechim topish salohiyatini oshiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandi-ki, tizimli fikrlashni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik strategiyalar samarali

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

natija beradi. Bunday strategiyalar o‘quvchilarni faqat bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni o‘rganish jarayonida muammoli vaziyatlarni hal etishga, mustaqil izlanishga va ijodiy tafakkur qilishga yo‘naltiradi. Ayniqsa, muammoli ta’lim, refleksiv tahlil, kognitiv xaritalash, kvest texnologiyasi va fanlararo integratsiyani o‘z ichiga olgan kompleks strategiyalar tizimli fikrlashni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Tizimli fikrlashni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida quyidagi shart-sharoitlarni yaratish muhim: birinchidan, o‘quv faoliyatini amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash; ikkinchidan, talabalarning tahliliy va refleksiv faoliyatini rag‘batlantirish; uchinchidan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlikka asoslangan o‘quv muhitini shakllantirish. Shu orqali talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, tizimli tahlil va qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Natijada, kompetensiyaviy yondashuv asosida qurilgan pedagogik strategiyalar tizimi o‘quvchilarni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlash, ularning ijodiy, analitik va tizimli fikrlash salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda, tizimli fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik strategiyalar kelajak avlodni raqobatbardosh, innovatsion va mas’uliyatli mutaxassislar sifatida shakllantirishning asosiy garovidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4319-sonli qarori. – Toshkent, 2019 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi qarori. – Toshkent, 2020 yil.
3. Халилов, Н. Р. (2022). Pedagogik kompetensiyalar va ularni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Давлатов, А. Ш. (2021). Tizimli fikrlash psixologiyasi va ta’limda uning ahamiyati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
5. Abdullayeva, G. (2020). “Kompetensiyaviy yondashuvning zamonaviy ta’limdagi o‘rni.” Ta’lim taraqqiyoti jurnali, №4, 33–40-betlar.
6. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green.
7. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Addison Wesley Longman.
8. Senge, P. (2006). The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. – New York: Doubleday Currency.
9. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
11. OECD (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030 – The Conceptual Learning Framework. – Paris: OECD Publishing.
12. Qodirova, Z. R. (2023). “Tizimli fikrlashni rivojlantirishda innovatsion o‘qitish texnologiyalarining roli.” Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №2, 25–32-betlar.
13. Xolmatov, M. (2021). Ta’limda tizimli yondashuv va pedagogik strategiyalar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti.
14. Shadiev, R. & Huang, Y. M. (2022). “Developing critical and systems thinking through technology-enhanced learning environments.” Educational Technology Research and Development, Vol. 70, pp. 455–478.
15. UNESCO (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Kasimova Dildora**, stajor o’qituvchi [**Касимова Дилдора**, стажер преподаватель], [**Kasimova Dildora** trainee teacher,]; manzil: Andijon viloyati, Andijon shahri, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy, [адрес: Андижанская область, город Андижан, улица Дружбы, дом 4], [address: 4 Druzhby Street, Andijan city, Andijan region]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA LINGVISTIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING INTENSIV USULLARI

© S.M.Djalalova [1]✉

[1]O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: globallashuv va axborotlashtirish rus tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni orttirmoqda, bu esa o'qitish jarayonini optimallashtirish va intensivlashtirishni talab etadi. Chet til sifatida rus tilini o'qitishda sifatni baholash, o'quv vositalarini yangilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarbdir.

MAQSAD: rus tilini chet tili sifatida o'qitishda lingvistik kompetensiyani oshirishga qaratilgan intensiv usullarni ilmiy asoslash va ularning amaliy samaradorligini aniqlash. Vizualizatsiya, freym modeli va tayanch signallar orqali materialni ixcham, strukturali hamda esda qolarli qilish yo'llarini ko'rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: lingvistik, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish va eksperimentdan foydalanildi. Interfaol mashg'ulotlar, kichik guruhlar, o'yinlar, audio-video materiallar, diagramma, jadval va sxemalardan iborat vizual vositalar qo'llandi. Tayanch konspektlar va ramziy modellar asosida o'quv materialining "siqilishi" va tizimlashtirilishi amalga oshirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: intensiv yondashuvlar talabalarning muloqot faoliyatini kuchaytirib, nazariy materialni eslab qolishni osonlashtirdi va dars samaradorligini oshirdi. Vizual va freym asosli topshiriqlar paradigmatik va sintagmatik munosabatlarni tezroq anglashga yordam berdi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro muloqotga ajratilgan vaqt samaraliroq taqsimlandi.

XULOSA: intensiv usullar (vizualizatsiya, freym, tayanch signallar) rus tilini chet tili sifatida o'qitishni modernizatsiya qiladi va o'quv jarayonini natijador hamda amaliyotga yaqinlashtiradi. Ular lingvistik kompetensiyani barqaror rivojlantirishga, vaqt va intellektual resurslarni tejashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: rus tilini chet tili sifatida o'qitish, lingvistik kompetensiya, intensiv usullar, vizualizatsiya, freym modeli, tayanch konspektlar, lingvodidaktika.

Iqtibos uchun: Djalalova S.M. Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda lingvistik kompetentlikni shakllantirishning intensiv usullari. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.143–150.

ИНТЕНСИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ

© С.М. Джалалова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1] Международная академия исламских наук Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: глобализация и информатизация усиливают потребность в изучении русского языка, что требует оптимизации и интенсификации образовательного процесса. Актуальными являются обновление средств обучения, внедрение технологий и повышение качества оценивания.

ЦЕЛЬ: научно обосновать и выявить практическую результативность интенсивных методов в формировании лингвистической компетенции РКИ. Показать, как визуализация, фрейм-модели и опорные сигналы делают материал компактным, структурным и запоминающимся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: применены теоретический анализ лингвистической и психолого-педагогической литературы, педагогическое наблюдение и эксперимент. Использованы интерактивные формы (малые группы, игры, интервью), аудио-видео ресурсы, схемы, диаграммы и таблицы, опорные конспекты и символические модели.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: интенсивные подходы активизировали речевую деятельность студентов, улучшили долговременное запоминание и организованность знаний. Визуальные и фрейм-задания ускорили усвоение парадигматических и синтагматических отношений. Временные и коммуникативные ресурсы аудитории распределялись эффективнее.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: внедрение визуализации, фрейм-моделей и опорных сигналов модернизирует преподавание РКИ, повышает результативность и приближает обучение к практическим задачам. Эти средства устойчиво развивают лингвистическую компетенцию при рациональных затратах времени и усилий.

Ключевые слова: русский как иностранный, лингвистическая компетенция, интенсивные методы, визуализация, фрейм-модель, опорные конспекты, лингводидактика.

Для цитирования: Джалолова.С.М. Интенсивные методы формирования языковой компетентности в обучении русскому языку как иностранному.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.143–150.

INTENSIVE METHODS OF LANGUAGE COMPETENCE FORMATION IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE

©Sayora M. Djalalova[1]✉
[1] International Academy of Islamic Sciences of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: globalization and digitalization increase the demand for Russian language learning, calling for optimization and intensification of instruction. Updating teaching tools, implementing educational technologies, and enhancing assessment quality are pressing needs.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: to theoretically ground and empirically assess the effectiveness of intensive methods in developing linguistic competence in RFL. To demonstrate how visualization, frame models, and signaling/guided notes render content compact, structured, and memorable.

MATERIALS AND METHODS: methods included theoretical analysis of linguistic and psycho-pedagogical sources, pedagogical observation, and classroom experimentation. Interactive activities (small groups, games, interviews), audio-video resources, schemes, charts and tables, guided notes, and symbolic models were employed.

DISCUSSION AND RESULTS: intensive approaches increased students' communicative engagement, improved retention, and made knowledge organization more coherent. Visual and frame-based tasks accelerated the acquisition of paradigmatic and syntagmatic relations. Classroom time and teacher–student interaction were allocated more efficiently.

CONCLUSION: implementing visualization, frame models, and signaling techniques modernizes RFL instruction, enhances effectiveness, and aligns learning with practical needs. These tools support stable growth of linguistic competence while saving time and cognitive effort.

Keywords: russian as a foreign language, linguistic competence, intensive methods, visualization, frame model, guided notes, linguodidactics.

For citation: Sayora M. Djalalova. (2025) 'Intensive methods of language competence formation in teaching russian as a foreign language', Inter education & global study, (10(1)), pp.143–150. (In Uzbek).

Zamonaviy jta'lim tizimida globallashuv va jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirish jarayonlari munosabati bilan jahon tillarini, shu jumladan, rus tilini o'rganishga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, ta'lim texnologiyalari tizimining samaradorligini oshirish, shuningdek, rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonini optimallashtirish va intensivlashtirish vositalarini izlash zarurati ortib bormoqda. Shu bilan birga rus tilini chet tili sifatida o'qitishning asosiy vazifalari uning sifatini baholash, o'quv vositalarini takomillashtirish va kafolatlangan natijalarga erishishga imkon beradigan texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish hamda fan-texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarblik kasb etadi.

Adabiyot sharhi O'zbekistonda chet tillari o'qitish sohasida katta tajriba to'plangan. Bugungi kunga qadar O'zbekistonda u yoki bu jihatdan o'qitish jarayonini faollashtirish va optimallashtirishga qaratilgan salmoqli dissertatsiya tadqiqotlari tayyorlandi va himoya qilindi. M.D. Jusupov [Djusupov, 1991], D.U. Xashimova [Xashimova, 2007], L.T. Axmedova [Axmedova, 2012], Ye.A. Lagay [Axmedova & Lagay, 2016], D.R. Jumanova [Djumanova, 2019], kabi O'zbekiston olimlarining asarlari rus tilini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o’qitish muammolarini o’rganishga bag’ishlandi.

O‘zbekistondagi nolingvistik oliy o‘quv yurtlarida rus tilini chet tili sifatida o‘rganishga ajratilgan vaqt miqdori bo‘yicha qat’iy cheklovlar mavjudligini inobatga olgan holda, o‘tilgan barcha mavzular kuchaytirilishi kerak [Djalalova, 2022]. Fanni o'qitishni faollashtirish zarurati chet tillari, shu jumladan rus tilini chet tili sifatida o'qitilishi talabalar shaxsning o'sishiga bo'lgan ehtiyoj bevosita belgilanadi [Djalalova, 2023].

Shunday qilib, O‘zbekistonda lingvodidaktika yetarli darajada va intensiv ravishda rivojlanmoqda. Biroq, bizning mamlakatimizda rus tilini chet tili sifatida o'qitishni faollashtirish uchun tayanch texnologiyasidan foydalanish muammosi hali ham hal etilmagan. Shundan kelib chiqib, MDH mamlakatlaridagi hamkasblarimizning tajribasi zarur va foydali, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda quyidagilar qo'llanildi:

− rus tilini chet tili sifatida o'qitishni faollashtirish masalasi bo'yicha lingvistik, uslubiy va pedagogik-psixologik jihatdan adabiyotlarning nazariy tahlil;

- rus tilini chet tili sifatida o'qitishni faollashtirishga didaktik, psixofizik va kibernetik yondashuvlarni tavsiflovchi ilmiy maqolalarni o'rganish;

- belgilangan ilmiy paradigmaning amalga oshirilishi sifatida ilmiy ishning yaxlit majmuini tizimli ravishda tavsiflash usuli.

Rus tilini chet tili sifatida o'qitishga zamonaviy yondashuv hayotning dinamik tabiati, turli xil o'qitish texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarda ijtimoiy foydali bilimlar, e'tiqodlar, xarakter xususiyatlari, munosabatlari va xulq-atvor tajribasini rivojlantirishda shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayoniga yangilik kiritishga qaratilishi kerak. Dialogik ta’lim usullari, haqiqatni hamkorlikda izlash, turli ijodiy faoliyat orqali rivojlantirish, tarbiyaviy vaziyatlarni yaratishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bugungi kunda rus tilini chet tili sifatida o'qitishdagi asosiy uslubiy yangiliklar interfaol o'qitish usullaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Eng keng tarqalgan interfaol usullar orasida ijodiy topshiriqlar, kichik guruhlarda ishlash, o'quv o'yinlari, ommaviy foydalanish resurslari (mutaxassisni taklif qilish, ekskursiyalar), ijtimoiy loyihalar, intervyular, chiqishlar, ko'rgazmalar, video va audio materiallardan foydalanish; mozaika va aqliy hujum.

O'quv fanlarining ilmiy-nazariy asoslarini hisobga olgan holda vizualizatsiya muammosi lingvodidaktika tomonidan ancha vaqt va intensiv ravishda ko'rib chiqilib kelinmoqda. Biroq, bu muammo ilmiy nuqtai nazardan texnologik taraqqiyot va ro'yxatga olish (fiksatsiya) vositalarini doimiy ravishda takomillashtirish, kengaytirish va axborotni taqdim etish dolzarb bo'lib qolmoqda hamda takomillashtirishni talab qiladi. Shulardan kelib chiqib, ko‘rgazmali qurollar o‘qitishning, jumladan, chet tillarini o‘qitishning asosiy tamoyillaridan biri ekanligini alohida ta’kidlash zarur. “Ko‘rgazmali qurollar o‘qitishning didaktik tamoyili bo‘lib, u o‘rganish jarayonida atrofimizdagi olamdagi narsa va hodisalarni jonli idrok etish samaradorligini e’lon qiladi.Chet tilini o‘rgatishda ko‘rgazmali qurollar predmetlarni, chizmalarni, diagrammalar, jadvallar, o'quv filmlari va boshqa audio

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va video materiallar, rasmlarni ko‘rsatish, ko‘rgazmali qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi.

Rus tili o'quv materialining sxematik va ramziy modellarini qurish tayanch texnologiyasi doirasida ham, undan tashqarida ham mumkin. Biroq, har qanday holatda ham, u nazariyani o'zgartirish operatsiyasiga yo'naltirilgan materialni ushbu o'zgarish natijasi ko'rgazmali qurollarning yaratilishi, ya'ni maxsus didaktik vositalar tizimi belgilar tizimiga, birinchi navbatda grafikaga aylantiradi. Ularni idrok etish bosqichida, sxematik va ramziylikning qayta o'zgarishi modellarni nazariy materialga aylanishi nazarda tutilgan. Ikkalasining ham yakuniy didaktik maqsadi bu o'rganilayotgan faktlarni ilmiy tushunish va qayta o'zgarishlar orqali talabalarda tizimlilikni rivojlantirishdir. Bu maqsad uchun tanlangan vositalar juda relevant bo'lishi kerak, ya'ni ko’rgazmalilik tamoyiliga mos kelishi kerak, natijada ma'lumotni kodlash va dekodlashning bu murakkab aqliy mexanizmlari faollashadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko’rgazmalilik muammosi lingvodidaktika tomonidan uzoq vaqt davomida va intensiv ravishda hal qilinmoqda. Biroq, ilmiy nuqtai nazardan texnologik taraqqiyot va ko’rgavmali vositalarini doimiy ravishda takomillashtirish va axborotni taqdim etish, shuningdek, o'quv fanlarining ilmiy-nazariy asoslarini doimiy ravishda kengaytirish muammosi doimiy ravishda dolzarb bo'lib qolmoqda va doimiy takomillashtirishni talab qiladi.

Shulardan kelib chiqib shuni ta’kidlash kerakki, chet tillarini o‘qitishda ko‘rgazmalilik tamoyili ta’limning asosiy tamoyillaridan biridir.

"Ko'rgazmalilik - bu o'rganish jarayonida atrofimizdagi dunyo, narsa va hodisalarni jonli idrok etish samaradorligini taminlaydigan didaktik o'qitish tamoyili. Chet tilini o‘qitishda ko‘rgazmali qurollarga predmetlar, chizmalar, rasmlar, diagrammalar, jadvallar, o'quv filmlari va boshqa audio va video materiallar kiradi. Til hodisalari ko‘rgazmali qurol sifatida qo‘llanilganda, biz “lingvistik ko’rgazmaliligi” haqida gapiramiz [Min'yarBeloruchev, 1996; 144]. " lingvistik ko’rgazmaliligi - bu nutq namunalari va alohida til hodisalarinimg og'zaki yoki yozma shakli (fonema, morfemalar, so'zlar, gaplar). Til ko’rgazmaliligi chet tilini o'rganishning muhim va ob'ektiv shartidir" [Lagun, 2021; 92]. Chet tillarini, jumladan, rus tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan diagrammalar, jadvallar, grafiklar o‘z shakliga ko‘ra lingvistik bo‘lmagan vositalar hisoblansa-da, mazmuni aslida lingvistikdir. Biroq, ushbu masala bo'yicha ko'pgina tadqiqotlarda, rus tili o'quv materiallarining sxematik va ramziy modellari ko'rib chiqiladi va ular vizualizatsiyaning sof lingvistik vositasi hisoblanadi. Biz rus tilining paradigmatik va sintagmatik jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan diagrammalar va jadvallarga lingvistik ko‘rgazmali qurollar sifatida tasniflanishi kerak degan fikrga to'liq qo’shilamiz. Ta'limni intensivlashtirish tushunchasi pedagogika uchun mutlaqo yangilik emas. Keng ma'noda "ta'limni intensivlashtirish" "har bir vaqt birligida ham o'qituvchi, ham talaba o'rganish samaradorligini oshirish" degan ma'noni anglatadi [UP5847, 2019]

V.S.Bezrukovaning qo'llanmasida ta'limni intensivlashtirishga quyidagi ta'rif berilgan: "Intensifikatsiya - bu ta'lim tizimi va uning sub'ektlarining vazifalari strukturasini ratsionalizatsiya qilish; yangi samarali ta'lim texnologiyalarini ko'proq joriy etish; ko'p

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

darajali ta’limga o'tish, turli xil ta'lim ehtiyojlarlarini qondirishni ta'minlaydigan ta'lim; ta'lim tamoyillarini o'zgartirish va insonparvarlikni amalga oshirish; rag'batlantirish tamoyillari sifatida ta'limni mintaqaviylashtirish va demokratlashtirish tizimining rivojlanishi» [Bezrukova, 2000; 939]. Ko'rib turganimizdek, keng ma'noda, ta'limning intensivlashuvi deganda, umuman ta'lim tizimidagi yaxlit o'ziga xos o'zgarishlar tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar pirovard natijada nafaqat optimallashtirish, balki ta'limni intensivlashtirish jarayonlari davom etayotganini aytish mumkin. Bu ma’lum darajada “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” va “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” kabi muhim hujjatlarda belgilangan harakatlar dasturiga ham taalluqlidir. ” [UP 5847, 2019]. Ushbu hujjatlar ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishkabi aniq maqsad bilan ishlab chiqilgan. Shubhasiz, rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishni faollashtirish ushbu paradigmaga mos keladi.

O'rganilayotgan til materialini esda saqlashni kuchaytirish vazifasi shuningdek, lingvistik bilimlarni tizimlashtirish vazifasi bilan bog’liq. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlanish, bizning fikrimizcha, bir qator omillar mavjud bo'lgandagina, o'qituvchiga bog'liq bo’lishi mumkin,

Ko‘rgazmalilikning asosiy xususiyati, bizning fikrimizcha, o‘quv materiali, taqdimot vositalari va usullarini tanlashda keng imkoniyatlarning mavjudligi. O‘quv ma’lumotlarini bunday "siqish" va vizuallashtirishga texnologik jihatdan turli uslubiy yo’llar va shunga mos ravishda turli xil sxematik-belgili modellar, bilimlar tasavvuri bilan erishish mumkin.

"Sxemalarni zamonaviy idrok etish metaplan prinsipidan kelib chiqib, u ma’lum bir vazifaga ega bo‘lgan shakllar (elementlar) turli xil kognitiv funksiyalarga ega bo‘lib, mustahkamlash va qayd etish qobiliyatiga ega ma’lum bir shaklda "fikrlash jarayonlarini predmetlashtirish natijalari", belgilarning invariant to‘plamini ifodalaydi. [Minyar Beloruchev, 1996; 144]. Shunday qilib, nisbatan barqaror tizim bilan ta’minlangan sxemali va belgili modellar shartli belgilar va "tizimli tayanchlar to‘plami sifatida ishlaydigan o‘zaro strukturaviy bog‘langan va o‘zi bilan ma’nolar, tushunchalar, g‘oyalar tizimi o‘rnini bosuvchi ko‘rgazmali qurilma o‘zaro bog‘liq elementlar sifatida metaplan qurilishning umumiy tamoyilidan boshqa narsa emas" [Gurina & Sokolova, 2005; 176].

Bizda qiziqish uyg‘otadigan yana bir usul - freym modeli: "Freym modeli. (*Freym - ramka, asos, skelet, minimal tavsif hodisalar*). Freym o‘qitish texnologiyasida bilimlarni taqdim etish birligi, o‘tmishda to‘ldirilgan, zarurat tug‘ilganda uning detallari vaziyatga ko‘ra o‘zgartirilishi mumkin. Odatda freym bir nechta (slotlar) katakchalardan iborat bo‘ladi, hamda har birining o‘z vazifasi bor. Freym modeli ko‘rinishidagi jadvallar, matritsalar va axborotni "siqish" yordamida strukturalash va tizimlashtirish mumkin. " [Zuyonok & Zuyonok, 2016; 266]. Natijada freymni nafaqat eslab qolishni, balki shuningdek, interfaol muhokama jarayonida muammoli masalalarni qo‘yish deb qaralishi mumkin. Shunga qaramay, eng keng ma’noda freym takrorlanuvchi idrok stereotipi yadrosiga ega bo‘lgan mazmunli tasavvurlar uchun mavhum obrazdir. Uning didaktik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ta’sir mexanizmi insonning o‘ziga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni yangisi bilan taqqoslashdagi tug‘ma qobiliyatidan foydalanishga asoslanad. Freym ba’zi stereotip va umuman olganda inson ongida statik mavjud bo‘lgan tuzilmadir.

Keltirilgan sharhni umumlashtirib shuni aytish kerakki, intensiv usullar ilmiy matnning kompressiyasi natijasida bilimlarni taqdim etishning eng muhim usullaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Biroq, uchun eng muhim shart rus tilint chet tili sifatida o’qitish bo‘yicha intensiv usullarni qo‘llash ixchamlik, tuzilmaviylik, tushunarlilik, rangli ko‘rgazmalilik va obrazlilik, avtonomlik kabi didaktik tamoyillardan iborat.

Xulosalar Intensiv usullarni qo’llash natijalariga ko‘ra quyidagi xulosaga kelindi:

jarayonni jadallashtirishda Intensiv usullarning asosiy afzalliklari lingvistik kompetensiyani takomillashtirish quyidagilardan iborat:

1. Intensiv usullarni qo‘llash nazariy materialni o‘qituvchining diktovkasi ostida mexanik yozish zaruratni yo‘qotadi

2. Intensiv usullardan foydalanish jarayonida talabalarning lingvistik mavzulardagi munozaralarda faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratiladi.

3. Intensiv usullardan foydalanish tufayli o‘qituvchining talabalar bilan muloqoti uchun auditoriya vaqti bo‘shatiladi.

4. Intensiv usullardan foydalanish lingvistik material o‘rganish va eslab qolish, ijodiy va tahliliy ishlar uchun o‘quv vaqti hajmini oshirish uchun vaqt va intellektual kuch sarflashni qisqartirishga yordam beradi.

5. Intensiv usullardan foydalanish rus tili bo‘yicha lingvistik kompetensiyani takomillashtirish jarayonini, bunda boshqa o‘qitishni jadallashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarrni qo‘llashga to‘sqinlik qilmagan holda, nolingvistik oliy o‘quv yurtlari talabalarida jadallashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini rivojlantiris konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni. (2019 yil 8 oktyabr). Lex.uz. https://lex.uz/ru/docs/4545887.
2. Axmedova, L.T., & Lagay, Ye.A. (2016). Sovremennie texnologii prepodavaniya russkogo yazika i literaturi. Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Bezrukova, V.S. (2000). Osnovi duxovnoy kulturi. Yekaterinburg: Dom uchitelya.
4. Gurina, R.V. & Sokolova, Ye.Ye. (2005). Freymovoye predstavleniye znaniy. Moskva: Izdatel’skiy dom Narodnoye obrazovaniye.
5. Djalalova, S.M. (2022). Problema intensifikatsii obucheniya russkomu yaziku kak inostrannomu v sovremennoy lingvodidakticheskoy paradigme. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 301–310. 11.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. Djalalova, S.M. (2023). The problem of intensification of teaching Russian as a foreign language in the modern linguodidactic paradigm. International Journal of Pedagogics, 3(03), 11–20. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue03-03.
7. Djumanova, D.R. (2019). Zvukovie sepi uzbekskix slov v jivoy russkoy rechi. Vestnik Kurganskogo gosudarstvennogo universiteta, 1(52), 84–86
8. Djusupov, M. (1991). Zvukovie sistemi russkogo i kazaxskogo yazikov. Slog. Interferensiya. Obuchenie proiznosheniyu. Tashkent: Fan.
9. Zuyonok, A.Yu., & Zuyonok, A.V. (2016). Ispolzovaniye metaplantexnologii v professionalnom obuchenii. Nauka – obrazovaniyu, proizvodstvu, ekonomike: materiali 14y Mejdunarodnoy nauchnotexnicheskoy konferensii (ss. 266–268.). Minsk: BNTU.
10. Lagun, N.Ye. (2021 god 27 maya). Sovremennie trebovaniya k organizatsii obrazovatelnogo protsessa po dissipline “Russkiy yazik kak inostranniy” v UVO. Aktualnie problemi realizatsii obrazovatelnix programm visshego i dopolnitelnogo obrazovaniya napravleniya obrazovaniya “Pogranichnaya bezopasnost”: materiali 5-y Respublikanskoy zaochnoy nauchnometodicheskoy konferentsii. Minsk: Gosudarstvennoye uchrezhdeniye obrazovaniya “Institut pogranichnoy sluzhby Respubliki Belarus”..
11. Lavrent’yev, G.V., Lavrent’yeva, N.B., & Neudakhina, N.A. (2004). Innovatsionnie obuchayushiye texnologii v professionalnoy podgotovke spetsialistov (Ch. 2). Barnaul: Izdatel’stvo Altayskogo universiteta.
12. Min’yar-Beloruchev, R.K. (1996). Metodicheskiy slovnik. Moskva: Stella.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Djalalova Sayora Mirxaydarovna**, katta o‘qituvchi [**Джалалова Сайора Мирхайдаровна**,старший преподаватель], [**Djalalova Sayora Mirxaydarovna** senior lecturer]; manzil: A.Qodiri 11, Abdulla Qodiriy ko'chasi 78, 100011, Toshkent, Toshkent, [адрес: А.Кадыри 11, ул. Абдуллы Кадыри 78, 100011, Ташкент, Ташкент], [address: A.11 Kadiri, 78 Abdullah Kadiri St., 100011, Tashkent, Tashkent.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL SIMULYATSIYALAR VA VIRTUAL LABORATORIYALARNING O’RNI

© G.J. Mamatova [1]✉

[1]Andijon davlat pedagogika Instituti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola zamonaviy ta’limda interfaol simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalarning nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, murakkab fizik jarayonlarni vizual tushuntirish hamda laboratoriya mashg‘ulotlarini xavfsiz va samarali tashkil etishdagi o‘rnini tahlil qiladi. Yarimo‘tkazgichlar fizikasi kabi yo‘nalishlarda moliyaviy, texnik va xavfsizlik cheklovlariga muqobil yechim sifatida ularning afzalliklari asoslanadi.

MAQSAD: interfaol simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalarning ta’lim sifati, tajriba dizayni va talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalariga ta’sirini tizimli yoritish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ta’limiy platformalar (onlayn simulyatorlar, virtual laboratoriyalar) hamda amaliy dars ssenariylari bo‘yicha tahliliy sharh; parametrlarni boshqarish va real vaqt grafik tahlilga tayanuvchi tajriba vaziyatlari misollarini ko‘rib chiqish. Afzallik va cheklovlar taqqoslash usulida umumlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: interfaol muhit talabalarda nazariy tushunchalar, parametrlarni boshqarish, grafik talqin va xulosalash ko‘nikmalarini kuchaytirdi; laboratoriya risklari va xarajatlari kamaydi. Shuningdek, algoritm va vizualizatsiya sozlamalariga bog‘liq nozik o‘zgarishlarni farqlash qiyinligi kabi cheklovlar aniqlandi; ularni didaktik yo‘riqnomalar va moslashuvchan grafik masshtablash bilan bartaraf etish taklif qilindi.

XULOSA: virtual laboratoriyalar an’anaviy amaliyotni to‘ldiruvchi kuchli vosita bo‘lib, interfaol tajriba–tahlil–vizualizatsiya integratsiyasi orqali o‘qitish samaradorligini oshiradi. Keng joriy etish uchun metodik qo‘llanmalar, moslashtirilgan interfeys va sifat monitoringi zarur.

Kalit so‘zlar: virtual laboratoriya; interfaol simulyatsiya; yarimo‘tkazgichlar fizikasi; grafik tahlil; eksperiment dizayni; raqamli ta’lim.

Iqtibos uchun: Mamatova. G.J. Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalarning o’rni. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.151–160.

РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ СИМУЛЯЦИЙ И ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

© Г.Ж. Маматова[1]✉

[1] Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья анализирует роль интерактивных симуляций и виртуальных лабораторий в углублении теоретических знаний, визуализации сложных физических процессов и безопасной организации лабораторных занятий. В направлениях типа физики полупроводников они выступают доступной альтернативой при финансовых, технических и безопасностных ограничениях.

ЦЕЛЬ: системно показать влияние интерактивных симуляций и виртуальных лабораторий на качество обучения, дизайн эксперимента и исследовательские компетенции студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: аналитический обзор образовательных платформ (онлайн-симуляторы, виртуальные лаборатории) и сценариев занятий; разбор кейсов с управлением параметрами и анализом графиков в реальном времени; сравнительная оценка преимуществ и ограничений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: интерактивная среда усиливает понимание теории, навыки управления параметрами, графическую интерпретацию и выводы; снижаются риски и затраты лабораторных работ. Выявлены ограничения, связанные с масштабированием графиков и алгоритмами визуализации; предложены методические рекомендации и гибкие настройки интерфейса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: виртуальные лаборатории эффективно дополняют традиционную практику, повышая результативность обучения за счёт интеграции «эксперимент–анализ–визуализация». Для масштабирования необходимы методподдержка, адаптивный интерфейс и контроль качества.

Ключевые слова: виртуальная лаборатория; интерактивная симуляция; физика полупроводников; графический анализ; дизайн эксперимента; цифровое обучение.

Для цитирования: Маматова.Г.Ж. Роль интерактивных симуляций и виртуальных лабораторий в современном образовательном процессе.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.151–160.

THE ROLE OF INTERACTIVE SIMULATIONS AND VIRTUAL LABORATORIES IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS

©Gozaloy.J. Mamatova [1]✉
[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper examines how interactive simulations and virtual laboratories deepen conceptual understanding, visualize complex physical phenomena, and enable safe, efficient laboratory practice. In fields such as semiconductor physics, they provide a viable alternative amid financial, technical, and safety constraints.

AIM: to systematically outline the impact of interactive simulations and virtual labs on learning quality, experimental design, and students' research competence.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MATERIALS AND METHODS: an analytical review of educational platforms (online simulators, virtual labs) and lesson scenarios; case analyses involving parameter control and real-time graphing; comparative synthesis of advantages and limitations.

DISCUSSION AND RESULTS: interactive environments improved theoretical mastery, parameter manipulation, graph interpretation, and inference, while reducing cost and risk. Limitations linked to visualization algorithms and fixed plotting scales were identified; didactic guidance and flexible graph/UX settings are proposed to mitigate them.

CONCLUSION: virtual labs effectively complement traditional practice by integrating experiment–analysis–visualization, thereby enhancing instructional effectiveness. Scaling requires methodological support, adaptive interfaces, and quality assurance.

Keywords: virtual laboratory; interactive simulation; semiconductor physics; graph analysis; experimental design; digital learning.

For citation: Gozaloy.J`. Mamatova. (2025) 'The role of interactive simulations and virtual laboratories in the modern educational process', Inter education & global study, (10(1)), pp.151–160. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, murakkab fizik jarayonlarni tushunarli qilish va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Xususan, yarimo'tkazgichlar fizikasi kabi texnik va tabiiy fanlarda an'anaviy laboratoriya ishlarini o'tkazish moliyaviy, texnik va xavfsizlik muammolari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli, virtual laboratoriyalar va interfaol simulyatsiyalardan foydalanish muqobil yechim sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar talabalarga murakkab fizik jarayonlarni vizual ko'rish, eksperimentlarni interfaol boshqarish, turli sharoitlarni sinab ko'rish va real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, virtual muhitda laboratoriya ishlarini bajarish talabalar uchun xavfsiz va qulay bo'lib, ular o'z mustaqil tajribalarini ko'proq takrorlash imkoniga ega bo'ladilar.

Metodologiya. Interfaol simulyatsiyalar nima? Interfaol simulyatsiyalar – bu murakkab fizik jarayonlarni vizual tarzda modellashtirish, o'zgaruvchilarni nazorat qilish va natijalarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotlar yoki onlayn platformalardir. Simulyatsiyalar fizik qonuniyatlarni o'rganishda murakkab hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, eksperimentlarni xavfsiz muhitda o'tkazish va talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun xizmat qiladi.[1]

Interfaol simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, murakkab fizik jarayonlarni tushunarli qilish va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, yarimo'tkazgichlar fizikasi kabi texnik fanlarda laboratoriya ishlarini real sharoitda o'tkazish moliyaviy, texnik va xavfsizlik muammolari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

sababli, virtual laboratoriyalar va interfaol simulyatsiyalardan foydalanish muqobil yechim sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar talabalar uchun murakkab fizik jarayonlarni vizual tarzda modellashtirish, o‘zgaruvchilarni nazorat qilish va natijalarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradigan dasturiy ta’minot yoki onlayn platformalar hisoblanadi. Simulyatsiyalar fizik qonuniyatlarni o‘rganishda murakkab hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, eksperimentlarni xavfsiz muhitda o‘tkazish va talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun xizmat qiladi.[2]

Interfaol simulyatsiyalar bu murakkab fizik jarayonlarni vizual tarzda modellashtirish, o‘zgaruvchilarni nazorat qilish va natijalarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi dasturiy ta’minotlar yoki onlayn platformalardir. Ular talabalar uchun nazariy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga, eksperimentlarni takroriy bajarishga va natijalarni tahlil qilishga yordam beradi. Interfaol simulyatsiyalarning asosiy afzalliklari murakkab jarayonlarni vizualizatsiya qilish, yarimo‘tkazgichlarning kvant xususiyatlarini tushuntirish, elektron va kovaklarning kristall panjaradagi harakatini ko‘rsatish, eksperimentlarni takroriy bajarish imkoniyati, laboratoriya asbob-uskunalaridan foydalanish imkoniyati cheklangan sharoitlarda ham eksperimentlarni qayta-qayta o‘tkazish, nazorat va boshqarish imkoniyati, talabalar tajriba shartlarini o‘zgartirib, jarayon qanday kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Xavfsiz va arzon muqobil yechim qimmat laboratoriya asbob-uskunalarisiz ham real tajribalarga yaqin natijalarni olish imkoniyatini yaratadi. Yarimo‘tkazgichlar fizikasi bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lgan interfaol simulyatsiya platformalariga PhET Interactive Simulations, elektr o‘tkazuvchanlik, kvant tunnellash, yarimo‘tkazgich materiallarining xususiyatlarini simulyatsiya qilish uchun mo‘ljallangan, Proteus va Multisim, elektron zanjirlar va yarimo‘tkazgichli qurilmalarni modellashtirish uchun, MATLAB va Simulink, fizik jarayonlarni matematik modellashtirish va zaryad tashuvchilarning harakat dinamikasini tahlil qilish uchun, Silvaco TCAD va COMSOL Multiphysics, yarimo‘tkazgich materiallari ichidagi fizik jarayonlarni chuqur modellashtirish uchun ishlatiladigan platformalar kiradi.[3]

Natija va tahlil. Raqamli texnologiyalar vositalaridan foydalanilgan laboratoriya ishlari talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlarini rivojlantirish, tahliliy fikrlashini shakllantirish, eksperimentni tushunish va ma’lumotlarga asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini kuchaytirishda muhim o‘rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan mamatova.uz platformasi orqali ishlab chiqilgan onlayn laboratoriya mashg‘ulotlari sun’iy intellekt, real laboratoriya modeli va hisoblash grafikasi imkoniyatlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan holda zamonaviy raqamli ta’limga mos keladi.[4]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



1-rasm. Mamatova.uz platformasining ko'rinishi

Mamatova.uz – bu Andijon davlat pedagogika instituti fizika fani o'qituvchisi tomonidan yaratilgan o'quv platforma bo'lib, u yarimo'tkazgichlar fizikasiga oid laboratoriya mashg'ulotlarini raqamli tarzda simulyatsiya qilish imkoniyatini beradi. Ushbu sayt interaktiv laboratoriya ishlari, ma'ruza, amaliy mashg'ulot va metodik ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan. Sayt tuzilmasi bo'limlari:

Maruza – nazariy materiallar
Amaliy – amaliy topshiriqlar va savollar
Metodika – o'qituvchi uchun yo'riqnomalar
Laboratoriya ishi – asosiy interaktiv tajriba bo'limi
Admin – administrator kirish qismi



2-rasm. Mamatova.uz platformasidagi labaratoriya ishi namunalari

Saytda joylashtirilgan "Quyosh modullarining ketma-ket ulanish sxemasini o'rganish" laboratoriya ishida quyidagi fizik parametrlar interaktiv shaklda o'rganiladi. Ushbu laboratoriya ishida biz quyosh modullarining ketma-ket ulanish sxemasini o'rganamiz. Buning uchun siz bir nechta parametrlarni kiritish kerak bo'ladi, masalan:

Qisqa tutashuv toki (Isc) - Maksimal tok, quyosh paneli yopiq holatda bo'lsa, u orqali o'tishi mumkin bo'lgan eng katta qiymat. O'lchov birligi: amper (A).

Maksimal quvvatdagi kuchlanish (Vmp) - Maksimal quvvatda panel kuchlanishi, O'lchov birligi: volt (V).

Harorat (T)-Panel harorati Selsiy darajalarida. O'lchov birligi: Selsiy darajasi ("C).


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Diod effekti-Diodning quyosh paneli ishiga ta'sirini hisobga oladigan koeffitsiyent.
Panellar soni-Ketma-ket ulangan panellar soni.

Ma'lumotlar kiritilgandan so'ng, kalkulyator natijalarni grafik shaklida ko'rsatadi. Bu esa turli parametrlarning panel ishiga qanday ta'sir qilishini aniq namoyish etadi. Endi esa 3 xil eksperimental sharoitda quyosh modullarining ketma-ket ulanma natijalari quyidagi grafiklar orqali tahlil qilamiz. Grafik natijalar asosida panel soni, diod samaradorligi va harorat parametrlarining PV va IV ko‘rinishidagi ta’siri kuzatamiz.[5]

№	Qisqa tutashuv toki (Isc)A	Maksimal quvvatdagi kuchlanish (Vmp)V	Harorat (T) C	Diod effekti	Panellar soni	Izoh:
1	5.0	18.0	25	1.1	2	Optimal sharoit: xona harorati, o’rtacha panel soni
2	6.2	19.5	45	1.3	5	Yuqori harorat, kuchli quyosh, ko’proq panel
3	4.0	17.0	15	1.2	1	Sovuq sharoit, kam panel, diod yo’q emas




ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3-rasm. 25°C haroratda, 2 panel bilan olingan IV va PV grafik ko'rinishi. Harorat oshgani sari tok qiymati o'zgargani grafikda kuzatilmoqda. Diod effekti quvvat egri chizig'ining burchagini o'zgartirdi.

Qisqa tutashuv toki (Isc): 5.0 A

Maksimal quvvatdagi kuchlanish (Vmp): 12.5 V

Ketma-ket ulanish uchun umumiy kuchlanish: 12.5 V




4-rasm. 45°C haroratda, 5 panel bilan olingan IV va PV grafik ko'rinishi. Harorat oshgani sari tok qiymati o'zgargani grafikda kuzatilmoqda. Diod effekti quvvat egri chizig'ining burchagini o'zgartirdi.

Qisqa tutashuv toki (Isc): 5.704000000000001 A

Maksimal quvvatdagi kuchlanish (Vmp): 11.44 V

Ketma-ket ulanish uchun umumiy kuchlanish: 34.32 V



5-rasm. 15°C haroratda, 1 panel bilan olingan IV va PV grafik ko'rinishi. Harorat oshgani sari tok qiymati o'zgargani grafikda kuzatilmoqda. Diod effekti quvvat egri chizig'ining burchagini o'zgartirdi.

Qisqa tutashuv toki (Isc): 5.704000000000001 A

Maksimal quvvatdagi kuchlanish (Vmp): 11.44 V

Ketma-ket ulanish uchun umumiy kuchlanish: 57.199999999999996 V

Endi esa grafiklarni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu qiymatlarning sezilarli farqlari mavjud bo'lsa-da, grafiklar deyarli bir xil ko'rinishda chiqdi. Bu quyidagicha izohlanadi:

- Platforma grafiklarni asosiy ikki parametrga (Isc va Vmp) asoslangan holda chizadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- Harorat va diod samaradorligi grafik algoritmga to‘liq integratsiya qilinmagan, ya’ni ular qiymat sifatida kiritiladi, ammo grafikga vizual ta’siri cheklangan.

-Grafiklar har doim bir xil ko‘lamda (masalan: 0–25V, 0–10A) chiziladi, bu esa ozgina o‘zgarishlarni ko‘z bilan farqlashni qiyinlashtirad[6]

Interfeysda har bir parametr mustaqil ravishda kiritiladi, grafik avtomatik hosil bo‘ladi, bu talabaga nafaqat natijani ko‘rsatadi, balki fizik qonuniyatlar ustida eksperiment qilish imkonini beradi. Talaba har bir parametrni o‘zgartirib, o‘sha zahoti natijaviy grafikning qanday o‘zgarishini ko‘radi. Bu metodika "eksperiment + tahlil + vizual ko‘rish" integratsiyasini amalga oshiradi. Shuningdek, real laboratoriya bo‘lmagan hollarda ham talaba virtual tajriba asosida fizik qonuniyatni anglab yetadi.[7]

Mamatova.uz laboratoriya interfeysi har bir parametrga tushunarli izoh berilgan (pedagogik aniqlik); raqamli formulalar va natijalar avtomatik hisoblanadi (hisob-kitob xatosi kamayadi); talabalar tahliliy fikrlash va eksperiment dizayni elementlarini o‘zlashtiradi; masofaviy ta’lim uchun mos (hatto uy sharoitida ham bajariladi); yopiq tizim emas — talaba o‘zgaruvchilarni erkin tanlaydi (mustaqil eksperiment yuritish) afzalliklariga ega.

Ushbu onlayn laboratoriya darsi talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasi – mustaqil gipoteza qo‘yish va tekshirish; eksperiment dizayni – turli fizik parametrlarni o‘zgartirish orqali natijalarni tahlil qilish; raqamli savodxonlik – hisoblash, grafik tahlil, visualizatsiyalardan foydalanish; analitik mulohaza – grafikni tahlil qilish asosida xulosa chiqarish kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Mamatova.uz interfeysi faqat virtual emas — real laboratoriya fotosuratlari, o‘lchov asboblari, eksperimental qurilma sxemasi ham joylashtirilgan. Bu talabaga real jihoz va sxemani tanitadi, virtual tahlilni haqiqiy fizik eksperimentga tayyorlov bosqichiga aylantiradi, real laboratoriya mashg‘uloti uchun tayanch bilimlar va modelni beradi. Masalan, sxematik rasmda ampermetr, voltmetr, quyosh nuri manbai, reostat, panel burchagi, o‘lchov asboblari aniq ko‘rsatilgan.

Virtual laboratoriyalar – bu talabalarga real laboratoriya sharoitlarini yaratadigan va eksperimentlarni simulyatsiya qilish imkonini beruvchi dasturiy ta’minot yoki veb-platformalar bo‘lib, ular an’anaviy laboratoriya ishlarini to‘ldirish yoki to‘liq almashtirish uchun ishlab chiqilgan. Virtual laboratoriyalarning asosiy afzalliklari:

- To‘liq interfaol muhit – talabalar tajriba o‘tkazish uchun turli asbob-uskunalarni tanlash, sozlash va boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

- Real laboratoriya muhitini taqlid qilish – talabalarga laboratoriya jihozlarini ekranda ko‘rib, ulardan qanday foydalanishni o‘rganish imkonini beradi.

- Amaliy tajribalarni o‘tkazish – talabalar yarimo‘tkazgich qurilmalarining ishlash tamoyillarini real sharoitga yaqin tarzda o‘rganishlari mumkin.

- Masofaviy ta’lim imkoniyati – talabalar istalgan joydan laboratoriya ishlarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Interfaol simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalarning yarimo‘tkazgichlar fizikasi bo‘yicha qo‘llanilish yo‘nalishlari elektron va kovaklarning kristall panjarada harakati, p-n

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘tishlar, kvant tunnellash va elektron-kovak diffuziyasi modellashtirilishi, tranzistorlar va diodlarning ishlash tamoyillari, kuchlanish va oqimning yarimo‘tkazgich materiallariga ta’siri tahlil qilinishi, yarimo‘tkazgichlarning haroratga bog‘liq elektr o‘tkazuvchanligi, harorat oshishi bilan elektronlarning faollashishi jarayoni modellashtirilishi, kvant effektlarini o‘rganish, kvant nuqtalar, kvant tunellash hodisalari va yarimo‘tkazgich kvant kompyuter texnologiyalarining asoslari interfaol tarzda tushuntirilishi kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.[8][9][10]

Interfaol simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar bugungi kunda an’anaviy laboratoriya ishlariga innovatsion muqobil bo‘lib, talabalar uchun tajriba o‘tkazish jarayonlarini ancha qulay va samarali qiladi. Ularning asosiy afzalliklari talabalar nazariy bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishi, murakkab fizik jarayonlar vizualizatsiya qilinib, ularni tushunish osonlashishi, real laboratoriya sharoitiga ehtiyoj kamayishi, tajribalar xavfsiz muhitda amalga oshirilishi, interfaol muhit talabalarni laboratoriya ishlariga yanada faol jalb etishi va ularning izlanish qobiliyatlarini oshirishga yordam berishidir. Shunday qilib, interfaol simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar zamonaviy ta’lim jarayonida yangi texnologik imkoniyatlar ochib beradi hamda yarimo‘tkazgichlar fizikasi laboratoriyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish natijasida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasi oshadi va ularning amaliy laboratoriya ishlariga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi..

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. J. Gulomov and R. Aliev, “Numerical analysis of the effect of illumination intensity on photoelectric parameters of the silicon solar cell with various metal nanoparticles,” Nanosystems: Physics, Chemistry, Mathematics, vol. 12, no. 5, pp. 569–574, Oct. 2021, doi: 10.17586/2220-8054-2021-12-5-569-574.
2. v Sachenko et al., “The Effect of Base Thickness on Photoconversion Efficiencyin Textured Silicon-Based Solar Cells,” Zhurnal Tekhnicheskoi Fiziki, vol. 44, no. 10, pp. 40–49, 2018, doi: 10.1134/S1063785018100139.
3. J. J. Zhang, Z. G. Qu, J. F. Zhang, and A. Maharjan, “A three-dimensional numerical study of coupled photothermal and photoelectrical processes for plasmonic solar cells with nanoparticles,” Renewable Energy, vol. 165, pp. 278–287, Mar. 2021, doi: 10.1016/J.RENENE.2020.11.010.
4. J. Gulomov et al., “Studying the effect of light incidence angle on photoelectric parameters of solar cells by simulation,” International Journal of Renewable Energy Development, vol. 10, no. 4, pp. 731–736, 2021, doi: 10.14710/ijred.2021.36277.
5. M. K. Abduvohidov, R. Aliev, and J. Gulomov, “A study of the influence of the base thickness on photoelectric parameters of silicon solar cells with the new TCAD algorithms,” Scientific and Technical Journal of Information Technologies,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Mechanics and Optics, vol. 21, no. 5, pp. 774–784, Oct. 2021, doi: 10.17586/2226-1494-2021-21-5-774-784.
6. L. Xu et al., “Heat generation and mitigation in silicon solar cells and modules,” Joule, vol. 5, no. 3, pp. 631–645, Mar. 2021, doi: 10.1016/J.JOULE.2021.01.012.
7. T. Dullweber et al., “Present status and future perspectives of bifacial PERC+ solar cells and modules,” Japanese Journal of Applied Physics, vol. 57, no. 8S3, p. 08RA01, Jun. 2018, doi: 10.7567/JJAP.57.08RA01.
8. M. Winter, M. R. Vogt, H. Holst, and P. P. Altermatt, “Combining structures on different length scales in ray tracing: analysis of optical losses in solar cell modules,” Optical and Quantum Electronics 2014 47:6, vol. 47, no. 6, pp. 1373–1379, Dec. 2014, doi: 10.1007/S11082-014-0078-X.
9. H. Wang, X. Cheng, and H. Yang, “Temperature Coefficients and Operating Temperature Verification for Passivated Emitter and Rear Cell Bifacial Silicon Solar Module,” IEEE Journal of Photovoltaics, vol. 10, no. 3, pp. 729–739, May 2020, doi: 10.1109/JPHOTOV.2020.2974289.
10. B. Hoex, M. Dielen, M. Lei, T. Zhang, and C. Y. Lee, “Quantifying optical losses of silicon solar cells with carrier selective hole contacts,” AIP Conference Proceedings, vol. 1999, no. 1, p. 040010, Aug. 2018, doi: 10.1063/1.5049273.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mamatova Go’zaloy Jo’ramirzayevna**,mustaqil tadqiqotchi[**Маматова Гузалой Журамирзаева** ,независимый исследователь,], [**Mamatova Go’zaloy Jo’ramirzayevna** independent researcher,]; manzil: Andijon shahar, Do'stlik ko'chasi, 4-uy, [адрес: город Андижан, улица Дустлик, дом 4], [address: 4 Dustlik Street, Andijan city]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

INKLYUZIV TA’LIMDA INDIVIDUAL TA’LIM DASTURI

© Mo‘minov S.A[1]✉, Xudayberdiyev U.J[2]✉

[1]O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, Toshkent, O‘zbekiston

[2]O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: normativ-huquqiy asoslar (PQ-4860, VMQ-638, PQ-128 va tegishli idoraviy hujjatlar) doirasida ITD inklyuziv sinflar amaliyotining tayanch instrumentiga aylandi. Milliy darajada laboratoriyalar, metodik ko‘rsatmalar, ma’lumotlar bazalari va malaka oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. So‘nggi yillarda inklyuziv sinflar va qamrov ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich kengaydi. Shu sharoitda ITDni standartlashtirilgan, biroq shaxsga moslashuvchan mexanizm sifatida takomillashtirish dolzarbdir.

MAQSAD: ATEB o‘quvchilar uchun ITDni ishlab chiqish, jamoaviy hamkorlik va fanlararo integratsiya asosida joriy etishning nazariy modelini asoslash; qisqa va uzoq muddatli maqsadlar, monitoring-revizit sikli va moslashtirish tartiblarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: normativ hujjatlar tahlili, xalqaro tajriba (JICA)ni o‘rganish, ishchi guruhlar faoliyati, kuzatish, suhbat, psixologik-pedagogik diagnostika va tajriba-sinov (Bektemir tumani, 290-maktab, 2-G sinf) ma’lumotlari asosida tizimli yondashuv qo‘llandi. ITD shablonlari, yo‘riqnoma va taqdimot-muhokama jarayonlari iterativ ravishda takomillashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ITD sikli besh bo‘g‘indan iborat: dastlabki kuzatish-diagnostika, maqsad belgilash (uzoq/qisqa muddatli), moslashtirilgan o‘qitish, monitoring va qayta kalibrlash. Amaliyot ATEB uchun realistik, o‘lchanadigan maqsadlar qo‘yish, choraklar kesimida murakkablikni moslashtirish natijadorlikni oshirishini ko‘rsatdi. Ko‘p mutaxassisli hamkorlik ijtimoiy moslashuv, o‘qish-yozish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini tezlashtirdi; muvaffaqiyatlar bo‘yicha keyingi bosqichga o‘tish, qiyinchiliklarda soddalashtirish samarali bo‘ldi. Respublika miqyosida qamrovning yil sayin kengayishi modelning tarqaluvchanligini tasdiqlaydi.

XULOSA: ITD inklyuziv ta’limning asosiy mexanizmi sifatida ATEBni ta’lim jarayoniga to‘laqonli qo‘shadi, teng imkoniyatlar prinsipini amalda ro‘yobga chiqaradi. Doimiy monitoring va moslashtirish, hamda ko‘p mutaxassisli hamkorlik ITD samaradorligini kafolatlaydi. Milliy yo‘riqnomalar va xalqaro hamkorlik ITDni barqaror joriy etish va sifatni oshirishning institutsional kafolatidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim; individual ta’lim dasturi; alohida ta’lim ehtiyojlari; differensial yondashuv; pedagogik moslashtirish; psixologik qo‘llab-quvvatlash; integratsiya; teng imkoniyatlar; ijtimoiy moslashuv; maxsus pedagogika.

Iqtibos uchun: Mo‘minov S.A., Xudayberdiyev U.J Inklyuziv ta’limda individual ta’lim dasturi. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.161–171.

ИНДИВИДУАЛИЗИРОВАННАЯ ПРОГРАММА ОБУЧЕНИЯ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© Муминов С.А[1]✉, Худайбердиев У.Ж[2]✉
[1] Республиканский научно-методический центр развития образования Республики Узбекистан, Ташкент, Узбекистан
[2]Министерство дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: нормативная база (ПП-4860, ПКМ-638, ПП-128 и ведомственные акты) институционализировала ИОП как ключевой инструмент инклюзии. Созданы лаборатории, методическая поддержка, базы данных и система повышения квалификации. Расширение охвата инклюзивных классов подтверждает актуальность стандартизировано-гибкого подхода к ИОП.

ЦЕЛЬ: обосновать модель ИОП для обучающихся с ООП, определить коллективные и межпредметные процедуры разработки/внедрения, форматы постановки целей (кратко-/долгосрочных), мониторинга и адаптации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ нормативов, изучение международного опыта (JICA), работа проектных групп, наблюдение, интервью, психолого-педагогическая диагностика и пилотирование (школа №290, 2-Г класс). ИОП-шаблоны и регламенты совершенствовались через обсуждения и апробации.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: цикл ИОП включает первичную диагностику, целеполагание, адаптированное обучение, мониторинг и перекалибровку. Практика показала эффективность реалистичных измеримых целей и поквартальной настройки сложности. Междисциплинарное взаимодействие ускорило социальную адаптацию, навыки чтения-письма и логического мышления; при трудностях — упрощение этапов. Рост охвата по стране подтверждает масштабируемость модели.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: ИОП является центральным механизмом инклюзивного образования, обеспечивая равные возможности и полноценное участие детей с ООП. Постоянный мониторинг, адаптация и командная работа специалистов повышают результативность; национальные регламенты и международное сотрудничество создают институциональные гарантии качества.

Ключевые слова: инклюзивное образование; индивидуальная образовательная программа; особые образовательные потребности;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

дифференцированный подход; педагогическая адаптация; психологическое сопровождение; интеграция; равные возможности; социальная адаптация; специальная педагогика.

Для цитирования: Муминов С.А, Худайбердиев У.Ж. Индивидуализированная программа обучения в инклюзивном образовании.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.161–171.

INDIVIDUALIZED EDUCATION PROGRAM IN INCLUSIVE EDUCATION

© Mo‘minov S.A[1]✉, Xudayberdiyev U.J[2]✉
[1]Republican Scientific and Methodological Center for Education Development of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan
[2]Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: a national regulatory framework (PP-4860, CM-638, PP-128 and sectoral acts) institutionalizes IEPs as a keystone of inclusion. Laboratories, methodological guidance, databases and CPD systems have been established, while inclusive coverage has expanded annually. This context requires standardized yet learner-responsive IEP procedures.

AIM: to substantiate a model for IEP development and implementation for SEN learners, defining collaborative/interdisciplinary workflows, long- and short-term goal-setting, monitoring and adaptive revision.

MATERIALS AND METHODS: policy analysis, review of international practice (JICA), multi-stakeholder working groups, observation, interviews, psycho-pedagogical diagnostics, and pilot testing (School No. 290, Grade 2-G). IEP templates and guidelines were iteratively refined through presentations, public discussion and trial use.

DISCUSSION AND RESULTS: the IEP cycle comprises initial assessment, goal setting, adapted instruction, monitoring and recalibration. Practice shows measurable, realistic goals and quarter-by-quarter difficulty adjustments raise attainment; multidisciplinary teamwork accelerates socialization, literacy and reasoning skills. When difficulties arise, staged simplification sustains progress. Nationwide growth in inclusive classes evidences model scalability.

CONCLUSION: the IEP functions as the core mechanism of inclusion, ensuring equal opportunities and meaningful participation for SEN learners. Continuous monitoring, adaptation and coordinated specialist collaboration secure effectiveness, while national guidelines and international partnerships provide institutional quality assurance.

Keywords: inclusive education; individualized education program; special educational needs; differentiated approach; pedagogical adaptation; psychological support; integration; equal opportunities; social adaptation; special pedagogy.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

For citation: Mo‘minov S.A, Xudayberdiyev U.J. (2025) ‘Individualized education program in inclusive education’, Inter education & global study, (10(1)), pp.161–171. (In Uzbek).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarorida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning salohiyatini rivojlantirish maqsadida inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim maktablari tomonidan mazkur bolalar uchun ular va ularning ota-onalari (o‘rnini bosuvchi shaxslar) ishtirokida individual ta’lim dasturlari ishlab chiqilish va individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko‘maklashishi belgilangan. Undan tashqari o‘quvchilar bilan individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish, maxsus pedagoglar tomonidan ta’lim jarayonidagi barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarda amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida uning belgilangan shtat birliklari doirasida “Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi” tashkil etish hamda inklyuziv ta’lim laboratoriyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;

inklyuziv ta’limning metodik ta’minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislarga metodik tavsiyalar va boshqalarni) ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish;

inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish;

inklyuziv ta’lim bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish;

inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalari, ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini yaratish va uni doimiy yangilab borish;

inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy konferensiyalar va seminarlarni tashkil etish va o‘tkazish.

Asosiy qism

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan O‘zbekistonda 2022-yilda inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

JICAning “O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim amaliyotini kuchaytirish” loyihasi yo‘lgan qo‘yildi.

Loyiha 2021-yil noyabr oyidan 2024-yil noyabr oyigacha (36 oy), O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab vazirligi bilan inklyuziv ta’lim bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish, tarbiyachi va o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun instruktorlar tayyorlashga, shu bilan birga hududlardan olingan tajribali inklyuziv o‘qituvchilardan mentor tayyorlash uchun o‘quv kursi mavzularini onlayn va oflayn tarzda o‘tkazish maqsad qilib olingan.

Ushbu belgilangan vazifalarni ijrosini ta’limlash maqsadida Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) “Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’lim amaliyotini mustahkamlash” nomli loyihasi doirasida namunaviy individual ta’lim dasturini ishlab chiqishni rejalashtirdi.

Individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqishning maqsadi umumiy o‘rta ta’limda inklyuziv ta’lim sinflariga qabul qilingan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni uzoq va qisqa vaqt ichida individual ehtiyojlari, qiziqish-qobiliyatlari, o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishishiga ko‘maklashish, rag‘batlantirishga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqishning asosiy vazifalari:

ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jamiyatga moslashuvini ta’minlash;

mos o‘quv usullari, yordamchi texnologiyalar, didaktik materiallarni tanlash: ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun individual shug‘ullanish uchun mos usullar va materiallardan foydalanish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ehtiyojlarini aniqlash: har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari va qiyinchiliklarini tahlil qilish;

individual, frontal, guruhli yondashuvni joriy etish: individual ta’lim dasturini alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolaning qobiliyatlari va o‘quv sur’atlariga moslashtirish;

aniq maqsadlarni belgilash: alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash;

natijalarni kuzatish: alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning rivojlanib borishi va natijalarini muntazam tahlil qilish va dasturga qo‘shimcha tuzatishlar kiritish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolaning motivatsiyani oshirish: bolalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolish va uni doimiy rag‘batlantirishdir.

Individual ta’lim rejasi ishlab chiqish uchun tajriba sinov ishlari Toshkent shahar Bektemir tumani 290-sonli umumta’lim maktabida 2-G sinf o‘quvchisi Eshqobulov Hayotbek hamda inklyuziv ta’lim sinfi o‘qituvchisi Xasanova Gulnoza ishtiroki olib borildi.

Mazkur tajriba sinov ishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023 yildagi PQ-128-sonli qarori bilan tashkil etilgan “Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi” lxtisoslashtirilgan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

pedagogika va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi xodimlari tomonidan davom ettirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktorining “Inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 24-mart kuni 15-son buyrug‘i bilan “Inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha yo‘riqnoma”, “Inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturi”, “Inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual ta’lim dasturi namunasi” tasdiqlandi.

Mazkur yo‘riqnomani ishlab chiqishda Yaponiyaning “Yaponiya Kokushikan universiteti Adabiyot fakulteti” hamda “Yaponiya xalqaro taraqqiyot markazi”i xulosalari asosida ishlab chiqildi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 1-apreldagi 04-39-1463-sonli xati bilan amaliyotga tavsiya etildi.

Umumiy o‘rta ta’limning individual ta’lim dasturini ishlab chiqish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruhlar shakllantiriladi. Ishchi guruh tarkibi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan tasdiqlanadi. Ishchi guruh tarkibiga olimlar, metodistlar, amaliyotchi o‘qituvchilar va boshqa mutaxassislar kiritiladi. Individual ta’lim dasturining amaldagi holati tahlil qilinib, xalqaro tajribalar, davlat, jamiyat va mehnat bozoriga bo‘lgan talablari o‘rganiladi. Individual ta’lim dasturlarini takomillashtirish, ishlab chiqish bo‘yicha o‘quvlar tashkil etilib mutaxassislar malakasi oshiriladi. Individual ta’lim dasturlari loyihalarini ishlab chiqishda ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning hamkorligi, fanlararo integratsiyani ta’minlash, tutash mavzularga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu sababli umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartida o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar atroflicha o‘rganiladi.

Ishchi guruhlar tomonidan maxsus pedagoglar va boshqa xodimlar bilan birgalikda inklyuziv ta’lim sinfi o‘quvchilari bilan ishlash rejasi tuziladi va ular sinfga uyg‘unlashtiriladi. Individual ta’lim dasturlari loyihasi davra suhbatlari, taqdimotlar, ijtimoiy tarmoqda muhokama qilish, maxsus portalda kelishish va boshqa shakllarda sohaning yetakchi mutaxassislari, amaliyotchi o‘qituvchi va metodistlar hamda manfaatdor tashkilotlar vakillari ishtirokida muhokamadan o‘tkaziladi. Zarurat bo‘lganda, loyiha tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun tavsiya qilinadi. Individual ta’lim dasturi loyihasi ishchi guruhlar tomonidan kelishish jarayonida to‘plangan taqriz, xulosa, tavsiya va takliflar asosida takomillashtiriladi.

Tayyor bo‘lgan individual ta’lim dasturi loyihasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika tashxis markazi Ilmiy-metodik kengashi yig‘ilishi muhokamasidan o‘tkazilib, Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markaziga kelishishga yuboriladi va olingan xulosa asosida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tomonidan tasdiqlashga kiritiladi, tasdiqlanadi va amaliyotga joriy etiladi.

Tasdiqlangan individual ta’lim dasturlari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari tomonidan foydalanish uchun taqdim etiladi, jumladan, rasmiy saytlar va platformalarga joylashtiriladi. Tasdiqlangan individual ta’lim dasturlarini o‘quv jarayonida samarali qo‘llash uchun maxsus pedagoglarga maqsadli seminar-treninglar tashkil qilinadi, pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish o‘quv reja va dasturlariga kiritilgan holda tizimli tayyorlash ishlari olib boriladi. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tegishli mutaxassislari tomonidan individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro tajribalar, davlat, jamiyat va mehnat bozori talablarini o‘rganish, amaldagi individual ta’lim dasturlarini va xulosalarni tahlil qilish asosida ishchi guruhlarga talablar belgilab beriladi. Ishchi guruh a’zolarini ilmiy-metodik qo‘llab quvvatlash uchun mahalliy va xorijiy ekspertlar jalb qilinadi.

Individual ta’lim dasturi loyihasi tajriba-sinov natijalariga ko‘ra ijobiy baholangan taqdirda, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tegishli sayt yoki platformalariga jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilishi uchun 20 kunga joylashtiriladi.

Jamoatchilik muhokamasi yakunlangandan so‘ng, bildirilgan taklif va mulohazalar o‘rganilib, ishchi guruh tomonidan bir hafta muddatda o‘quv dasturi loyihasi amaldagi qonunchilik va davlat ta’lim standartlari talablari hamda ushbu Yo‘riqnoma asosida takomillashtiriladi.

Individual ta’lim dasturi loyihasi manfaatdor tashkilotlar, mahalliy va xorijiy olimlar hamda ekspertlar tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi va tegishli xulosa yoki taqrizlar olinishi maqsadga muvofiq. Individual ta’lim dasturlarini tasdiqlashdan oldin Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika tashxis markazi Ilmiy-metodik kengashi yig‘ilishi muhokamasidan o‘tkazilib, xulosalar olinadi. Loyiha Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan kelishilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanadi va amaliyotga joriy qilinadi.

Tasdiqlangan individual ta’lim dasturlari umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagoglari, ota-onalar va jamoatchilik foydalanishi uchun tegishli sayt yoki platformalarga joylashtiriladi. Individual ta’lim dasturlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida o‘quv dasturi titul varag‘iga QR-kod belgisi joylashtiriladi.

Individual ta’lim dasturini maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi, shuningdek to‘liq maktab nomi, dastur muddati va o‘quv yili ko‘rsatiladi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolaning to‘liq ismi sharifi, tibbiy tashxisi, yoshi, jinsi, sinfi, individual ta’lim dasturini boshlash hamda yakunlash muddati aniq ko‘rsatib beriladi. Dasturda sinf rahbari, maxsus pedagog, amaliyotchi psixolog, tibbiyot xodimini to‘liq familiya, ismi, sharifi ham yoziladi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolani inklyuziv ta’lim sinfiga qabul qilgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sentabr oyining ilk o‘n besh ish kuni davomida kuzatish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

natijalarini yozadi. Bolani maktabga kirib kelish jarayonidan boshlab, darslardagi ishtiroki, boshqa (sog‘lom) bolalar bilan munosabatga kirishish jarayonidagi har bir bolaning kuchli hamda zaif tomonlar sifatida ko‘rsatiladi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun oddiy holat deb tushunilgan jarayonlar ham o‘z aksini topadi. Kuzatish asosida amalga oshirilgan ishlar belgilab chiqiladi.

Amaliyotchi psixolog O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomda ko‘rsatilgan vazifalardan kelib chiqib, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning psixologiyasini inobatga olib, kuzatuv ishlarini olib boradi. Mazkur jarayon alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onasi ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan hamkorlikda ishlash tavsiya qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni har xil vaziyatlarda ko‘rish uchun ko‘rgazmali qurollar, tabiiy predmetlar, faol o‘quvchilarni ularga ta’sir ettirib ham kuzatish tavsiya qilinadi.

Maxsus pedagog barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarda berilgan mashg‘ulotlar davomida ham kuzatib boradi. Kuzatish davomida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni qiziqishidan tortib qanday vazifalarni bajara olishi, qanday jarayonlarda ishtirok eta olmasligi kabi salbiy tomonlari ham to‘liq kuzatiladi.

Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan maxsus vosita va metodlarni qo‘llash, psixolog, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonidagi kuzatish natijalari ham qayt etib boriladi.

Kuzatish davomida maxsus pedagog hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ota-onalar bilan suhbat tashkil qilib boradi. Shu orqali ota-onaning xohish istaklari bilib olinadi va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolani uy sharoitidagi holati, qiziqishlari haqida to‘liq, ishonchli ma’lumotlar olinadi. Suhbat davomida ota-onalardan farzandidan kutayotgan natijalarini yoritib berish so‘raladi. Individual ta’lim rejasi bir yil uchun tuzilayotgan bo‘lsa ota-onadan bir yil ichida farzandida qanday o‘zgarishlar kutayotganligini ifodalab berishlari lozim bo‘ladi. Kuzatish natijasidagi fikrlar sonini chegaralab qo‘ymaslikka ahamiyat berish zarur.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bola uchun tuziladigan individual ta’lim dasturida mutaxassislarning tahlillari natijasida bir o‘quv yili uchun uzoq muddatli ta’limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirilgan rejalar yoziladi.

Bir yil davomida bolani ijtimoiy hayotga moslashtirishi, o‘qish-yozishga o‘rgatilishi, mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi shakllantirilishi kerak (Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga real maqsad qo‘yish talab etiladi. Agar u bir yildan keyin maqsadiga erisha olmasa. uni ayblamaslikdan boshqa maqsadni belgilash tavsiya etiladi.

Shuningdek, maqsadlarni aniq qilib yozilishi kerak. Bola alifboni to‘g‘ri yoza oladi yoki bola sinfdoshlari bilan suhbat qura oladi kabi). Maxsus pedagoglar bu namunani o‘zgartirish hamda barcha o‘zini alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga moslashtirishi mumkin. Shu asosida bir o‘quv yili uchun qo‘yilgan uzoq muddatli maqsaddan kelib

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

chiqib bir choraklik qisqa muddatli maqsad va aniq mashg‘ulotlar yoziladi.

Bolani ijtimoiy hayotga moslashtirish uchun maktabdan tortib uy sharoitida ham qanday ishlar amalga oshirilishi yoziladi. O‘qish-yozishga o‘rgatish uchun sinfda eng faol va chiroyli husnixat egasini yoniga o‘tkazish, ruchkani ushlashda muammolar kuzatilsa maxsus qisqichlardan foydalanish, shuningdek, bir vaqtning o‘zida qo‘li va ko‘zi bilan mashq qiladigan mashg‘ulotlarni o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun rasmli hikoyalar, rolli o‘yinlar o‘ynash tavsiya qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning tashxisi hamda berilgan vazifalarga javob berish holatidan kelib chiqib murakkablashtirish hamda soddalashtirish imkoniyati berilishi zarur.

Birinchi qisqa muddatli maqsad va aniq mashg‘ulotlardan kelib chiqib o‘quvchi bilan bir chorak davomida aynan qisqa muddatli maqsadlarni qay tartibda amalga oshirilishi yoziladi.

Belgilangan mashg‘ulotlar I chorak davomida o‘tkazilgandan keyin amalga oshirilgan ishlar natijasi alohida qayd etib boriladi. Tuzilgan har bir reja bo‘yicha o‘quvchida o‘zlashtirish ijobiy qayd etilsa II chorak uchun topshiriqlar bolaning holatiga qarab murakkabroq qilib ishlab chiqiladi.

Agar tuzilgan reja bo‘yicha bolada o‘zlashtirish salbiy qayd etilsa II chorak uchun topshiriqlar soddalashtirilib tuziladi. Bu jarayon o‘quvchi egallashi kerak bo‘lgan bilim ko‘nikma va malakalarni egallay olguniga qadar bosqichma-bosqich soddalashtirilgan qisqa muddatli maqsad bilan davom etilishi maqsadga muvofiq. Qisqa qilib aytganda maqsad o‘zgarmaydi usul o‘zgaradi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, misol tariqasida: o‘z-o‘ziga xizmat qilishini qo‘llab-quvvatlashda eng kichik ko‘nikmalardan boshlash. Amaliyotchi psixologlar tomonidan psixologik yordam berish, boshqa (sog‘lom) bolalar bilan guruhli ishlash, yo‘naltiruvchi tasmalar bilan harakatlanishini qulaylashtirish (dastlabki tushunchalar hosil bo‘lgunga qadar) muhimdir.

Ko‘rsatilgan barcha vazifalar bajarilgandan keyin natijaviylik qayd etiladi. Jarayonda uchragan barcha qiyinchiliklar hamda holat aniq yozilishi lozim. Qanday qo‘shimcha ishlarni olib borish zarurati tug‘ildi, qaysi ishlarni bajarishi yengil bo‘ldi, qaysi holatda bajarishida qiyinchiliklar kuzatildi, qayta-qayta harakat qilishga to‘g‘ri kelganligi yozilishi zarur.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, individual ta’lim dasturi har yili yaratiladi va tegishli shaxslar bilan maslahatlashiladi. Bir yildan keyin, natijalar tegishli shaxslar tomonidan baholanadi va o‘tgan yil natijalari bo‘yicha yangi individual ta’lim dasturining bazasi yaratiladi.

2021/2022-o‘quv yilida respublika bo‘yicha jami 31 ta umumta’lim maktabida inklyuziv ta’lim sinflari tashkil etilgan bo‘lib, ushbu sinflarda 87 nafar (55 nafar o‘g‘il, 32 nafar qiz) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchi 46 ta sinfda ta’lim-tarbiya oldi. Shuningdek, Nukus, Andijon, Kogon va Urganch shaharlarida 4 ta boshlang‘ich tayanch

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

korreksion sinflar ochilib, ularda bir xil tashxisli 35 nafar bola (19 nafar o‘g‘il, 16 nafar qiz) qamrab olindi.

2022/2023-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich yanada ortib, 195 ta umumta’lim maktabda inklyuziv sinflar tashkil etildi va 504 nafar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar inklyuziv ta’lim jarayoniga jalb qilindi.

2023/2024-o‘quv yili sentabr holatiga ko‘ra esa, 415 ta umumta’lim maktabda 736 nafar bola inklyuziv sinflarga qamrab olindi. Bu ko‘rsatkichlar ta’limdagi inklyuziya jarayoni bosqichma-bosqich kengayib borayotganini anglatadi.

Yana ham ijobiy yangilik shuki, 2024/2025-o‘quv yili uchun rejalashtirilgan holatda 947 ta umumta’lim maktabda 1 401 ta inklyuziv sinf faoliyati yo‘lga qo‘yildi va ushbu sinflarga 1 948 nafar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar qamrab olinganligi qayd etildi .

Bugungi kunda ya’ni 2025/2026-o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni 1 708 taga, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar soni esa 3 710 nafarga yetdi.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim tizimida individual ta’lim dasturini ishlab chiqish va joriy etish - alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim jarayoniga to‘laqonli integratsiyasini ta’minlashning eng muhim shartlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, individual ta’lim dasturi nafaqat ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi, balki bolaning shaxsiy rivojlanish sur’ati, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashgan holda ularning ijtimoiy moslashuvini ham jadallashtiradi.

Mazkur dastur samaradorligi o‘qituvchi, maxsus pedagog, psixolog, tibbiyot xodimi, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi hamda ota-onalar o‘rtasidagi tizimli hamkorlikka bevosita bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, individual ta’lim dasturi inklyuziv ta’limni amalda joriy etishning kompleks modeli sifatida xizmat qiladi. U bolaning imkoniyatlarini baholash, ta’lim maqsadlarini bosqichma-bosqich belgilash va ta’limiy jarayonni doimiy tahlil qilib borish orqali natijaviylikni oshirish imkonini beradi.

O‘zbekiston tajribasida mazkur yondashuvning bosqichma-bosqich joriy etilishi milliy ta’lim tizimining insonparvarlik tamoyillariga asoslanayotganidan dalolat beradi. Shu asosda, individual ta’lim dasturlari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning o‘zini jamiyatda to‘laqonli his etishiga va hayotda muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-sonli qarori;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 23-fevraldagi PQ–128-sonli qarori.
4. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 1-apreldagi 04-39-1463-sonli xati.
5. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining “Inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 24-mart kuni 15-sonli buyrug‘i
6. Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA)ning “Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’lim amaliyotini mustahkamlash” nomli loyihasi hujjatlari, 2021–2024 yillar.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mo‘minov Sulton Akbar o‘g‘li**, bosh mutaxassis [**Муминов Султон Акбар угли**, главный специалист], [**Mo‘minov Sulton Akbar o‘g‘li** main expert]; manzil: 30 uy, A. Navoiy ko'chasi, 100129, Tashkent, O'zbekiston, [адрес: 30 Дом, А. Ул. Навои, 100129, Ташкент, Узбекистан], [address: 30 House, A. Navoi St., 100129, Tashkent, Uzbekistan]

✉**Xudayberdiyev Ural Jurayevich**, bosh mutaxassis [**Худайбердиев Урал Жураевич**, главный специалист], [**Xudayberdiyev Ural Jurayevich** main expert]; manzil: Navoiy shoh ko'chasi 2a, Toshkent, Toshkent, [адрес: Проспект Навои 2a, Ташкент, Ташкент], [address: Navoi Avenue 2a, Tashkent, Tashkent]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TA'LIMNI INDIVIDUALLAShTIRISh KONSEPSIYASINING MAZMUNI VA NAZARIY ASOSLARI

© P.G. Narkabilova[1]✉, D.M. Muxammadjonova[2]✉
[1]Farg‘ona politexnika instituti, Farg ‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

bunday vazifani bajarishda kompyuter grafikasi texnologiyalari alohida o‘rin tutmoqda. Chunki zamonaviy kompyuter grafikasi dasturlari nafaqat muhandislik loyihalarini texnik jihatdan modellashtirish, balki talabalarni innovatsion yondashuvga yo‘naltirish, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatida kreativ kompetensiyalarini kengaytirish, o‘z g‘oyasini vizual va funksional shaklda ifodalash imkoniyatlarini ham yaratib bermoqda. Kompyuter grafikasi orqali yaratilgan uch o‘lchamli modellar, animatsiyalar, vizualizatsiyalar, texnologik jarayonlarning dinamik simulyatsiyasi talabalarga o‘rganilayotgan obyektlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, grafik dasturlar yordamida talabalar konstruktiv qaror qabul qilish jarayonida texnik tafakkurni rivojlantirishga, muammoni turli burchaklardan tahlil qilishga va eng maqbul yechimni topishga o‘rganadilar. Konstruktorlik fikrlash tushunchasining o‘zi ko‘p qatlamli va murakkab tushuncha bo‘lib, uni faqat texnik tafakkur bilan tenglashtirish mumkin emas[1]. U kengroq, chuqurroq jarayonni ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda konstruktorlik fikrlash ko‘pincha muhandislik tafakkurining ijodiy qismi sifatida talqin etiladi. Bu yerda gap faqat texnik muammoni hal etish haqida emas, balki uning turli variantlarini ko‘rib chiqish, mavjud texnologiyalarni qayta ishlash, yangicha yondashuvlarni izlash, grafik modellashtirish asosida yechimlarni vizual shaklda ifodalash haqida bormoqda. Natijada talaba nafaqat muhandislik muammosini hal etadi, balki yangi bilimlar yaratadi, yangilikka intiladi va o‘zining kognitiv salohiyatini kengaytiradi. Shu ma’noda, konstruktorlik fikrlashni rivojlantirish – bu faqat bir fan doirasida emas, balki ta’lim jarayonining turli bosqichlarida amalga oshiriladigan kompleks pedagogik jarayon hisoblanadi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kompyuter grafikasi fani allaqachon muhandislik yo‘nalishi talabalarining asosiy tayanch fanlaridan biri sifatida o‘qitib kelinmoqda[2]. Lekin mavjud tajribani chuqur tahlil qilganda, ko‘pincha bu fan asosan texnik bilimlarni yetkazib berish vositasi sifatida talqin qilinayotganini ko‘rish mumkin. Bunda talabalarga dasturiy ta’minot interfeysi, grafik elementlarni yaratish, modellashtirish va vizualizatsiya qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar beriladi, biroq mazkur jarayonlarning konstruktorlik fikrlashni rivojlantirishdagi didaktik va metodik imkoniyatlari yetarlicha ochib berilmaydi. Natijada talaba grafik dasturdan faqat mexanik foydalanishni o‘rganadi, ammo u orqali kreativ tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydi. Bu esa o‘z navbatida muhandislik ta’limi sifatining kutilgan darajaga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda. Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, rivojlangan davlatlarda muhandislik ta’limida kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish keng qamrovli, metodik jihatdan asoslangan va pedagogik tizimga uzviy integratsiya qilingan shaklda yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarda muhandislik yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda Autodesk AutoCAD, SolidWorks, CATIA, MATLAB, Siemens NX, ANSYS kabi dasturlar keng qo‘llaniladi[3]. Bu dasturlar yordamida talaba nafaqat loyihalash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi, balki loyiha jarayonini dastlabki bosqichidan to tayyor mahsulot prototipigacha bo‘lgan barcha bosqichlarini modellashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Shu jarayonda u o‘zining konstruktorlik fikrlashini rivojlantiradi, muammoni bir nechta yondashuv orqali ko‘rib chiqishga o‘rganadi, turli alternativ variantlarni solishtirib, eng

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

maqbulini tanlash qobiliyatini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham grafik dasturlarni qo‘llashni faqat texnik ko‘nikma berish vositasi sifatida emas, balki konstruktorlik fikrlashni rivojlantirishning kuchli metodik instrumenti sifatida ko‘rish lozim. Buning uchun, birinchidan, kompyuter grafikasi fanining didaktik imkoniyatlarini kengroq yoritish va uni ta’limning boshqa fanlari bilan integratsiya qilish zarur. Ikkinchidan, grafik dasturlar orqali konstruktorlik fikrlashni shakllantirishga qaratilgan maxsus metodik komplekslar ishlab chiqilishi kerak. Uchinchidan, talabalarda grafik vositalardan foydalanish jarayonida ijodiy tafakkurni rag‘batlantirish, ularga mustaqil izlanish va yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratish kerak. Yana bir muhim jihat shundaki, konstruktorlik fikrlashni rivojlantirish faqat texnik bilimlarni chuqurlashtirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon talabaning psixologik, kognitiv va kreativ salohiyatini ham kengaytiradi. Muhandislik masalalarining ko‘plab hollarda bir nechta yechimga ega bo‘lishi, talabadan turli variantlarni ko‘rib chiqishni, turli cheklovlarni hisobga olishni va eng optimalini tanlashni talab qiladi. Davlat siyosati darajasida ham ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi” hujjatlarida ta’lim jarayonini raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, talabalarda kreativ va innovatsion tafakkurni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan[4].

Adabiyotlar tahlili: Muhandislik ta’limida konstruktorlik fikrlashni rivojlantirish va bu jarayonda kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalanish masalasi xalqaro ilmiy hamjamiyatda ham keng qamrovda tadqiq etilib kelinmoqda. Shu jumladan, bu yo‘nalishda xorijiy olimlarning bir qator tadqiqotlari muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, amerikalik olim Jeyms D. Foley o‘zining “Computer Graphics: Principles and Practice” nomli fundamental monografiyasida kompyuter grafikasi texnologiyalarining nazariy asoslari, dasturiy platformalari va ularning muhandislik hamda ta’lim jarayonlarida qo‘llanish imkoniyatlarini chuqur tahlil qiladi[5]. Unga ko‘ra, grafik dasturlar talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri bo‘lib, murakkab obyektlarni vizual modellashtirish orqali talabalar muhandislik muammolarini aniqroq anglaydilar, loyihalash jarayonini esa ko‘rgazmali shaklda tasavvur qiladilar. Foley ilmiy merosida shuningdek, grafik modellashtirishning kognitiv psixologiya bilan uzviy bog‘liq jihatlari ham yoritilgan bo‘lib, bunda kompyuter grafikasi nafaqat texnik vosita, balki talabani ijodiy fikrlashga undovchi muhim didaktik instrument sifatida baholangan. Shu bois, uning tadqiqotlari muhandislik ta’limida konstruktorlik fikrlashni rivojlantirishda grafik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asosi sifatida e’tirof etilishi mumkin. Shuningdek, Yevropaning taniqli tadqiqotchisi, Germaniyaning Karlsrue Texnologiya Institutida faoliyat yuritgan olim Diter Fellner ham o‘z ilmiy izlanishlarida kompyuter grafikasi va vizualizatsiya texnologiyalarining ta’lim va ilmiy faoliyatdagi o‘rnini keng qamrovda tahlil qilgan[6]. Uning tadqiqotlarida asosan, uch o‘lchamli grafik modellashtirish, virtual muhitlarda texnik obyektlarni yaratish, ularni turli konstruktiv vaziyatlarda sinovdan o‘tkazish va buning natijasida talabalarda konstruktorlik tafakkurini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Fellner o‘z ishlarida grafik vositalardan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

foydalanish jarayonida talabaning nafaqat texnik bilimlari, balki uning kreativ salohiyati, muammoni yechishda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham shakllanishini ta'kidlaydi. Unga ko‘ra, grafik dasturlar yordamida talabalarda nazariy bilimlar amaliy ko‘nikmaga aylanadi, natijada o‘quv jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu jihatdan, Fellnerning ilmiy ishlari ham konstruktorlik fikrlashni rivojlantirishda kompyuter grafikasi vositalarining samarali metodik instrument ekanini isbotlovchi muhim manba sifatida qaraladi[7]. Ushbu ikki olimning ilmiy merosini solishtirib tahlil qilar ekanmiz, ularning qarashlarida umumiylik bilan birga muayyan farqlar ham mavjudligini ko‘ramiz. Foley kompyuter grafikasi texnologiyalarini ko‘proq nazariy asoslar va kognitiv jarayonlar bilan bog‘lab tahlil qilgan bo‘lsa, Fellner uni amaliy modellashtirish va vizualizatsiya orqali konstruktorlik fikrlashni rivojlantirishning samarali yo‘llari sifatida ko‘rsatgan.

Metodologik qism: Mazkur tadqiqotning metodologik asoslarini ishlab chiqishda muhandislik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni konstruktorlik fikrlashga yo‘naltirishda kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari uzviy bog‘langan holda tahlil qilindi. Ushbu jarayonda metodologiya faqat bir yoqlama yondashuvga asoslanmagan bo‘lib, balki kompleks integrativ yondashuvdan foydalanildi. Avvalo, pedagogik faoliyatning nazariy-metodik konsepsiyalari asosida konstruktorlik fikrlash tushunchasining ilmiy mazmuni aniqlab olindi, so‘ngra bu tushuncha kompyuter grafikasi vositalari bilan uyg‘unlashtirildi. Shu bilan birga, kognitiv psixologiya nazariyasi asosida talabada grafik modellashtirish orqali bilimlarni vizual qabul qilish, ularni idrok etish va qayta ishlash jarayonlari tahlil qilindi. Amaliy metod sifatida esa tajriba-sinov ishlarida muhandislik loyihalarini AutoCAD, SolidWorks va boshqa grafik dasturlar yordamida modellashtirish asosiy vosita sifatida tanlandi, bunda talabaning nazariy bilimni amaliy loyihaga tatbiq etish jarayonidagi faoliyati kuzatildi. Metodologiyada shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvdan keng foydalanildi, chunki konstruktorlik fikrlashning rivojlanishi talabaning kasbiy kompetensiyalari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli ham tadqiqot jarayonida grafik dasturlar yordamida muammoni modellashtirish, variantlarni solishtirish, optimal yechimni tanlash, natijalarni vizualizatsiya qilish kabi bosqichlar metodik jihatdan uyg‘unlashtirildi va yagona tizim sifatida baholandi. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili metod sifatida qo‘llanib, ularni O‘zbekiston oliy ta'lim amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari ishlab chiqildi. Natijada metodologik asos sifatida kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish jarayonida konstruktiv fikrlashni rivojlantirishni ta'minlovchi nazariy tushunchalar, kognitiv mexanizmlar va amaliy modellashtirish usullari bir butun integrativ model sifatida shakllantirildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompyuter grafikasi asosida olib borilgan ta'limiy jarayon muhandislik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun konstruktorlik fikrlashni rivojlantirishda samarali metodlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi, chunki grafik modellashtirish orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish, murakkab tizimlarni soddalashtirish, vizual abstraksiyalar asosida texnik yechimlarni ishlab chiqish, muhandislik topshiriqlarini mantiqiy izchillikda hal etish, turli

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

variantlarni tahlil qilish va optimallashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar hamda ushbu jarayonning eng muhim natijasi sifatida konstruktorlik tafakkuri an’anaviy usullarga nisbatan yuqori darajada shakllandi va talabalar o‘z mustaqil ijodiy faoliyatida grafik vositalardan foydalanishning amaliy samaradorligini chuqur anglab yetdilar.

Muxokama: Kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanib muhandislik talabalarining konstruktorlik fikrlashini rivojlantirish masalasi bo‘yicha ilmiy jamoatchilikda bir qator munozarali fikrlar mavjud. Jumladan, amerikalik olim David Jonassen ta’lim jarayonida texnologiyadan foydalanishni bilish emas, balki fikrlashni shakllantirish vositasi sifatida ko‘rish lozimligini ta’kidlaydi[8]. Uning nazariyasiga ko‘ra, grafik modellashtirish talabalar ongida murakkab muammolarni hal etish uchun kognitiv strukturalarni shakllantiradi, shuningdek, vizual abstraktsiyalar orqali muhandislik topshiriqlarini qayta tuzish, ularning funksional aloqalarini ko‘rish va optimal yechimlarni izlash imkonini beradi. Jonassenning fikricha, kompyuter grafikasi dasturlari (masalan, AutoCAD yoki SolidWorks) nafaqat texnik ko‘nikmalarni o‘rgatadi, balki talabada nazariy tafakkur va ijodiy yondashuvni ham chuqurlashtiradi. U o‘z polemik qarashlarida konstruktorlik tafakkurini rivojlantirish jarayonida grafik texnologiyalarni markaziy metodologik vosita sifatida belgilash tarafdori hisoblanadi. Biroq, yapon olimi Toshio Iijima bu masalaga biroz tanqidiy yondashadi. Uningcha, kompyuter grafikasi vositalaridan haddan tashqari foydalanish talabalarni “tayyor algoritmik tafakkur”ga odatlantirib qo‘yishi mumkin[9]. U o‘z asarlarida shuni ta’kidlaydiki, grafik modellashtirish jarayonida talabalar ko‘pincha dasturiy ta’minotning tayyor imkoniyatlaridan foydalanishga moyil bo‘lib, natijada ijodiy tafakkur cheklanishi, ya’ni talabalar mavjud shablonlar doirasida qolib ketishi ehtimoli yuqori. Toshio Iijima bu borada muhandislik ta’limida muvozanatni saqlash zarurligini, ya’ni grafik texnologiyalarni qo‘llashni nazariy mantiqiy topshiriqlar, qog‘ozdagi eskizlar va konseptual dizayn bosqichlari bilan uyg‘unlashtirish lozimligini ta’kidlaydi[10]. Shu nuqtada ikki olim o‘rtasida keskin polemika yuzaga keladi: Jonassen nazarida texnologiya o‘qitishning o‘zi emas, balki fikrlashni shakllantirish jarayonidir, Toshio Iijima esa texnologiyadan haddan tashqari foydalanish tafakkurga emas, balki dasturiy bog‘liqlikka olib keladi, deb hisoblaydi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muhandislik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni konstruktorlik fikrlashga yo‘naltirishda kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Grafik modellashtirish jarayonida talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish, murakkab tizimlarni soddalashtirib tasavvur qilish, muhandislik muammolarini bosqichma-bosqich hal etish, vizual abstraksiyalar asosida yangicha g‘oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ro‘Zmetov Q. S., Kalandarov S. S. TALABALARGA KOMPYUTER GRAFIKASI MASHG ‘ULOTLARIDA NAQSH ELEMENTLARINI CHIZISHNI O ‘RGATISH

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

METODIKASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 303-310.
2. Ергашбаев Ш. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish //Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 314-316.
3. Bannayev Q. Q. Muhandislik yo ‘nalishi talabalariga ixtisoslik fanlarini o ‘qitishda loyihaviy yondashuvning didaktik asoslari //Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Наука, исследования и развитие. – 2025. – Т. 2. – №. 10. – С. 91-96.
4. Muruvvat A., Shohbozbek E. O’ZBEKISTONDA MA'NAVIY VA AHVOQIY QADRYATLARDA MAKTABGACHA TA'LIMNING RO'LI //Global Science Review. – 2025. – Т. 3. – №. 2. – С. 246-253.
5. Barlikov R. K. MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI OQITISH TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 17-20.
6. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 221-228.
7. GULOMOVA N., Tulanova D. CHIZMACHILIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA O’QITISH METODIKASI //ILMIY AXBOROTLARI. – 2018. – №. 16. – С. 70.
8. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 175-182.
9. Xakimjon o‘g I. M. A. et al. TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO ‘NALISHI TALABALARINI BADIIY IJODIY QOBILYATLARINI RIVIJLANTIRISHDA KOMPYUTER GRAFIKASINI O ‘RNI //Conferencea. – 2023. – С. 130-138.
10. Diloram M., Shohbozbek E. O’ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA’NAVIY DUNYO QARASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 207-215.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nazarova Shahnoza Shokirovna**, stajyor-o'qituvchi [**Назарова Шахноза Шокировна**,стажер преподаватель,], [**Nazarova Shahnoza Shokirovna** trainee teacher]; manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7- uy, pochta indeksi: 160115, [адрес: Наманганская область, г. Наманган, ул. Косонсая, д. 7, почтовый индекс: 160115], [address: Namangan region, Namangan, Kosonsaya str., 7, postal code: 160115.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TALABALARNING INDUKTIV VA DEDUKTIV FIKRLASH QOBILIYATINI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

© S.R. Shermatova
[1]Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola klasterli yondashuvning talabalarda induktiv va deduktiv fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni va zaruratini asoslaydi. Klaster metodining semantik tarmoqlash, tizimlashtirish va vizuallashtirish imkoniyatlari orqali mantiqiy tafakkur va kognitiv faollik kuchayishi ta’kidlanadi.

MAQSAD: induktiv va deduktiv fikrlashni rivojlantirishda klasterli yondashuvning didaktik mexanizmlarini ochib berish, amaliy qo‘llash bosqichlarini tizimlashtirish va samaradorlik natijalarini ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Bloom, Vygotsky, Piaget, Ausubel va boshqa manbalar kontent-tahlil qilindi; “motivatsion–tahliliy–umumlashtiruvchi–amaliy” bosqichlariga tayangan klasterli dars ssenariylari qo‘llandi; kuzatuv va tajriba-sinov natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: klaster asosidagi mashg‘ulotlar mavzuni mantiqiy tartiblash, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va umumlashtirish ko‘nikmalarini sezilarli yaxshiladi; talabalarning ishtiroki, dalillash, jamoaviy fikrlash va metakognitiv refleksiya kuchaydi. Induktiv (misoldan umumiylikka) va deduktiv (qoidani xususiy holatga) yo‘nalishlar klaster tuzilmasida integratsiyalandi.

XULOSA: klasterli yondashuv induktiv va deduktiv tafakkurni uyg‘un rivojlantirib, yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni shakllantiradi; u ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan va interfaol formatda tashkil etish uchun samarali texnologiyadir.

Kalit so‘zlar: induktiv fikrlash; deduktiv fikrlash; klasterli yondashuv; ta’lim texnologiyasi; mantiqiy tafakkur; kognitiv rivojlanish; innovatsion metod.

Iqtibos uchun: Shermatova.S.R. Talabalarning induktiv va deduktiv fikrlash qobiliyatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.195–200.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ИНДУКТИВНОГО И ДЕДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

© С.Р. Шерматова[1]✉
[1] Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: статья обосновывает значимость кластерного подхода для развития индуктивного и дедуктивного мышления студентов, подчёркивая его потенциал систематизации, семантического ветвления и визуализации знаний.

ЦЕЛЬ: раскрыть дидактические механизмы кластерного подхода, описать этапы его внедрения и представить результаты эффективности в формировании логического и аналитического мышления.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведён контент-анализ работ Bloom, Vygotsky, Piaget, Ausubel и др.; применены кластерные сценарии занятий с этапами «мотивационный–аналитический–обобщающий–практический»; выполнены наблюдения и сравнительный анализ опытно-экспериментальных данных.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: кластерные задания улучшили логическое упорядочение тем, выявление причинно-следственных связей и обобщение; возросли участие студентов, аргументация, командное мышление и метакогнитивная рефлексия. Индукция и дедукция интегрируются в структуре кластера.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: кластерный подход синхронно развивает индуктивное и дедуктивное мышление и формирует высокоуровневые когнитивные компетенции; это эффективная технология для личностно-ориентированного и интерактивного обучения.

Ключевые слова: индуктивное мышление; дедуктивное мышление; кластерный подход; образовательные технологии; логическое мышление; когнитивное развитие; инновационные методы.

Для цитирования: Шерматова.С.Р. Технологии развития индуктивного и дедуктивного мышления студентов на основе кластерного подхода.// Inter education & global study. Vol.3, №10(1). С.195–200.

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' INDUCTIVE AND DEDUCTIVE THINKING SKILLS BASED ON THE CLUSTER APPROACH

©Saxobaxon R. Shermatova[1]✉
[1]Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper substantiates the role of the cluster approach in developing students' inductive and deductive reasoning by leveraging semantic branching, systematization, and visual structuring of knowledge.

AIM: to explicate the didactic mechanisms of clustering for reasoning development, specify implementation stages, and report effectiveness in strengthening logical and analytical skills.

MATERIALS AND METHODS: content analysis of Bloom, Vygotsky, Piaget, Ausubel, and others; classroom scenarios using a four-stage cluster workflow

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

(motivational–analytical–generalizing–practical); observational and quasi-experimental comparative analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: cluster-based tasks improved logical organization, identification of causal links, and generalization; student participation, argumentation, teamwork, and metacognitive reflection increased. Inductive (from instances to rules) and deductive (from rules to cases) processes were integrated within the cluster structure.

CONCLUSION: the cluster approach jointly advances inductive and deductive thinking and builds higher-order cognitive competencies, serving as an effective technology for learner-centered, interactive instruction.

Keywords: inductive thinking; deductive thinking; cluster approach; educational technology; logical reasoning; cognitive development; innovative methods.

For citation: Saxobaxon R. Shermatova. (2025) 'Technologies for improving the teaching of educational materials on the basis of imitation-variation in technical higher educational institutions (in the example of teaching the science of intellectual measuring instruments', Inter education & global study, vol.3, 10(1)), pp.195–200. (In Uzbek).

Hozirgi davr ta'lim konsepsiyasi insonni tayyor bilimlarni mexanik tarzda yodlovchi emas, balki mustaqil fikrlaydigan, tahlil etadigan hamda mustahkam mantiqiy asosda qaror qabul qila oladigan faol shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qiladi. Shu bois, talabalarda induktiv va deduktiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Induktiv tafakkur – bu real kuzatuvlar, tajribaviy ma'lumotlar yoki aniq misollar asosida umumiy qonuniyatlarni kashf etish va ularni mantiqiy asoslash jarayonidir. Aksincha, deduktiv tafakkur mavjud nazariy bilim va umumiy qoidalarni xususiy holatlarga tatbiq etish orqali xulosa chiqarishga asoslanadi. Mazkur ikki fikrlash turi o'zaro integratsiyada qo'llanilganda, shaxsning analitik tafakkuri, mantiqiy fikrlash mexanizmlari, kognitiv salohiyati hamda ijodiy yondashuv qobiliyati izchil rivojlanadi (Bloom, 1956; Vygotsky, 1978).

Ta'lim jarayonida bu fikrlash jarayonlarini shakllantirishda klasterli yondashuv texnologiyasi alohida o'rin tutadi. Ushbu yondashuv o'zining strukturaviy, mantiqiy va tizimlashtiruvchi imkoniyatlari bilan ajralib turib, bilimlarni g'oyaviy markaz asosida guruhlash, ularning o'zaro semantik aloqalarini aniqlash hamda umumlashtirish orqali tizimli fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Klaster metodini qo'llash natijasida o'quv jarayoni yanada interfaol, izchil va kognitiv faoliyatga yo'naltirilgan shaklga ega bo'ladi.

Klasterli yondashuv (lotincha *cluster* "guruh", "tugun") ta'lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirish, tushunchalarni semantik tarmoqlash va o'zaro bog'liq g'oyalarni bir butun struktura sifatida ko'rsatish metodidir (Ausubel, 1968). Ushbu yondashuv:

o'quv mavzusini mantiqiy jihatdan tartiblashni osonlashtiradi;

o'quvchilarda tushunchalar orasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash ko'nikmasini shakllantiradi;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ijodiy fikrlashni va assotsiativ tafakkurni rag‘batlantiradi;

talabaning fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyatini yaratadi.

Klasterli yondashuv “fikrlar xaritasi” metodiga o‘xshash bo‘lib, u tafakkurning vizual ifodasi orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi (Novak & Gowin, 1984). Shu sababli, u nafaqat didaktik vosita, balki kognitiv faoliyatni rivojlantiruvchi innovatsion texnologiya sifatida e’tirof etiladi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda (Piaget, 1972; Anderson, 2010) ta’kidlanishicha, induktiv tafakkur inson tafakkurining empirik bosqichini, ya’ni tajriba va kuzatuv asosida yangi bilimlarni shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Deduktiv tafakkur esa bilim olishning nazariy bosqichini tashkil etib, mavjud qonuniyat va ilmiy asoslarni amaliy holatlarga tatbiq etish orqali xulosa chiqarish jarayonini aks ettiradi.

Induktiv fikrlash talabalarda kuzatuvchanlik, tahlil va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirsa, deduktiv fikrlash ularni mavjud nazariy bilimlarni real vaziyatlarga qo‘llash, asosli xulosalar chiqarish hamda tahliliy fikrlashni chuqurlashtirishga yo‘naltiradi. Shu tariqa, har ikkala tafakkur shakli o‘zaro uyg‘unlashganda, shaxsning bilish faoliyati yanada tizimli va ongli xarakter kasb etadi.

Klasterli yondashuv aynan shu ikki fikrlash jarayonining integratsiyasini ta’minlovchi samarali texnologiya sifatida namoyon bo‘ladi. Klasterning markaziy g‘oyasidan tarmoqlanib chiqadigan tushunchalar deduktiv tafakkurning yo‘nalishini, aksincha, tarmoqlardan markazga qaytuvchi umumlashtirish jarayoni esa induktiv tafakkurning harakatini ifodalaydi. Shu bois, klaster metodi fikrlash jarayonini bir butun kognitiv tizimga aylantirib, o‘quvchining tahliliy, mantiqiy va ijodiy salohiyatini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi.

Klaster asosidagi o‘qitish texnologiyasi ta’lim jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich va interfaol tarzda tashkil etishga qaratilgan. Ushbu texnologiyada o‘quvchi yoki talaba bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki faol ravishda bilim yaratuvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Metodik jihatdan bu texnologiya quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Motivatsion bosqich. Talabalarga muammoli savol, ochiq topshiriq yoki hayotiy vaziyat taqdim etiladi. Bu bosqichda ularning mavzuga nisbatan qiziqishi ortadi, ichki ehtiyoj va bilish motivlari faollashadi.
2. Tahliliy bosqich. Talabalar berilgan mavzu doirasidagi asosiy tushuncha, fakt va g‘oyalarni aniqlab, ularni klaster shaklida guruhlaydi. Bu jarayon orqali mavzuning semantik tuzilmasi shakllanadi, tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlar aniqlanadi.
3. Umumlashtiruvchi bosqich. Hosil qilingan klaster asosida induktiv va deduktiv xulosalar ishlab chiqiladi. Talabalar markaziy g‘oyaga nisbatan tarmoqlangan tushunchalarning o‘zaro munosabatini tahlil qiladi, ularni nazariy jihatdan asoslab beradi.
4. Amaliy bosqich. Ushbu bosqichda olingan nazariy bilimlar amaliy muammolarni hal qilish, loyiha ishlari yoki real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish orqali mustahkamlanadi. Natijada, talabalar o‘z fikrini asoslash, muammoga tizimli yondashish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va ijodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydi.

Mazkur texnologiya “faol o‘qitish” tamoyiliga tayanadi. Ya’ni, o‘quvchi yoki talaba endilikda axborotni tayyor iste’mol qiluvchi emas, balki uni anglaydigan, tahlil qiladigan va qayta ishlab, yangi g‘oyaga aylantiradigan faol ishtirokchi sifatida ta’lim jarayonida qatnashadi (Yo‘ldoshev, 2020).

Shunday qilib, klasterli yondashuv asosidagi o‘qitish talabalarning nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, balki ularning tahliliy fikrlash, muammoni hal etish, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini rivojlantiradi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, klasterli yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida talabalar bilim faolligi va kognitiv salohiyatining sezilarli oshishi kuzatildi. Avvalo, bunday yondashuv murakkab mavzularni mantiqiy tahlil qilish, axborotni tizimli qayta ishlash hamda asosli xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Talabalarda induktiv va deduktiv fikrlash jarayonlarining tezligi, aniqligi va mantiqiy izchilligi aniq o‘sish dinamikasiga ega bo‘ldi. Bundan tashqari, o‘quvchilar o‘z fikrlarini dalillar bilan asoslash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yechim topishda yuqori darajada faollik ko‘rsatganliklari qayd etildi. Bu holat klasterli o‘qitish texnologiyasining analitik tafakkurni faollashtirish va ijodiy yondashuvni rag‘batlantirishdagi samaradorligini amalda tasdiqlaydi. Tajriba davomida shuningdek, talabalarning o‘zaro kommunikativ faolligi va jamoaviy fikrlash madaniyati kuchaygani, bu esa o‘quv muhitida hamkorlik asosidagi bilim almashinuvi jarayonini shakllantirgani aniqlandi. Klasterli yondashuv natijasida ta’lim jarayoni interfaol, muloqotga asoslangan va refleksiv tahlilni talab qiluvchi shaklga ega bo‘ldi. Umuman olganda, olingan natijalar klasterli metod nafaqat o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishini, balki ularning metakognitiv tafakkurini, tahliliy yondashuvini va ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, klasterli yondashuv talabalarda induktiv va deduktiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaraga ega bo‘lgan pedagogik texnologiya sifatida e’tirof etilishi mumkin. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirish, vizuallashtirish va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash imkonini berish bilan birga, tafakkur jarayonlarini chuqurlashtirish, mantiqiy fikrlashni mustahkamlash hamda ijodiy tafakkurni faollashtirishga xizmat qiladi.

Klasterli o‘qitish jarayoni o‘quvchini bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. Shu bois, ushbu texnologiyani zamonaviy ta’lim tizimining shaxsga yo‘naltirilgan, interfaol va innovatsion shakllaridan biri sifatida keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Natijada, klaster texnologiyasi talabalarda XXI asr kompetensiyalarini – ya’ni tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, ijodkorlik va hamkorlik asosida faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. U pedagogik amaliyotda ta’lim samaradorligini oshirish, tahliliy tafakkurni rivojlantirish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Xolbekov, A. A. (2021). Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. — 184 b.
2. Yo‘ldoshev, J. G. (2020). Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: TDPU nashriyoti. — 212 b.
3. G‘ulomov, A. N., & Qodirov, B. Sh. (2019). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. — 175 b.
4. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green & Co. — 207 p.
5. Ausubel, D. P. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. New York: Holt, Rinehart & Winston. — 280 p.
6. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. New York: Basic Books. — 258 p.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi**, mustaqil tadqiqotchi, [**Шерматова Сахобахон Рахмонберди кизи**, независимый исследователь], [**Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi,** independent researcher]; manzil: Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19- uy, pochta indeksi: 150100, [адрес: Ферганская область, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19, почтовый индекс: 150100], [address: Fergana region, Fergana, Murabiylar St., 19, postal code: 150100]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol10(1)

Original paper

OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARIDA RAQOBAT MUHITINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

© A.K. Sanayev[1]✉
[1]Oriental Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan raqobat muhitining psixologik xususiyatlari, uning emotsional iqlim, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanishga ta’siri yoritiladi. Dolzarblik o‘smirlik davrida mustaqillik ehtiyoji va ota-ona nazorati to‘qnashuvi bilan izohlanadi.

MAQSAD: ota-ona—farzand munosabatlarida raqobatning ko‘rinishlari va oqibatlarini aniqlash hamda sog‘lom kommunikatsiya orqali uni yumshatish mexanizmlarini asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy adabiyotlar tahlili, Varga–Stolin metodikasi va PCRI (Parent-Child Relationship Inventory) qo‘llanildi; 50 nafar ota-ona ishtirokida tavsiflovchi statistika va Student t-testi bajarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: “Qabul qilish–rad etish”, “Kooperatsiya” va “Simbioz” ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori chiqdi, nazorat elementlari esa ko‘proq demokratik xarakterda ekanligi ko‘rindi. Onalarda “Yaqinlik” shkalasi bo‘yicha ball otalarnikidan yuqori bo‘lib, farq statistik ahamiyatli (p=0,040); konflikt/raqobat o‘rtacha past, ammo ayrim oilalarda yuqoriligi kuzatildi.

XULOSA: raqobat muhitini boshqarish uchun ochiq muloqot, emotsional qo‘llab-quvvatlash va qaror qabul qilishda hamkorlik zarur; natijalar psixologik maslahat va oilaviy profilaktika amaliyotlariga tatbiq etilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ota-ona; farzand; raqobat; oilaviy muhit; psixologik xususiyatlar; kommunikatsiya; PCRI; Varga–Stolin.

Iqtibos uchun: Sanayev A.K. Ota-ona va farzand munosabatlarida raqobat muhitining psixologik xususiyatlari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.201–208.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ В РОДИТЕЛЬСКО-ДЕТСКИХ ОТНОШЕНИЯХ

© А.К. Санаев[1]✉
[1]Oriental университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья раскрывает психологические особенности конкурентной среды в отношениях «родители—ребёнок» и её влияние на эмоциональный

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol10(1)

климат, социальную адаптацию и личностное развитие. Актуальность обусловлена коллизией растущей автономии подростка и родительского контроля.

ЦЕЛЬ: выявить формы и последствия конкуренции в семье и обосновать механизмы её смягчения посредством здоровой коммуникации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ научной литературы, методика Варги–Столина и опросник PCRI; выборка — 50 родителей; описательная статистика и t-критерий Стьюдента.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Показатели «Принятие—отвержение», «Кооперация» и «Симбиоз» оказались относительно высокими; элементы контроля носят преимущественно демократический характер. У матерей балл по шкале «Близость» выше, чем у отцов (p=0,040); шкала «Конфликт/Конкуренция» в среднем ниже, но в отдельных семьях повышена.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для управления конкуренцией необходимы открытый диалог, эмоциональная поддержка и совместное принятие решений; результаты применимы в психологическом консультировании и семейной профилактике.

Ключевые слова: родители; ребёнок; конкуренция; семейная среда; психологические особенности; коммуникация; PCRI; Варга–Столин.

Для цитирования: Санаев.А.К. Психологические особенности конкурентной среды в родительско-детских отношениях.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). С.201–208.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE COMPETITIVE ENVIRONMENT IN PARENT-CHILD RELATIONS

©Alisher.K. Sanayev[1]✉
[1] Oriental University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper examines the psychological features of competitive dynamics in parent–child relationships and their impact on emotional climate, social adaptation, and personal development. The issue is salient where adolescent autonomy conflicts with parental control.

AIM: to identify the forms and outcomes of intra-family competition and to substantiate mechanisms for mitigating it through healthy communication.

MATERIALS AND METHODS: literature review, Varga–Stolin technique, and the Parent-Child Relationship Inventory (PCRI); sample of 50 parents; descriptive statistics and Student's t-test.

DISCUSSION AND RESULTS: scores on Acceptance–Rejection, Cooperation, and Symbiosis were relatively high, while control tended to be more democratic. Mothers showed higher Closeness than fathers (p=0.040); Conflict/Competition averaged lower but was elevated in some families.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol10(1)

CONCLUSION: managing competition requires open dialogue, emotional support, and shared decision-making; the findings are applicable to counseling and family-focused prevention.

Keywords: parents; child; competition; family environment; psychological characteristics; communication; PCRI; Varga–Stolin.

For citation: Alisher K. Sanayev. (2025) 'Psychological features of the competitive environment in parent-child relations', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.201–208. (In Uzbek).

Zamonaviy oilalarda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib bormoqda. Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, ijtimoiy me'yorlarning o'zgarishi, shuningdek, shaxsiy erkinlik va mustaqillikni qadrlash kabi omillar oiladagi an'anaviy rol va vazifalarning qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'lmoqda. An'anaviy tarzda ota-ona farzand uchun yo'l ko'rsatuvchi, tarbiyachi va rahbar rolini bajaradi. Biroq hayotiy tajribaning ko'rsatishicha, ayrim holatlarda bu munosabatlar nozik ziddiyatlar, hattoki yashirin yoki ochiq raqobat tusini ola boshlaydi.

Raqobat - bu tabiiy psixologik hodisa bo'lib, insonlar o'rtasidagi resurslar, e'tibor, nazorat yoki ta'sir uchun kurash shaklida namoyon bo'ladi. Ota-ona va farzand o'rtasida raqobat yuzaga kelgan holatlarda oilaviy muhitda psixologik taranglik ortadi, o'zaro ishonch susayadi va emotsional uzoqlashuv ro'y beradi. Ayniqsa, o'smirlik davrida farzandning o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish istagi kuchayadi, bu esa ota-onaning nazoratga bo'lgan ehtiyoji bilan to'qnash keladi. Agar bu holatlar sog'lom kommunikatsiya orqali boshqarilmasa, shaxslararo munosabatlarda ziddiyat, tushunmovchilik va ruhiy bosim kuchayishi mumkin.

Shu sababli ota-ona va farzand munosabatlaridagi raqobat muhitini o'rganish, uning psixologik ildizlari va oqibatlarini tahlil qilish, shuningdek, bunday vaziyatlarni yumshatish yo'llarini aniqlash bugungi psixologik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ota-ona va farzand munosabatlari psixologik adabiyotlarda turli nuqtai nazarlardan yoritilgan bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar shaxslararo munosabatlar, oilaviy dinamika, emotsional intellekt, tarbiya uslublari va shaxsiy rivojlanish kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. G'arb psixologiyasi nuqtai nazaridan, Z. Freydning psixoanalitik nazariyasida ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi ziddiyatlar, ayniqsa, Oedipus kompleksi doirasida qaraladi. Bu yondashuvda bola va ota-onaning emotsional bog'liqligi va yashirin raqobati chuqur tahlil qilinadi.

E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida esa har bir rivojlanish bosqichi o'ziga xos ichki ziddiyatlar bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida shaxsiyatni shakllantirish - "o'zlikni anglashga qarshi noaniqlik" bosqichi muhim bo'lib, aynan shu davrda ota-onalarning nazoratga bo'lgan intilishi va farzandning mustaqillikka bo'lgan ehtiyoji o'rtasida raqobatli munosabatlar yuzaga keladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol10(1)

K. Levinning maydon nazariyasiga ko‘ra, inson harakati ijtimoiy va psixologik maydon ta’sirida shakllanadi. Ota-onaning farzandga nisbatan ortiqcha nazorati yoki e'tibor yetishmasligi bu psixologik maydonda ziddiyat va bosimni kuchaytiradi. Bu holatlar farzandning ichki motivatsiyasi va moslashuvchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. D.Baumrindning tarbiya uslublari klassifikatsiyasida (avtoritar, avtoritativ, befarq va ruxsat beruvchi) ota-onalarning farzandlar bilan munosabatlaridagi turli strategiyalar tahlil qilinadi. Aynan avtoritar uslubda raqobat, ziddiyat va emotsional uzoqlashuv holatlari ko‘proq kuzatiladi, chunki bu uslubda nazorat va buyruq elementlari ustun turadi.

O‘zbekiston mustaqilligi davrida milliy psixologiyada ham oilaviy qadriyatlar, shaxslararo munosabatlar va tarbiya madaniyati masalalari chuqur o‘rganilmoqda. Ayniqsa, I.M. Ibragimov, M. Qurbonov, Sh. Raxmonqulov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oila psixologiyasi, avlodlararo munosabatlar, madaniy kontekstda farzand tarbiyasi masalalari yoritilgan.

Shuningdek, zamonaviy psixologik adabiyotlarda raqobatli muhitning farzandning emotsional rivojlanishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga va ijtimoiy moslashuviga ta’siri ko‘plab eksperimental tadqiqotlar asosida tasdiqlanmoqda (masalan, T.Gordon, J. Bowlby, L. Vygotskiy va boshqalar).

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ota-ona va farzand o‘rtasidagi raqobat holatlari ko‘p omilli, murakkab psixologik jarayon bo‘lib, ularning sabablari, shakllanish mexanizmlari va oqibatlari turli nazariy yondashuvlar orqali tahlil qilinishi zarur. Mavzuga oid adabiy manbalar farzandning shaxsiy rivojida sog‘lom oilaviy muhitning, ayniqsa emotsional muloqot va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan raqobat holatlari psixologik jihatdan murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. O‘tkazilgan nazariy tahlillar va psixologik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitda raqobatning shakllanishi ota-onalarning tarbiya uslubi, muloqot madaniyati, emotsional yetukligi, shuningdek, farzandning yosh xususiyatlari va psixologik ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Raqobat ko‘p hollarda yashirin tarzda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida farzand o‘z mustaqilligini ta’minlashga intiladi, ota-ona esa ushbu istakni o‘z nazoratiga tahdid sifatida qabul qiladi. Natijada emotsional beqarorlik, ichki qarama-qarshiliklar, o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan kuchli ehtiyoj, ba’zan esa passiv-agressiv xatti-harakatlar shakllanadi. Raqobat muhitining emotsional e’tibor uchun kurashish, qarorlar ustidan nazorat qilish yoki farzandni ota-onaning orzularini amalga oshiruvchi vosita sifatida ko‘rish kabi shakllari mavjud. Bu holatlar farzandlarda o‘ziga ishonchsizlik, xavotir, ichki norozilik va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklariga olib keladi.

Shu bilan birga, sog‘lom oilalarda ochiq va samimiy kommunikatsiya mavjud bo‘lsa, raqobat holatlari ancha kamayadi yoki konstruktiv yo‘nalishga buriladi. Ota-onaning farzandni tinglashi, uning fikrini inobatga olishi, qarorlar jarayonida uni hamkor sifatida ko‘rishi, emotsional yaqinlikni ta’minlashi - oilaviy muhitda sog‘lom psixologik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol10(1)

iqlim yaratadi. Bunday sharoitda yuzaga keladigan tabiiy raqobat esa motivatsiyani oshiruvchi, shaxsiy mas'uliyatni rivojlantiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqobat har doim salbiy hodisa emas. Agar bu jarayon to‘g‘ri boshqarilsa, farzandda o‘zini anglash, hayotiy maqsadlarni aniqlash, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllanadi. Biroq bu imkoniyat faqatgina sog‘lom ota-ona va farzand munosabati mavjud bo‘lgan oilalarda, o‘zaro hurmat, ishonch va emotsional qo‘llab-quvvatlov mavjud bo‘lsa, ijobiy natijalar beradi.

Umuman olganda, raqobat muhitining mavjudligi oilada shaxslararo munosabatlardagi disbalansdan darak beradi. Bu holatni inkor etish emas, balki chuqur anglab, uni boshqarish, farzand psixologiyasini hisobga olib harakat qilish - zamonaviy ota-onalar oldidagi muhim vazifalardan biridir. Varga–Stolin metodikasi ota-onaning bola bilan shaxslararo munosabatlarini aniqlashda samarali vositadir. Ushbu metodika orqali olingan ma'lumotlar psixologik maslahat, oilaviy terapiya yoki pedagogik tashxis uchun asos bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

Varga–Stolin metodikasi tavsiflovchi statistikasi

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha (M)	Standart og‘ish (SD)	Minimum	Maksimum	Assimetriya (Skewness)	Ekstses (Kurtosis)
Qabul qilish – rad etish	33.5	4.8	24	42	-0.15	-0.42
Kooperatsiya	29.2	5.1	17	39	0.10	-0.30
Simbioz	31.7	6.2	18	45	0.25	0.15
Nazorat	27.9	4.3	19	38	-0.05	-0.22
Omadsizlikka munosabat	22.4	5.6	11	34	0.40	0.60

Jadvaldagi ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymatlari ota-onalarning farzandlarga bo‘lgan munosabatlarining asosiy jihatlarini ko‘rsatadi. Eng yuqori o‘rtacha ball

"Qabul qilish – rad etish" shkalasida (33.5) bo‘lib, bu ota-onalarning aksariyati farzandlarini emotsional jihatdan ijobiy qabul qilishini anglatadi. Kooperatsiya va Simbioz shkalalarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari ham nisbatan yuqori bo‘lib, ota-onalar farzandlari bilan yaqin hamkorlik va o‘zaro bog‘lanishni muhim deb hisoblashadi. Nazorat shkalasining o‘rtacha qiymati (27.9) bu munosabatlarda nazorat elementining mavjudligini ko‘rsatadi, ammo avtoritar nazorat emas, balki ko‘proq demokratik uslub tarafdori ekanlik ehtimoli bor. Omadsizlikka munosabat shkalasidagi eng past o‘rtacha ball (22.4) ota-onalarning farzand muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan sabrli va tushunuvchi yondashuvlarini bildiradi. Assimetriya (skewness) ko‘rsatkichlari taqsimotlarning asosan simmetrik ekanligini ko‘rsatmoqda. Eng yuqori ijobiy assimetriya "Omadsizlikka munosabat" shkalasida kuzatilmoqda (0.40), ya'ni ba'zi ota-onalar bu borada boshqalarga nisbatan boshqacha, ehtimol yanada nozik yoki hissiyotli munosabatda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol10(1)

bo‘lishi mumkin. Ekstses (kurtosis) qiymatlari esa taqsimotlarning ko‘p jihatdan normalga yaqinligini bildiradi, katta cho‘qqilar yoki tekisliklar yo‘qligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, natijalar ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarda ko‘proq ijobiy emotsional qabul qilish va hamkorlik, shuningdek, farzandning xulq-atvorini demokratik nazorat qilish xususiyatlari ustun ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda 50 nafar ota-ona ishtirok etdi va PCRI yordamida ular baholandi. Quyida har bir shkala bo‘yicha tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

PCRI metodikasi tavsiflovchi statistikasi

Shkala nomi	O‘rtacha (M)	Standart og‘ish (SD)	Minimum	Maksimum	Assimetriya (Skewness)	Ekstses (Kurtosis)
Yaqinlik	42.3	5.2	31	50	-0.22	-0.55
Nazorat	37.8	6.1	25	47	0.15	0.12
Konflikt / Raqobat	24.7	7.3	10	40	0.45	0.68
Qo‘llab-quvvatlash	44.1	4.8	34	50	-0.10	-0.30
Mustaqillikni rag‘batlantirish	38.5	5.5	27	48	0.05	0.02

Ota-ona va farzand munosabatlarini o‘rganishda “Parent-Child Relationship Inventory” (PCRI) metodikasi qo‘llanilib, uning asosiy shkalalari bo‘yicha tahlil o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yaqinlik va qo‘llab-quvvatlash shkalalari bo‘yicha yuqori o‘rtacha ballar ota-onalarning farzandlariga nisbatan emotsional iliqlik va yordam berishga intilishini ifodalaydi. Shu bilan birga, nazorat va mustaqillikni rag‘batlantirish shkalalarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari ota-onalar o‘rtasida farzand tarbiyasida muvozanatli yondashuv mavjudligini anglatadi. Konflikt yoki raqobat shkalasining nisbatan past o‘rtacha balli, ammo yuqori assimetriya darajasi (0.45) esa ayrim oilalarda ota-ona va farzand o‘rtasida kuchli raqobat yoki ziddiyatlar borligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, assimetriya va ekstses ko‘rsatkichlari taqsimotlarning ko‘pchilik hollarda yaqin normal taqsimotga ega ekanligini bildiradi. Bu esa olingan natijalar ishonchliligi va tadqiqotning umumlashtirilish imkoniyatini oshiradi.

Ota-ona va farzand munosabatlarida raqobat muhitining psixologik xususiyatlarini o‘rganishda keng qo‘llanilgan va aniq natijalar beruvchi metodikalardan biri - “Parent-Child Relationship Inventory” (PCRI) metodikasidir. Uni muallifi Gerald W. Gerard va boshqalar hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval

Ota va ona guruhlari bo‘yicha PCRI shkalalari bo‘yicha

Student t-test natijalari

Shkala nomi	Ota (M ±	Ona (M ±	t-	p-

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol10(1)

	SD)	SD)	ko‘rsatkich	qiymat
Yaqinlik (Closeness)	41.5 ± 5.4	43.1 ± 4.9	2.10	0.040*
Qo‘llab-quvvatlash	43.3 ± 5.1	44.7 ± 4.5	1.20	0.235
Nazorat (Control)	37.5 ± 6.4	38.0 ± 5.8	0.45	0.655
Mustaqillikni rag‘batlantirish	38.0 ± 5.7	39.0 ± 5.3	0.80	0.426
Konflikt / Raqobat	26.0 ± 7.1	23.5 ± 7.5	1.40	0.168

*p < 0.05 — statistik jihatdan ahamiyatli farq

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ota va ona guruhlari orasida faqat Yaqinlik shkalasida statistik jihatdan sezilarli farq mavjud (p = 0.040). Bu onalarning farzandlariga nisbatan emotsional yaqinlik darajasi otalarnikidan biroz yuqoriroq ekanligini bildiradi.

Qolgan shkalalarda, jumladan Qo‘llab-quvvatlash, Nazorat, Mustaqillikni rag‘batlantirish va Konflikt / Raqobat ko‘rsatkichlarida esa ota va ona o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (p > 0.05). Bu natijalar ota-onaning farzand tarbiyasida ko‘p jihatdan o‘xshash yondashuvga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Konflikt / Raqobat shkalasida otalarda o‘rtacha ball biroz yuqoriroq bo‘lishiga qaramay, bu farq statistik ahamiyatga ega emas, ammo ayrim oilalarda ota va farzand o‘rtasida raqobat yoki nizolar mavjudligini taxmin qilish mumkin.

Umuman olganda, ota va ona o‘rtasida emotsional yaqinlikdagi farq hisobga olinib, farzand tarbiyasida o‘xshashlik va muvozanatni ko‘rish mumkin.

MATERIALLAR VA METODLAR: surdopedagogik va logopedik amaliyotdan olingan kuzatuvlar, mashg‘ulot protokollari va bosqichli dasturlash tamoyillari tahlil qilindi; eshituv idroki (lokalizatsiya, farqlash), fonematik eshituv, nutqiy nafas va artikulyatsiya bo‘yicha tipik mashq majmualari tizimlashtirildi; ota-ona ishtiroki va multidissiplinar hamkorlik komponentlari kiritildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: multimodal kompleks eshituv diqqatini, fonematik farqlashni va nutqiy motorikani faollashtirishi, intonatsiya va ritmni boshqarishni yaxshilashi, eshituv-vizual-vestibulyar uyg‘unlashuvni kuchaytirishi ko‘rsatildi. Logopedik massaj artikulyatsion apparat tonusini me’yorlashtirdi, DENS-terapiya esa neyron javob sezgirligini va mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni oshirishga xizmat qildi. Ota-ona bilan uy sharoitidagi mustahkamlovchi mashg‘ulotlar natijaning barqarorligini ta’minladi.

XULOSA: implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya eng yaxshi natijani integrativ, individual va bosqichma-bosqich yondashuvda beradi; musiqiy, sensor va logopedik komponentlar uyg‘unligi neyroplastiklikni rag‘batlantirib, nutqiy muloqotni tezlashtiradi. Kelgusida standartlashtirilgan protokollar va natijalarni obyektiv baholash mezonlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: koxlear implant, nutq-eshituv reabilitatsiyasi, musiqa terapiyasi, sensor integratsiya, neyrogimnastika, logopedik massaj, DENS-terapiya.

Iqtibos uchun: Salimova. H.R. Koxlear implantli bolalar nutq-eshituv reabilitatsiyasi.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.225–235.

РЕЧЕВО-СЛУХОВАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ ДЕТЕЙ С КОХЛЕАРНЫМ ИМПЛАНТАТОМ

© Х.Р. Салимова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1] Ташкентский международный университет Кимё, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: обоснована необходимость длительной и многокомпонентной речеслуховой реабилитации детей с кохлеарными имплантами; имплант восстанавливает физиологическое восприятие звука, тогда как психолингвистические навыки формируются в целенаправленной терапии.

ЦЕЛЬ: описать эффективность комплекса музыкотерапии, голосовых упражнений, сенсорной интеграции, нейрогимнастики, логопедического массажа и ДЭНС-терапии в улучшении слухоречевых показателей у детей с КИ.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ протоколов занятий и наблюдений в сурдо- и логопедической практике; систематизация упражнений по слуховой локализации и дифференциации, фонематическому слуху, речевому дыханию и артикуляции; включение компонентов семейного сопровождения и междисциплинарного взаимодействия.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: многоканальный подход усиливал слуховое внимание, фонематическую дифференциацию и речемоторную координацию, улучшал контроль ритма и интонации, способствовал согласованию аудиовизуально-вестибулярных сигналов. Логопедический массаж нормализовал тонус артикуляционного аппарата, ДЭНС-терапия повышала нейронную реактивность и готовность к занятиям; домашние задания с участием родителей обеспечивали устойчивость результата.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: послеоперационная реабилитация наиболее успешна при интегративном, индивидуализированном и поэтапном подходе; сочетание музыкальных, сенсорных и логопедических компонентов стимулирует нейропластичность и ускоряет формирование речевой коммуникации. Перспективны стандартизация протоколов и расширение объективных критериев оценки.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, речеслуховая реабилитация, музыкотерапия, сенсорная интеграция, нейрогимнастика, логопедический массаж, ДЭНС-терапия.

Для цитирования: Халимова.Х.Р. Речево-слуховая реабилитация детей с кохлеарным имплантатом.// Inter education & global study.2025. vol.3, №10(1). С. 225–235.

SPEECH AND AUDITORY REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS

©Hilola R. Salimova[1]✉

[1] Kimyo international university, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

INTRODUCTION: the paper substantiates the need for prolonged, multicomponent speech-and-hearing rehabilitation in children with cochlear implants; while the device restores access to sound, psycholinguistic competencies require targeted therapy.

AIM: To describe the effectiveness of a multimodal program—music therapy, vocal exercises, sensory integration, neuro-gymnastics, speech-therapy massage, and DENS-therapy—in improving auditory and speech outcomes in pediatric CI users.

MATERIALS AND METHODS: analysis of clinical lesson protocols and observational records from surdo- and speech-therapy practice; systematization of tasks for sound localization/discrimination, phonemic hearing, respiratory-phonatory control, and articulation; incorporation of parent-mediated home practice and multidisciplinary teamwork.

DISCUSSION AND RESULTS: the multimodal package increased auditory attention, phonemic discrimination, and speech-motor coordination, improved control of rhythm and intonation, and strengthened audio-visual-vestibular integration. Speech-therapy massage supported articulatory tone, while DENS-therapy enhanced neural responsiveness and readiness for training; structured home practice stabilized gains.

CONCLUSION: post-implant rehabilitation is most successful when integrative, individualized, and staged; the synergy of musical, sensory, and speech components promotes neuroplasticity and accelerates functional communication. Future work should standardize protocols and broaden objective outcome measures.

Keywords: cochlear implant, speech-hearing rehabilitation, music therapy, sensory integration, neuro-gymnastics, speech-therapy massage, DENS-therapy.

For citation: Hilola R. Salimova. (2025) ‘Speech and auditory rehabilitation of children with cochlear implants’, Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp. 225–235. (In Uzbek).

XXI asrda tibbiyot va pedagogika fanlari rivojlanishi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga nisbatan yangi imkoniyatlar yaratdi. Shulardan eng muhimlaridan biri – koxlear implantatsiya texnologiyasi bo‘lib, u eshitish nervi faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektr stimulyatsiya orqali faollashtirish imkonini beradi. Ushbu texnologiya yordamida tug‘ma yoki erta yoshda eshituvini yo‘qotgan bolalar atrof-muhitdagi tovushlarni idrok etish, eshituv tajribasini qayta tiklash va tabiiy nutqni shakllantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, implantatsiya operatsiyasining o‘zi bolaning to‘laqonli eshituvini va nutqiy muloqotini avtomatik ravishda tiklab bermaydi. Koxlear implant faqat fiziologik eshituv imkonini yaratadi, ammo psixolingvistik, fonematik, motorik va ijtimoiy-kommunikativ malakalar maxsus reabilitatsion mashg‘ulotlar orqali shakllantiriladi. Shu bois, implantatsiyadan keyingi bosqichda nutq-eshtuv reabilitatsiyasi jarayoni markaziy o‘rinni egallaydi.

Reabilitatsiya – bu uzoq muddatli, tizimli, ko‘p yo‘nalishli jarayon bo‘lib, unda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

logoped, surdopedagog, psixolog, fizioterapevt, nevropatolog va ota-onalar faol hamkorlikda ishtirok etishlari zarur. Har bir mutaxassis bolaning yosh xususiyatlari, eshituv darajasi, neyropsixologik rivojlanish holati hamda individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kompleks reabilitatsion dastur ishlab chiqadi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eshituvni faollashtirish bilan bir qatorda nutqiy faoliyatni rivojlantirishda multimodal yondashuvlar yuqori samaradorlik beradi. Jumladan, musiqa terapiyasi, ovoz mashqlari, sensor integratsiya terapiyasi, neyrogimnastika mashqlari, logopedik massaj va DENS-terapiya bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda bolaning eshituv-motor tizimi faoliyati yaxshilanadi, miyaning eshituv va nutq markazlari o‘rtasida neyron aloqalar kuchayadi.

Musiqa terapiyasi – bolaning eshituv diqqatini rivojlantirish, ritm va intonatsiyani idrok etish qobiliyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ovoz mashqlari esa nutqiy nafasni to‘g‘ri shakllantirish, fonatsiya jarayonini yaxshilash va artikulyatsion apparat mushaklarini faollashtirishga xizmat qiladi. Sensor integratsiya terapiyasi eshituv, ko‘rish, vestibulyar va taktil sezgilarning uyg‘un faoliyatini tiklashga yordam beradi. Neyrogimnastika esa ikki yarim shar faoliyatini muvofiqlashtirib, markaziy asab tizimi plastiklik xususiyatini kuchaytiradi. Shuningdek, logopedik massaj artikulyatsion apparat mushaklarining tonusini me’yorga keltiradi, DENS-terapiya esa neyron faoliyatni elektroimpulslar orqali qo‘zg‘atib, eshituv markazlarining sezuvchanligini oshiradi.

Koxlear implantatsiya operatsiyasi bolaning eshituv tizimini tiklashdagi muhim bosqich bo‘lsa-da, haqiqiy natijalar implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya jarayonining samaradorligiga bog‘liqdir. Chunki implant bolaning miyasi uchun yangi eshituv tajribasini yaratadi va bu jarayonni miyaning qayta o‘rganish (neyronal reorqanizatsiya) mexanizmlari orqali shakllantirish talab etiladi. Shuning uchun reabilitatsiya nafaqat eshitish organiga, balki markaziy asab tizimi, nutq apparati, kognitiv faoliyat va hissiy sohaga ham yo‘naltiriladi.

Reabilitatsiya ishlari ko‘p bosqichli va kompleks xarakterga ega bo‘lib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Eshituv idrokini shakllantirish va rivojlantirish
2. Nutqiy nafas, fonatsiya va artikulyatsiyani rivojlantirish
3. Leksik-grammatik tizimni rivojlantirish
4. Psixologik va emotsional qo‘llab-quvvatlash
5. Sensor integratsiya va neyromotor rivojlantirish
6. Ota-onalar bilan hamkorlik va uy sharoitidagi mashg‘ulotlar
7. Multidissiplinar jamoa ishi

Implantatsiyadan keyingi dastlabki bosqichda bolaning miyasi yangi, ilgari noma’lum bo‘lgan tovush signaliga moslashadi. Shu davrda mutaxassislar eshituvni stimulyatsion mashqlar orqali rivojlantiradilar.

Mashg‘ulotlarda:

tovush manbaini aniqlash (lokalizatsiya) mashqlari;

turli intensivlikdagi tovushlarni farqlash;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

maishiy va nutqiy tovushlarni ajratish (masalan, musiqa, so‘z, shovqin);

fonematik farqlashni shakllantirish (masalan, “pa–ba”, “ka–ga”) kabi topshiriqlar qo‘llaniladi.

Bu bosqich bolaning eshituv diqqatini faollashtiradi va tovush–ma’no bog‘lanishini shakllantirishga asos yaratadi.

Koxlear implantli bolalar ko‘pincha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaydilar, chunki ular o‘z ovozlarini eshitishga odatlanmagan bo‘ladilar. Shu sababli nutq motorikasini qayta shakllantirish reabilitatsiyaning muhim yo‘nalishidir.

Bu yo‘nalishda:

nutqiy nafasni rivojlantirish mashqlari (“nafas ol – ayt – nafas chiq”) orqali nafas va ovoz sinxronligi o‘rganiladi;

fonatsiya mashqlari – cho‘zilma unli tovushlar (“a–o–u–i”)ni talaffuz qilish, ovoz balandligini boshqarish;

artikulyatsion gimnastika – lab, til, jag‘ mushaklarini harakatlantirish, artikulyatsion aniqlikni oshirish mashqlari bajariladi.

Mazkur mashqlar tovush madaniyatini shakllantiradi, nutqning aniq, ritmik va tabiiy chiqishini ta’minlaydi.

Eshituvni qayta tiklashning o‘zi bola nutqining lug‘at boyligi va grammatik tuzilmasining avtomatik o‘sishini kafolatlamaydi. Shu bois so‘z boyligini oshirish, gap tuzish, mantiqiy ifoda va kommunikativ faoliyatni kengaytirish reabilitatsiya dasturining asosiy qismidir.

Mashg‘ulotlarda:

predmetlar va harakatlar nomlarini eshituv asosida tanish;

so‘zlarni ma’nosi bilan bog‘lash;

gap tuzish, dialog qurish;

situatsion o‘yinlar orqali nutqiy muloqotni rivojlantirish ishlari olib boriladi.

Bu jarayon bola ongida eshitilgan tovush – so‘z – ma’no – harakat zanjirini mustahkamlaydi.

Koxlear implantatsiyadan so‘ng bola uchun yangi akustik dunyo ochiladi. Dastlabki oylar davomida bu holat emotsional zo‘riqish, qo‘rquv yoki charchoqqa sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli reabilitatsiyada psixologik yondashuv muhim o‘rin tutadi.

Mashg‘ulotlarda:

bola bilan ishonchli muloqotni shakllantirish;

musiqa terapiyasi, relaksatsion o‘yinlar, sensor mashqlar orqali stressni kamaytirish;

motivatsiyani oshirish va o‘ziga ishonchni kuchaytirish ishlari amalga oshiriladi.

Bu yo‘nalish bola shaxsining ijtimoiy moslashuvini va reabilitatsiya jarayoniga ijobiy munosabatini ta’minlaydi.

Koxlear implantli bolalarda ko‘pincha sensor tizimlarning (eshituv, ko‘rish, vestibulyar, taktil) muvozanati buzilgan bo‘ladi. Shu sababli sensor integratsiya terapiyasi reabilitatsiya jarayonining ajralmas qismidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ushbu yo‘nalishda:

tovush manbaini aniqlashni ko‘rish harakati bilan uyg‘unlashtirish;

vestibulyar mashqlar (muvozanat doskasi, harakatli o‘yinlar);

taktil stimulyatsiya (turli fakturali predmetlar bilan mashqlar) bajariladi.

Natijada bolaning ko‘rish–eshitish–harakat tizimlari o‘rtasidagi neyron bog‘lanishlar mustahkamlanadi, bu esa nutqiy jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Reabilitatsiya jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ota-onalarning faol ishtirokiga bog‘liqdir. Mutaxassislar ularni quyidagi yo‘nalishlarda o‘qitadilar:

bola bilan to‘g‘ri nutqiy muloqot uslublarini o‘rgatish;

eshituv stimulyatsiyasi uchun kundalik mashqlarni uyda davom ettirish;

emotsional qo‘llab-quvvatlash va sabr-toqatni saqlash.

Ota-onalar bilan muntazam maslahatlar, videomashg‘ulotlar va monitoring tizimi orqali bolaning individual yutuqlari nazorat qilinadi.

Reabilitatsiya jarayonining ilmiy asoslanganligi va samaradorligi mutaxassislar jamoasi hamkorligiga tayanadi. Bu jamoaga logoped, surdopedagog, psixolog, fizioterapevt, audiolog, nevrolog va musiqa terapevti kiradi. Ular bolaning individual dasturini ishlab chiqib, bosqichma-bosqich natijalarni baholab boradilar.

Bunday hamkorlik natijasida bola eshituv, nutqiy, motor, hissiy va kognitiv jihatdan uyg‘un rivojlanadi.

Koxlear implantdan so‘nggi reabilitatsiya faqat eshituvni emas, balki bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan murakkab tizimdir. U sensor, nutqiy, motorik va emotsional komponentlarning integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur yo‘nalishlarni uyg‘un holda olib borish, bolaning eshituv tajribasini mustahkamlab, uning to‘laqonli nutqiy muloqotga kirishishini tezlashtiradi.

Musiqa terapiyasi koxlear implantatsiyadan so‘nggi reabilitatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat eshituv tizimini faollashtiradi, balki tovushlarni tahlil qilish va ularni nutqiy idrok bilan bog‘lash jarayonini kuchaytiradi. Musiqa tovushlarining turli chastotalari va tembrlarining idrok etilishi eshituv analizatorining sezgirligini oshiradi, fonematik differensiasiya va tovushni farqlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, ritm va ohang bilan ishlash mashqlari nutqiy nafasni boshqarish, talaffuzni aniqlashtirish hamda ovoz apparati faoliyatini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Musiqa orqali bola tovush intensivligi, baland-pastlik va tezlikni his etishni o‘rganadi, bu esa keyinchalik nutqdagi intonatsion aniqlikka zamin yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa terapiyasi eshituv tizimining neyroplastik rivojlanishiga, ya’ni miyaning yangi akustik ma’lumotni qayta ishlash qobiliyatining kuchayishiga yordam beradi. Shu bois, musiqa terapiyasi implantdan keyingi logopedik mashg‘ulotlarni samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Musiqa terapiyasi koxlear implant o‘rnatilgan bolalarda eshituv idroki va nutq rivojlanishining samarali stimulyatori sifatida e’tirof etiladi. Musiqa inson miyasining eshituv markazlarini faollashtirib, tovush chastotalariga sezgirlikni oshiradi hamda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

fonematik idrokni takomillashtiradi. Bu jarayonlar orqali bola nafaqat tovushlarni eshitadi, balki ularni farqlash, aniqlash va mazmunli nutq elementlariga bog‘lashni o‘rganadi.

Ritm, temp, dinamika va ohang elementlari bilan ishlash bolaning nutqiy nafasini boshqarish, ovoz apparatini faol ishlatish hamda tovushlar orasidagi farqlarni his qilishga yordam beradi. Shuningdek, musiqa terapiyasi markaziy asab tizimida neyron aloqalarni kuchaytiradi, bu esa eshituv-motor koordinatsiyasining yaxshilanishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy mashqlarni logopedik va eshituv treninglari bilan uyg‘unlashtirish bolaning nutq ritmi, intonatsiyasi va talaffuz aniqligini tezroq shakllantiradi. Shu bois musiqa terapiyasi koxlear implantdan keyingi reabilitatsiya jarayonida kompleks neyropsixologik ta’sir vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

DENS-terapiya (Dinamik Elektr Neyrostimulyatsiya) koxlear implantli bolalarda eshituv va nutq markazlarining funksional faolligini oshirishda samarali fizioterapevtik usul hisoblanadi. Bu usul teri yuzasi orqali o‘tkaziladigan past kuchlanishli elektr impulslar yordamida neyron aloqalarni faollashtiradi, qon aylanish va metabolik jarayonlarni yaxshilaydi.

Klinik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, DENS-terapiya eshituv analizatori, miya po‘stlog‘idagi eshituv zonalari va nutq markazlari faoliyatini rag‘batlantirib, akustik signallarni tezroq qabul qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, u mushak tonusini muvozanatlaydi, stressni kamaytiradi va reabilitatsiya mashg‘ulotlariga bolaning tayyorgarlik darajasini oshiradi. Shuning uchun DENS-terapiya implantdan keyingi davrda neyrofiziologik tiklanish va sensor integratsiyani tezlashtiruvchi muhim yordamchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Logopedik mashg‘ulotlar implantli bolalarda nutq tizimining shakllanishida yetakchi o‘rin tutadi. Mashg‘ulotlar eshituv asosida talaffuz, fonematik idrok va so‘z boyligini rivojlantirishga qaratilgan. Logopedik ishlar jarayonida nafasni boshqarish, artikulyatsion apparat harakatlarini faollashtirish, ovoz shakllantirish, fonetik tahlil va nutq ritmini o‘rgatish kabi mashqlar tizimli tarzda bajariladi.

Bunday mashg‘ulotlar miya po‘stlog‘ining nutqiy zonalarida neyron aloqalarni kuchaytiradi, fonematik eshituvni yaxshilaydi va semantik tahlil jarayonlarini faollashtiradi. Shu sababli logopedik mashqlar koxlear implantdan keyingi reabilitatsiyaning asosiy psixolingvistik mexanizmlarini shakllantiruvchi poydevor sifatida e’tirof etiladi.

Sensor integratsiya terapiyasi turli sezgi tizimlari — eshituv, ko‘rish, vestibulyar va taktil idrokni uyg‘unlashtirish orqali bolaning umumiy neyropsixologik muvozanatini ta’minlaydi. Koxlear implant o‘rnatilgach, yangi eshituv signallariga moslashuv paytida sensor tizimlar o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin.

Sensor integratsion mashqlar (muvozanat o‘yinlari, tovush manbasini aniqlash, vizual-eshituv koordinatsiyasi mashqlari) neyron aloqalarni kuchaytiradi va eshituv signallarini to‘g‘ri qayta ishlashni ta’minlaydi. Natijada bola tovush manbasini tezroq aniqlaydi, fonematik farqlash qobiliyati oshadi va nutqiy idrok barqarorlashadi. Shu bois sensor integratsiya terapiyasi eshituv-nutq tizimining neyroplastik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi kompleks usul sifatida qo‘llanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xulosa qilib aytganda, koxlear implantatsiyadan so‘ng bolalarda nutq va eshituv funksiyalarini tiklash jarayoni kompleks va ko‘p yo‘nalishli reabilitatsiyani talab etadi. Ushbu jarayonda musiqa terapiyasi, logopedik mashqlar, DENS-terapiya, sensor integratsiya va neyrogimnastika mashqlari kabi usullar bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda eng samarali natijani beradi. Bunday integrativ yondashuv eshituv analizatorining neyroplastik faolligini oshiradi, fonematik idrokni rivojlantiradi hamda bola nutqining tabiiy shakllanishini tezlashtiradi.

Shuningdek, reabilitatsiya jarayonida individual va differensial yondashuvni qo‘llash bolaning eshituv qobiliyati, psixologik holati va ijtimoiy moslashuv darajasini inobatga olish imkonini beradi. Zamonaviy apparatli va terapevtik texnologiyalar asosida tashkil etilgan bunday tizimli reabilitatsiya bolaning eshituv va nutqiy faoliyatini nafaqat tiklaydi, balki ularning ijtimoiy kommunikativ rivojlanishini ham samarali qo‘llab-quvvatlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Юсупова, М. (2021). Кохлеар имплантациядан кейин нутқни тиклаш усуллари. Тошкент: Педагогика нашриёти.
2. Тарасова, Е.Н. (2020). Музыкотерапия в реабилитации детей с нарушением слуха. Москва: ЛогопедПресс.
3. Ayres, J. (2018). Sensory Integration and the Child. Los Angeles: Western Psychological Services.
4. Смирнова, Т.В. (2019). Нейрогимнастика в коррекционной педагогике. Санкт-Петербург.
5. Хусаинова, Г. (2022). Логопедический массаж как средство коррекции звукопроизношения. Казань: Логопед.
6. Гречко, В.А. (2021). ДЭНАС-терапия в нейрореабилитации. Екатеринбург.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Salimova Hilola Rustamovna**, magistr, [**Салимова Хилола Рустамовна**, магистр], [**Salimova Hilola Rustamovna,** master’s student]; manzil: Shota Rustaveli ko’chasi, 156, 100121 Toshkent, [адрес: ул. Шота Руставели, 156, 100121 Ташкент], [address: 156 Shota Rustaveli St., 100121 Tashkent.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

Original paper

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATIDA YANGI USUL TA'LIMIDAGI KASBIY YONDASHUVLAR

© M.M. Ruziyeva[1]✉

[1]Toshkent shahar Yangihayot tumani 331-maktab, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola Turkistonda jadidchilik harakati kontekstida "yangi usul" (usul-i jadid) ta'limida kasbiy-pedagogik yondashuvlarning shakllanishi va mazmunini yoritadi. Ismoilbek G'aspiraliy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy va Abdulla Avloniy faoliyati yangi ta'lim modelining asosiy yo'nalishlarini belgilagan.

MAQSAD: Jadidlar ta'limidagi kasbiy yondashuvlarning (ona tili bazisida savod, dunyoviy fanlar integratsiyasi, usuli savtiya, metodik qo'llanmalar, ommaviy imtihonlar va hunar-mehnat yo'nalishi) tarkibi va ta'sir mexanizmlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tarixiy-taqqosiy tahlil, manbashunoslik (gazeta va risolalar, o'quv qo'llanmalar), biografik-pedagogik tahlil hamda kontent-tahlil yondashuvlari qo'llandi. Behbudiy, Munavvarqori, Shakuriy va Avloniy darsliklari hamda "Tarjimon" kabi matbuot materiallari ko'rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: yangi usul maktablari ona tili asosida savod berish, tovush-harf (usuli savtiya) metodini joriy etish, arifmetika, jo'g'rofiya, tarix va tabiiyot kabi dunyoviy fanlarni kiritish, qiz va o'g'il bolalarni birga o'qitish, ommaviy "imtihon-namoyishlar" hamda portfel-sifatdagi ko'rgazmali yondashuvlar bilan ajralib turdi. Hunar va mehnat ta'limi, teatr-matbuot orqali ma'rifiy targ'ibot jadid ta'limini kasbiylashgan tizimga aylantirdi va savodxonlikni tez kengaytirdi.

XULOSA: Jadidlar yaratgan kasbiy-pedagogik model Turkistonda ta'limni modernizatsiya qilish, ijtimoiy mobilitet va milliy uyg'onishni jadallashtirishga xizmat qildi. Ushbu tajriba bugungi kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim uchun ham metodik xulosalar va amaliy yechimlar beradi.

Kalit so'zlar: jadidchilik; yangi usul; usuli savtiya; Behbudiy; Munavvarqori; Shakuriy; Avloniy; dunyoviy fanlar; hunar ta'limi; ommaviy imtihon.

Iqtibos uchun: Ruziyeva.M.M. Turkistonda jadidchilik harakatida yangi usul ta'limidagi kasbiy yondashuvlar. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.236–247.

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ В НОВОМ МЕТОДЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ДВИЖЕНИИ ДЖАДИДИЗМА В ТУРКЕСТАНЕ

© М.М. Рузиева[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

[1] Школа № 331 Янгихаётского района города Ташкента, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья освещает становление профессионально-педагогических подходов в «новом методе» (усул-и жадид) в контексте джадидского движения Туркестана. Деятельность И. Гаспринского, М. Бехбуди, М. Абдурашидханова (Мунавваркори), А. Шакури и А. Авлони задала основные векторы новой модели образования.

ЦЕЛЬ: выявить состав и механизмы влияния профессиональных подходов джадидской школы (базовая грамотность на родном языке, интеграция светских предметов, звуковой метод, методические пособия, публичные экзамены и трудовое обучение).

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: историко-сравнительный анализ, источниковедческий и биографико-педагогический подходы, контент-анализ учебников и периодики (в т.ч. «Тарджиман»), изучение джадидских учебных пособий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: новометодные школы характеризовались обучением грамоте на родном языке, внедрением звукобуквенного метода, введением арифметики, географии, истории и естествознания, совместным обучением девочек и мальчиков, публичными «экзамен-показами» и наглядностью. Театр и пресса усиливали просветительское воздействие, а трудовое обучение профессионализировало школу и ускоряло распространение грамотности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: профессионально-педагогическая модель джадидов способствовала модернизации образования, социальной мобильности и национальному возрождению в Туркестане; опыт релевантен компетентностно-ориентированному обучению сегодня.

Ключевые слова: джадидизм; новый метод; звуковой метод; Бехбуди; Мунавваркори; Шакури; Авлони; светские предметы; трудовое обучение; публичные экзамены.

Для цитирования: Рузиева.М.М. Профессиональные подходы в новом методе образования в движении джадидизма в туркестане.// Inter education & global study.2025. vol.3, №10(1). С.236–247.

PROFESSIONAL APPROACHES IN A NEW METHOD OF EDUCATION IN THE MOVEMENT OF JADIDISM IN TURKESTAN

©Mexriniso M. Ruziyeva[1]✉
[1]School No. 331 of Yangikhaet district of Tashkent city, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper examines the emergence of professional-pedagogical approaches within the Jadid “new-method” schooling in Turkistan. The

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

contributions of Ismail Gasprinsky, Mahmudkhoja Behbudi, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abduqodir Shakuri, and Abdulla Avloni defined the core directions of this modernizing model.

AIM: to identify the components and impact mechanisms of professional approaches in Jadid education (native-language literacy, integration of secular subjects, sound-based method, teacher handbooks, public examinations, and craft/work education).

MATERIALS AND METHODS: historical-comparative inquiry, source analysis of textbooks and the press (e.g., Tarjimon), biographical-pedagogical analysis, and content analysis of Jadid instructional materials.

DISCUSSION AND RESULTS: new-method schools featured native-language literacy, the sound-letter technique, inclusion of arithmetic, geography, history and natural science, co-education of girls and boys, public "examination-displays," and strong use of visual aids. Theatre and print amplified outreach, while craft/work components professionalized schooling and accelerated literacy.

CONCLUSION: the Jadids' professional pedagogical model catalyzed educational modernization, social mobility, and national awakening in Turkistan; their practices remain instructive for today's competence-based education.

Keywords: Jadidism; new-method schooling; sound method; Behbudi; Munavvarqori; Shakuri; Avloni; secular subjects; work education; public examinations.

For citation: Mexriniso M. Ruziyeva. (2025) 'Professional approaches in a new method of education in the movement of jadidism in turkestan', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.236–247. (In Uzbek).

Respublikamizda so'nggi yillarda Jadid ma'rifatparvarlarining ma'naviy merosini o'rganish jarayoni, Jadid ma'rifatparvarlarining tomonidan yaratilgan pedagogik merosdan samarali foydalanish, uning shaxs imkoniyatlarini kengaytirish, uni intellektual, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishdagi ilmiy-metodik yo'nalishlarini tadqiq etish, talabalarda Jadid ma'rifatparvarlarining ma'naviy merosini o'rganish jarayonida ma'rifatparvar pedagog, olimlar tomonidan qo'llanilgan didaktik vositalar, usul va metodlaridan foydalanish tizimi rivolanib bormoqda. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul ta'limning ochilishi. Jadidlar harakati ijtmoiy-tarbiyashunoslik tafakkurining alohida bir oqimi sifatda Turkistonda yashovchi xalqlar orasida shakllandi. Turkistondagi jadid (jadid o'zi arabcha "yangi usul", "yangilik",demakdir) ta'limning yuzaga kelishi mashhur qrim-tatar arbobi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog'liqdir. 1851-yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg'or demokratk g'oyalarni musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtrish yo'lida qizg'in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o'z navbatda jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Ko'p yurtlarda safarda bo'lgan Ismoilbek Gaspirali xalq taraqqiyoti birinchi navbatda maorifga bog'liq ekanligini anglab yetb, jamiyatdagi tub

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

o‘zgarishlarni amalga oshirishni yangi usuldagi pedagogik ta’lim tuzishdan boshladi.

Tahlil. Gaspirali tomonidan ochilgan yangi usuldagi ta’lim tez orada shuhrat qozondi. Jadid ta’limining ommaviy tus olishiga asosiy sabab I. Gaspirali tomonidan 1883-yildan boshlab nashr etla boshlangan “Tarjimon” gazetasi bo‘ldi. Shu bilan birga Ismoilbek Gaspirali o‘zi tashkil etgan ta’lim uchun bir qator Maqolalar va o‘quv qo‘llanmalari ham yaratdi. Uning yangi usuldagi ta’lim hayotga bag‘ishlangan asarlari jumlasiga “Hujai Subyona”, “Rahbari muallimin” kabi Maqola va o‘qu qo‘llanmalarini kiritsa bo‘ladi. Gaspiralining ushbu asarlari o‘quv jarayonini tashkil etsh, Maqolalarga qo‘yiladigan talablar, musulmon o‘quv adabiyotda qo‘llaniladigan didaktk va metodik ko‘rsatmalar bilan jadid ta’limlari taraqqiyotga ulkan hissa qo‘shdi. I.Gaspirali boshqa turkiy xalqlar qatori o‘zbek millatdagii ijtmoiy fikrlar taraqqiyoti va shu jumladan, haqiqiy vatanparvar o‘zbek ziyolilari, pedagoglarining kamol topishida ham o‘chmas iz qoldirdi. 1893-yili Ismoil Gaspirali Turkistonga kelib, chor hukumat amaldorlarini va Buxoro amiri Abdulahadni musulmon ta’limni isloh qildirishga ko‘ndirmoqchi bo‘ladi. Ismoil Gaspirali Buxorodan so‘ng poezdda Samarqandga borgan, undanToshkentga kelib, Turkiston general-gubernatorligidagi, amaldorlar bilan o‘z niyat-maqsadlarini o‘rtoqlashgan. Biroq, Toshkentda uni yaxshi kutib olishmadi, loyihasi esa etborsiz qoldirildi. 1893-yil 8-iyunda u yana Samarqand orqali Buxoroga qaytib borgan va amir bilan uchrashib, E.J.Laxzarining ko‘rsatishicha, uni yangi usuldagi bir ta’lim ochishga ko‘ndirgan. Ikkinchi usuli jadid ta’lim ini 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla ochdi. Shu yili To‘qmoqda ham yangi usul ta’limi paydo bo‘ldi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon Qori yangi usul ta’limini ochdilar. 1903-yilda, umuman, Turkistonda 102 ta boshlang‘ich va 2 ta o‘rta jadid ta’lim i bor edi. Bulardan 6 tasi Buxoro amirligida va 8 tasi Xiva xonligi hududida edi. Gaspiralining taraqiyparvar g‘oyalari asosida yurtmizda jadid ta’limiga asos solgan ziyolilar o‘lkadagi milliy-ozodlik harakatning ham rahnamolariga aylanadi. O‘zbek jadidlarining siyosiy kurashlari shu darajaga borib yetadiki, hatto ularga qarshi har bir xatti-harakatni ham siyosiy baholovchi politsiya ish qo‘zg‘aydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul ta’lim larini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlar XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab “usulijadid” ta’limi ochildi. Uni bitrganlar orasidan Turkiston manaviy-marifiy dunyosini milliy uyg‘onishiga kuchli ijobiy tasir qiladigan zabardast namoyandalar yetshib chiqdi. Ularning “birinchisi”, “Turkiston jadidlarining otasi “Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19 yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida islom diniga taqvodor oilada dunyoga keldi. Otasi Behbudxo‘ja Solixo‘ja o‘g‘li Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo‘lib, onasi esa, asli xorazmlik bo‘lgan. Otasi 1898-yil vafot etgach, u tog‘asi, qozi Muhammad Siddiq tarbiyasida bo‘lib, undan arab, forsiy tllarini chuqur o‘rganadi. Behbudiy dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida tahsil oladi. Tnimsiz va qunt bilan o‘qib, imom-xatib, so‘ngra qozi, mufti darajasiga ko‘tariladi. Bu mansablar shariatning yuqori maqomlari hisoblangan.

Asosiy qism. Buyuk marifatparvar va mutafakkir Ismoilbek Gaspiralining

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

1892-1897 yillari Turkistonda bo‘lishi, uning g‘oyalarini yanada tez yoyilishiga sabab bo‘ldi. Turkistonning eng fidoyi va vatanparvar yoshlarini xalqni milliy o‘zligini anglash, milli yuyg‘onish sari faoliyatlarini kuchaytrishlariga turtki bo‘ldi. Mahmudxuja Behbudiy Turkistonda ushbu kurashning bayroqdori bo‘ldi. Jadidchilik g‘oyalarining ildiz otshi yo‘lida butun umrini sarfladi. Jahonning taraqqiy qilgan davlatlaridagi texnikaviy-ilmiy va siyosiy rivojlanishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmoq uchun G‘arbu Sharq mamlakatlariga 1899-1900 yillar davomida safar qildi. Shu safarida Baytullohni ham ziyorat qilib keldi. Safardan qaytb kelgach, yangi usul ta’limni ochish yo‘lida g‘ayrat ko‘rsatadi. Shunday ta’limlardan birini Behbudiy Samarqandda birinchilardan bo‘lib 1904-yilda o‘z uyida tashkil qildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda “Padarkush”nomli drama yozdi. U bu asarida o‘zining sevimli mavzusi barchani ilm-marifatli bo‘lishga chaqirish, ilmsizlik balosini dafqilish g‘oyasini qalamga olgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston yoshlarini ilm-marifatli qilish to‘g‘risidagi g‘oyalarni targ‘ib qilganda, u ikki toifadagi malumotli kishilarni tayyorlashni nazarda tutadi: bir toifadagilar – diniy malumotli kishilar bo‘lib: ular millatning diniy murabbiylari sifatda islomning sofligini muhofaza qilishlari zarurligini, ikkinchi toifadagilar esa dunyoviy bilim egalari bo‘lib, ular ijtmoiy hayotda musulmonlar manfaatlarini himoya qilishlari kerakligi to‘g‘risida shunday deb yozadi: “Bularning – Misrdan kelgani olimi dunyoviy zamona bo‘lib, din va millatmizni dunyo va oxiratda obod bo‘lishimizga sabab bo‘ladilar. Peterburgdagi pedagogikot, huquqiya, hikmiya, olimiya va adliya ta’limda o‘qiganlarimiz tabib, muallim, ahli huquq va hokim bo‘lib, davlat ishlarig‘a va hukumat mansablariga aralashib, sizga naf yetkurar. Bu ilmlardan o‘qib, yuqorida bayon bo‘lgan podsholik mansablariga kirib, din va millat, vatan va davlatga xizmat qilmoqn ishariat aslo man qilmaydi”. Behbudiy o‘zining mana shu fikrlarini amalga oshirish borasidagi ko‘p qirrali va sYermahsul faoliyat davomida marifatparvarlik va taraqqiyparvarlik g‘oyalarini keng tashviq etibgina qolmasdan, balki o‘z qishlog‘ida o‘qituvchilik qilib yurgan Abduqodir Shakuriyni yollab, ta’lim uchun o‘z hovlisining tashqarisini beradi, bolalar esa tekinga o‘qitladi. U katta o‘g‘li Masud bilan qizi Parvinni ham Shakuriy ta’limiga o‘qishga beradi. Behbudiy o‘z uyida ochilgan usuli jadid ta’limning butun moddiy xarajatlarini o‘z gardaniga oladi. “Padarkush”ning sahnaga qo‘yilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo‘qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlardagi usuli jadid ta’limlariga hadya qildi, bu ta’lim uchun o‘zi “Muntaxabi jo‘rrofiya umumiy” (“Qisqacha umumiy jo‘g‘rofyaya”), “Madxali jo‘xrofi yaumroqiy” (“Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish”), “Muxtasar ijo‘g‘rofiyai Rusiy” (“Rusiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi”), “Kitobul aftol” (“Bolalar kitobi”), “Muxtasari tarixi islom” (“Islomning qisqacha tarixi”), “Amaliyat islom” va “Yangi hisob”Maqolalarini yaratdi va o‘z mablag‘iga matbaa ochib, ta’lim uchun Maqola va qo‘llanmalarini tekinga bosib tarqatadi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag‘i ham Behbudiyga tegishli edi. Behbudiy ta’lim va talim-tarbiya to‘g‘risida “Turkiston viloyatning gazeti”, “Taraqqiy”, “Tujjor”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Turon”, “Hurriyat”, “Oina”, “Samarqand”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ulug‘ Turkiston”, “Najot”, “Vaqt” va boshqa matbuot sahifalarida ko‘plab maqolalar bilan chiqishlar qildi. Masalan, “Tahsil oyi”,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

“Ehtyoji millat”, “Samarqand usuli jadida pedagogik ta’limi xususida”, “Majlisimtihon”, “Tarix va jug‘rofiya”, “Samarqand kitobxona va matbaaxona”. “Buxoroda usuljadida” kabi ilmiy-ommabop maqolalarida yangi usul pedagogik ta’limi, uning ahamiyat, o‘qitsh tzimi yangi maorif va madaniyatni rivojlantrish, dunyoviy fanlarning foydasi, komil insonning tarbiyasi to‘g‘risidagi muhim marifiy fikrlarni kuzatsh mumkin. Xullas, Mahmudxo‘ja Behbudiy butun ongli faoliyat davomida faqat xalq manfaatlarini himoya qildi, xalqni baxtyor etsh, farzandlarini esa savodxon qilish uchun kurashdi. 1914 yilda yozilgan “Yoshlarga murojaat” maqolasida... islomiyat shunday bir dini metn va qobili taraqqiydurki, naqadar ilmi zamoniy ko‘p o‘qulsa, insonni(ng) dini islomg‘a shuncha aqidasi mahkam bo‘lur... hatto lozim bo‘lganda mulkingizdi sotsangizda, o‘g‘lingizni(ng) zamoncha o‘qumog‘iga sarf qilingiz...”, deb takidlaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonov Vatan va millat fidoyisi, mustamlakachilikning chorizm va sho‘ro ko‘rinishlarini ayovsiz fosh qiluvchi marifiy, siyosiy arbob, tolmas kurashchi, jadidchilik harakatning yirik namoyandasidir. XX asr boshida milliy uyg‘onishga katta hissa qo‘shgan millatning manaviy rahnamosi bo‘lgan Munavvarqori Toshkentning Shayhontohur dahasidagi Darxon mahallasida dindor ziyoli oilasida tavallud topdi. Otasi Abdurashidxon madrasada mudarris, onasi Xosiyatxon mahallaning otin oyisi bo‘lgan. Munavvarqori ilk saboqni ota-onasidan, mahalla pedagogik ta’lim idan olib savodini chiqardi. So‘ngra Toshkent va Buxoro madrasalarida o‘qib, o‘z davrining yetuk ziyolisi bo‘lib yetshdi. 1904-yildan faol ijtmoiy-siyosiy, marifiy faoliyatga tortldi. Mustamlakachilarga qarshi kurashchilarning darg‘asi darajasiga ko‘tarildi. Jadidlar ta’lim ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, jadidlar matbuotga doir gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri, jadidlar teatri targ‘ibotchisi bo‘lishdek og‘ir vazifa Behbudiy bilan bir qatorda Munavvarqori zimmasiga ham tushdi. U mana shu xizmatlari bilan ismi-jismiga hamohang bo‘lib, millatmizning marifiy kelgusi va mustaqillik yo‘lini munavvar qilib ketgan zot, shuningdek zulmat uyqusidagi millatmizni milliy uyg‘onishga chorlagan va bong urgan vatanparvar sifatda tariximizdan munosib o‘rin oldi. Munavvarqori ham “usuli savtya” ta’limiga ixlos bilan qarab, chor hukumat Turkiston o‘lkasidagi aholini qanday manaviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choralari faqat pedagogik ta’lim talim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog‘liqligini to‘g‘ri tushungan holda chor hukumatning mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko‘rsatdi: mana shu maqsad yo‘lida Toshkentda ilg‘or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat “Turon” jadidlar jamiyatni tashkil etdi, O‘zi takidlaganidek: “Chor hukumatni yo‘qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo‘lishi yashirin emas”. Munavvarqori Turkiston o‘lkasining iqtsodiy va madaniy taraqqiyot yo‘liga kirishida, musulmon bolalariga dunyoviy bilimlar berishning birdan-bir yo‘li eng avvalo, mavjud eski pedagogik ta’lim va madrasalarni isloh qilish, yangi maorif tarmoqlarini yaratshda deb tushungan holda, rus-tuzem pedagogik ta’lim lariga qarshi yangi usuldagi pedagogik ta’limni ochishga ahd qiladi. U xalq orasidagi buyumparast, savdoni taraqqiu ettirmay, hunarmandchilikni rivojlantirish to‘g‘risida jiddiy qayg‘urmay, sudxo‘rlik orqali boyigan kishilarning loqaydligi, murosasozligi oqibatda yuzaga kelgan milliy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

porakandalikni tag-tomiri bilan qo‘porib tashlash uchun maorifni mutlaqo yangidan tashkil etish zarurligini anglagan holda ishga qatiy kirishadi. Shu bois, u 1901-1904 yillarda qrimliq do‘st Rasim Kishod yordamida Toshkentda “usulisavtya” yoki yangi usuldagi jadid pedagogik ta’lim ini ochadi. U pedagogik ta’lim ni avval o‘z hovlisida, keyin boshqa joylarda ochishga harakat qiladi. Bu ishda unga tog‘asining o‘g‘illari Hasan xo‘ja va Eshon xo‘ja Xoniy yaqindan yordam berishadi. Bu haqda yozuvchi Mo‘minjon Muhammadjonov “Turmush urinishlari” kitobida quyidagicha hikoyaqiladi: “...shayx Xovand Tahurdahalik Mirdada – xo‘jaboyning mehmonxonasida maktab ta’limi ochib, bir-ikkiyildan beri Abdusami qori degan bir kishi bilan bola o‘qitib turmoqda bo‘lg‘onin aytdilar... Bolalarning o‘qishlarini sinf-sinflarida yurib ko‘rib chiqdim. Hozirda to‘rt sinf boshlang‘ich (ibtidoiy) ta’lim bo‘lib, yaxshigina tartiblik: parta qora taxtalar, er yuzi bo‘laklarining (qit’alarining) qisqacha ham butun xaritalari bor ekan. ...Bu yangi tartiblik maktab ta’limining Toshkent shahrida joriy bo‘lib ketshiga birinchi sabab Munavvarqori bo‘lib, barchasining progromini shul tuzib bergan”. Munavvarqori qadimchilar tomonidan “kufuruyasi” deb atalgan yangi usul pedagogik ta’lim iga ilm-marifato‘chog‘i, yangi manaviyat, manaviyat maskani chor mustamlakachilari zulmi ostda milliy g‘ururi, qadr-qimmat Yerga urilgan xalqni milliy mustaqillik uchun kurashga hozirlaydigan targ‘ibotxona sifatda qaradi. U pedagogik ta’lim ni islohot qilmayturib, odamlarning ongida o‘zgarish yasab bo‘lmasligini yaxshi tushunib yetgan edi. Munavvarqori ochgan yangi usul «Namuna» maktab ta’limida bir necha yuz bola o‘qigan. Bu pedagogik ta’lim da tayyorgarligi ancha jiddiy bo‘lgan istedodli yoshlar o‘qituvchilik qilishgan. Munavvarqorining o‘zi esa jadid maktab ta’lim i uchun yangi tovush (“usulisavtya”) usulida Maqolalar – “Adibi avval” (“Birinchi adib”, 1907)) alifbosiva “Adibi soniy” (“Ikkinchi adib”, 1907), “Er yuzi” (“Jug‘rofiya”), “Havoyi jondiniya” (1907) kitoblarini yozib chop ettirgan. Bular o‘lkadagi jadid ta’lim lari uchun asosiy Maqola sifatda bir necha bor qayta nashr etldi. Demak, Munavvarqori va safdoshlari bu jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilarga yordam ko‘rsatsh bilan cheklanmaydi, Rusiya va Turkiyadagi oliy o‘quv yurtlariga o‘quvchilarini yuborish bilan ham shug‘ullanganlar. U millat bolalarini savodxon qilishdek bunday savob ishga faqat “Turon” jamiyat azolarini jalb etibgina qolmasdan, balki mahalliy boylarning ham boshini qovushtrib, ularning etiborini bu xayrli ishga tortadi. Munavvarqori 1922-yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shahar maorif bo‘limi muboshiri (inspektori) bo‘lib ishladi, o‘sha yili 23-25 martda bo‘lib o‘tgan Umum Turkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtrok etib, ta’lim bo‘limiga azolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli talim-tarbiya bilim yurtida va turli pedagogik ta’lim larda o‘zbek tiliva adabiyotidan dars berdi. Munavvarqorining “Tug‘ishganlik sevgisi” hikoyasida mardlik, insof, diyonat, mehr-oqibatlilik, “Devpechka” hikoyasida esa mehnatsevarlik, bugungi ishni ertaga qo‘ymaslik, ota kasbini o‘rgatish va uni e’zozlash kabi g‘oyalar ilgari suriladi. “Qullikka qanday tushdi?” hikoyasida esa bolalarga xushfel, rostgo‘y savodli bo‘lishga, yoshlikning qadriga etish to‘g‘risida pandu-nasihatlar qilinadi. Zero, Munavvarqori o‘z asarlarida targ‘ib qilgan tarbiya shunoslikning bunday dolzarb masalalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatni yo‘qotgani yo‘q, albatta.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

Abduqodir Shakkuriy (1875-1943) Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog‘ida 1901-yilda yangi usuldagi maktab ta’limni tashkil qiladi. Yangi usuldagi bu maktab ta’limida arifmetka, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o‘qitlardi. Shakkuriy o‘zi ochgan yangi usuldagi maktab ta’limida arab tilining qoidalari va harflarni o‘qitshga jiddiy etibor bergan holda, o‘quvchilarini o‘ bo‘g‘inlari bilan tanishtirar va shu bo‘g‘inlar asosida bolalar uchun tushunarli sodda o‘larni tuzardi. O‘qishning birinchi kunidanoq bo‘g‘inlarini Shakkuriy daftarga yozdirar va ularni o‘qish, yozishga o‘rgatar edi. Keyin esa muallim bo‘g‘inlarni harflarga ajratar va bu xarflardan yangi bo‘g‘inlar tuzar edi. Shu tarzda bola besh-olti oy davomida o‘qish va yozishga o‘rgatlardi. Keyin esa Shakkuriyning o‘zi tuzgan “Rahnomai savod” (“Savod chiqarish rahbari”) va uning shogirdi Ismatulla Rahmatullaev tomonidan tovush-harf uslubi asosida tuzilgan “Alifbe ta’limi” darsligi o‘qitlardi. Shakkuriy 1907-yilda bolalarning yosh xususiyatga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki malumot berish maqsadida “Jomeul hikoyat” (“Hikoyalar to‘plami”) nomli ikkinchi kitobini tuzadi. Bu kitob boshlang‘ich maktab ta’lim ning II, III sinflari uchun terma kitobdir. Kitobdan 48 ta kichik-kichik odob-axloq mavzusidagi hikoyalar va 15 ta she’riy asarlar o‘rin olgan. Uning uchinchi o‘qish kitobi “Zubdatul ashor” deb ataladi. Muallifning bu o‘qish kitobini tuzishdan asosiy maqsadi o‘quvchilarini olgan bilimlarini takomillashtirish va mustahkamlash bilan birga ularda sheriyatni o‘rganishga havas uyg‘otish va ularni (o‘zbek, tojik, ozarbayjon) klassik adabiyot namunalari bilan tanishtirishdan iborat edi. Muallim Shakuriy o‘z o‘quvchilari uchun yilda bir marta umumiy imthon uyushtrar edi. Imtihonda ota-onalar, yangi usul pedagogik ta’lim ining tarafdorlari hamda dushmanlari – mullalar va boylar oldida olti oydavomida o‘z o‘quvchilarini egallagan bilimlarini namoyish qilar edi. Ta’limda tashkil qilingan bu ommaviy imtihonlar “Umumiy sud” shaklini olar edi. Imthonga odamlar to‘da-to‘da bo‘lib kelar, qisqa muddatichida bolalarning xat-savodli bo‘lishi, hisob, jo‘g‘rofiya va tabiiyot fanidan malumotga ega bo‘lganliklarini ko‘rib, hamma hayratlanardi. Natijada bu diniy ta’lim tarafdorlari borgan sari ko‘paya bordi. A.Shakkuriyning o‘qish-o‘qitish uslubidagi yangilikning ahamiyati shundaki, birinchidan, usha davrda mavjud bo‘lgan eski o‘qitish usullari va o‘qish kitoblarining hammasini rad etib, savod chiqarishni engillashtirish maqsadida dastlab bo‘g‘in usuli, keyinchalik tovush-harf usullarini ko‘llaydi. Bu o‘qitish usulining qulayligi tufayli yangi o‘quvchilari ko‘pi bilan olti oy ichida savodli bo‘lardi. Ikkinchidan, bu ta’limda kichik yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qitish uslubini joriy qildi. Uchinchidan, bolalarning avvalo o‘z ona tilisida o‘qitishga qatiy rioya qildi va shu bilan birga bolalarni o‘zbek, tojik, arab va rus tillarini mukammal bilishlariga davat etdi. To‘rtnchidan, yangi usul maktab ta’lim lari uchun juda sodda, tushunarli tilda Maqolalar yaratib, ularni nashr etdi. Beshinchidan, Shakkuriy tomonidan joriy qilingan dastlabki yangilik – Samarqandda diniy va dunyovy ta’limlarni joriy etib, mehnat va musiqa darslarining kiritlishi bo‘ldi. U o‘z o‘quvchilarini qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o‘rgatar, bu mashg‘ulotlar uchun ta’lim dasturidan alohida soatlar ham ajratgan edi. M.E.Axmedova 2011-yilda “Pedagogika tarixidan seminar masghg‘ulotlar” (pedagogika

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

nazariyasi va tarixi) nomli o‘quv qo‘llanmasida ham Shakkuriyning boy pedagogik meros qoldirganligini alohida takidlab o‘tadi. A.Shakkuriy 1907 yili “Jomeul-hikoyat” (“Hikoyatlar to‘plami”) darsligini (Toshkent va Samarqandda nashr qilingan) yozadi. Maqola qayta tuzatib va to‘ldirilib, 1911 yili 2-marta nashr qilindi. U boshlang‘ich sinflarning 2-sinfi uchun o‘qish kitobidir. G.Baubekova esa kitobni 2-3 sinflar uchun terma kitob sifatda etrof etadi. Biroq Maqolaning birinchi betda shunday deyiladi: “Bu risola boshlang‘ich ta’limlarning 2-sinfi shogirdlarini o‘qitsh uchun tuzildi. Kitobni tuzishda o‘zbek va tojik tilidagi kitoblardan foydalandim”. U 72 betdan iborat bo‘lib, chiroyli xat bilan yozilgan. Kitobning birinchi qismi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan 48 ta kichik-kichik hikoyani o‘z ichiga oladi. Ikkinchi qismida esa, turli klassik yozuvchilarning asl va tarjima asarlaridan olingan 15 ta turli she’rlaridan parchalar beriladi. U sodda, ravon, ifodali tilda yozilgan. Maqolaning muhim ijobiy jihat unda berilgan materiallar boshlang‘ich ta’limning 2-3-sinf o‘quvchilarini yoshi va saviyasiga mos keladi. Muallif ilk sahifasida yangi usul ta’limidagi o‘qish-o‘qitshishlari haqida bir qator qimmatli metodik maslahatlar beradi. U mumtoz yozuvchilarning asarlaridan shunday qiziqarli mavzularni tanlab olganki, bolalar ularni zo‘r qiziqish va havas bilan o‘qiydilar. Har bir hikoya oxirida axloq va tarbiyaga doir qisqa-qisqa xulosalar beriladi. Maqolada Firdavsiy, Nizomiy, Sadiy, Jomiy asarlaridan olingan hikoya, g‘azalva masallar bilan birga, rus klassik yozuvchilarining asarlaridan tarjima qilingan hikoya va masallar mavjud. Masalan, unga Krilovning “Maymun bilan ko‘zoynak”, “Qarg‘a va tulki” masallari, L.N.Tolstoyning “Bobo va nabira”, “Ikki o‘rtoq”, “Pyotr Birinchi” kabi hikoyalari kiritlgan. Mazkur Maqolaning talim-tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, o‘quv materiallarining barchasi axloqiy jihatdan tarbiya berishga xizmat qiladi. A.Shakuriyning “Zubdat-ul-ashor” nomli darsligi 36 betdan iborat bo‘lib, to‘plam tarzida tuzilgan. To‘plam mayda-mayda nastaliq xatda sahifa chet (hoshiyalari)ga she’rlar shikasta xat bilan yozilgan. Har bir sahifada 40-46 misra she’r bor. Bu to‘plamda Sadiy, Jomiy g‘azallari bilan birqatorda, o‘sha zamondagi o‘zbek, tojik va ozarbayjon shoirlarining asarlaridan ham namunalar keltrilgan. Ushbu to‘plam 1907-yil Samarqandda yozilgan. Uning kirish qismida yuqoridagi namunalarning bilimni egallash, o‘quvchilarini hozirgi zamon madaniyat bilan tanishtirishga yordam berishi hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgani sababli to‘plamga kiritlgani qayd qilinadi. “Zubdatul ashor” o‘qish kitobi boshlang‘ich maktab ta’lim ning 2-3 sinf o‘quvchilari uchun yozilgan bo‘lib, u bilimlarni mustahkamlash, she’riyatni o‘rganishga havas uyg‘otish, o‘zbek, tojik, ozarbayjon klassik adabiyot namunalari bilan tanishtirishga mo‘ljallangan. Xulosa sifatida, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Shakuriylar xalqni tez va qisqa fursatlarda savodli qilish uchun yangi usul ta’limini tashkil etshdi. Ularning har biri o‘z ta’limlari uchun dasturlar va dars jadvallari tuzib, Maqola va o‘quv qo‘llanmalari yaratishdi. Ular diniy bilimlar berishdan tashqari, yozish, o‘qish, hisobni o‘rgatish bilan bir vaqtda, jug‘rofiya, pedagogikot, fors, arab, rus tillarini o‘qitishni yo‘lga qo‘yishdi. Behbudiy, Munavvarqori, Shakkuriylar xalq ommasining ko‘proq yuqori qatlamini ziyoli qilish orqali o‘z maqsadlarini amalga oshirishmoqchi bo‘lgan bo‘lsa, Abdulla Avloniy esa “ilm-marifat shunday bir vositaki, uning yordamida butun bir ijtmoiy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

tuzumni yaxshi tomonga o‘zgartirish mumkin, lekin buning uchun marifat ishlarida, hammaning manfaatlarini birga qo‘shish kerak”, degan barcha davrlar uchun dolzarb fikrni ilgari surishdi va ana shuni hisobga olib ta’lim tashkil etshdi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) “Tarjimai holi”da yozadi: “1900-yilda uylanib, oila boshlig‘i bo‘lib qoldim. Shu yilda otam o‘lib, o‘gay onam bilan bir ukam meni qaramog‘imda menga boqim bo‘lib qoldi. Bu vaqtda butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqqa to‘g‘ri kelganligidan quvvai muhofazam o‘rta darajada bo‘lg‘on holda madrasani tashlab chiqib ketuvga to‘g‘ri keldi. Shu choqlarda o‘zim mehnat ichida yashag‘onlig‘imdan boylarga va mullalarga qarshi she’rlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o‘qishga tutindim. Shul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot – gazeta va jurnallar bilan tanishib, o‘qib, malumotmni orttira bordim. “Tarjimon” gazetasini o‘qib, zamondan xabardor bo‘ldim. Shul zamonda erli xalqlar orasida eskilik yangilik (“jadid-qadim”) janjali boshlandi. Gazet mullalarni “jadidchi” nomi bilan atar edilar. Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904 yildan jadidchilar to‘dasida ishlay boshladim. “Jadid ta’limi” ochib, o‘qituvchilik ham qildim... Mulla va boylarg‘a qarashli eski turmush bilan qatiy suratda kurasha boshladuk. O‘z oramizdan mullalarga qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi...”. A.Avloniy nashr etgan ro‘znomalar ilg‘or fikrlar targ‘ibotchisi bo‘lgani uchun ham uning faoliyat chorizm hukumat tomonidan tez-tez taqiqlanar edi. Shundan so‘ng u ilg‘or g‘oyalarni marifat o‘chog‘i – ta’lim orqali xalqqa tarqatishga qaror qiladi va 1903-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usulda maktab ta’limi ochadi. A.Avloniy o‘zi ochgan maktab ta’limida kambag‘allarning farzandlarini, yetim-yesirlarni o‘qitdi. A.Avloniyning Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan yangi usuldagi maktab ta’limining dovrug‘i Yusuf Tohiriy xotiranomasida yozganidek, butun Toshkentga tarqaldi. Lekin u ko‘p o‘tmay yopildi. Bu haqda A.Avloniy shunday yozgan edi: “Maktab ta’limimda er, odamlar, tog‘-toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo‘lding, deb dunyoviy ta’lim imni yopdilar”. Biroq A.Avloniy o‘z g‘oyasi va e’tqodi yo‘lida bu muvaffaqiyatsizlikdan va ilm-marifatga qarshi bo‘lgan jaholatparastlardan, chorizm hukumatning millatchilik siyosat oldinga surgan har qanday to‘siqlardan qo‘rqmadi. Shundan so‘ng u 1909-yilda kambag‘al va yetim-yesirlarga yordam berguvchi “Jamiyat xayriya” jamg‘armasini tashkil etadi va unga olti oy raislik qiladi. Shu yili Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfdan iborat maktab ta’lim ochdi. “Maktab ta’limida bolalarga jo‘g‘rofiya, tarix, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlar bilan birga ona tili va adabiyot fanlaridan bilim beradi”. yetim-yesir bolalarni kiyim-bosh, qalam-daftar bilan taminlash uchun bo‘sh vaqtlarida duradgorlik va suvoqchilik qiladi, pechka tuzatuvchi usta bo‘lib pul topadi. Abdulla Avloniy biz yuqorida takidlab o‘tgan fikr, yani barchani birdek marifatli qilish g‘oyasini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berishgan. Amaliy tarafdan o‘zlari yangi usul ta’limi ochib, kambag‘allarning bolalarini o‘qishga jalb etishgan bo‘lsa, nazariy jihatdan esa, yozgan Maqola va qo‘llanmalarida bayon etib berishdi. Jumladan, Abdulla Avloniyning tashkil etgan ta’limi, yozgan Maqola va qo‘llanmalari pedagogika talablariga to‘la javob bera

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

olishi bilan ham diqqatga sazovordir. Bu fikr ulardan oldin tashkil etlgan jadid ta'limlari, yozilgan Maqolalar va qo'llanmalar bunday talablarga javob bera olmaydi, degan xulosani bermaydi. Lekin yangi usul ta'limlarini tahlil qilish davomida bir jihatga amin bo'ldikki, Abdulla Avloniy yozgan Maqolalar va o'quv qo'llanmalari bolalarning yoshi, bilim darajasi, qabul qilish va tahlil qila olish, muammoga to'g'ri yechim topa olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Masalan, Avloniyning tovush metodikasiga asoslangan «Birinchi muallim» darsligi "alifbo" hisoblansa, yani birinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lsa, «Ikkinchi muallim» darsligi (alifbodan so'ng o'qimak uchun) «xrestomatya» edi. 1913 yili yozilgan «Turkiy guliston yoxud axloq» esa yuqori sinf o'quvchilari uchun zaruriy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Maqola va qo'llanmalarni bu tartibda yozish pedagogikamiz tarixida o'ziga xos yangilik edi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtrib Abdulla Avloniyning Maqola va o'quv qo'llanmalari yaratish faoliyatga quyidagicha izoh berish mumkin: Abdulla Avloniy tor, foydasiz, yodaki bilim, sust ravishda o'zlashtriladigan talimga nafrat bilan qarab, kitobni bilim va fikrga boy manba deb, uni kishi hayotning oynasi deya baholadilar. Ularning fikricha va haqiqatan ham, hamma ish kitobda aniq va to'g'ri beriladi, u nafaqat xotirani, balki aqlni ishlatishga da'vat etadi. Avloniy mavjud-kitoblar ko'p jihatlari bilan talabga javob bermagan, chunki ularda bolalarning yoshlik xususiyatlari, qiziqishlari hamda boshqa tilda tushuntrganda kam tushunchaga ega bo'lishi hisobga olinmagan. U hisoblaydiki, Maqola va o'quv qo'llanmalari badiiy jihatdan yuksak, tarbiyaviy ahamiyat mukammal, bolalarni o'qishga qiziqtirish va kitobni sevishga o'rgata oladigan darajada bo'lishi kerak. Shunisi tahsinga sazovorki, Avloniyning barcha Maqolalari kimki savodli bo'liishi xoxlasa, o'zi mustaqil o'qib o'rganishi mumkin bo'lgan darajada tuzilgan edi. Ular kitoblardagi matnlarni tushunarli bo'lishi uchun xalq maqollaridan, hikoyalarning tasirchanligini oshirish maqsadida matal va qochiriqlardan xamda katta ijtmoiylikka ega bo'lgan fikrlardan foydalanishgan. Eng muhimi, yuqorida takidlaganimizdek, bu Maqolalarning hammasi pedagogika va bolalar psixologiyasi talablariga muvofiq yozilgan. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyatda yana bir jihat ko'zga tashlanadiki, bu ham bo'lsa, darslarni butun sinfdagi o'quvchilarini qabul qilish, anglab yetish, o'zlashtrib olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishning yo'lga qo'yilishidir. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Shakuriylarning ta'limlarida bu jihatlarga bir qadar etibor berilgan bo'lsa ham, lekin hali boshlang'ich ta'limdayoq bolalarga pedagogikot, tarix, jo'g'rofiya va boshqa fanlarni o'qitlishi bolalarni ham ruhan, ham manan toliqtirib qo'yardi. Ana shu tomonlarini sinchkovlik bilan kuzatb to'g'ri baholay olgan Avloniy fanlarni o'qitshdan oldin o'quvchilarini borliqdagi, atrofimizni o'rab turgan tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish kerakligiga ham jiddiy etibor berishadi. Masalan, Avloniy bir chamanzorni misol qilib ko'rsatib, unda bir xil rangdagi gullar ochilib turganini, unga bir qarashda ko'z quvnashini, bir oz vaqt o'tgach kishi zerika boshlashini, keyin-keyin esa, umuman, qaragisi kelmay qolishini aytib, bolalarni faqat bir narsani o'qitsh bilan zeriktrib qo'ymaslikni, ular bilan yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda suhbatlar o'tkazishni maqul ko'radi va o'zi ham shunday usullarni qo'llab darslar olib boradi. Avloniy yangi usul ta'limining yana bir

ISSN 2992-9024 (online)
2025, 10(1)

muvaffaqiyat – ularda aqliy, jismoniy, estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasining birgalikda olib borilganidir. Bu esa, shubhasiz, xuddi shu davrda mamlakatdagi mavjud bulardan oldingi maktab ta'limi uchun yangilik edi.

Xulosa. Hamma o'qitish ishlari insonparvarlik tamoyili asosida tashkil etilgan bo'lib, Abdulla Avloniyning maktab ta'limida asosiy etibor estetik tarbiyaga berilgandi. O'qish jarayonida bolalar nafaqat tabiat va san'atga nisbatan hurmatda o'sishi, balki insonlar bilan aloqada ham, xuddi shunday ruxda tarbiyalanishi lozim. Bolalar musiqa sanatni, raqsga tushishni, ashula aytshni, xalq qo'shiqlarini, adabiy to'plamlarni o'rganishgan. Xullas, Abdulla Avloniy o'zbek xalqiga ta'lim berishni jonajon va sevimli ish deb bildilar: ona tilidagi boshlang'ichmaktab ta'limini tashkil etishdi, Maqolalar tuzishdi va savodxonlikni kambag'al bolalari orasida faol yoyilishiga munosib hissa qo'shishdi. Ularning pedagogik faoliyati pedagogikamiz tarixida tub burilish yasab, respublikamizdagi qator maktab ta'limlarning tashkil etlishi va taraqqiyot uchun asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Axmedova M.E., Niyozov G. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. T.:2011.136 b.
2. Axmedova M.E., va boshq. Pedagogika. Darslik. "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ, 2022. 223 bet.
3. Axmedova M.E., va boshq. "Kasbiy pedagogika". Darslik. "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ, 2022. 280 bet
4. Axmedova M.E., va boshq. Umumiy pedagogika. Darslik. TDPU. 2023 yil. Zuxra baraka biznes MCHJ. 378 bet.
5. K.Xoshiomov. S.Nishonova.Pedagogika tarixi. Darslik. 2010 yil.
6. K.Xoshiomov. S.Ochil. Pedagogik antalogiya. Pedagogika tarixi. T.: 1998.
7. Ma'naviyat yulduzlari. M.Xayrullayev tahriri. 1999.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ruziyeva Mexriniso Marufjonovna**, direktor o'rinbosari, [**Рузиева Мехринисо Маруфжоновна**, заместитель директора], [**Ruziyeva Mexriniso Marufjonovna,** associate Director]; manzil: 100034, Toshkent, Yangihayot tumani, Yangixayot-5 mavzesi, 9, [адрес: 100034, Ташкент, янгихаитский район, янгихаит-Тема 5, 9], [address: 100034, Tashkent, yangihait district, yangihait-Topic 5, 9.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TARBIYA METODIKASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA ULARNI O`RGANISH

© G.G`. Rashidova[1]✉

[1]O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: tadqiqot tarbiya metodikasining ilmiy-nazariy poydevori va amaliy qo‘llanilishiga bag‘ishlanadi; zamonaviy didaktik tizimda shaxsni har tomonlama tarbiyalash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘riladi.

MAQSAD: tarbiya metodikasining nazariy konsepsiyalari (psixoanalitik, kognitiv, xulq-atvoriy, gumanistik va b.) hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida samarali metodlarni tizimlashtirish va ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi qo‘llanish imkonlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy manbalar tahlili (Avloniy, Farobiy, Vygotskiy, Krupskaya, Makarenko va boshqalar), O‘zbekiston olimlari ishlarining ko‘rib chiqilishi; konseptual tahlil, taqqoslash, tipologik umumlashtirish usullari.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tarbiya metodlari shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, ijtimoiylashuv, axloqiy-estetik madaniyatni yuksaltirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi; shaxsga yo‘naltirilgan, madaniy moslik va milliy an’analarga hurmat tamoyillari asosida integratsiyalashgan yondashuvlar o‘quvchilarning motivatsiyasi va ijtimoiy faoliyatini kuchaytiradi. Paradigma sifatida tarbiyaning gumanistik talqini bolani faol subyekt sifatida ko‘radi.

XULOSA: tarbiya metodikasini ilmiy asosda yangilash va amaliyotga moslashtirish ta’lim tizimi rivoji va barkamol shaxsni shakllantirishning muhim shartidir; metodlarning tizimli integratsiyasi funksional natijadorlikni oshiradi.

Kalit so‘zlar: tarbiya metodikasi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, qadriyatlar, gumanistik pedagogika, xulq-atvor nazariyasi, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-tarixiy yondashuv, paradigma.

Iqtibos uchun: Rashidova G.G`. Tarbiya metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va ularni o`rganish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №8. B.248–255.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ ВОСПИТАНИЯ И ИХ ИЗУЧЕНИЕ

© Г.Г. Рашидова[1]✉

[1] Джизакский филиал Национального университета Узбекистана, Джизак, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: исследование посвящено научно-теоретическим основаниям методики воспитания и их практическому применению в современном образовании, где приоритет отдается формированию всесторонне развитой личности на основе национальных и общечеловеческих ценностей.

ЦЕЛЬ: систематизировать эффективные методы воспитания на базе теоретических концепций (психоаналитической, когнитивной, бихевиористской, гуманистической и др.) и личностно-ориентированного подхода, определить возможности их внедрения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ источников (Авлоний, Фараби, Выготский, Крупская, Макаренко и др.), сопоставительный и типологический анализ, концептуальная систематизация трудов узбекских исследователей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: методы воспитания способствуют формированию личностных качеств, социализации и морально-эстетической культуры; интеграция гуманистических принципов, культурной сообразности и уважения к традициям усиливает мотивацию и социальную активность учащихся. Гуманистическая парадигма рассматривает ребенка как активного субъекта воспитательного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: научно обоснованное обновление методики воспитания и ее адаптация к современным требованиям является ключевым условием развития системы образования и становления гармоничной личности; системная интеграция методов повышает результативность.

Ключевые слова: методика воспитания, личностно-ориентированный подход, ценности, гуманистическая педагогика, бихевиоризм, когнитивное развитие, социокультурный подход, парадигма.

Для цитирования: Рашидова.Г.Г. Научно-теоретические основы методики воспитания и их изучение.// Inter education & global study.2025. vol.3, №10(1). С. 248–255.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF EDUCATIONAL METHODOLOGY AND THEIR STUDY

©Gulnoza.G`. Rashidova[1]✉
[1]Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: This study addresses the theoretical foundations and practical application of upbringing (education) methodology, prioritizing the holistic development of learners grounded in national and universal values within a modern didactic system.

AIM: to systematize effective methods of upbringing based on theoretical frameworks (psychoanalytic, cognitive, behaviorist, humanistic, etc.) and a learner-centred approach, and to identify avenues for implementation in educational practice.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MATERIALS AND METHODS: literature review of classical and contemporary sources (e.g., Avloni, Farabi, Vygotsky, Krupskaya, Makarenko), comparative and typological analysis, and conceptual synthesis of Uzbek scholarly contributions.

DISCUSSION AND RESULTS: upbringing methods demonstrably foster personal qualities, socialization, and moral-aesthetic culture; integrating humanistic principles, cultural congruence, and respect for traditions enhances motivation and students' social engagement. The humanistic paradigm frames the child as an active subject of the process.

CONCLUSION: scientifically updating and contextualizing upbringing methodology is pivotal for advancing the education system and nurturing a well-rounded personality; a coherent integration of methods increases functional effectiveness.

Keywords: upbringing methodology, learner-centred approach, values, humanistic pedagogy, behaviorism, cognitive development, socio-historical approach, paradigm.

For citation: Gulnoza G`. Rashidova. (2025) 'Scientific and theoretical foundations of educational methodology and their study', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.248–255. (In Uzbek).

Farzandlarimizni barkamol qilib
tarbiyalash-eng katta boyligimiz va
eng muqaddas burchimizdir
Shavkat Mirziyoyev

Bugungi kunda zarur deb topilgan aniq ko'nikmalarni egallashga qaratilgan zamonaviy didaktik tizimni takomillashtirish, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari, usullari va vositalarini ishlab chiqish, ularni ta'lim amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llashga e'tibor kuchayib bormoqda.

Respublikamizda M Quronov, N.Ortiqov, Sh.Qurbonov, X.Ibragimov, U.Maxkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, O.Xasanboyeva, D.Ro'ziyeva, N.M.Egamberdiyeva, Sh.T.Xalilova, N.Sh.Erkaboyeva, J.S.Toshmatova, M.X.Tojiyeva, M.F.Qurbonovalar o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, milliy g'ururni tarbiyalash, axloqiy madaniyatni yuksaltirish borasida ilmiy izlanishlar olib borishdi.

Xalq og'zaki adabiyotidan namunalar yordamida milliy tarbiya jarayonini tashkil etishning samarali usullari N.X.Voxidova, Sh.Mirzayev, U.M.Rajabov, A.Y.Teshaboyev, G.A.Xolboyeva, A.X.Narmanovlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, o'quvchilarni milliy urf-odat va an'analar, insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish masalalari M.Abrorov, M.Niyozmurodov, M.Aliyev, U.Toshtemirov, D.R.Xoliqov, M.K.Bozorova, M.D.Mirzajonova, M.E.Xaydarov, N.X.Voxidova, U.M.Rajabovlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyasi bilan bog'liq masalalar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

I.M.Mirziyotovlar, N.J.Isaqulova, X.J.Xudoyqulov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Tarbiya nazariyasi o'qitishning mohiyati, tamoyillari, harakatlantiruvchi kuchlari va asosiy tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi, shu bilan birga ta'lim va tarbiyani rivojlanish tizimlari doirasidagi turli tushunchalarni ko'rib chiqadi. Zamonaviy pedagogika tarbiyaning ko'plab nazariyalari va konsepsiyalarini o'zida mujassam etgan bo'lib, ular olimlar va tadqiqotchilarning shaxsni shakllantirishda, bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda o'qituvchining roliga oid qarashlari asosida farqlanadi. Zamonaviy tarbiya konsepsiyalari falsafiy ta'limotlar va psixologik nazariyalar asoslarida ishlab chiqilgan, jumladan:

- psixoanalitik nazariya (A. Gesel, Z. Freyd, A. Freyd, E. Erikson);
- kognitiv nazariya (J. Piaget, L. Kohlberg, J. Dewey);
- xulq-atvor nazariyasi (J. Lokk, J. Uotson, B. Skinner);
- biologik (genetik) nazariya (K. Lorenz, D. Kennel);
- ijtimoiy-energetik (madaniy-tashkiliy) nazariya (LS Vygotskiy, P.A. Florenskiy, D. Radyar);
- gumanistik psixologiya (A. Maslou, C. Rojers va boshqalar).

Tarbiya pedagogika sohasida markaziy kategoriya bo'lib xizmat qiladi va bu tushunchaning turli ta'riflari pedagogik adabiyotlarda mavjud. Tarbiyaning talqini uslubiy yondashuvlar va ta'lim falsafalariga bog'liq. Tarbiya konsepsiyasiga yondashishda ikkita asosiy istiqbol paydo bo'ladi. Birinchi nuqtai nazar bolani tarbiya jarayonining obyekti sifatida ko'rib chiqadi.

- Tarbiya - ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq bolani shaxs sifatida shakllantirish jarayonini maqsadli va tizimli boshqarish (N.E. Kovalyov);
- ixtisoslashtirilgan pedagogik nuqtai nazardan qaralsa, tarbiya - bu shaxsning jamiyat ichidagi munosabatlari, xususiyatlari, fazilatlari, e'tiqodlari va xatti-harakatlariga qasddan ta'sir qilish jarayoni va natijasidir (Yu.K.Babanskiy).

Tarbiya - A.V.Petrovskiy ta'riflaganidek, shaxsning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlovchi aniq parametrlar, tushunchalar, tamoyillar va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli ta'sir sifatida ta'riflanadi. Kengroq ijtimoiy kontekstda tarbiya jamiyatning shaxsga umumiy ta'sirini o'z ichiga oladi. A.V.Mudrik ta'kidlaganidek, bolalarda ularning yaxlit rivojlanishiga hissa qo'shadigan fazilatlar va e'tiqodlar tizimini shakllantirish jarayoni va harakatlar tizimidir. Ijtimoiy markazlashgan nuqtai nazarga asoslangan an’anaviy pedagogik yondashuv hamda shaxsni shakllantiruvchi, ijtimoiylashuvga yordam beradigan faoliyatlar jamlanmasi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi shaxsni maksimal ijtimoiy foydalilik nuqtai nazaridan jamiyatga integratsiya qilishdir. Binobarin, ta'lim maqsadi shaxsni har tomonlama va har tomonlama barkamol rivojlantirish, tashqi me'yorlarga muvofiq holda qabul qilinadi. Bundan tashqari, pedagogikaning yana bir bo'limida gumanistik g'oyalarning paydo bo'lishi yangi tarbiya paradigmasini ishlab chiqishga yordam berdi, bu bolani faol o'rganish subyekti sifatida yangi nuqtai nazarga urg'u beradi.

Tarbiya – asrlar davomida takomillashib, rivojlanib, takomillashib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ijtimoiy-tarixiy jarayondir. Buyuk allomalarimiz qoldirgan ulkan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

madaniy va ilmiy merosni eslashning o‘zi kifoya. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Mezon ul avzon” va boshqa ko‘plab mualliflarning asarlarida ta’lim-tarbiyaga oid qimmatli fikrlarni uchratish mumkin. Bu olimlar xalqning taraqqiyoti va gullab-yashnashi, yosh avlodning bilim darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini o‘z asarlarida qayta-qayta ta’kidlaganlar.

Shaxsning ma'naviy yuksalishiga o'zini o'zi tarbiyalash orqali erishiladi. Tashqi ko'rinishi jozibali bo'lgan odamning ichki dunyosi go’zal bo'lmasligi mumkin. Demak, insondagi tarbiyasi go'zallik nafaqat uning tashqi ko'rinishi bilan, balki uning ichki fazilatlari bilan ham bog'liqdir. Ichki axloqiy go‘zallik tashqi go‘zallikdan ustun ekanligi haqiqatdir. Ulug’ vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino tibbiyot sohasida shuhrat qozongan bo‘lsa-da, ilm-fanning turli sohalarida ta’lim-tarbiya, shaxs kamoloti, shaxsning jamiyatdagi munosib o‘rnini egallash borasida ko‘plab qimmatli fikrlari bilan o‘z hissasini qo‘shganini alohida ta’kidlash lozim. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida “Har bir ezgulik va ezgu ish mardlik, donishmandlik va adolatga asoslanadi, inson ana shu tamoyillarga amal qilib, ularning qarama-qarshiliklaridan saqlansa, komillikka erishadi” deb ta’kidlaydi. “Xarakter xususiyatlari genetik omillarga bog'liqmi yoki taqdirga bog'liqmi?” degan savolga javoban, qomusiy olimning ta’kidlashicha, “har bir mavjudotga xos bo‘lgan ko‘plab fazilatlar mavjud bo‘lib, bunga kishilar o‘z muhiti, ta’lim-tarbiyasi, turli ta’sirlari orqali ega bo‘ladilar”. Bu fikrlar Abu Ali ibn Sinoning «Risola fil-ishq» asarida batafsil yoritilgan.

“Insonning ichki go‘zalligi tashqi ko‘rinishidan ko‘ra ko‘proq odobli xulq-atvori, ma’naviyati bilan ajralib turadi” degan fikr faylasuf tomonidan aytilgan. Ibn Sinoning fikricha, go‘zal g‘oyalar tafakkuri bir vaqtning o‘zida dunyo hodisalarini o‘rganish, kuzatish va tushunish bilan faol shug‘ullanish sifatida qaraladi. Bu shuni anglatadiki, tafakkur orqali odamlar ma'naviy rivojlanishga intiladi va erishadi. Intellektual faoliyatdan olinadigan zavq shaxslar uchun zavqlanishning yuqori shaklini ifodalaydi, hissiy zavq esa tashqi ta'sirlardan kelib chiqadi. Ma'naviy qoniqish va qoniqish o'z-o'zining aqliy qobiliyatlaridan kelib chiqadi va odamlarni ruhiy yuksalish sari yo'naltiradi. Abu Ali Ibn Sino o‘z asarlarida jamiyat ichidagi axloqiy munosabatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi, chunki uning fikricha, bunday munosabatlar aholining ma’naviy salomatligidan dalolat beradi, ilm-fan va madaniyat rivojiga xizmat qiladi, jamiyatning ma’naviy-axloqiy barqarorligini ta’minlaydi. Barkamol shaxsning ma’naviy kamoloti ularning go‘zallikka intilishi orqali namoyon bo‘ladi. Mashhur olim B.F.Skinner “individning xulq-atvori nafaqat tashqi qo’zg’atuvchilar, balki shaxsning ichki faoliyati, ya’ni ularning tajribalari, idroklari, reaksiyalari va muayyan vaziyatlardagi harakatlarining oqibatlari bilan ham belgilanadi” deb ta’kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, inson xatti-harakatlarini tartibga solish ijobiy va salbiy mustahkamlash tizimini yaratishni talab qiladi. Skinner ta'lim natijalarini bosqichma-bosqich kuzatishga asoslangan dasturlashtirilgan ta'limning kashshoflaridan biri sifatida tan olingan. U xulq-atvorga qaratilgan "xulq-atvor texnologiyasi" deb nomlanuvchi maxsus sohani ishlab chiqdi. Uning kontseptsiyasiga ko'ra, xatti-harakatlar dasturlash va mustahkamlash orqali amalga oshirilishi kerak, bu esa jamiyat hayotini boshqarish imkonini beradi. Inson xulq-atvorini mustahkamlash orqali takomillashtirish yondashuvi xulq-atvor tarbiyasining muhim jihati

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hisoblanadi.

Keyinchalik bu qarashlar pedagoglar, sotsiologlar, maktab psixologlari xulq-atvor texnikasi asosida kasbiy xulq-atvorni o'rgatishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish uchun asos yaratdilar. Xulq-atvor ta'limi sirtdan yumshoq ko'rinishi mumkin bo'lsa-da, u pedagogikaga bioekologik yoki texnologik yondashuvni asoslab beradi. Ushbu yondashuv xulq-atvor pedagogikasida texnologik nuqtai nazarni rag'batlantiradi, bunda oldindan belgilangan shaxsiy xususiyatlar to'plami aniqlanadi va o'quvchi modeli va ularga ta'sir qilish vositalari va usullari tizimi ishlab chiqiladi. Bu pedagogikadagi texnokratik tendensiyalarga mos keladi, ularning maqsadi shaxsiy rivojlanishni boshqarishning ilmiy-pedagogik tizimini yaratish va shu bilan jamiyatni boshqarishni osonlashtiradi. O'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish tushunchalari ko'plab zamonaviy tarbiya nazariyalari uchun juda muhimdir.

1990-yillar boshida bir guruh olimlar, jumladan A.A.Bodalyov, Z.I.Malkova, L.I. Novikovalar zamonaviy sharoitda o‘quvchilarni tarbiyalash konsepsiyasini taklif qilishdi. Ushbu konsepsiya o'qituvchilarni gumanitar tarbiyaga yo'naltiradi va shaxslar bilan ijtimoiy o'zaro munosabatlarga urg'u beradi. Bu doirada tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama rivojlantirishdir. Ushbu tarbiya ishining bir qismi sifatida quyidagi vazifalar taklif qilingan: Pedagogik paradigma (yunoncha "paradigma" dan, namuna yoki model degan ma'noni anglatadi) qabul qilingan nazariy, ma'lumotlar to'plamini o'z ichiga olgan rivojlanishning har bir bosqichida pedagogik muammolarni hal qilish uchun ma'lumotnoma bo'lib xizmat qiladi.

"Paradigma" atamasi ilmiy nutqqa amerikalik tarixchi T.Kun tomonidan kiritilgan bo'lib, u tarbiya evolyutsiyasining turli bosqichlarini belgilab bergan:

o'quvchilarni qadriyatlar tizimi bilan tanishtirish;
bolalarning ijodiy salohiyatini aniqlash;
erkinlik tuyg'usini tarbiyalash;
jamoaviy hayot qoidalari va me'yorlariga hurmatni singdirish;
ob'ektiv o'zini o'zi qadrlash qobiliyatini rivojlantirish va tarbiyalash.
mehnatga ijobiy munosabat.

Tarbiya jarayonida shaxsga yo’naltirilgan yondashuv quyidagi komponentlardan iborat bo’lib:

- shaxsiy yondashuv;
- shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat sifatida tan olish;
- o'quvchilarning jinsi va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish;
- madaniy muvofiqlik;
- milliy an’analarni hurmat qilish;
- shaxslararo munosabatlarni insonparvarlashtirish;
- o'quvchilarning his-tuyg'ularini hurmat qilish.

Bu kontseptsiya orqali ta'limda uyg'unlikka erishish shaxslarning psixologik, axloqiy va jismoniy barkamolligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Bolalar o'z

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kelajagini belgilay oladigan, madaniy o'z-o'zini anglashni rivojlantiradigan, o'z-o'zini tashkil qilish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradigan madaniyatni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi.

"Madaniyat" tushunchasi o‘stirilgan uyg‘unlik tuyg‘usi, bilim, ijodiy urinishlar va hissiyotlarni ifodalashni o‘z ichiga oladi. Madaniyatning mohiyati hayotda o‘z taqdirini o‘zi belgilash, shuningdek, intellektual, jismoniy, axloqiy, oilaviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ekologik, badiiy, mehnat jihatlarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, madaniyat inson hayotida mavjud bo'lgan munosabatlar dinamikasini o'zida mujassam etadi. Yoshlarning salomatligi, axloqiy va intellektual mehnati, badiiy va kommunikativ qobiliyatlari shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mualliflarning fikriga ko'ra, bolaning faoliyati va turmush tarzi ta'lim maqsadlariga erishishga yordam beradigan asosiy vositadir.

Tarbiya metodikasi bo`yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, tarbiya jarayonida qo`llaniladigan metodlar o`quvchilarda shaxsiy sifatlarni shakllantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirishva ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim o`rin tutadi. Ilmiy izlanishlar natijasida tarbiya metodlarining nazariy asoslari boyib, amaliyotda qo`llash yo`llari takomillashib bormoqda. Pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadqiqotlar tarbiya metodikasini o`rganish uni yangilash va zamonaviy pedagogic talablarga moslashtirish zarur ekanini ko`rsatadi. Demak, tarbiya metodikasini ilmiy asosda o`rganish va amaliyotga tadbiq etish ta’lim tizimining rivojlanishi, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. A.Avloniy, Turkiy guliston yoxud ahloq.-Toshkent: o`qituvchi 1992
2. A.Farobiy, Fozil odamlar shahri-Toshkent: o`qituvchi, 1992
3. Q.Abdullayeva, Pedagogika nazariyasi va tarixi.-Toshkent: Fan va texnogiya, 2015
4. O.Hasanboyeva, Pedagogika.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2018
5. H.To`raqulov, Pedagogik mahorat va tarbiya metodlari.-Toshkent: O`zDJTU nashriyoti, 2017.
6. R.Jo`rayev, Ta’lim va tarbiya metodikasida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. R.Karimova, o`quvchi shaxsini shakllantirishda tarbiyaning o`rni.- Toshkent: NMIU, 2016
8. B.Rasulov, Zamonaviy ta’lim va tarbiya texnologiyalari.-Toshkent: Ilm Ziyo, 2021
9. L.S.Vygotsky, Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.-Harvard University Press, 1978
10. N.K.Krupskaya, Pedagogik maqolalar.-Moskva: Pedagogika, 1978
11. A.S.Makarenko, Pedagogik poema.-Moskva: Pedagogika, 1987

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rashidova Gulnoza G`ulomovna**, dotsent PhD, [**Рашидова Гулноза Гуломовна**, доцент PhD], [**Rashidova Gulnoza G`ulomovna,** associate professor PhD]; manzil: 130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri Sh.Rashidov shox ko'chasi, 259 uy, [адрес: 130100, Джизакская область, г. ДжизакУл. Рашидова, д. 259], [address: 130100, Jizzakh region, the city of Jizzakh. Rashidova, 259.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN RAQAMLI TA'LIMDA ADAPTIV O'QITISH METODIKASINING NAZARIY MODELI VA AMALIY ASOSLARI

© G.A. Pardayeva[1]✉, B.Sh. Choriyev[2]✉, D.B. Sulaymonova[3]✉
[1]Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi, O'zbekiston
[2]Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent,O'zbekiston
[3]Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: raqamli transformatsiya va "Raqamli O'zbekiston – 2030" talablari shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan ta'limni dolzarb qiladi. SI o'quvchi faoliyatini real vaqtda tahlil qilib, kontent murakkabligini va tempini moslashtirishga imkon beradi. Mavjud ishlanmalarda algoritmik asoslar rivojlangan bo'lsa-da, adaptiv metodikaning yaxlit pedagogik modeli yetarlicha aniqlanmagan. Ushbu ish ushbu bo'shliqni to'ldiradi.

MAQSAD: SI asosidagi adaptiv o'qitish metodikasining nazariy modelini ishlab chiqish, uning tarkibiy bosqichlari va ishlash mexanizmlarini asoslash hamda amaliy qo'llash tamoyillarini belgilash.

MATERIALLAR VA METODLAR: falsafiy-pedagogik manbalar komparativ va kontent tahlil qilindi; konseptual modellashtirish asosida "bilim–e'tiqod–amal" va Bloom bosqichlariga mos adaptiv oqim chizildi. Platformalar (Moodle, Coursera, Khan Academy, Smart Sparrow) loglari misolida nazariy ssenariylar ishlab chiqildi; ML (Decision Tree, KNN, Random Forest) va NLP yordamida o'quv faoliyati indikatorlarini prognozlash va segmentatsiya yondashuvlari tasvirlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: taklif etilgan model 5 bosqichdan iborat: (1) diagnostika (pre-test/profillar); (2) analitika (ML/NLP orqali xatolar va tayyorgarlik darajasi); (3) adaptatsiya (kontent darajasi, topshiriq turi, tempni moslash); (4) monitoring (real vaqt ko'rsatkichlari); (5) optimallashtirish (reinforcement learning va o'qituvchi qarorlarini qo'llab-quvvatlash). Kutilayotgan samara: kognitiv yuklama pasayishi, metakognitiv refleksiya va motivatsiyaning oshishi, individual trayektoriya va shaffof baholash. O'qituvchi "human-in-the-loop" tamoyili orqali markaziy rolda qoladi.

XULOSA: SI asosidagi adaptiv metodika shaxsiylashtirishni chuqurlashtirib, ta'lim sifatini oshiradi va o'qituvchi qarorlarini ma'lumotlar bilan boyitadi. Keng joriy etish uchun axborot maxfiyligi, algoritmik adolat va metodik tayyorgarlik bo'yicha standartlar zarur. Kelgusida kognitiv AI va affektiv computingni chuqur integratsiya qilish reflektiv hamda intuitiv o'rganish muhiti yaratadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt; adaptiv ta'lim; raqamli pedagogika; konstruktivizm; Bloom taksonomiyasi; metakognitsiya; kognitiv AI; affektiv computing; individual o'rganish trayektoriyasi; ta'lim texnologiyalari.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Pardayeva G.A., Choriyev B.Sh., Sulaymonova D.B. Sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan raqamli ta'limda adaptiv o'qitish metodikasining nazariy modeli va amaliy asoslari. // Inter education & global study. 2025. Vol3, №10(1). B.256–265.

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АДАПТИВНОЙ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ В ЦИФРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

© Г.А. Пардаева[1]✉, B.Sh. Чориев[2]✉, Д.Б. Сулаймонова[3]✉
[1] Университет информационных технологий и менеджмента, Карши, Узбекистан
[2]Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Ташкент, Узбекистан
[3]Каршинский государственный технический университет, каршинский, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: цифровая трансформация и приоритеты «Цифрового Узбекистана – 2030» требуют личностно-ориентированного, гибкого обучения. ИИ анализирует деятельность обучающихся в реальном времени и настраивает сложность и темп. При развитых алгоритмах отсутствует целостная педагогическая модель адаптивной методики; работа восполняет этот пробел.

ЦЕЛЬ: сформировать теоретическую модель адаптивной методики на ИИ, обосновать её этапы и механизмы, очертить принципы практической реализации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: компаративный и контент-анализ философско-педагогических источников; концептуальное моделирование потока «знание–убеждение–действие» в увязке с уровнями Блума. На примере платформ (Moodle, Coursera, Khan Academy, Smart Sparrow) описаны сценарии; применены ML (Decision Tree, KNN, Random Forest) и NLP для прогноза и сегментации учебной активности.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: модель включает 5 этапов: (1) диагностика (претест/профиль); (2) аналитика (ML/NLP, тип ошибок и готовность); (3) адаптация (уровень контента, формат заданий, темп); (4) мониторинг (показатели в реальном времени); (5) оптимизация (reinforcement learning и поддержка решений преподавателя). Эффекты: снижение когнитивной нагрузки, рост метакогнитивной рефлексии и мотивации, индивидуальные траектории и прозрачная оценка. Преподаватель сохраняет ключевую роль как «human-in-the-loop».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: ИИ-адаптивная методика усиливает персонализацию и качество обучения, обогащая решения преподавателя данными. Для масштабирования необходимы стандарты приватности, алгоритмической справедливости и методической готовности. Дальнейшая интеграция когнитивного ИИ и аффективных вычислений создаст более рефлексивную и интуитивную образовательную среду.

Ключевые слова: искусственный интеллект; адаптивное обучение; цифровая педагогика; конструктивизм; таксономия Блума; метакогниция;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

когнитивный ИИ; аффективные вычисления; индивидуальная траектория обучения; образовательные технологии.

Для цитирования: Пардаева Г.А., Чориев B.Sh, Сулаймонова Д.Б.. Теоретическая модель и практические основы адаптивной методики обучения в цифровом образовании на основе технологий искусственного интеллекта.// Inter education & global study. 2025. Vol3, №10(1). С.256–265.

THEORETICAL MODEL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF ADAPTIVE TEACHING METHODS IN DIGITAL EDUCATION BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

© Gulmira A. Pardayeva[1]✉, Behruz Sh. Choriyev[2]✉, Dilnoza B. Sulaymonova[3]✉
[1] University of Information Technology and Management, Karshi, Uzbekistan
[2]Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan
[3]Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: digital transformation and the “Digital Uzbekistan – 2030” agenda demand learner-centered, flexible instruction. AI analyzes learner activity in real time, adjusting difficulty and pacing. While algorithms are mature, a coherent pedagogical model of adaptive methodology remains under-specified; this work addresses that gap.

AIM: to design an AI-driven theoretical model of adaptive instruction, justify its stages and mechanisms, and outline principles for practical deployment.

MATERIALS AND METHODS: comparative and content analysis of philosophy-pedagogy sources; conceptual modeling of the “knowledge–belief–action” flow aligned with Bloom levels. Using logs/scenarios from platforms (Moodle, Coursera, Khan Academy, Smart Sparrow), we describe ML/NLP pipelines (Decision Tree, KNN, Random Forest) for predicting and segmenting learning performance.

DISCUSSION AND RESULTS: the model comprises five stages: (1) diagnosis (pre-tests/profiles); (2) analytics (ML/NLP for error types and readiness); (3) adaptation (content level, task format, pacing); (4) monitoring (real-time indicators); (5) optimization (reinforcement learning and teacher decision support). Expected effects include lower cognitive load, stronger metacognitive reflection and motivation, individualized trajectories, and transparent assessment. The teacher remains central via a human-in-the-loop design.

CONCLUSION: AI-based adaptive methodology enhances personalization and quality while data-enabling teacher decisions. Scaling requires standards for privacy, algorithmic fairness, and pedagogical readiness. Deeper integration of cognitive AI and affective computing can yield a reflective, intuitive learning environment.

Keywords: artificial intelligence; adaptive learning; digital pedagogy; constructivism; Bloom’s taxonomy; metacognition; cognitive AI; affective computing; individualized learning trajectory; educational technology.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

For citation: Pardayeva G.A., Choriyev B.Sh., Sulaymonova D.B. (2025) 'Theoretical model and practical foundations of adaptive teaching methods in digital education based on artificial intelligence technologies', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.256–265. (In Uzbek).

XXI asrda raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimini tubdan o'zgartirib, inson salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik paradigmalarni yuzaga keltirmoqda. Ta'limda raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt (SI) tizimlarining joriy etilishi o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv va adaptiv shaklga keltirish imkonini bermoqda. Bugungi kunda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar, intellektual platformalar va o'quvchilarning individual o'rganish ehtiyojlariga mos yechimlar yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu jihatdan sun'iy intellekt asosida adaptiv o'qitish metodikasini ishlab chiqish pedagogik innovatsiyaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir.

Sun'iy intellektning asosiy afzalligi — o'quvchi faoliyatini kuzatish, uning bilim darajasi, o'rganish tezligi, xatoliklari va motivatsiyasini tahlil qilish orqali o'quv jarayonini avtomatik tarzda moslashtirish imkoniyatidir. Shu tariqa, tizim har bir talaba uchun individual o'quv yo'lini yaratadi. So'nggi yillarda bu borada Woolf, Holmes va Fadel, hamda Bloom kabi tadqiqotchilar tomonidan o'quvchilarning individual o'zlashtirish dinamikasiga moslashtirilgan AI o'qitish modellari taklif etilgan. Biroq mavjud ishlanmalarda sun'iy intellektning texnologik algoritmlari chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, pedagogik metodika jihatidan adaptiv yondashuvning nazariy modeli hali yetarlicha asoslanmagan.

Tadqiqotning asosiy muammosi — raqamli ta'limda sun'iy intellekt yordamida o'qitishni shaxsiylashtirish uchun metodik asosning yetishmasligidir. Shu sababli, ushbu ishning maqsadi — raqamli ta'lim tizimi uchun sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan adaptiv o'qitish metodikasining nazariy modelini ishlab chiqish, uning tarkibiy bosqichlarini belgilash va ilmiy asoslashdan iborat [1].

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, agar ta'lim jarayonida sun'iy intellektga asoslangan adaptiv metodika joriy etilsa, u holda o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada oshadi. Shunday qilib, ushbu maqola zamonaviy raqamli pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri — AI asosida adaptiv o'qitish konsepsiyasini nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi inson intellektual salohiyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va avtomatik o'qitish modellari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. So'nggi yillarda ta'limda AI-driven adaptive learning konsepsiyasi keng qo'llanilib, o'quvchilarning individual o'rganish ehtiyojlarini aniqlash, kontentni shaxsiylashtirish va real vaqt rejimida natijalarni tahlil qilish imkonini bermoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xalqaro ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalariga asoslangan adaptiv o‘qitish metodikasi o‘z nazariy poydevorini klassik pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘unlashtirish asosida rivojlanmoqda. Bu borada Benjamin Bloom tomonidan ilgari surilgan mashhur “2 Sigma” modeli muhim o‘rin tutadi. U o‘z tadqiqotlarida individual (yakko tartibdagi) o‘qituvchining o‘quvchiga ta’siri guruhli ta’limdan ikki sigma (ya’ni 2 daraja) yuqori bo‘lishi mumkinligini ilmiy asoslab bergan. So‘nggi tadqiqotlar ushbu modelni sun’iy intellekt asosida takrorlash imkonini izlab, AI yordamida shaxsiylashtirilgan o‘qitish natijalarini o‘rganmoqda.

Howard Gardner tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p intellektlar nazariyasi esa o‘quvchilarning bilish jarayoni har xil uslub va imkoniyatlarga ega ekanini ta’kidlaydi. Bu nazariya adaptiv o‘qitish metodikasining foydalanuvchi profili asosida shaxsiylashtirilgan kontent yaratishga qaratilgan yondashuvlarini nazariy jihatdan asoslaydi [2]. Zamonaviy AI tizimlari (masalan, AI-enabled learning dashboards) bu yondashuvni kognitiv profiling asosida amalga oshirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, John Flavell tomonidan ishlab chiqilgan metakognitiv yondashuv — o‘quvchining o‘z o‘rganish jarayonini anglash va boshqarish qobiliyati — sun’iy intellekt uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. So‘nggi tadqiqotlar metakognitiv monitoring, o‘quv refleksiyasi va affektiv feedback tizimlari orqali o‘quvchilarning o‘z bilimlarini tahlil qilish qobiliyatini oshirishga qaratilgan AI modellarini yaratishga urg‘u bermoqda [3]. Ayniqsa, affektiv computing (hissiy holatlarni aniqlovchi texnologiyalar) vositasida o‘quvchining hissiy kayfiyatiga mos o‘qitish strategiyasini tanlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar jadallashmoqda.

Bloomning o‘quv samaradorligi modeli, Gardnerning individual bilish farqlari haqidagi nazariyasi va Flavellning metakognitiv yondashuvi – barchasi zamonaviy adaptiv ta’lim tizimlarida sun’iy intellektning rolini nazariy jihatdan mustahkamlovchi asosiy kontseptual tayanchlar bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu asosda ishlab chiqilayotgan AI-integratsiyalashgan o‘qitish metodikalari o‘quvchining ehtiyojlariga mos, reflektiv va hissiy jihatdan sezgir ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan. Bu esa raqamli pedagogika uchun nazariy va amaliy innovatsion asos bo‘lib xizmat qiladi.

Woolf o‘z asarida intellektual interaktiv tutorlarni ishlab chiqish orqali AI o‘quvchini kuzatish, bashorat qilish va o‘qitishni individual darajada moslashtirish imkonini berishini ko‘rsatadi. Holmes va Fadel esa AI texnologiyalarining ta’limdagi rolini inson–mashina hamkorligi nuqtayi nazaridan baholab, o‘qituvchini raqamli yordamchi sifatida qayta talqin qiladi [4-5]. Mahalliy ilmiy manbalarda raqamli platformalardagi avtomatlashtirilgan baholash tizimlari tahlil qilingan bo‘lsa-da, adaptiv o‘qitish metodikasining sun’iy intellekt asosidagi konseptual modeli hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi:

- Konstruktivizm (Piaget, Vygotskiy) – bilim o‘quvchining faol tajribasi asosida shakllanadi; AI tizimi o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida modellashtiradi.
- Metakognitiv yondashuv – o‘quvchi o‘z o‘rganish jarayonini kuzatib va tahlil qilib,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

refleksiv fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

- Kognitiv diagnostika – o‘quvchi faoliyati ma’lumotlari asosida bilim darajasi, xatolik turi va o‘rganish strategiyasi aniqlanadi.
- Adaptiv o‘qitish nazariyasi– har bir shaxs uchun individual o‘quv yo‘lini yaratish g‘oyasiga asoslanadi.

Tadqiqot obyekti – raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt asosida tashkil etiladigan adaptiv o‘qitish jarayoni; predmeti – AI texnologiyalariga asoslangan adaptiv o‘qitish metodikasining nazariy modeli, algoritmik mexanizmlari va komponentlari.

Metod sifatida nazariy tahlil, model tahlili, sistemali yondashuv, hamda taqqoslama tahlil qo‘llanildi. Ma’lumotlar manbasi sifatida Coursera, Khan Academy, Smart Sparrow kabi xalqaro AI platformalari hamda Moodle tizimidan olingan o‘quv faoliyati loglari tahlil qilindi. Ma’lumotlar Python yordamida qayta ishlanib, ML algoritmlari (Decision Tree, KNN, Random Forest) asosida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi prognoz qilindi.

Ushbu yondashuv orqali sun’iy intellekt asosida adaptiv o‘qitish tizimining nazariy modeli ishlab chiqildi. Model diagnostika, analitika, adaptatsiya va teskari aloqa bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bu tizim o‘quvchining kognitiv rivojlanishini doimiy tahlil qilib, uning ehtiyojiga mos individual o‘qitish trayektoriyasini shakllantiradi.

Natijada, tadqiqot ta’limda AI texnologiyalarini qo‘llashning nazariy poydevorini yaratib, o‘qitish jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va intellektual tizimlar asosida tashkil etishning yangi modelini taklif etadi.

3. Natijalar (Results)

3.1. Nazariy modelning shakllantirilishi

Tadqiqot natijasida sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan adaptiv o‘qitishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model ta’lim jarayonini avtomatik kuzatish, individual o‘rganish yo‘lini shakllantirish va o‘qituvchi faoliyatini intellektual tahlil vositalari bilan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



1-rasm. Sun'iy intellekt asosida adaptiv o'qitish metodikasining konseptual modeli

Model quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topadi:

1. Diagnostika – o'quvchilarning boshlang'ich bilim va kompetensiyalarini aniqlash bosqichi bo'lib, bunda tizim pre-testlar, so'rovnomalar va foydalanuvchi profillari orqali dastlabki ma'lumotlarni to'playdi.

2. Analitika – mashinali o'rganish (ML) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalariga tayangan holda o'quvchining o'rganish uslublari, xatoliklari va kognitiv darajasini tahlil qiladi.

3. Adaptatsiya – sun'iy intellekt algoritmlari yordamida har bir talaba uchun individual o'quv yo'li (learning path) yaratiladi; kontent murakkabligi, topshiriq shakli va o'rganish tempi avtomatik ravishda moslashtiriladi.

4. Monitoring – o'quv jarayoni davomida tizim talabaning faolligini, vaqtni sarflash ko'rsatkichlarini va natijalarni kuzatadi; bu bosqich real vaqt tahlil (real-time analytics) asosida ishlaydi.

5. Optimallashtirish – tizim "o'zini o'rganuvchi" mexanizm (reinforcement learning) orqali tajribadan o'rganadi va keyingi bosqichlarda o'qitish strategiyasini takomillashtiradi.

Mazkur modelda AI agent o'qituvchini to'liq almashtirmaydi, balki uning raqamli yordamchisi sifatida ishlaydi. Bu yondashuv o'qituvchining analitik qarorlarini ma'lumotlar asosida qo'llab-quvvatlashga, o'quvchiga esa individual rivojlanish yo'nalishini taklif etishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlil asosida aniqlanishicha, sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'qitish metodikasi quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi:

- Kognitiv yuklamaning kamayishi — tizim o'quvchi uchun murakkablik darajasi va kontent hajmini optimallashtiradi; bu bilimni ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- Diagnostika va monitoringning avtomatlashtirilishi — o‘qituvchining vaqt resurslarini tejaydi hamda o‘qitish jarayonini shaffoflashtiradi.
- Metakognitiv refleksiyaning kuchayishi — o‘quvchi o‘z o‘rganish jarayonini kuzatish, tahlil qilish va baholash imkoniga ega bo‘ladi.
- Moslashuvchanlik va shaxsiylashtirish — o‘quv jarayoni modul asosida tashkil etilib, har bir talaba uchun individual rivojlanish trayektoriyasi yaratiladi.

Bu natijalar adaptiv tizimning nazariy asosini tashkil etuvchi Bloom, Flavell va Gardner yondashuvlari bilan uyg‘unlikda tasdiqlanadi.

Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim sohasiga integratsiyalashuvi ilgari mavjud bo‘lmagan imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, adaptiv ta’lim konsepsiyasi – o‘quvchilar ehtiyojlari, bilim darajasi va o‘rganish uslublariga moslashtirilgan ta’lim modelini shakllantirishda SI muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon nafaqat texnologik taraqqiyot, balki pedagogik fikrlash tarzining o‘zgarishini ham ifodalaydi. Shuning uchun adaptiv ta’limga SI texnologiyalarini tatbiq etish yangi nazariy va amaliy yondashuvlarni talab qiladi.

Nazariy jihatdan adaptiv ta’limning SI asosidagi modeli konstruktivistik yondashuv, Bloom taksonomiyasi va texnologik pedagogika integratsiyasiga tayanadi. Konstruktivizmga ko‘ra, o‘quvchi – bu bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda shakllantiruvchi sub’ektdir. Bu yondashuvda SI tizimi o‘quvchining mustaqil o‘rganish jarayonini doimiy monitoring qilib, unga moslashtirilgan tavsiyalar, kontent va tahliliy fikrlar beradi. Shunday qilib, texnologiya – bilim beruvchi emas, balki o‘quv jarayonini yo‘naltiruvchi raqamli yordamchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bloom taksonomiyasi esa o‘quvchilarning bilim va kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi: bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash. SI bu bosqichlarni real vaqt rejimida tahlil qilish va har bir o‘quvchi uchun tegishli darajadagi topshiriqlarni avtomatik tarzda tanlash imkonini beradi. Bu esa ta’limning shaxsiylashtirilgan va maqsadga yo‘naltirilgan shaklini ta’minlaydi.

Texnologik komponentlar esa ushbu yondashuvning amaliy asosi hisoblanadi. Ma’lumotlar tahlili, bashoratli algoritmlar, avtomatlashtirilgan baholash va kontentni shaxsiylashtirish texnologiyalari ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Platformalar misolida aytganda, Moodle, Canvas va Google Classroom singari tizimlar orqali adaptiv kontent yaratish mumkin. ChatGPT Edu, Duolingo Max va boshqa AI-tutor platformalari esa o‘quvchilar bilan interaktiv muloqot asosida o‘rganishni rag‘batlantiradi.

Biroq, ushbu model bilan bog‘liq muammoli jihatlar ham mavjud: axborot maxfiyligi, algoritmik adolatsizlik (bias), va o‘qituvchi nazoratining kamayishi. Shuning uchun “human-in-the-loop” tamoyili – ya’ni SI va o‘qituvchi o‘rtasida muvozanatni saqlash, pedagogik qarorlar ustuvorligini saqlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, adaptiv ta’limda SI texnologiyalarining qo‘llanilishi – ta’lim jarayonini faollashtiruvchi, tahliliy va reflektiv modelga asoslangan zamonaviy yondashuvdir. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarni shaxsiy ehtiyojlariga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mos holda o‘rganishga yo‘naltiradi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish metodikasi zamonaviy raqamli ta’lim tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda. Ushbu yondashuv, bir tomondan, ta’lim jarayonining nazariy-metodik asoslarini takomillashtirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan esa o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va o‘rganish xususiyatlariga moslashtirilgan ta’limni yo‘lga qo‘yadi. Natijada bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Bundan tashqari, adaptiv o‘qitish modeli o‘qituvchini raqamli tahlil vositalari bilan ta’minlaydi hamda pedagogik qarorlarni aniq ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchi va texnologiya o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, raqamli pedagogikaning samaradorligini oshiradi.

Kelgusidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida kognitiv sun’iy intellekt (Cognitive AI) va affektiv computing texnologiyalarini pedagogik jarayon bilan chuqur integratsiya qilish ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, o‘quvchining kognitiv va emotsional holatini hisobga oluvchi yondashuvlar shaxsga yo‘naltirilgan, reflektiv va intuitiv ta’lim muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu asosda, SI asosidagi adaptiv o‘qitish metodikasi kelajak ta’limi uchun nazariy asos bo‘lishi barobarida, amaliyotda ham keng joriy etilishi lozim bo‘lgan innovatsion model sifatida qaralishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Rakhmonov Z., Pardaeva G. Steps Of Organizing The Methodology Of Improvement Of Methods Of Distance Learning Of Students //2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2021. – C. 1-4.
2. Pardayeva G. Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ustuvor yo ‘nalishlari. transforming education through scientific discovery. – 2025.
3. Flavell, J. H. Cognitive Development and Metacognition Revisited: Forty Years Later. Journal of Applied Developmental Psychology, (2020). 68, 101–117.
4. Graesser, A. C., & Woolf, B. P. Advances in AI-Based Adaptive Learning Systems. Computers in Human Behavior Reports, (2024). 15(3), 200–218.
5. Woolf, B. P., & Arroyo, I. Adaptive Learning and Affective Computing in Intelligent Tutoring Systems. International Journal of Artificial Intelligence in Education, (2023). 33(2), 287–309.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉**Pardayeva Gulmira Abdunazarovna**, PhD dotsent, [**Пардаева Гулмира Абдуназаровна**,PhD доцент], [**Pardayeva Gulmira Abdunazarovna,** PhD associate professor]; manzil: Qarshi shahar , Qo'rg'on ko'chasi , 1-uy, [адрес: Город Карши, улица Курган, дом 1], [address: 1 Kurgan Street, Karshi city]

✉**Choriyev Behruz Shuxrat o'g'li**, o'qituvchi, [**Чориев Бехруз Шухрат угли**,преподаватель], [**Choriyev Behruz Shuxrat o'g'li,** teacher]; manzil: Toshkent sh., Universitet ko'chasi, 4, Universitet ko'chasi, 4, Toshkent 100174, [адрес: Г. Ташкент, ул. Университетская, 4, ул. Университетская, 4, Ташкент 100174], [address: Tashkent, Universitetskaya str., 4, Universitetskaya str., Tashkent, 100174]

✉**Sulaymonova Dilnoza Bahodir qizi**, assistent, [**Сулаймонова Дилноза Баходир кизи**, ассистент], [**Sulaymonova Dilnoza Bahodir qizi,** assistant]; manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 225 uy, pochta indeksi: 180100, [адрес: Кашкадарьинская область, город Карши, проспект Мустакиллик, дом 225, почтовый индекс: 180100], [address: Kashkadarya region, Karshi city, 225 Mustakillik Avenue, postal code: 180100.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RAQAMLI DAVRDA KULOLCHILIK AN'ANAVIY O'YINCHOQLARINI YASASH ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI TIKLASH VA FIZIOLOGIK FAOLLIKNI OSHIRISH METODIKASI

© D.B. Soliyeva[1]✉

[1]Andijon davlat universiteti, Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida bolalar tarbiyasida an'anaviy kulolchilik o'yinchoqlarining pedagogik va madaniy ahamiyati yoritiladi. Xalqaro tadqiqotlar ortiqcha ekran vaqti nozik motorika va ijodkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi; loy bilan ishlash esa sensor-motor rivojlanish hamda emotsional barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

MAQSAD: an'anaviy kulolchilik o'yinchoqlarini yasashni ta'limga integratsiya qilish orqali bolalarda nozik motorika, ijodiy tafakkur va milliy o'zlikni anglashni kuchaytiruvchi metodikani ishlab chiqish va asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: PRISMA/AMSTAR mezonlariga tayanuvchi adabiyotlar tahlili, UNESCO materiallari, psixologik va pedagogik manbalar hamda amaliy mashg'ulotlar ssenariylari sintezi; "usta-shogird" yondashuvi, IT va san'at integratsiyasi (video, 3D model, virtual ko'rgazma) asosida dars modullari loyihalandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: adabiyotlar sintezi va sinov darslari kulolchilik faoliyatining barmoq motorikasi, ko'z-qo'l muvofiqligi va diqqatni rag'batlantirishini, ijodiy fikrlashni faollashtirishini hamda milliy qadriyatlarni singdirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Taklif etilgan bosqichma-bosqich metodika (tarixiy-madaniy kontekst, sensor-motor mashqlar, bezak va ramziyat, raqamli taqdimot) o'quvchilar ishtiroki va motivatsiyasini oshirishga yordam berdi.

XULOSA: kulolchilik o'yinchoqlarini yasashga asoslangan integratsion metodika raqamli asrda fiziologik faollikni qo'llab-quvvatlaydi, ijodkorlikni rivojlantiradi va milliy identitetni mustahkamlaydi; u umumta'lim maktablarida san'at, mehnat ta'limi va IT fanlari kesishmasida samarali qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: kulolchilik, xalq amaliy san'ati, nozik motorika, sensor-motor rivojlanish, milliy qadriyatlar, loy o'yinchoqlar.

Iqtibos uchun: Soliyeva. D.B. Raqamli davrda kulolchilik an'anaviy o'yinchoqlarini yasash orqali milliy qadriyatlarni tiklash va fiziologik faollikni oshirish metodikasi.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.266–272.

МЕТОДИКА ВОССТАНОВЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ЗА СЧЕТ ИЗГОТОВЛЕНИЯ ТРАДИЦИОННЫХ ГОНЧАРНЫХ ИГРУШЕК В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ТЕХНОЛОГИЙ

© Д.Б. Солиева[1]✉
[1]Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в условиях глобализации и цифровизации традиционная керамика и глиняные игрушки рассматриваются как значимый педагогический ресурс. Исследования показывают, что избыток экранного времени ухудшает развитие мелкой моторики и творческого мышления, тогда как работа с глиной поддерживает сенсомоторное развитие и эмоциональную устойчивость.

ЦЕЛЬ: разработать и обосновать методику интеграции изготовления традиционных глиняных игрушек в образовательный процесс для развития мелкой моторики, креативности и национальной идентичности у детей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ литературы по стандартам PRISMA/AMSTAR, материалы ЮНЕСКО, психологические и педагогические источники; проектирование уроков с использованием подхода «учитель-мастер/ученик», интеграции ИТ и искусства (видео, 3D-модели, виртуальная выставка).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: синтез данных и апробационные занятия показали, что керамическая деятельность стимулирует движения пальцев, зрительно-двигательную координацию, внимание и творческое мышление, одновременно укрепляя уважение к национальным ценностям. Поэтапная методика (культурно-исторический контекст, сенсомоторные упражнения, орнамент и символика, цифровая презентация) повышает вовлечённость и мотивацию учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция изготовления глиняных игрушек в школьную программу способствует физиологической активности, развитию креативности и формированию национальной идентичности; методика эффективна на стыке предметов искусства, трудового обучения и ИТ.

Ключевые слова: традиционная керамика, народное искусство, мелкая моторика, сенсомоторное развитие, национальные ценности, глиняные игрушки.

Для цитирования: Солиева Д.Б. Методика восстановления национальных ценностей и повышения физиологической активности за счет изготовления традиционных гончарных игрушек в эпоху цифровых технологий.// Inter education & global study.2025. Vol.3, №10(1). С.266–272.

A TECHNIQUE FOR RESTORING NATIONAL VALUES AND INCREASING PHYSIOLOGICAL ACTIVITY THROUGH THE MANUFACTURE OF TRADITIONAL POTTERY TOYS IN THE DIGITAL AGE

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Diyora B. Soliyeva[1]✉
[1]Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the digital era, traditional pottery and clay toys serve as a meaningful pedagogical resource. Evidence indicates that excessive screen time hampers fine-motor and creative development, whereas hands-on clay work supports sensorimotor growth and emotional regulation.

AIM: to design and substantiate a methodology that integrates traditional clay-toy making into schooling to enhance fine-motor skills, creativity, and cultural identity in children.

MATERIALS AND METHODS: literature synthesis following PRISMA/AMSTAR principles, UNESCO materials, psychological and educational sources; lesson design employing a master-apprentice approach and IT-arts integration (video, 3D models, virtual exhibitions).

DISCUSSION AND RESULTS: the combined evidence and pilot classroom sessions indicate that pottery activities stimulate finger dexterity, visuomotor coordination, attention, and creative thinking while fostering respect for national heritage. The staged methodology (historical-cultural framing, sensorimotor exercises, ornament and symbolism, digital presentation) increased student engagement and motivation.

CONCLUSION: Embedding clay-toy making in the curriculum promotes physiological activity, nurtures creativity, and strengthens cultural identity; the approach is well-suited for cross-disciplinary implementation across arts, craft, and IT subjects.

Keywords: pottery art, traditional crafts, fine motor skills, sensorimotor development, national values, clay toys.

For citation: Diyora B. Soliyeva. (2025) ‘A technique for restoring national values and increasing physiological activity through the manufacture of traditional pottery toys in the digital age’, Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.266–272. (In Uzbek).

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar va madaniy merosni asrab-avaylash, uni yoshlar ongiga singdirish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaliy san’at, jumladan kulolchilik, xalqning tarixiy xotirasi va estetik tafakkurini aks ettiruvchi bebaho ma’naviy boylikdir. Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da milliy madaniyat va san’atni rivojlantirish, hunarmandchilikni keng qo‘llab-quvvatlash, usta-shogird maktabini tiklash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida belgilab qo‘yilgan. Strategiyaning 4-maqsadida ta’kidlanganidek, “madaniyat va san’at sohasini yangi bosqichga ko‘tarish, milliy urf-odat va an’analarni asrash hamda ularni yosh avlod tarbiyasida samarali qo‘llash” dolzarb vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.[1] (O‘zbekiston Respublikasi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022).

Mazkur vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish doirasida xalq amaliy san'ati turlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, shu jumladan kulolchilik san'atini o'quvchilarga o'rgatish bo'yicha zamonaviy metodik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Bu nafaqat yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, balki ularni milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalaydi, kasb-hunar egallashga yo'naltiradi va mehnat ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, amaliy san'atni ta'lim jarayoniga tatbiq etish Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "har bir yoshning qalbida milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish kerak" degan g'oyaga hamohangdir.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida bolalar hayoti tobora kompyuter, planshet va smartfon kabi elektron qurilmalarga bog'lanib bormoqda. Natijada o'quvchilarning qo'l motorikasi, barmoqlardagi nerv tolalarining tabiiy faolligi, tasavvur va ijodiy fikrlash jarayoni sekinlashmoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda raqamli texnologiyalardan foydalanish hajmi keskin ortgan, ayniqsa pandemiya sharoitida bolalarning ekran bilan o'tkazgan vaqti sezilarli darajada oshgani kuzatilgan. Bu borada Norvegiya, Oslo universiteti, psixologiya fakulteti, tilshunoslik va shimoliy tadqiqotlar kafedrasi dotsenti Kartushina va hammualliflar (2022) tomonidan olib borilgan xalqaro tadqiqot natijalariga ko'ra, 8 oydan 36 oygacha bo'lgan bolalar orasida COVID-19 karantini davrida ekran vaqti avvalgi davrlarga nisbatan sezilarli ortganligi tadqiqotlar asosida aniqlangan. Tadqiqot 12 mamlakatdagi 15 laboratoriya bazasida 2209 nafar bola ishtirokida o'tkazilgan. Unga ko'ra, kichik yoshdagi bolalar, hatto onlayn ta'lim tizimiga jalb etilmagan bo'lsalar ham, karantin davrida ekran qarshisida ko'proq vaqt o'tkazgan. Bu holat, ayniqsa, karantin uzoq davom etgan davlatlarda kuchliroq bo'lgan. Tadqiqot shuningdek, ekran vaqtining ortishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy holat (SES) o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligini, ya'ni daromad past bo'lgan oilalarda ekran ta'siri yuqoriligini aniqlagan. Shuningdek, bola yoshi, ota-onaning ekran vaqti va ularning bolalarning texnologiyadan foydalanishga nisbatan munosabati bilan ijobiy bog'liqlik qayd etilgan [2].

Yoki Rahman, Lee va Kim (2024) tomonidan olib borilgan "*Screen time and motor development in children aged 0–7 years: A systematic review*" nomli tizimli tahlil tadqiqotida ekran vaqti bilan motor rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik chuqur o'rganilganligini taxlil qilsak. Ushbu tadqiqot PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) va AMSTAR (A Measurement Tool to Assess Systematic Reviews) metodologik ko'rsatmalari asosida amalga oshirilgan bo'lib, unda PubMed, Cochrane CENTRAL va ScienceDirect kabi ma'lumotlar bazalarida 2024-yil may oyida keng qamrovli ilmiy izlanish o'tkazilgan. Tadqiqotda 0-7 yoshli bolalarning ekran qarshisida o'tkazgan vaqti ularning motor ko'nikmalariga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan.[3] Natijalar shuni ko'rsatadiki, ortiqcha ekran vaqti bolalarda mayda va yirik motor harakatlarining shakllanishini sekinlashtirishi, jismoniy faollikni kamaytirishi va psixomotor muvofiqlikni pasaytirishi mumkinligini ko'rsatgan.

Mazkur tadqiqot natijalari bolalarning erta yoshda haddan tashqari raqamli vositalarga duch kelishi nozik motorika, koordinatsiya, idrok va sabr kabi fiziologik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jarayonlarning tabiiy shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu boisdan ham, bolalar uchun texnologiya va an’anaviy jismoniy faoliyat o‘rtasida muvozanatni ta’minlash ta’lim va tarbiya metodikasining muhim yo‘nalishiga aylanishi zarurligini ko’rsatadi. Shu nuqtada mutaxassislar tomonidan bolalarning tabiiy rivojlanish bosqichini qo‘llab-quvvatlash uchun sensor-motorik faoliyat, ya’ni qo‘l mehnati asosidagi ijodiy mashg‘ulotlar tavsiya etilmoqda. Xususan, Amerika Pediatriya Akademiyasi (AAP, 2021) hisobotida bolalarning erta yoshdan boshlab ekranli qurilmalar bilan chegaralangan holda shug‘ullanishi va ularning o‘rnini ijodiy faoliyat, qo‘l mehnati va an’anaviy didaktik o‘yinlar bilan to‘ldirish zarurligi ta’kidlangan. Chunki qo‘l barmoqlarining harakati bosh miya po‘stlog‘idagi Broka va Verneke markazlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu motorika rivoji bilan bir qatorda tafakkur va nutq rivojlanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi [4]. Shu nuqtai nazardan, xalq amaliy san’ati an’analari, xususan kulolchilik san’ati bolalarning tabiiy sensor-motorik rivoji uchun eng samarali vositalardan biri alohida e’tiborga molikdir. Kulolchilikda loy bilan ishlash jarayoni bolaning barmoqlari, qo‘l mushaklari, ko‘z-qo‘l muvofiqligi va diqqatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, loy bilan ishlash psixologik jihatdan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, stressni kamaytiradi, emotsional barqarorlikni kuchaytiradi [5].

An’anaviy kulolchilik o‘yinchoqlari nafaqat terapiya vositasi, balki milliy tarbiyaning muhim unsuri ham hisoblanadi. Ular orqali bolalar xalq qadriyatlari, ramzlari, mentaliteti, ajdodlarining dunyoqarashini o‘rganadi.[6] qolaversa kulolchilik “nomoddiy madaniy merosni saqlovchi tarbiyaviy tizim" sifatida e’tirof etilgan. Tarixiy manbalar ham shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy kulolchilik o‘yinchoqlari insoniyat madaniyatining eng qadimiy tarbiyaviy vositalaridan biri bo’lgan. Masalan Qadimgi Sharq, Misr, Yunoniston va Markaziy Osiyo hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan sopol o‘yinchoqlar bolalarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojida muhim ahamiyat kasb etganini isbotlaydi. Ular o‘yinchoqlar orqali bolalarga qadriyat va turli g’oyalarni va tushunchalarni singdirishga harakat qilishgan. Masalan o‘sha davr qarashlariga ko‘ra qizlarga idish-tovoqlar, qo‘g‘irchoqlar berilgan bo’lib bu kelajakdagi onalik, ro‘zg‘or tutish vazifasiga tayyorlash bo‘lgan. O‘g‘il bolalarga otcha, aravacha, jangchi figuralar, ovchilar jasurlik va himoyachilik g‘oyasi singdirilgan (Gender tarbiyasi). Yoki O‘yinchoqlar orqali ijtimoiy hayotga tayyorlaganliklarini nazarda tutishimiz ham mumkin yani oila va jamiyatdagi vazifalarni, muloqot qilishni, O‘yinchoqlar yordamida hayotiy tajriba orttirganlar. G‘ijduvon, Rishton, Shahrisabz, Xiva kabi kulolchilik maktablarida yaratilgan o‘yinchoqlar milliy o‘zlik va tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lganligi bilan ajralib turgan. Afrosiyob,



Mesopatamiya. o'yinchoq, Qazilgan/topilgan joy: Ur (tarixiy - shahar)

Tuproqqal’a, Dalvarzintepa kabi qadimiy yodgorliklardan topilgan sopol

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘yinchoqlar esa xalq hunarmandchiligi qadimdan ta’limiy-ma’naviy mazmunga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Demak, qadimda ham insonlar kulolchilikdan nafaqat maishiy ehtiyojlar, balki tarbiya va dunyoqarashni shakllantirish vositasi sifatida ham bolalar ongini shakillantirishda foydalanganlar. Shuni ham alohida e’tiborga olish kerakki ushbu san’at tarixiy merosimizning muhim qismi ham hisoblanadi.

Qadimiy sopol o‘yinchoqlarning tarbiyaviy mohiyatini tahlil qilgan holda aytish mumkinki, ushbu an’ana bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Hozirgi kunda ham kulolchilik o‘yinchoqlari milliy qadriyatlar targ‘iboti, bolalar estetik tarbiyasi va madaniy merosni asrashda muhim vositaga aylangan. Demak, raqamli texnologiyalar asrida bolalarning ekranga qaramligini kamaytirish, nozik motorikani rivojlantirish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va milliy qadriyatlarni singdirishning eng samarali vositalaridan biri- an’anaviy kulolchilik o‘yinchoqlarini yasash jarayonini ta’limga integratsiya qilishdir. Mazkur ilmiy xulosalar biz ishlab chiqayotgan loy o‘yinchoqlar yasash jarayonini raqamli davrga moslashtirish va shu orqali fiziologik faollik hamda milliy qadriyatlarni tiklash metodikasi ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, an’anaviy kulolchilik o‘yinchoqlari yasash asosida ishlab chiqiladigan ushbu metodika bolalarda tabiiylik va milliylik, bosqichma-bosqich o‘qitish, ijodiy erkinlik tarbiyaviy integratsiya, sensor-motor rivojlanish, sog‘lom psixologik muhit kabi tamoyillarga asoslanadi desak yanglishmagan bo’lamiz. Ushbu Taklif etilayotgan metodika birnechta bosqichlarni o’zida jamlaydi masalan O‘quvchilarga milliy o‘yinchoqlar tarixi va ularning ramziy ma’nosi haqida interaktiv suhbat o‘tkazish, raqamli taqdimot (video, 3D model) orqali qadimiy o‘yinchoq namunalari bilan tanishtirish, o‘quvchilarga loy, shamotli loy yoki tabiiy tuproq asosida o‘z o‘yinchoqlarini yasatish (amaliy jarayon). Har bir shaklni yasash jarayonida barmoq harakatlari, siqish, cho‘zish, silliqlash kabi sensor-motor mashqlar bajariladi. So’ng o‘quvchilar o‘z ishlarini bezash, naqsh solish va bo‘yash orqali milliy naqshlar ramziyatini o‘rganadilar.



"Fil" o'zbek o'yinchog'i. O‘zbekiston SSR, Uba qishlog‘i, Hamro Rahimov (1896-1979). 1960-yillar. Loy, modellashtirish, rasm chizish. Hajmi: 18×10×14,5 sm.

Ishlar raqamli platformaga joylanadi (masalan, “Virtual ko‘rgazma” tarzida). Har bir o‘quvchi o‘z ishi haqida fikr bildiradi. O‘qituvchi bolaning nafaqat ijodiy, balki motorik faollik darajasini ham tahlil qiladi. Mazkur metodika axborot texnologiyalari, mehnat ta’limi va san’at fanlarini birlashtirgan holda amalga oshiriladi. Masalan 3D grafik dasturlarda o‘yinchoq modeli yaratish IT faniga bog‘lansa, uni loydan yasash amaliy hunar hisoblanadi so‘ngra bezak naqshini milliy elementlar asosida bezatish san’at fani sifadida badiiy didni shakillanishiga ko’mak beradi. Har bir umumta’lim maktabida “Loy va an’anaviy o‘yinchoq yasash burchagi” tashkil etish. “Axborot texnologiyalari va amaliy san’at integratsiyasi” nomli dars modullarini joriy etish, O‘quvchilarning barmoq harakati

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mashqlarini dars jarayoniga psixologik tayyorgarlik sifatida kiritish, Mahalliy usta-kulollarni ta'lim jarayoniga jalb etish orqali usta-shogird an'anasini tiklash, Usta-shogird tizimini maktab sharoitida qayta tiklash o'quvchilarga nafaqat nazariy bilim, balki haqiqiy hayotiy tajribani ham egallash imkonini beradi.

Raqamli asrda bolalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish, ularni ijodiy va jismoniy jihatdan faol shaxs sifatida tarbiyalash- o'qituvchining yangi vazifasidir. An'anaviy loy o'yinchoqlar yasash metodikasi bolalarning barmoq motorikasini rivojlantiradi, ijodkorlik va sabr-toqatni oshiradi, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytiradi. Demak, bu metodika nafaqat san'at, balki psixomotor rivojlanish va ma'naviy tarbiyaning muhim vositasi sifatida o'z o'rniga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". www.lex.uz
2. Rahman, M., Lee, J., & Kim, H. (2024). Screen time and motor development in children aged 0–7 years: A systematic review. Early Child Development and Care, 194(5), 713–728. https://doi.org/10.1080/03004430.2024.000000
3. Kartushina, N., Mani, N., Mayor, J., & Haman, E. (2022). Screen time during the COVID-19 lockdown in toddlers and preschoolers: International evidence from 12 countries. Scientific Reports, 12(1), 1–10. https://doi.org/10.1038/s41598-022-09087-0
4. Gibbs, S. (2019). Early motor development and brain function in children. Journal of Child Development Studies, 14(2), 45–59.
5. Malchiodi, C. A. (2015). Creative interventions with children: Art therapy techniques. New York: Guilford Press.
6. UNESCO. (2023). Intangible Cultural Heritage and Traditional Crafts: Report. Paris: UNESCO Publishing.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Soliyeva Diyora Bobur qizi**, o'qituvchi, [**Солиева Диера Бобур кизи**, преподаватель], [**Soliyeva Diyora Bobur qizi** teacher]; manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy, [адрес: 170100, Республика Узбекистан, г. Андижан, Университетская улица, 129], [address: 129 Universitetskaya Street, Andijan, 170100, Republic of Uzbekistan]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ZAMONAVIY ELEKTRON PLATFORMALAR ORQALI INTERAKTIV VA REFLEKSIV TA'LIM MUHITINI YARATISH

© N.I. Tuxtasinova[1]✉

[1]Oriental universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola konstruktivistik tamoyillar (na'munaviylik, vizuallik, refleksivlik) asosida elektron ta'lim platformalari yordamida interaktiv va refleksiv ta'lim muhitini tashkil etish zaruratini asoslaydi. Moodle va Google Classroom imkoniyatlari o'quv jarayonini raqamlashtirish, hamkorlikni kuchaytirish va metakognitiv faollikni rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

MAQSAD: zamonaviy elektron platformalar (Moodle, Google Classroom) va ishlab chiqilgan mahalliy platforma misolida interaktiv-refleksiv ta'lim muhitini yaratishning pedagogik-texnologik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: adabiyotlar tahlili, funksional va nofunksional talablarni (modullilik, xavfsizlik, moslashuvchan interfeys, ishlash unumdorligi) aniqlash; LAMP stekida prototip arxitektura loyihalash; foydalanuvchi rollari, kontent versiyalash va integratsiya (SCORM/LTI, Google xizmatlari) bo'yicha dizayn; Moodle/Google Classroom benchmarking va sinov darslari.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: modul arxitektura, onlayn baholash va real vaqtli muloqot vositalari o'quvchi ishtiroki, mustaqil fikrlash va metakognitiv kuzatuvni kuchaytirdi; kontent versiyalash va analitika monitoringni soddalashtirdi. Moodle kengaytiriluvchan kurs boshqaruvi va standartlarga muvofiqligi bilan, Google Classroom esa tez sozlanuvchi integratsiyalar va mobil qulaylik bilan ajralib turdi; yangi platforma ularning kuchli jihatlarini birlashtirib, o'qituvchi yukini kamaytirdi.

XULOSA: elektron platformalarga tayangan interaktiv-refleksiv model ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quv jarayonini shaffof va boshqariladigan qiladi hamda mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Kelgusida sun'iy intellektga asoslangan tavsiyalar, shaxsiy o'quv yo'llari va avtomatlashtirilgan baholash modullarini qo'shish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim platformalari, Moodle, Google Classroom, konstruktivistik ta'lim, interaktiv ta'lim, metakognitiv faollik, onlayn baholash, ta'lim arxitekturasi, pedagogik texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Tuxtasinova. N.I. Zamonaviy elektron platformalar orqali interaktiv va refleksiv ta'lim muhitini yaratish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.273–280.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

СОЗДАНИЕ ИНТЕРАКТИВНОЙ И РЕФЛЕКСИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ ПЛАТФОРМ

© Н.И. Тухтасинова[1]✉
[1]Oriental университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья обосновывает необходимость формирования интерактивной и рефлексивной образовательной среды на базе электронных платформ в рамках конструктивистских принципов (наглядность, визуализация, рефлексия). Возможности Moodle и Google Classroom демонстрируют повышение прозрачности, сотрудничества и метакогнитивной активности в учебном процессе.

ЦЕЛЬ: разработать педагогико-технологическую модель создания интерактивно-рефлексивной среды с опорой на Moodle, Google Classroom и прототип собственной платформы, а также обосновать её эффективность.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ литературы; выявление функциональных/нефункциональных требований (модульность, безопасность, адаптивный интерфейс, производительность); проектирование архитектуры на LAMP; роли пользователей, версионирование контента и интеграции (SCORM/LTI, сервисы Google); бенчмаркинг Moodle/Google Classroom и пилотные занятия.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: модульная архитектура, онлайн-оценивание и коммуникация в реальном времени усилили вовлечённость, самостоятельное мышление и метакогнитивный мониторинг; версионирование и аналитика упростили контроль качества. Moodle выделилась расширяемым управлением курсами и стандартами, Google Classroom — быстрой настройкой и мобильностью; разработанная платформа синтезировала сильные стороны и снизила нагрузку преподавателя.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: модель интерактивно-рефлексивного обучения на электронных платформах повышает эффективность обучения, делает процесс прозрачным и управляемым и поддерживает самостоятельное обучение. Рекомендуется дальнейшая интеграция ИИ-рекомендаций, индивидуальных траекторий и автоматизированного оценивания.

Ключевые слова: электронные образовательные платформы, Moodle, Google Classroom, конструктивистское обучение, интерактивное обучение, метакогнитивная активность, онлайн-оценка, архитектура обучения, педагогические технологии.

Для цитирования: Тухтасинова.Н.И. Создание интерактивной и рефлексивной образовательной среды с помощью современных электронных платформ.// Inter education & global study.2025. vol.3, №10(1). С.273–280.

CREATING AN INTERACTIVE AND REFLECTIVE LEARNING ENVIRONMENT THROUGH MODERN ELECTRONIC PLATFORMS

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

©Nafisa I. Tuxtasinova[1]✉
[1]Oriental University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper justifies creating an interactive and reflective learning environment via e-learning platforms grounded in constructivist principles (exemplarity, visuality, reflexivity). Capabilities of Moodle and Google Classroom demonstrate gains in transparency, collaboration, and metacognitive engagement.

AIM: To develop a pedagogical-technological model for interactive/reflective learning using Moodle, Google Classroom, and a custom platform prototype, and to substantiate its effectiveness.

MATERIALS AND METHODS: literature review; elicitation of functional/non-functional requirements (modularity, security, adaptive UI, performance); LAMP-based architectural design; user roles, content versioning and integrations (SCORM/LTI, Google services); benchmarking of Moodle/Google Classroom and pilot teaching sessions.

DISCUSSION AND RESULTS: modular architecture, online assessment, and real-time communication increased learner participation, independent thinking, and metacognitive monitoring; versioning and analytics simplified quality control. Moodle excelled in extensible course management and standards compliance, while Google Classroom offered rapid setup and mobile affordances; the developed platform blended these strengths and reduced instructor workload.

CONCLUSION: an e-platform-driven interactive and reflective model improves learning effectiveness, renders instruction transparent and manageable, and supports self-directed study. Future work should include AI-based recommendations, personalized pathways, and automated assessment modules.

Keywords: electronic learning platforms, Moodle, Google Classroom, constructivist learning, interactive learning, metacognitive activity, online assessment, learning architecture, pedagogical technologies.

For citation: Nafisa I. Tuxtasinova. (2025) ‘Creating an interactive and reflective learning environment through modern electronic platforms’, Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.273–280. (In Uzbek).

Zamonaviy pedagogika sohasida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, konstruktivistik ta’lim modelining asosiy tamoyillari - na’munaviylik, vizuallik va refleksivlik - ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omillar sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu tamoyillar talabalarning faolligini oshirish, ularning kognitiv jarayonlarini samarali boshqarish hamda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Na’munaviylik - bu o‘quv materiallarini model yoki namunalar yordamida ko‘rsatish orqali tushunishni osonlashtirish, vizuallik esa ma’lumotlarni grafik, diagramma

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va boshqa vizual vositalar orqali taqdim etib, o‘rganishni interaktiv va qiziqarli qilish imkonini yaratadi. Refleksivlik o‘z navbatida o‘quvchilarning o‘z fikrlari va bilimlarini tahlil qilish, ta’lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni anglash va baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta’lim sohasida innovatsiyalarni joriy etishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, elektron ta’lim platformalari orqali pedagogik jarayonni “ko‘rinadigan” qilish, ya’ni o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini vizual konstruksiyalar, interaktiv mashg‘ulotlar va real vaqt rejimidagi baholash orqali mustahkamlash ta’lim sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa metakognitiv faollikni oshirish, o‘quvchilarni ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish hamda avtonom boshqaruv va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Hozirgi vaqtda Moodle va Google Classroom kabi ilg‘or elektron ta’lim platformalari nafaqat pedagogik balki texnologik nuqtai nazardan ham keng qo‘llanilmoqda. Ushbu platformalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv va samarali muloqotni tashkil etish, o‘quv materiallarini onlayn tarzda taqdim etish, mustaqil ishlarni bajarish, baholash tizimini avtomatlashtirish hamda o‘quv jarayonini monitoring qilish imkonini beradi. Shu bois, elektron ta’lim platformalari zamonaviy ta’lim muhitining ajralmas qismi sifatida ko‘rilmoqda.

Mazkur o‘rganishlarimizda elektron ta’lim platformalarini yaratish jarayoni, ularning pedagogik va texnologik talablar doirasidagi xususiyatlari, shuningdek, hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan Moodle va Google Classroom kabi platformalarning imkoniyatlari va samaradorligi tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - ta’lim jarayonini optimallashtirishga qaratilgan zamonaviy elektron platformalarning arxitekturasini, funksionallik darajasini va ularning pedagogik samaradorligini o‘rganishdir. Shu orqali ta’lim jarayonida elektron platformalarning o‘rni, ular talabalarning bilim olish jarayoniga ta’siri va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.


Metodlar: Elektron ta’lim platformasini ishlab chiqish jarayoni aniq bosqichlarga bo‘lingan tizimli yondashuvni talab qiladi. Ushbu jarayon nafaqat texnik jihatlar, balki pedagogik, metodik va xavfsizlik talablarini ham o‘z ichiga oladi. Platformaning yuqori samaradorligi va keng qo‘llanilishi uchun har bir bosqich puxta rejalashtirilishi va batafsil hujjatlashtirilishi zarur. Platformani yaratish jarayonining asosiy bosqichlari, ularning maqsadlari va bajarilishini belgilangan tartib va meyorlar hamda bizning qarashlar orqali ifodalandi. Quyida bu haqdagi ma’lumotlar keltirilgan.

1. Talablarni aniqlash. Birinchi va eng muhim bosqich platformaning asosiy maqsad va vazifalarini belgilashdan iborat. Bu bosqichda foydalanuvchi auditoriyasining ehtiyojlari, texnik imkoniyatlari hamda ta’lim jarayonidagi mavjud muammolar tizimli tahlil qilinadi. Misol uchun, ta’lim jarayonida interaktivlik yetishmasligi, o‘quvchilarning individual rivojlanish darajasiga moslashuvchanlikning pastligi kabi muammolar aniqlanadi. Ushbu tahlillar asosida texnik topshiriq (T3) ishlab chiqiladi, unda platformaning funksional va texnik talablarining to‘liq tavsifi beriladi. Foydalanuvchilar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rollari batafsil o‘rganilib, har birining funksional imkoniyatlari aniq belgilanadi. O‘qituvchi roli esa kurslar yaratish va boshqarish, o‘quv materiallarini yuklash, testlar tayyorlash, baholash jarayonlarini tashkil etish kabi keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Yakunda asosiy ishtirokchi bo‘lgan talabalar kurslarga yozilish, ta’lim materiallarini o‘rganish, testlardan o‘tish va natijalarni ko‘rish imkoniyatlari bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda server infratuzilmasi, xavfsizlik choralarining mexanizmlari va texnik parametrlar aniqlanadi. Platformaning texnologik asoslari sifatida LAMP stack (Linux, Apache, MySQL, PHP) tanlanadi. PHP dasturlash tilining versiyasi, ma’lumotlar bazasi turi, xavfsizlik protokollari va tizim samaradorligiga oid talablar batafsil hujjatlashtiriladi. Bu bosqich platformaning barqaror va kengaytiriladigan arxitekturasini shakllantirish uchun poydevor yaratadi.

2. Arxitektura va blok-sxema ishlab chiqish. Platformaning modul va komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni aniqlash muhim bosqichdir. Ushbu bosqichda platformaning asosiy funktsional bloklari - avtorizatsiya moduli, kurs boshqaruvi, test moduli, natijalarni tahlil qilish bloki va boshqa yordamchi xizmatlar o‘zaro bog‘liqliklari bilan tahlil qilinadi. Natijada, arxitekturaviy blok-sxema ishlab chiqiladi, bu esa tizimning komponentlararo o‘zaro ta’sirini va integratsiyasini ko‘rsatadi (1-rasm).



Blok-sxema platformaning tuzilishini aniq ko‘rsatib, dasturchilar va loyiha ishtirokchilari uchun tizimni samarali yaratish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shuningdek, bu hujjat keyinchalik texnik yangilanishlar va kengaytmalarni kiritishda ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Fayl boshqaruvi va kontent integratsiyasi. Elektron ta’lim platformasining samaradorligi o‘quv kontentining turli formatlarda yuklanishi va boshqarilishiga bog‘liq. Platformada foydalanuvchilar uchun PDF, DOCX, JPG kabi keng tarqalgan fayl formatlarida o‘quv materiallarini yuklash imkoniyati yaratiladi. Bu o‘quvchilar va o‘qituvchilarga kontentni qulay saqlash va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Fayl yuklash jarayoni foydalanuvchiga fayl nomi, tavsif va teglar kabi metadata maydonlarini to‘ldirish imkonini beradi. Yuklangan fayllar serverda xavfsiz tarzda saqlanadi va ular kurs moduli bilan bevosita bog‘lanadi, bu esa kontentni tez va samarali boshqarishni ta’minlaydi. Platformada versiya nazorati tizimi ham joriy etilgan. Har bir fayl uchun o‘zgartirishlar tarixi, yuklovchi foydalanuvchi, yuklash vaqti hamda o‘zgartirishning maqsadi va tavsifi saqlanadi. Bu imkoniyat o‘qituvchilarga kontentni doimiy yangilash va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

xatoliklarni kamaytirishda samarali yordam beradi. Shuningdek, foydalanuvchilar avvalgi versiyalarga qaytish va ularni solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

4. Nofunksional talablar. Platformaning umumiy sifatini belgilovchi nofunksional talablar ham keng ko‘lamli tahlil va o‘rganishni talab qiladi. Ushbu talablar tizimning barqarorligi, xavfsizligi va qulayligi uchun juda muhimdir. Ishlash samaradorligi bu, platforma bir vaqtning o‘zida kamida 200 ga yaqin faol foydalanuvchini uzluksiz qo‘llab-quvvatlashi shart. Sahifalar va amaliy topshiriqlar yuklanish vaqti 2 soniyadan kam bo‘lishi lozim. Buning uchun server resurslarini optimallashtirish, yuk balanslash mexanizmlarini joriy etish hamda ma’lumotlar bazasi so‘rovlarini samarali tashkil etish talab etiladi. Masofaviy kirishda platformaning dizayni moslashuvchan bo‘lib, turli qurilmalarda (kompyuter, planshet, smartfon) to‘liq funksionallik va qulay navigatsiya ta’minlashi lozim. Ekran o‘lchamiga moslashuvchi interfeys elementlari foydalanuvchilar uchun har qanday joyda va qurilmada tizimdan samarali foydalanishni kafolatlaydi. Xavfsizlik: HTTPS va TLS protokollari orqali xavfsiz aloqa kanallari tashkil etiladi. Foydalanuvchi ma’lumotlari, shu jumladan parollar bcrypt algoritmi yordamida shifrlanadi. Tizim SQL-injection, Cross-Site Scripting (XSS) kabi keng tarqalgan hujumlarga qarshi himoya qatlamlariga ega. Parametrik so‘rovlar, foydalanuvchi kiritgan ma’lumotlarning sanitizatsiyasi va autentifikatsiya jarayonlari qat’iy nazorat ostida bo‘ladi. Ishonchlilik darajasi platforma yil davomida kamida 99,5% uzluksiz ishlashni ta’minlashi kerak bo‘ladi. Buning uchun uzluksiz monitoring tizimlari, avtomatik qayta ishga tushirish mexanizmlari va muntazam zaxira nusxalarini yaratish protokollari joriy etiladi. Shuningdek, avariyaviy holatlarda tizimning tezda tiklanishi uchun log fayllari va muhit konfiguratsiyasi oldindan tayyorlanadi.

5. Texnologiya tanlovi. Platformani ishlab chiqishda zamonaviy va ishonchli texnologiyalar tanlandi. Bu tanlovlar platformaning barqarorligi, xavfsizligi, kengaytiruvchanligi va qulayligiga asoslanadi.

Natijalar: Elektron ta’lim platformalarining zamonaviy ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishdagi roli muhim. Moodle va Google Classroom kabi platformalar pedagogik jarayonlarni raqamlashtirish orqali ta’limning sifatini va interaktivligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Moodle platformasining o‘qitish jarayoniga ta’siri - Moodle platformasi keng funksional imkoniyatlari bilan o‘quv jarayonining har bir bosqichini samarali boshqarishni ta’minlaydi. Kurslar yaratish, test va topshiriqlarni yuklash, baholash tizimini yuritish kabi imkoniyatlar o‘qituvchilarga darslarni tizimli tashkil etish va monitoring qilishga yordam beradi. Interaktiv muloqot vositalari - forum va chat - o‘quvchilarning faolligini oshirib, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilishni rag‘batlantiradi. Moodle 4 interfeysi intuitiv bo‘lib, foydalanuvchining faoliyatini samarali boshqarishini ta’minlaydi. Shuningdek, SCORM, IMS va LTI kabi xalqaro ta’limiy standartlarga mosligi platformani boshqa ta’lim tizimlari va vositalar bilan integratsiyalash imkonini beradi, bu esa o‘quv jarayonini yanada boyitadi. Moodle platformasi orqali talabalar o‘zlarining o‘qish jarayonini yaxshiroq boshqarishlari mumkin bo‘ladi, chunki tizim metakognitiv

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yondashuvni rag‘batlantiradi va metakognitiv baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu o‘z navbatida talabalarning mustaqil o‘rganish salohiyatini oshiradi va ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Google Classroomning o‘qitish samaradorligini oshirishdagi roli - Google Classroom platformasi Gmail, Google Drive va Google Meet kabi Google xizmatlari bilan chuqur integratsiyalashganligi tufayli topshiriqlarni tezkor tayyorlash, yuborish, yig‘ish va baholash jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi. Bu esa o‘qituvchilarga o‘z vaqtlarini samarali boshqarishga imkon beradi. Platformaning oddiy va tez sozlanadigan interfeysi real vaqt rejimida fikr almashish va muhokama yuritish imkonini beradi, bu esa hamkorlikda o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi. Google Classroom vazifaga yo‘naltirilgan o‘rganish metodikasini samarali joriy etishda qulay vosita bo‘lib, o‘quvchilarning faolligini oshirish va darslarda qatnashuvini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, platformaning mobil qurilmalar uchun mosligi talabalarga har qanday joydan va vaqtda o‘qishni davom ettirish imkonini yaratadi, bu esa ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Yaratilgan elektron ta’lim platformasining samaradorligi shundaki, ushbu ish doirasida ishlab chiqilgan elektron ta’lim platformasi yuqoridagi ikki tizimning eng yaxshi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik va texnologik talablarni to‘liq qondiradi. Platformaning arxitekturasi modul asosida tashkil etilgan bo‘lib, bu tizimni kengaytirish va yangilash imkonini beradi.

Muhokama. Elektron ta’lim platformalarining pedagogik jarayonni samarali boshqarishdagi roli. Elektron ta’lim platformalari bugungi zamon ta’lim tizimida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarishda ajralmas vosita hisoblanadi. Ushbu platformalar na’munaviylik, vizuallik hamda refleksivlik kabi asosiy pedagogik printsiplarni o‘zida mujassam etgan holda, o‘quvchilarning avtonom boshqarish qobiliyatlarini, mustaqil fikrlash va metakognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu printsiplar ta’lim jarayonining yanada interaktiv, tushunarli va qamrovli bo‘lishini ta’minlab, o‘quvchilarning faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’limda keng qo‘llanilayotgan Moodle va Google Classroom kabi elektron ta’lim platformalari o‘z foydalanuvchilariga kurslarni yaratish, o‘quv materiallarini boshqarish, interaktiv test va topshiriqlarni tashkil etish, shuningdek o‘qituvchi va talaba rollarini samarali boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Yaratilgan elektron ta’lim platformasining modullashtirilgan va kengaytiruvchan arxitekturasi uning texnologik va pedagogik talablar asosida shakllantirilganligini ko‘rsatadi. Platformani yaratish jarayoni bosqichma-bosqich, foydalanuvchi ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishdan boshlanib, texnologik yechimlarni tanlash va sinov jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Har bir bosqichda o‘quvchilar, o‘qituvchilar va administratorlarning talab va takliflari hisobga olinadi, bu esa platformaning amaliyotga mos va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, platformaning doimiy ravishda sinovdan o‘tkazilishi va qayta ko‘rib chiqilishi uning sifatini va ishonchliligini oshiradi. Kelajakda ushbu platformaga qo‘shimcha funksiyalar, masalan, onlayn to‘lov tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi chat botlar, avtomatlashtirilgan baholash va individual o‘quv yo‘nalishlarini yaratish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

imkoniyatlari integratsiyalashishi rejalashtirilmoqda. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonining yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan bo‘lishiga, talabalarning individual ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Elektron ta’lim platformalari pedagogik va texnologik omillarning uyg‘unlashuvi asosida yaratilgan holda, ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, talabalar va o‘qituvchilar uchun qulay, interaktiv va xavfsiz muhit yaratadi hamda ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -T.: 2020- yil 24 yanvar.
3. Asrorova M.A., Salayeva M.S. Globallashuv sharoitida Internet tizimining insoniyat psixikasiga ta’siri / “XXI аср шахс тараққиёти: муаммо ва ечимлар” мавзусида 1-анъанавий талаба илмий жамияти ТИЖ илмий-амалий конференцияси, Тошкент амалий фанлар университети «Психология» кафедраси 2022 йил 20 декабрь. - Б. 147-151.
4. Mirzayev A. Mamlakatimiz ta’lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o‘qitish va o‘rganishning mavjud imkoniyatlari. -T.: 2021.
5. Rahmonqulova G. Raqamlashtirish barqaror rivojlanish omili sifatida // Jurnal “Экономика и финансы”. -T.: 2021.
6. Salaeva M.S. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Выпуск №15 (том 3) (июнь, 2021). - С.480-484.
7. Tursunov R. Ta’limni raqamlashtirish jarayonlarida ta’lim subyektlariga qo‘yiladigan pedagogik talablar. -T.: 2021.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tuxtasinova Nafisa Imomovna**, katta o‘qituvchi, [**Тухтасинова Нафиса Имомовна**, старший преподаватель], [**Tuxtasinova Nafisa Imomovna**senior lecturer]; manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko`chasi, 154A-uy, [адрес: город Ташкент, улица Шота Руставели, 154A], [address: Tashkent city, 154A Shota Rustaveli Street]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANI O‘QUV DASTURLARI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAHLIL

© M.R. Voxidova[1]✉

[1]Oriental universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola boshlang‘ich ta’limdagi “Tarbiya” fani o‘quv dasturlarini mazmunan yangilash zaruriyatini asoslaydi: milliy qadriyatlarni saqlagan holda globallashuv sharoitida xavfsizlik, raqamli muloqot va oilaviy ijtimoiylashuv kompetensiyalarini kuchaytirish taklif etiladi. Xorijiy tajriba (Shvetsiya, Germaniya, Ispaniya, Angliya, Yaponiya, Xitoy) bilan qiyosiy tahlil o‘tkaziladi.

MAQSAD: “Tarbiya” fani 1–4-sinflar dasturini milliy-umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirish, boblar tuzilmasini optimallashtirish va kompetensiyaga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgartirishlarni taklif qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: normativ-huquqiy hujjatlar (2019-yil 1059-son, 2020-yil 422-son VMQ) tahlili, amaldagi dastur mazmuni ekspert ko‘rigi, xorijiy o‘quv dasturlari va amaliyotlari bilan qiyosiy-pedagogik benchmarking, kontent-tahlil.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: 1-sinf uchun bo‘limlarni qayta guruhlash taklif qilindi: “Go‘zal xulq—inson ko‘rki”ga **“Salomlashish odobi”**ni ko‘chirish; alohida “Xavfli vaziyatlarda harakat qilish” bobini kiritib, unda gigiyena, telefon/Internet odobi, notanish shaxslar bilan muloqot, tabiiy va maishiy xavfsizlikni qamrab olish; yangi “Oila—muqaddas dargoh” bobida oilaviy muloqot, kitobxonlik va dasturxon odobini tizimlashtirish. Xorij amaliyotidan raqamli etikett, jamoaviy xulq, o‘zini boshqarish va mehnatsevarlik elementlari moslashtirish uchun tanlab olindi.

XULOSA: taklif etilgan yangilanishlar “Tarbiya” fanini kompetensiyaviy, xavfsizlik va raqamli madaniyatga yo‘naltirilgan tizimga yaqinlashtiradi; milliy qadriyatlar negizida o‘quvchining nutq madaniyati, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari va oilaviy ijtimoiylashuvi mustahkamlanadi.

Kalit so‘zlar: tarbiya; milliy qadriyatlar; boshlang‘ich ta’lim; xavfsizlik; raqamli odob; oilaviy tarbiya; qiyosiy tahlil; kompetensiya.

Iqtibos uchun: Voxidova G`. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirish bo‘yicha tahlil.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.281–291.

АНАЛИЗ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ ПО ДИСЦИПЛИНЕ ВОСПИТАНИЕ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© М.Р. Вохидова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Oriental университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья обосновывает необходимость обновления содержания предмета «Воспитание» в начальной школе: сохранение национальных ценностей при одновременном усилении модулей по безопасности, цифровому этикету и семейной социализации. Проведён сравнительный анализ практик Швеции, Германии, Испании, Англии, Японии и Китая.

ЦЕЛЬ: синхронизировать программы «Воспитания» (1–4 классы) с национальными и общечеловеческими ценностями и современными вызовами, оптимизировать структуру разделов и предложить компетентностно-ориентированные изменения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ нормативной базы (ППКМ №1059/2019; №422/2020), экспертный обзор действующей программы, сравнительно-педагогический бенчмаркинг зарубежных куррикулумов, контент-анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: предложено: перенести тему «Культура приветствия» в раздел «Красивый нрав — украшение человека»; ввести самостоятельный блок «Действия в опасных ситуациях» (гигиена, телефон/интернет-этикет, общение с незнакомцами, бытовая/природная безопасность); добавить раздел «Семья — священная обитель» (семейное общение, культура чтения, столовый этикет). Из зарубежного опыта адаптируются элементы цифрового этикета, коллективного поведения, саморегуляции и трудового воспитания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: обновлённая программа усиливает компетенции безопасности и цифровой культуры на базе национальных ценностей, развивает речевой этикет, социально-эмоциональные навыки и семейную социализацию учащихся.

Ключевые слова: воспитание; национальные ценности; начальная школа; безопасность; цифровой этикет; семейное воспитание; сравнительный анализ; компетенции.

Для цитирования: М.Р. Вохидова. Анализ совершенствования содержания учебной программы по дисциплине воспитание в начальном образовании.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). С.281–291.

ANALYSIS OF THE IMPROVEMENT OF THE CURRICULUM CONTENT IN THE DISCIPLINE OF EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION

© Muqaddas R. Voxidova[1]✉
[1]Oriental University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper justifies updating primary-grade “Upbringing” curricula by preserving national values while reinforcing safety, digital etiquette, and

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

family socialization. Comparative insights draw on Sweden, Germany, Spain, the UK, Japan, and China.

AIM: to align grades 1–4 curricula with national and universal values and current needs, optimize section architecture, and propose competency-based revisions.

MATERIALS AND METHODS: policy review (Cabinet decrees 1059/2019; 422/2020), expert analysis of current syllabi, cross-national curricular benchmarking, and content analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: proposals include moving “Greeting etiquette” into “Good conduct,” introducing a dedicated “Acting in hazardous situations” unit (hygiene, phone/online etiquette, strangers’ safety, domestic/environmental safety), and adding “Family—the sacred domain” (family communication, home reading culture, table manners). Select elements from foreign practice—digital etiquette, cooperative behavior, self-regulation, work education—are adapted to the local context.

CONCLUSION: the proposed updates make the subject more competency-oriented toward safety and digital culture while strengthening speech etiquette, socio-emotional skills, and family-based socialization rooted in national values.

Keywords: upbringing; national values; primary education; safety; digital etiquette; family education; comparative analysis; competencies.

For citation: Muqaddas R. Voxidova. (2025) ‘Analysis of the improvement of the curriculum content in the discipline of education in primary education’, Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.281–291. (In Uzbek).

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo‘lgan. Ota-bobolarimiz farzand o‘stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so‘zlariga, kishilar oldida o‘zlarini qanday tutishiga, o‘z maqsadlarini qanday so‘zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo‘rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo‘ya ishlariga zinhor-zinhor yo‘l qo‘ymaganlar. Bu kabilarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Yoshlarni tarbiyalashda biz uchun qadrli bo‘lgan milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz, o‘chmas merosimizga mehr-muhabbat ularga sodiqlik ruhini shakllantira olsak har birimiz uchun ijobiy natija bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi bilinadi.

Ta’lim-tarbiya haqida so‘z ketganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, degan chuqur ma’noli fikri yodimizga tushaveradi. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham shunchalik, balki undan ham ko‘proq dolzarb ahamiyatga ega. Abdulla Avloniyning “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham bir biridan ayrilmaydigan birining biriga bog‘langan kabidur” deb ta’kidlashi bejiz emas. Ma’lum bo‘ladiki ta’lim va tarbiyani bir biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vositasi bilim berib tarbiyalash tamoyiliga ko‘ra tarbiyalab bilim berish bilmog‘i lozim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Buning uchun avvalo milliy g‘urur, milliy ong, milliy g‘oya, ma’naviyat, yuksak madaniyat egasi kabi tushunchalarni yoshlarning ongiga singdirishimiz lozim. Chunki tarixni bilmasdan, o‘rganmasdan undan ruhiy, ma’naviy ozuqa olmasdan turib, kelajakni, kelajakdagi orzu umidlarga erishib bo‘lmaydi.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi.

Hozirgi kunda o‘tmish avlodlarning ko‘p asrlar davomida ta’lim va tarbiya sohasida orttirgan boy, ijobiy tajribasini o‘zlashtirish asosida yosh avlodni mamlakatimizning mustaqilligiga erishuvi yo‘lida olib borilayotgan umumiy ishda faol ishtirok etadigan qilib kamol toptirishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu tufayli ham mamlakat xalq ta’limi vazirligi xalq pedagogikasini tashkil etishni, o‘quvchilarni milliy-madaniy an’analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ydi. Bu esa xalqimiz qoldirgan milliy-madaniy merosni ta’lim muassasalarida va oilada tarbiya sohasida qo‘llanayotgan tajribalarni jiddiy o‘rganib, ularga amaliy yordam ko‘rsatishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qaroriga asosan “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi”, kabi fanlarni birlashtirgan holda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2020-2021-o‘quv yilidan yagona “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda ma’naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta’siri ostida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko‘rinadi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit holga keltiradi.

O‘zbek xalqining moddiy va ma’naviy darajasining ko‘tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining ijtimoiy bazasini kengaytiradi, shaxs ehtiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi.

Tarbiya fan o‘quv dasturlari mazmuni yuzasidan xorijiy davlatlarning tajribasi

Bolalik dunyosi ajoyib va ajoyib, lekin u nafaqat ertak va o‘yinlardan iborat. O‘sib kelayotgan avlod hayotining muhim jihati uning tarbiyasidir. Yer yuzi xalqlarining urf-odatlari, dinlari va urf-odatlari har xil bo‘lsa-da, bolalar tarbiyasi turli mamlakatlar dunyo. Shaxsning shakllanishi jamiyatda ma’lum mamlakatlar va millatlar mavjud bo‘lgan ko‘p asrlar davomida shakllangan qonuniyatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Ularni faqat bitta narsa birlashtiradi - bolalarga bo‘lgan muhabbat, lekin har kimning tarbiya qoidalariga o‘z munosabati bor. Barcha millat vakillari farzandlarini yaxshi ko‘radilar, lekin ular tarbiyaga turlicha yondashadilar.

Bunda, xorijiy davlatlardagi fuqaro tarbiyasiga oid dasturlarni o‘rganish jarayonida har bir davlat o‘ziga xos yo‘nalish belgilab olganligi ko‘zga tashlandi. Biz G‘arbdagi eng

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yaqin qo‘shnilarimizdan, to‘g‘rirog‘i, ayrim Yevropa davlatlaridan boshlaymiz. Yevropa Ittifoqida birlashgan mamlakatlar o‘zlarining haqiqiyligini yo‘qotmagan va ularga tanish bo‘lgan yangi avlodni shakllantirish tizimlarini saqlab qolgan. Ularning har birining asoslari ko‘p asrlar davomida Ispaniya va Angliya, Germaniya va Fransiyada qo‘yilgan, ammo uslublarning o‘zi sivilizatsiya yutuqlariga e’tibor qaratib, o‘zgargan. Birlashishga qaramay, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘zlarining individualligini, shu jumladan bolalarni tarbiyalashda saqlab qolishdi. Jumladan, Shvedlar kichik shaxsni shakllantirishga shunchalik dadil yondashishdiki, Shvetsiyadagi deyarli bolalar bog‘chasidan boshlab gender farqlari, bola tug‘ish jarayoni va kontratsepsiya muammolari bo‘yicha ta’lim olishadi. Shvetsiya qonunlari zo‘ravonlik harakatlarini istisno qilishga qaratilgan pedagogik usullar... Ota-onalarga hatto farzandiga ovozini ko‘tarish ham taqiqlangan.

Shvetsiyadagi bolalar to‘liq huquqli yuridik shaxs sifatida tan olingan, ota-onalar hatto yomon xulq-atvori uchun minnatdorchilik bildirishlari uchun ularni changdan tozalashlari kerak. Agar Shvetsiyadagi ota-onalardan biri o‘z xazinasini urishga qaror qilsa, u sudga tortilishi mumkin.

Mashhur nemis punktualligi va xotirjamligi bolalikdan tarbiyalangan. Ota-onalar farzandlarini Germaniyada qat’iylikka asoslangan qoidalarga muvofiq tarbiyalaydilar. Bola soat 20.00 dan kechiktirmasdan yotishi kerak, unga kompyuter yoki televizorda uzoq vaqt o‘tirish taqiqlanadi. Mustaqillik chaqaloqning kattalar yordamisiz singan chashka bo‘laklarini olishi yoki yiqilganidan keyin ko‘tarilishida ifodalanadi. Bundan tashqari, boshqa xususiyatlar mavjud:

Nemis buvilari maydalangan o‘sishda ishtirok etmaydilar, chaqaloqning ma’lum yoshidan boshlab onalar unga tibbiy ma’lumotga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan enagani yollashadi. Ayollar chaqaloqlarini o‘zlari bilan sayrga, kafega, do‘stlari bilan uchrashuvga olib ketishadi;

bolalar bog‘chasiga borish 3 yoshdan boshlanadi. Bu yoshdan kichik bolalar maxsus sinflarga boradilar o‘yin guruhlari ota-onalar yoki enagalar hamrohligida.

Germaniyadagi maktabgacha ta’lim dasturi yosh fuqarolarni o‘qish va hisoblashni o‘rgatishni nazarda tutmaydi. Bolalarga jamoaviy xulq-atvor va intizom qoidalari o‘rgatiladi. Bola o‘yin faoliyatini o‘zi tanlaydi;

savodxonlik o‘rgatish boshlanadi boshlang‘ich maktab... Darslar bo‘lib o‘tadi o‘yin shakli... Ota-onalar o‘z farzandlariga hayotlarini, shu jumladan barcha ishlar va byudjetni rejalashtirishni o‘rgatishadi.

Ispaniyadagi ta’lim jarayoni Yevropaning ko‘plab davlatlaridan tubdan farq qiladi. Agar biz mamlakatning bolalik haqidagi qonunlarini diqqat bilan ko‘rib chiqsak, ularning barchasi Ispaniyada ularning avlodlarini emas, balki kattalarni tarbiyalashga qaratilgan deb aytishimiz mumkin. Ko‘pincha ota-onalar o‘g‘li yoki qiziga nisbatan eng kichik qo‘pollik yoki qattiqqo‘llik uchun qattiq jazolanadi. Ispaniyadagi chaqaloqlar, agar ular ota-onalari tomonidan yomon munosabatda bo‘lishlarini his qilsalar, oiladan olib tashlanishi mumkin. Ona va chaqaloqni ajratishning aniq maqsadi yo‘q, Ispaniyaning ijtimoiy organlari vaziyatni yaxshi tomonga o‘zgartirishda kattalarning ishtirokini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

olqishlaydi va vaqt o‘tishi bilan bolani oilaga qaytaradi.

Prudish England qirollik an’analariga sodiqdir va o‘zining kichik fuqarolaridan haqiqiy xonimlar va janoblarni tarbiyalaydi. Kech tug‘ilish tendensiyasi, ota-onalar 35-40 yoshda birinchi marta ota-onaga aylanganda, pedagogik jarayonga jiddiy va puxta yondashish imkonini beradi. Ota-onalar chaqaloqqa beg‘ubor xulq-atvorni singdiradilar, yoshligidanoq ular pichoqni ishlatishni o‘rgatadi. Tuyg‘ularni ifodalashda vazminlik rag‘batlantiriladi. Angliya ko‘chalarida chaqaloqni ohista o‘payotgan yoki u bilan quvnoq bir narsani muhokama qiladigan onani uchratib bo‘lmaydi. Bunday yaqin muloqot faqat uyning devorlarida sodir bo‘ladi, omma oldida hamma narsa chiroyli va cheklangan.

Osiyo mamlakatlaridagi ota-onalar o‘z jamiyatida shakllangan an’analarni ehtiyotkorlik bilan saqlaydilar va ular asosida kichik shaxsiyatni shakllantiradilar.

Yaponiya ta’lim tamoyillarining asosi besh yoshgacha bo‘lgan ruxsat berishdir. Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqot xotirjam ohangda amalga oshiriladi, kattalar hech qachon ovozlarini ko‘tarmaydilar. Yaponiyada jismoniy jazo ham bundan mustasno. Agar bola hammaning oldida ayb ish qilib qo‘ysa, onasi uni bir chetga surib qo‘yadi va unga buni qilmaslik kerakligini jimgina tushuntiradi.

Yaponiyalik onalar hech qachon o‘zlarining kichik xazinalariga nisbatan shantaj va tahdidlardan foydalanmaydilar. Agar mojaro bo‘lsa, ona birinchi bo‘lib yarashishga kirishishi mumkin, shu bilan birga bola uni xafa qilganini muloyimlik bilan ko‘rsatadi. [6]

Xitoyda bolalarni tarbiyalash an’anasi ajoyib bolalarni tarbiyalashda namunadir. Qattiq rejim maktabgacha ta’lim muassasasi daqiqa bo‘yicha rejalashtirilgan. Har bir harakat uchun ma’lum vaqt ajratiladi: uyqu, darslar, o‘yinlar, belgilangan vaqtda tushlik.

Xitoylik bolalarni kattalarni hurmat qilishga o‘rgatish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Butun Xitoyda jamoaviylik, mehnatsevarlik, intizom va o‘zaro yordam tuyg‘usi rivojlanmoqda. Xitoydagi onalar uslubiy ravishda bolalarni turli bo‘limlarga, doiralarga, guruhlarga olib boradilar intellektual rivojlanish... Xitoyda erkak va ayol vazifalariga bo‘linish yo‘q: o‘g‘il bola idish-tovoq yuvishni biladi, qiz bola esa devorga osongina mix ura oladi. Bu Xitoyning yosh avlodga munosabati.

Qizlarga bo‘ysunuvchanlik, odmilik, yaxshi oila bekasi bo‘lish asoslari o‘rgatilgan. O‘g‘il bolalarga esa maktabda dunyoviy bilimlar, qo‘shiq aytish, Yer haqida bilim, insonning tuzilishi, tarix, musiqa asoslari, mehnat fanlari o‘qitilgan.

Konfutsiyning fikricha, tarbiyali inson, bu – adolatli, samimiy, sadoqatli, atrofdagilarga izzat-hurmatli, mehnatkash va oliyjanob bo‘lishi kerak.

Bola jamiyatga foydali inson bo‘lib yetishishi uchun uni mehnatkashlik ruhida tarbiyalanadi. Pul bilan muomala qilish, mehnatga o‘rgatiladi. Bolani ortiqcha erkalatmasdan, qattiqqo‘llik bilan tarbiyalanadi.

Konfutsiy bolani kattaga hurmat ruhida tarbiyalashni ustuvor vazifa, deb belgilaydi. Oilaviy qadriyatlarga hurmat, kattalar bilan muomalada odob saqlashni yoqlaydi. Oilaviy qiziqishlar shaxsiy qiziqishlardan ustun bo‘lishini ta’kidlaydi. [7]

Shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo‘lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O‘zbekiston ta’lim tizimida yangicha

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yondashuv va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida joriy etilayotgan “Tarbiya” fanini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda insoniy fazilatlar va zarur ko‘nikmalarni shakllantirish asosiy vazifalaridir.

Milliy o‘quv dastur 1-4 sinf yangi dasturining tarbiya fani bo‘yicha takliflar JADVALI

T/r	Amaldagi dastur	Taklif etilayotgan dastur	Farqi, asosi
1-sinf darsligining dasturi			
I bob. Men O‘zbekiston farzandiman			
	Salomlashish odobi. Salomlashish odobning muhim belgisi. Salomlashish haqida turli vaziyatlar. To‘g‘ri salomlashish, kim birinchi salom beradi? Qayerda salom berish mumkin emas?	“II bob. Go‘zal xulq - inson ko‘rki”	Insoning dastavval odobi salomlashishdan boshlanadi. “Salomlashish odobi” mavzusini “Men O‘zbekiston farzandiman” bo‘limidan ko‘ra ko‘proq insondagi go‘zal xulqlarga kiradi. “III bob. Go‘zal xulq - inson ko‘rki” bo‘limining birinchi mavzusi mavzu sifatida taklif etmoqdamiz. Chunki, go‘zal xulq avvalo salomlashishdan boshlanadi
	I bob. Men O‘zbekiston farzandiman	II bob Xavfli vaziyatlarda harakat qilish	“Men O‘zbekiston farzandiman” bo‘limini ikkiga bo‘lish taklifini bermoqchimiz ya’ni “Xavfli vaziyatlarda harakat qilish” tarzida taklif etyapmiz. Bu bo‘lim tarkibiga Har narsaning o‘lchovi bor. Gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi – to‘g‘ri foydalanish hamda ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish. Bir kunlik xarajat. Telefondan foydalanish qoidalari. Telefondan foydalanish, notanish kishilar bilan muloqotga kirishish ehtiyotkorlik choralarini ko’rish usullarini o’rgatish. Notanish kishi kim? Notanish kishilar bilan muloqotga kirishish. Yaltiroq quticha kimniki? (Begonalar bilan gaplashish, ulardan sovg‘a va turli narsalarni olishning xavfi haqida suhbat). Xavfli vaziyatlarda qaysi telefon raqamiga murojaat qilish lozim. Xavfli vaziyatlarda harakat qilish. Turli xavfli vaziyatlar haqida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

			ma’lumot berish asosida o‘zini tutish qoidalarini o‘zlashtirish. Soy bo‘yida. Suv havzalaridagi xavfsizlik qoidalari haqida. Suv qadri va uni toza tutish odobi. Sog‘ tanda sog‘lom aql. Salomatlikni saqlash. Qo‘l yuvish qoidalari. Sog‘lik uchun zararli odatlar. Mavzularini kiritishni taklif qilib beryapmiz o‘z navbatida bo‘lim nomi va mazmuniga mutanosib. Bola bunday vaziyatlarga tushganda qanday qilib oqilona chiqish yo‘llarin o‘rganadi.
II bob. GO‘ZAL XULQ - INSON KO‘RKI			
	Sehrli so‘zlar	Salomlashish odobi. Salomlashish odobning muhim belgisi. Salomlashish haqida turli vaziyatlar. To‘g‘ri salomlashish, kim birinchi salom beradi? Qayerda salom berish mumkin emas?	“Salomlashish odobi” mavzusini bir I bo‘lim “Men O‘zbekiston farzandiman”dan III bo‘lim “Go‘zal xulq - inson ko‘rki”ga olib o‘tish taklifini bermoqchimiz bo‘limini birinchi mavzusi “Sehrli so‘zlar” mavzusini “Salomlashish odobi” mavzusidan kiyin qo‘yish taklifini kiritdik. Chunki, sehrli so‘zlar avval salomlashishdan boshlanadi deb o‘ylaymiz.
	Qalb oynasi. O‘quvchi fikrini erkin ifodalashi. Qo‘l harakatlari, yuz ifodasi (kulgi, kinoya va jahl), ovoz balandligi.	Gaplashish va tinglash odobi	“Qalb oynasi” mavzusini “Gaplashish va tinglash odobi”mavzusi bilan alishtirish taklifini bermoqdamiz bu mavzuni kiritishimizda maqsad bola Aniq, ravon va nutq madaniyatiga e’tibor bergan holda chiroyli xatti-harakatlar bilan gaplashishni tarbiyalash. Birovlarni fikrini bo‘lmasdan tinglash qobiliyatlarini o‘stirish. Hamda nutqi rivojlanadi ham tinglash odobini o‘rganadi. Mavzuni yanada kengroq va aniqroq yoritishga yordam beradi.
	Telefondan foydalanish qoidalari. Telefon va kompyuterdan foydalanish odobi (oila a’zolari va do‘stlarning telefonidan	“Xavfli vaziyatlarda harakat qilish”	III bob sifatida berilayotgan “Xavfli vaziyatlarda harakat qilish” mazmuniga kiritishni taklif etmoqdamiz. Chunki,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

	foydalanish qoidalari).		glaballashuv zamonda uyali aloqa vositalaridan foydalanishni cheklay olmaymiz zero shunday ekan telefondan foydalanishni ham afzalliklarini ham nojo‘ya tasirlarini bolaga tushuntirib o‘tgan ma’qul. Notanish kishilar qo‘ng‘iroq qilganda notanish kishilar bilan muloqotga kirishish ehtiyotkorlik choralarini ko‘rish usullarini o‘rgatish.
	Soy bo‘yida. Suv havzalaridagi xavfsizlik qoidalari haqida. Suv qadri va uni toza tutish odobi.	“Xavfli vaziyatlarda harakat qilish”	III bob sifatida berayotgan “Xavfli vaziyatlarda harakat qilish” mazmuniga kiritishni taklifini bermoqdamiz. Suv havzalarida bo‘ladigan noqulay vaziyatlarda bola o‘z qanday tutish kerakligi va vaziyatlardan chiqish yo‘llarini o‘rganadi.
	Sog‘ tanda sog‘lom aql. Salomatlikni saqlash. Qo‘l yuvish qoidalari. Sog‘lik uchun zararli odatlar.	“Xavfli vaziyatlarda harakat qilish”	III bob sifatida berayotgan “Xavfli vaziyatlarda harakat qilish” mazmuniga kiritishni taklif etmoqdamiz. Mazmunan olib qaraganda Qo‘l yuvish qoidalari. Sog‘lik uchun zararli odatlar. Xavfli vaziyatlarga kirgizsak bo‘ladi. Qo‘lini yuvmasa oqibatda qanday bo‘ladi. Ayni dunyoda kasalliklar avj olgan bir zamonda bolaga bu vaziyatlarni yanada yaxshiroq tushuntirib ehtiyot choralarini ko‘rishni amaliy tushuntirib bersak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.
	II bob. Go‘zal xulq - inson ko‘rki	IV bob. Oila-muqaddas dargoh	“Go‘zal xulq - inson ko‘rki” bo‘limini ikkiga bo‘lish taklifini bermoqchimiz ya’ni yangi bo‘lim sifatida “Oila-muqaddas dargoh” tarzida taklif etyapmiz. Bu bo‘lim mazmuniga Mening oilam. Oila tushunchasi. Oila a’zolari bilan muomila qilish tarbiyasi. Amaliy mashg‘ulot. Qari-bilganni pari bilmas. Oilada kitobxonlik. Oilada kitob o‘qish odobi. Oilada kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash. Amaliy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

			mashg‘ulot. Amaliy mashg‘ulot. Mening kitob javonim Dasturxon atrofida. Dasturxon bezash haqida rasmli topshiriqlar: sochiq, sanchqi, qoshiq, pichoqdan to‘g‘ri foydalanish. Dasturxon atrofida o‘tirish odoblari. Dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari va tartiblari. Oila davrasida tarbiyalash ham ancha yaxshi samara beradi shuning uchun bu bo‘limni kiritgan ma’qul.

Tarbiyaning maqsad-mohiyati davrlar o‘tishi bilan o‘zgarmaydi, barcha millat uchun ham bir darajada ahamiyatli. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar tarbiya mazmun-mohiyatini belgilaydi. Bugun nemis, rus yoki ingliz maktabida ham, o‘zbek maktabida ham ta’lim muassasasining tarbiyaviy vazifalarini kuchaytirish, ta’limning “tarbiyalovchi” faoliyatidan qoniqmaslik holatlari olimlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Tarbiyaga asoslangan maktablar, o‘quvchini hayotga tayyorlashni, ijtimoiylashuvini asosiy maqsad bilayotgan ta’lim muassasalari tajribalarini o‘rganishga ehtiyoj tug‘ilayotganini ta’kidlash joiz.Ta’lim berish yuksak darajada tashkil qilingan yapon yoki koreys maktablari bitiruvchilari o‘z xalqining milliy qadriyatlari asosida tarbiya topganini bir qarashda, ularning oddiygina salomidan sezamiz. Demak, ta’lim sohasida dunyo mamlakatlarining ilm-fan yutuqlarini o‘qib o‘rganish mumkin, ammo tarbiyada milliy qad-riyatlar, urf-odatlardan chekinish yoki ularni ikkinchi darajaga tushirib qo‘yish mumkin emas.Tarbiyaning ibratga, namunali amaliy faoliyatga asoslanganini ham unutmaslik joiz. Shunday bo‘lsa-da, amaliyotdagi “Tarbiya” fan dasturing juda kerak va o‘rinli deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori 1 ilovasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori
3. Quronov M. Milliy tarbiya. , Ma’naviyat 2007-yil
4. https:// t.me/edurtm_uz/

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. http:// tarbiyam.perepost.uz/
6. https://evroportal.ru/obuchenie-za-rubezhom/obrazovanie-v-yaponii-dlya-inostrantsev-2/#i-4
7. Мазевская А.Е. “Школа как механизм формирования нравственной личности (на примере школьного образования в Японии)”. // Журнал. Педагогическое Образование В России.5/2011. Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Уральский государственный педагогический университет» 5/2011. https://news.rambler.ru/education/39495603-shkoly-yaponii-kogda-ekzamen-reshaet-vse/?updated Google Books. Комсомольская правда. Санкт-Петербург 59-2015

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi**, dotsent, [**Вохидова Мукаддас Расулжон кизи**,доцент], [**Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi,** associate professor]; manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko`chasi, 154A-uy, [адрес: Г. Ташкент, ул. Шота Руставели, д. 154a], [address: Tashkent, Shota Rustaveli str., 154a]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA TANQIDIY FIKRLASH KONSEPSIYASI

© F.O. Xodjiyeva[1]✉

[1]Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: tanqidiy fikrlash inson tafakkurining chuqur, dalillangan va refleksiv shakli bo‘lib, haqiqatni aniqlash, dalillarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishga asoslanadi. Sharq mutafakkirlarining asarlarida bu tushuncha axloq, tafakkur va ma’naviyat bilan uyg‘un holda talqin etilgan. O‘zbekistonning zamonaviy ta’lim siyosatida ham tanqidiy fikrlash kompetensiyasi o‘quvchi shaxsini ma’naviy yetuk va mustaqil fikrlovchi inson sifatida tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi – Sharq mutafakkirlarining tanqidiy fikrlashga oid falsafiy-pedagogik qarashlarini tahlil qilish, ularning zamonaviy ta’limdagi metodologik ahamiyatini aniqlash va bu g‘oyalarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish yo‘llarini asoslab berishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy asarlariga tayangan holda tarixiy-falsafiy, qiyosiy va tahliliy metodlar orqali olib borildi. Shuningdek, J. Dyui, R. Ennis va D. Kolb kabi zamonaviy tanqidiy tafakkur nazariyalari bilan milliy pedagogik meros o‘rtasidagi uzviylik ilmiy asosda tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: sharq mutafakkirlari tanqidiy tafakkurni mantiq, axloq va ilmiy tajriba bilan bog‘liq holda izohlashgan. Forobiy mantiqiy tahlil va fikrni dalil bilan isbotlashni, Beruniy – shubha va tekshiruvni, Ibn Sino – tafakkurni nazorat qilishni, Yusuf Xos Xojib – axloqiy fikrlashni, Navoiy – so‘z va fikr madaniyatini, Ulug‘bek esa tajriba va kuzatishga asoslangan ilmiy tafakkurni ilgari surgan. Ushbu yondashuvlar zamonaviy STEAM va refleksiv ta’lim metodlari bilan mushtarak bo‘lib, o‘quvchi-talabalarda tahliliy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA: sharq mutafakkirlarining tanqidiy fikrlash haqidagi qarashlari bugungi pedagogika uchun muhim manba bo‘lib, ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarda refleksiya, mantiqiy xulosa chiqarish, dalil asosida fikr yuritish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradi. Bu meros milliy va jahon ta’limining uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, tafakkur, falsafa, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, refleksiya, mustaqil fikr.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Xodjiyeva F.O. Sharq mutafakkirlari qarashlarida tanqidiy fikrlash konsepsiyasi. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.292–298.

КОНЦЕПЦИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ВЗГЛЯДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

© Ф.О. Ходжибаева[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навои, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: критическое мышление представляет собой глубокий, доказательный и рефлексивный процесс, направленный на поиск истины через анализ, сомнение и аргументацию. В трудах восточных мыслителей эта концепция рассматривалась в единстве с нравственностью, разумом и духовностью. В современной системе образования Узбекистана формирование критического мышления определено как одно из приоритетных направлений, способствующих воспитанию самостоятельной, морально зрелой личности.

ЦЕЛЬ: цель исследования — проанализировать философско-педагогические взгляды восточных мыслителей на критическое мышление, выявить их методологическое значение для современной педагогики и обосновать пути интеграции этих идей в образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование основано на трудах аль-Фараби, аль-Беруни, Ибн Сины, Юсуфа Хос Ходжиба, Мирзо Улугбека и Алишера Навои. Применялись историко-философский, сравнительный и аналитический методы. Проанализированы взаимосвязи между идеями национального педагогического наследия и современными теориями критического мышления (Д. Дьюи, Р. Эннис, Д. Колб).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Восточные мыслители трактовали критическое мышление как гармонию логики, морали и научного опыта. Аль-Фараби подчёркивал роль логического анализа и доказательства, аль-Беруни — сомнение как источник знания, Ибн Сина — осознание и контроль мыслительного процесса, Юсуф Хос Ходжиб — нравственный аспект мышления, Навои — культуру слова и мысли, а Улугбек — значение наблюдения и эксперимента. Эти подходы коррелируют с современными концепциями STEAM-образования и рефлексивного обучения, развивая у студентов аналитическое и самостоятельное мышление.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Восточная философская традиция является прочной методологической основой критического мышления. Её интеграция в современное образование способствует формированию у обучающихся навыков анализа, аргументации, рефлексии и осознанного принятия решений. Эта духовно-интеллектуальная преемственность служит мостом между классическим наследием и современными педагогическими инновациями.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ключевые слова: критическое мышление, философия, мышление, аль-Фараби, Ибн Сина, аль-Беруни, Юсуф Хос Ходжиб, Навои, Мирзо Улугбек, рефлексия, самостоятельное мышление.

Для цитирования: Ходжибаева.Ф.О. Концепция критического мышления в взглядах восточных мыслителей.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). С.292–298.

THE CONCEPT OF CRITICAL THINKING IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS

©Farog'at O. Xodjiyeva[1]✉
[1]Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: critical thinking is a deep, evidence-based, and reflective process aimed at discovering truth through analysis, reasoning, and skepticism. In the works of Eastern philosophers, this concept was interpreted in unity with ethics, intellect, and spirituality. In Uzbekistan's modern education system, developing critical thinking is considered a priority for fostering morally responsible and independent individuals.

AIM: the aim of this study is to analyze the philosophical and pedagogical ideas of Eastern thinkers regarding critical thinking, identify their methodological significance for modern pedagogy, and propose ways to integrate these ideas into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the research is based on the works of Al-Farabi, Al-Biruni, Ibn Sina, Yusuf Khos Khojib, Mirzo Ulugbek, and Alisher Navoi. Historical-philosophical, comparative, and analytical methods were applied. The study explored the connections between the national pedagogical heritage and modern critical thinking theories (Dewey, Ennis, Kolb).

DISCUSSION AND RESULTS: Eastern thinkers viewed critical thinking as the harmony of logic, morality, and empirical knowledge. Al-Farabi emphasized logical reasoning, Al-Biruni — skepticism and evidence, Ibn Sina — metacognitive awareness, Yusuf Khos Khojib — moral reasoning, Navoi — the culture of word and thought, and Ulugbek — the value of observation and experimentation. These perspectives align with modern STEAM and reflective learning methods that cultivate analytical and independent thinking among students.

CONCLUSION: the Eastern intellectual heritage provides a strong methodological foundation for critical thinking. Integrating these ideas into modern education develops learners' skills in reasoning, reflection, and evidence-based judgment. This intellectual continuity bridges classical wisdom with modern pedagogical innovation.

Keywords: critical thinking, philosophy, ethics, Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Biruni, Yusuf Khos Khojib, Navoi, Mirzo Ulugbek, reflection, independent thought.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

For citation: Farog'at.O. Xodjiyeva. (2025) 'The concept of critical thinking in the views of eastern thinkers', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.292–298. (In Uzbek).

Insoniyat tarixida fikrlash madaniyatining rivojlanishi, ayniqsa tanqidiy fikrlashning shakllanishi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan. Tanqidiy fikrlash shaxsning atrof–muhitni anglash, dalillarni baholash, to'g'ri xulosalar chiqarish va yangilik yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Shu bois bu fenomen bugungi kunda nafaqat zamonaviy psixologiya va pedagogika, balki falsafa, madaniyatshunoslik va ijtimoiy tafakkur rivojining ham markazida turibdi.

Bugungi globallashuv davrida insondan nafaqat ma'lumotga ega bo'lish, balki uni tahlil qilish, dalillash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyati talab etiladi. Shu sababli, tanqidiy fikrlash konsepsiyasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarida markaziy mavzuga aylangan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020), O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi maktab ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston – maktabdan boshlanadi" degan g'oyasida o'quvchi – talabalarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Biroq, bu konsepsiyaning tarixiy ildizlari O'zbekiston xalqining boy ma'naviy-pedagogik merosida, xususan, buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi allomalar ijodida o'z ifodasini topgan.

Tanqidiy fikrlash – bu inson tafakkurining chuqur, asosli, dalillovchi va refleksiv shakli bo'lib, haqiqatni shubha va tahlil orqali aniqlashni nazarda tutadi. G'arb olimlari (J. Dyui, R. Ennis, E. De Bono, L. Vigotsky) bu jarayonni "fikrni fikr ustida tahlil qilish" deb ta'riflaganlar.

Ammo Sharq falsafasida tanqidiy fikrlash g'oyasi bundan ancha ilgari, IX–X asrlarda Forobiy va Beruniy asarlarida mustahkam falsafiy asosga ega bo'lgan. Bu davrda tafakkur faqat bilish emas, balki axloqiy va ma'naviy baholash jarayoni sifatida talqin etilgan.

Albatta bizga ma'lumki tanqidiy fikrlashning tarixiy ildizlari antik davrlarga borib taqlishini manbalarda kuzatganmiz. Dastlabki nazariy asoslari qadimgi Yunoniston bilan bog'liqdir. Sokrat, Platon, Aristotellar inson tafakkurining mantiqiy qonuniyatlarini tahlil qilib, fikrni isbotlash, dalillash va haqiqatni aniqlashda shubha va mantiqiy tahlilning o'rnini ko'rsatdilar. Suqrot o'zining "sokratik suhbat" usuli orqali insonni o'z fikrining mohiyatini anglashga undagan. Uning savol-javobga asoslangan metodida o'qituvchi haqiqatni tayyor holda bermaydi, balki o'quvchini mustaqil fikrga yetaklaydi. Bu yondashuv hozirgi zamon tanqidiy fikrlash pedagogikasining metodologik ildizi hisoblanadi. Platon "Sofist", "Teatet", "Menon" asarlarida fikrning dialektik rivojini –

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qarama-qarshiliklar orqali haqiqatni aniqlash jarayonini asoslab berdi. Aristotel esa mantiq fanini tizimlashtirib, induksiya va deduksiya metodlarini ishlab chiqdi. Aynan shu yondashuvlar tanqidiy tafakkur uchun ilmiy asos bo‘ldi.

Milliy pedagogik me’rosimizga nazar soladigan bo‘lsak buyuk mutafakkirlarimiz bu jarayonni axloq, tafakkur va bilim birligi nuqtai nazaridan davom ettirdilar. Sharq falsafasida u aqliy tafakkur, adolat, donishmandlik va tafakkur nazorati orqali namoyon bo‘lgan.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida insonning fikrlash faoliyatini ijtimoiy va axloqiy jihatdan tahlil qiladi. U “fikrni mantiq orqali tartibga solish” zarurligini ta’kidlaydi. Forobiyning “aql faoliyatining uch bosqichi” haqidagi g‘oyasi (quvvatdagi aql – faol aql – hosil bo‘lgan aql) tanqidiy tafakkur jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishini ifodalaydi. Forobiyning fikricha, inson haqiqatga “fikr va dalilning uyg‘unligi” orqali erishadi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlashning mantiqiy asosli, dalilga tayangan tafakkur shakli ekanini ko‘rsatadi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy bilishda shubhani bilimning asosi sifatida ko‘radi: “Men bilmagan narsani bilaman deb o‘ylash eng katta xatodir”, – deydi u. Ushbu yondashuv zamonaviy tanqidiy fikrlash konsepsiyasining o‘zagi – epistemik ehtiyotkorlik va dalillilik g‘oyasiga mos keladi. Beruniy “Hindiston” asarida turli e’tiqod va fikrlarni solishtiradi, har bir qarashni dalil asosida tahlil qiladi. Demak, u ilmiy fikrlashni ko‘p manbali, muloqotli va ochiq tafakkur asosida quradi – bu tanqidiy tafakkurning zamonaviy modeliga to‘la mos.

Ibn Sino tafakkurni “aqlning o‘z faoliyatini anglash jarayoni” sifatida ta’riflagan. U “Kitob ush – shifo” asarida bilishning uch shaklini ko‘rsatadi: idrok, xotira va tafakkur. So‘nggi bosqich – tafakkur – bilimni qayta ishlash va yangilik yaratish jarayonidir. Bu qarash zamonaviy metakognitiv nazariya (Flavell, 1976; Kolb, 1984) bilan uyg‘un: inson o‘z fikrini kuzatadi, tahlil qiladi va boshqaradi. Shunday qilib, Ibn Sino tanqidiy fikrlashni fikrni fikr orqali nazorat qilish sifatida talqin etgan.

Yusuf Xos Hojib asarlarida “o‘z fikriga tahliliy qaytish” tamoyilini ifodalaydi. XI asrda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” — davlat boshqaruvi, inson kamoloti va axloqiy me’yorlarni falsafiy tahlil qiluvchi ensiklopedik asarida insonni “fikrlaydigan mavjudot” sifatida ko‘rsatadi. Yusuf Xos Hojib boshqaruvchining adolatli bo‘lishi uchun qarorni “xolis tafakkur” bilan qabul qilishi kerakligini yozadi. Unga ko‘ra, hukmdor yoki olim har bir masalaga ikki tomondan qarab, qaror qabul qilishdan oldin “fikr elagidan o‘tkazish”i zarurligini aytadi va bu yondashuv tanqidiy fikrlashning reflektiv - o‘z fikriga tahliliy qaytish tamoyilini ifodalaydi. Asarda “Aql insonni ziynatlaydi, ammo aqlsiz bilim foydasiz” degan g‘oya bor. Bu fikr bilimni tanqidiy tahlil qilmasdan egallash befoydaligini anglatadi. Demak, Yusuf Xos Hojib uchun haqiqiy bilim - bu o‘ylangan, mantiqan asoslangan, tajribada sinovdan o‘tgan bilimdir. “Qutadg‘u bilig”da fikrni tanqidiy tahlil etish faqat intellektual jarayon emas, balki axloqiy mas’uliyat bilan ham bog‘liq. Inson tanqidiy fikrlash orqali nafaqat haqiqatni topadi, balki adolat va komillik sari yo‘l topadi. Shunday qilib, Yusuf Xos Hojib tanqidiy tafakkurni axloqiy bilish falsafasi bilan uyg‘unlashtirgan.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida fikr va so‘z masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

“Mahbub ul-qulub”da u “so‘z ustida o‘ylash – insonning kamol belgisi” deb yozadi. Navoiy uchun fikr madaniyati – bu insoniylik mezoni hisoblanib, u “fikrni tahlil qilish”, “so‘zning ichki ma’nosini anglash” orqali axloqiy tafakkurga urg‘u beradi. Bu esa o‘quvchilarni so‘z orqali tafakkur qilishga o‘rgatuvchi milliy tanqidiy yondashuv sifatida qimmatlidir.

Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosida ilmiy tafakkurning markazida shubha va tekshiruv g‘oyalari yotadi. XV asrda yashagan Mirzo Ulug‘bek – nafaqat buyuk astronom, balki ilmiy tafakkurda tanqidiy yondashuvni amalda qo‘llagan olim edi. Uning “Zij-i Jadid” asari o‘sha davrda mavjud astronomik qarashlarni qayta tahlil qilgan ilmiy inqilobiy asardir. Ulug‘bekning ilmiy faoliyati tajriba va kuzatishga asoslangan edi. U qadimgi astronomlarning Ptolemey va boshqa allomalar natijalarini bevosita takrorlamay, ularga tanqidiy munosabat bildirgan, kuzatuvlar orqali ularning xatolarini aniqlagan. Bu – tanqidiy fikrlashning ilmiy skeptitsizm shakli, ya’ni mavjud bilimni qayta sinovdan o‘tkazish amaliyotidir. Mirzo Ulug‘bek uchun ilm – tajriba orqali tekshirilgan, dalilga asoslangan bilimdir. Dalillarga asoslanib qaror qabul qilish esa tanqidiy fikrlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mirzo Ulug‘bek ilmiy kuzatish, tajriba va tahlilni asosiy yo‘l deb bilgan. U talabalarda ilmiy skeptitsizm va empirik fikrlashni shakllantirishning ilk modelini yaratgan. Bu hozirgi STEAM yondashuvlariga mos keladi.

Sharq mutafakkirlarining tanqidiy tafakkurga oid qarashlari ta’lim tizimida fundamental asosga ega bo`lib, bugungi kunda ham muhum ahamiyat kasb etadi:

Mutafakkirlar	Asosiy g‘oya	Zamonaviy pedagogik moslik
Abu Nasr Forobiy	Mantiqiy fikrlash orqali haqiqatga erishish	Tahliliy fikrlash metodlari (klaster, muammoli savol…)
Abu Rayhon Beruniy	Shubha va dalil orqali bilimni aniqlash	Refleksiya va empirik tahlil bosqichlari
Ibn Sino	Fikrni nazorat qilish (metakognitiv yondashuv)	O‘quvchining fikrni rejalashtirish va baholash qobiliyati
Alisher Navoiy	Fikr va so‘z madaniyati	Fikrni ifoda etish va muloqot kompetensiyasi
Yusuf Xos Hojib	Ilimni axloqiy fikrlash bilan uyg‘unlashtirish; qarorni dalil asosida qabul qilish	Axloqiy tafakkur, baholash va tanqidiy qaror qabul qilish kompetensiyasi (muammoli vaziyatlarni tahlil qilish)
Mirzo Ulug‘bek	Ilmiy haqiqatni tajriba, kuzatish va dalil orqali aniqlash	Empirik va ilmiy tanqidiy fikrlash; STEAM va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari

Milliy pedagogik merosda tanqidiy fikrlash g‘oyalari inson tafakkurining qadimiy, ammo har doim dolzarb bo‘lgan yo‘nalishlaridan biri sifatida ifodalanib, quyidagi ilmiy xulosalar ishlab chiqishga asos boladi:

1. Tanqidiy fikrlash g‘oyasi Sharq falsafasining ajralmas qismi bo‘lib, Abu Nasr

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Mirzo Ulug`bek qarashlarida ilmiy asos topgan.

2. Ular tomonidan ilgari surilgan “tajriba, tahlil”, “kuzatish”,“shubha”, “dalil”, “fikrni anglash” va “so‘z ustida fikr yuritish” tushunchalari zamonaviy tanqidiy tafakkur nazariyalariga fundamental asos.

3. Milliy merosdagi bu g‘oyalarni o‘qituvchilar faoliyatiga integratsiya qilish o‘quvchi-talabalarning fikr madaniyatini, refleksiv tafakkurini rivojlantiradi.

4. Tanqidiy fikrlashni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchi shaxsini ma’naviy yetuk, axloqan mas’uliyatli va fikrda mustaqil inson sifatida tarbiyalaydi.

Demak, Sharq uyg‘onish tafakkuri nafaqat g‘oyaviy, balki metodologik jihatdan ham tanqidiy fikrlash madaniyatining ildizidir. Bugungi pedagogika uchun bu meros – o‘quvchi-talabalarni mustaqil, reflektiv, dalil asosida fikr yuritishga o‘rgatishda boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 23–41.
2. Ibn Sino A. Kitob ush-shifo. – T.: Fan, 2018. – B. 77–102.
3. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 59–83.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot nashriyoti, 2017. – B. 65–89.
5. K. Hashimov, S.Nishonova "Pedagogika tarixi" Toshkent-2005y. 81-bet.
6. K.Hoshimov, S. Nishonova, M. Inomova, R. Hasanov "Pedagogika tarixi" O'quv qo'llanma - Toshkent. "O'qituvchi" 1996, 89 b.
7. J. Dyui, How We Think. – Boston: D.C. Heath, 1933. – P. 34–66.
8. Kolb, D. Experiential Learning. – Prentice Hall, 1984. – P. 101–121.
9. Fayzullayev O.F. Pedagogik tafakkur evolyutsiyasi. – T.: Fan, 2021. – B. 61–74.
10. Ennis, R.H. Critical Thinking: A Streamlined Conception. – Teaching Philosophy, 1991. – Vol. 14(1). – P. 5–24.
11. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – P. 22–48.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xodjiyeva Farog’at Oltiyevna**, dotsent, [**Ходжиева Фарогат Олтиевна**, доцент], [**Xodjiyeva Farog’at Oltiyevna,** associate professor]; manzil: Navoiy shahri, Ibn Sino 45, [адрес: город Навои, Ибн Сино 45], [address: Navoi city, Ibn Sino 45.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BO‘LAJAK MUHANDISLARGA IXTISOSLIK TANLOV FANLARINI O‘QITISHNING INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

© M.S Ortiqov[1]✉

[1]Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: texnologik tezlashuv sharoitida muhandislik ta’limi mazmuni va shakllari intensivlashtirilishini talab qiladi. An’anaviy ma’ruza-seminar formati sirtqi talabalarning vaqt cheklovlari bilan mos kelmaydi. Intenziv texnologiyalar o‘qitishning tizimlilik, takrorlanuvchanlik va nazorat qilinuvchanlik tamoyillarini kuchaytiradi hamda ta’limni salomatlikni saqlash kompetensiyalari bilan uyg‘unlashtiradi.

MAQSAD: ixtisoslik tanlov fanlarida intensiv ta’lim texnologiyalarini integratsiyalash konseptini asoslash va ularning sirtqi talabalarda o‘zlashtirish, motivatsiya hamda amaliy kompetensiyalarga ta’sirini ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: nazariy manbalar tahlili asosida (pedagogik texnologiya ta’riflari va UNESCO yondashuvi) konseptual model ishlab chiqildi. Modulli bloklash, konsentrlangan ta’lim, multimedia, FI (fanlararo integratsiya), ITT, O‘TT va KM kombinatsiyalarining metodik xaritasi tuzildi. Kichik hajmli kuzatuv va refleksiv tahlil orqali monitoring-rubrikalar, ergonomik rejalar va teskari aloqa protokollari sinovdan o‘tkazildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: modulli-konsentrlangan dizayn mavzuga yo‘naltirilgan “chuqur sho‘ng‘ish”ni yaratib, kognitiv almashish xarajatlarini kamaytirdi; multimedia va keyslar esa transferni kuchaytirdi. Interfaol va o‘yin elementlari motivatsiyani oshirib, loyihaviy topshiriqlar amaliy kompetensiyalarni mustahkamladi. Ergonomik rejalashtirish (mikrotanaffuslar, ko‘z-gimnastika, ish joyi gigiyenasi) charchoqqa sezilarli to‘sqinlik qildi va barqaror ishtirokni saqladi. Integratsiyalashgan monitoring—teskari aloqa sikllari o‘z-o‘zini boshqarish va refleksivlikni rivojlantirdi.

XULOSA: intensiv texnologiyalar klasteri (modul+loyiha+multimedia+interfaol+keys/o‘yin) sirtqi talabalarning vaqt cheklovlari sharoitida ham ixtisoslik fanlarini samarali o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Ergonomika va sog‘lomlashtiruvchi yondashuvlar bilan birga qo‘llanganda o‘qitish sifati, motivatsiya va amaliy kompetensiyalar izchil oshadi. Amaliyot uchun: modulli-konsentrlangan rejalashtirish, aralash media, aniq rubrikalar va muntazam teskari aloqa tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: intensiv ta’lim texnologiyalari, pedagogik texnologiya, sirtqi ta’lim, interfaol metodlar, modulli o‘qitish, multimediali o‘qitish, loyihaviy yondashuv, muhandislik ta’limi, kompetensiya.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Ortiqov M.S. Bo‘lajak muhandislarga ixtisoslik tanlov fanlarini o‘qitishning intensiv ta’lim texnologiyalari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.299–308.

ИНТЕНСИВНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТОВ ПО ВЫБОРУ СПЕЦИАЛЬНОСТИ БУДУЩИМ ИНЖЕНЕРАМ

© М.С. Ортиков[1]✉
[1] Университет информационных технологий и менеджмента, Карши, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в условиях технологического ускорения инженерное образование требует интенсификации содержания и форм. Традиционные форматы слабо согласуются с дефицитом времени у заочных студентов. Интенсивные технологии усиливают системность, воспроизводимость и управляемость обучения, сочетаясь с компетенциями сохранения здоровья.

ЦЕЛЬ: обосновать интеграцию интенсивных технологий в спецкурсах и показать их влияние на усвоение, мотивацию и прикладные компетенции заочных студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: теоретический обзор (определения педтехнологий, подход ЮНЕСКО); разработка концептуальной модели. Карта методик: модульное и концентрированное обучение, мультимедиа, междисциплинарная интеграция, интерактив, игровые элементы и кейс-метод. Пилотные наблюдения, рефлексивный анализ, рубрики мониторинга и протоколы обратной связи с учётом эргономики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: модульно-концентрированный дизайн создал «глубокое погружение» и снизил переключение внимания; мультимедиа и кейсы усилили перенос знаний. Интерактив и игра повысили мотивацию, проекты укрепили прикладные компетенции. Эргономическое планирование (микропаузи, гигиена рабочего места) препятствовало утомлению и поддерживало вовлечённость. Интегрированный мониторинг с обратной связью развил саморегуляцию и рефлексию.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: кластер интенсивных технологий (модуль+проект+мультимедиа+интерактив+кейс/игра) обеспечивает эффективное освоение спецдисциплин при дефиците времени у заочников. В комплексе со здоровьесберегающим подходом растут качество обучения, мотивация и практические компетенции. Рекомендуются модульно-концентрированное планирование, смешанные медиа, чёткие рубрики и регулярная обратная связь.

Ключевые слова: интенсивные образовательные технологии, педагогическая технология, заочное обучение, интерактивные методы, модульное обучение, мультимедийное обучение, проектный подход, инженерное образование, компетенция.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Для цитирования: Ортиков.М.С. Интенсивные образовательные технологии для преподавания предметов по выбору специальности будущим инженерам.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). С.299–308.

Metodlar (Methods). Ta’lim rahbarlari (menejerlari) uchun zarur kompetensiyalarni aniqlash, ularning strukturasi va ularni rivojlantirish usullarini o‘rganish dolzarb mavzudir. Ilmiy adabiyotlar bu borada keng tahlil qilgan: masalan, global oliy ta’lim muassasalari rahbarlari uchun menejerlik kompetensiyalari tahlili mavjud [1]. Shuningdek, maktab muassasalari boshliqlari menejerlik kompetensiyalarining akkreditatsiyaga bog‘liqligi tadqiq etilgan [8].

Shu bilan birga, bugungi ta’lim rahbarlaridan quyidagilarga qodir bo‘lishi talab etiladi:

- jamoani shakllantirish va samarali boshqarish;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- strategik rejalashtirishni amalga oshirish;
- o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish;
- raqamli texnologiyalarni ta’limga joriy etish;
- o‘zgarishlarga tez va moslashuvchan qarorlar chiqarish;
- mehnat bozori ehtiyojlariga mos ta’lim dasturlarini yaratish va boshqarish [5].

Bunday murakkab tizimni samarali boshqarish uchun rahbarlarda yuqori darajadagi menejerlik kompetensiyalarining mavjudligi eng muhim omil sifatida qaralmoqda [6]. Menejerlik kompetensiyalari deganda, rahbarning tashkilot faoliyatini samarali boshqarish, jamoani boshqarish, maqsadlarni belgilash va ularga erishish, qaror qabul qilish, resurslarni boshqarish, kommunikatsiya va muomala yuritish, stressli vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish kabi ko‘nikmalari tushuniladi.

Bugungi kundagi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat kasb-hunar ta’lim muassasalari rahbarlarining kompetensiyalari ichida raqamli menejment, o‘zgarishlarni boshqarish, innovatsion yetakchilik, shuningdek, tashqi muhitga moslashuvchanlik jihatlari yetarli darajada shakllanmagan. Natijada, muassasalarning rivojlanish sur’atlari sekinlashmoqda, zamonaviy ta’lim texnologiyalari to‘liq joriy etilmayapti, o‘quvchilar va o‘qituvchilar motivatsiyasi past darajada qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kasbiy ta’lim muassasasi rahbarlarida menejerlik kompetensiyalarini aniqlash, ularning tahlili, zamonaviy talablar asosida ularni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammo

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hisoblanadi. Tadqiqot sifatida aralash metodologiya (mixed methods) qo‘llanildi.

Model va ishtirokchilar:

Kasb ta’lim muassasasida rahbarlik qilayotgan 50 nafar rahbar (direktor va meni¬jerlik guruhining a’zolari) tanlandi. Bundan tashqari, 200 nafar o‘qituvchilar ham so‘rovnoma orqali jalb qilindi.

Ma’lumotlarni yig‘ish vositalari:

- So‘rovnoma: Menejerlik kompetensiyalari bo‘yicha tayyorlangan ko‘llanma (masalan, texnik kompetensiya, strategik fikrlash, interpersonal kommunikatsiya, raqamli savod¬xonlik, stressni boshqarish va h.k.). Ilmiy manbalar asosida moslashtirilgan.

- Yarim strukturali intervyular: 10 nafar rahbar bilan chuqur suhbatlar o‘tkazildi, ularning menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha tajribasi va qiyinchiliklari haqida ma’lumot olindi.

Ma’lumotlarni tahlil usullari:

- So‘rovnoma natijalari uchun tavsifiy statistika (o‘rtacha, dispersiya) va korelyatsion tahlil qo‘llanildi.

- Intervyu ma’lumotlari mazmunan tahlil qilindi (thematic analysis) va asosiy kompetensiyalar hamda ularning rivojlanish yo‘nalishlari aniqlab olindi.

Etik jihatlar:

Ishtirokchilarga tadqiqotning maqsadi tushuntirildi, roziliklari olindi, ma’lumotlar maxfiy va anonim tarzda saqlandi.

Natijalar (Results). So‘rovnoma va intervyu natijalari quyidagicha:

- Rahbarlar tomonidan o‘zlari ko‘rsatgan menejerlik kompetensiyalari orasida eng yuqori baho “inson resurslarini boshqarish” (interpersonal kompetensiya) bo‘yicha olindi, keyin “strategik rejalashtirish” va “qaror qabul qilish” kompetensiyalari keldi.

- Raqamli savodxonlik va innovatsiyalarni joriy etish kompetensiyalari esa eng zaif jihatlar bo‘lib chiqdi.

- O‘qituvchilar baholashicha, rahbarlar bilan samarali kommunikatsiya va jamoani rag‘batlantirish jihatida zaifliklar mavjud.

- Intervyular natijasida rahbarlar quyidagi to‘rt asosiy kompetensiyani rivojlantirish zarurligini ta’kidladi:

1. Raqamli transformatsiya va texnologik yangilanishlarni boshqarish.
2. O‘zgarishlarni boshqarish (change management) va krizis vaziyatlarida tezkor harakat qila bilish.
3. Mehnat bozorining talablariga mos strategik fikrlash va innovatsiyalarni joriy etish.
4. Jamoaviy ish va tarakka yo‘nalgan yetakchilik ko‘nikmalari (transformatsion yetakchilik).

- Tahlil natijalarida menejerlik kompetensiyalari va muassasa natijalari (ta’lim sifati, o‘quvchilar qamrovi, jamoaning motivatsiyasi) o‘rtasida sezilarli korrelyatsiya aniqlangan. Masalan, interpersonal kompetensiya yuqori bo‘lgan rahbarlar muassasasida o‘qituvchilarning rahbarlikka bahosi ham yuqori chiqgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalari va adabiyotlar bilan taqqoslaganda quyidagilar aniqlanadi.

- Ilmiy adabiyotlarda rahbarlar uchun asosiy menejerlik kompetensiyalari qatorida «konseptual fikrlash», «interpersonal kommunikatsiya», «qaror qabul qilish», «vaqtni boshqarish» ko‘rsatkichlari mavjudligi qayd etilgan [9].
- Shu bilan birga, global muhitda raqamli savodxonlik, krizis boshqaruvi va barqarorlik amaliyotlarini ichiga olgan yangi kompetensiyalar ham ko‘tarilmoqda [2].
- Muhokamada shuni alohida ta’kidlash lozimki, kasb ta’lim muassasalari ta’lim muhitining o‘ziga xosligi (amalga yo‘naltirilgan, amaliy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi) sababli, rahbarlardan nafaqat odatiy menejerlik (rejalashtirish, nazorat, tashkil etish) balki ta’limni boshqarish, o‘quv uslubiy jarayonni tashkil etish va mehnat bozoriga tayyorlash nuqtai nazari bilan kompetensiyalar talab qilinadi [10].
- Shuningdek, o‘qituvchilarning baholariga ko‘ra, rahbarlarning kommunikatsiya va rag‘batlantirish borasida zaifligi bu muassasaning jamoa motivatsiyasi va ta’lim sifatiga ta’sir qilishi mumkin [7].
- Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyalarni rivojlantirish hamda doimiy professional rivojlanish muhimdir. Bu borada o‘quv seminarlar, mentorluk, o‘zaro tajriba almashish kabi mexanizmlar joriy etilishi zarur.

Muhokamada cheklovlar ham qayd etilishi lozim: tanlangan muassasalar soni nisbatan kichik bo‘lishi mumkin, faqat bir mintaqa bo‘yicha o‘rganilgan, so‘rovnoma va intervyular sub’ektiv baholarga tayangan. Shu sababli kelgusida ko‘proq vakillikka ega ma’lumotlar bilan kengroq tadqiqotlar o‘tkazilishi tavsiya etiladi.

Xulosa (Conclusion). Ushbu tadqiqot orqali kasb ta’lim muassasalari rahbarlarida zarur bo‘lgan menejerlik kompetensiyalari aniqlandi. Eng muhim kompetensiyalar qatorida interpersonal kommunikatsiya, qaror qabul qilish, strategik rejalashtirish va inson resurslarini boshqarish ko‘rsatildi, biroq raqamli savodxonlik va innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha zaifliklar mavjudligi aniqlangan.

Bu natijalar asosida bir necha tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Rahbarlar uchun raqamli va innovatsion menejerlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan treninglar joriy etilsin.
- Muassasalarda jamoa motivatsiyasini oshirish, faol kommunikatsiya va rag‘batlantirish tizimlari yaratilsin.
- Strategik rejalashtirish va o‘zgarishlarni boshqarish bo‘yicha rahbarlar hamda jamoaga doimiy professional rivojlanish imkoniyatlari taqdim etilsin.
- Kelgusida mintaqaviy va milliy darajada ko‘proq muassasalarni qamrab olgan tadqiqotlar olib borilsin.

Umuman olganda, kasb ta’lim muassasasida rahbarning yuqori darajadagi menejerlik kompetensiyalari muassasaning muvaffaqiyatiga va ta’lim sifatining oshirilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Connie, C., Kristiawan, M., Rusly, M., Hutami, S., & Viona, E. (2025). A systematic review of managerial competencies in global higher education. Edelweiss Applied Science and Technology, 9(5), 595 606.
2. Che Xiaodan, Akku, A., & Shakirova, A. D. (2025). Development of managerial competencies of heads of educational institutions in the context of digital transformation and innovative changes. Progress in Science.
3. Goodermote, C. (2020). Leadership core competencies for higher education facilities managers. Journal of Facility Management Education and Research, 4(1), 1 8.
4. Aguilar, J. S. (2023). Management Competency of School Heads: Basis for Effective and Improved School Leadership. IJSS¬HMR, Vol.02 Issue10.
5. Acera, J. G., & Tan, M. R. S. (2023). The Influence of the School Head's Competencies and Leadership Practices towards their Performance. IJSSHR, Vol.06 Issue05.
6. Thaher Mustafa, A. Y. (2023). Reengineering the Leadership Competencies of the Leaders at the Jordanian Ministry of Education According to the Contemporary Leadership Trends. International Journal of Education, Culture and Society, 8(3), 86 97.
7. Alieva, R. R., Mamalova, K. E., & Akhmadova, Z. M. (2021). Formation Of Managerial Competencies Among Students In The Process Of Professional Training. European Proceedings, 2021.
8. (2013). Some new competencies of managers. e International Journal of Educational Research, 4(3), 74 94.
9. Padilla Díaz, R., & Vargas Fuentes, E. (2022). The director is, without a doubt, the central figure of the educational community, who supervises and manages the activities of the schools, integrating pedagogical and administrative aspects, promoting the quality of teaching and efficiency in its processes, assuming educational challenges. International Research Journal of Management, IT & Social Sciences, 12(1), 9 19. https://doi.org/10.21744/irjmis.v12n1.2485
10. Survey of leadership competencies: personal, self management, social, management… (2025). (ISSN 1392 3110). Retrieved from https://gs.elaba.lt/object/elaba%3A6087181/6087181.pdf

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Yangibayev Kamol Norboyevich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) [**Янгибаев Камол Норбоевич**, доктор философии (PhD)по педагогическим наукам], [**Yangibayev Kamol Norboyevich** doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,]; manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96, [адрес: 100095, г.Ташкент, Алмазорский район, ул.2-Чимбой, 96], [address: 96 2-Chimboy str., Almazor district, Tashkent, 100095.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

GAMIFIKATSION O‘YIN ELEMENTLARI YORDAMIDA O‘QUVCHILARDA FIZIKA FANIDAN IJODIY VA ANALITIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

© K.S. O’rinboyeva[1]✉, O.S. Parpiyeva[2]✉
[1]Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O‘zbekiston
[2]Andijon davlat texnika instituti qoshidagi akademik litsey, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada umumta’lim maktablarida fizika ta’limiga gamifikatsion o‘yin elementlarini integratsiya qilishning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. O‘yin mexanizmlari (ball, reyting, badge, virtual laboratoriya, onlayn viktorina) o‘quvchilarda fanga qiziqish, ishtirok va bilimni qo‘llashni kuchaytirishi ta’kidlanadi.

MAQSAD: gamifikatsion yondashuvning fizika ta’limida o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlashini rivojlantirishga, motivatsiyasini oshirishga hamda dars samaradorligiga ta’sirini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: nazariy-adabiy tahlil (mahalliy va xorijiy manbalar), amaliy kuzatuvlar va taqqoslash. Nazorat (an’anaviy dars) va tajriba (gamifikatsiya qo‘llangan) sinflarida darslar o‘tkazilib, indikatorlar: fanga qiziqish, ichki motivatsiya, ijodiy va analitik fikrlash namoyonlari, mustaqil faoliyat baholandi; platformalar: Kahoot, Quizizz, Classcraft, virtual laboratoriya simulyatsiyalari.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: gamifikatsiya dars jarayonini interaktivlashtirib, raqobat va hamkorlik muhitini kuchaytirdi; o‘yinli topshiriqlar orqali muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, gipoteza ilgari surish, tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlandi. Tajriba guruhida qiziqish, motivatsiya, ijodiy va analitik fikrlash ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi; virtual laboratoriyalar murakkab tushunchalarni vizual va amaliy o‘zlashtirishga yordam berdi.

XULOSA: fizika darslariga gamifikatsion elementlarni tizimli integratsiya qilish o‘quvchilarda ijodiy va analitik tafakkurni shakllantirishning samarali vositasidir. Yondashuv darsni qiziqarli qiladi, ichki motivatsiyani barqarorlashtiradi va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiradi; o‘qituvchi fasilitator sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: gamifikatsiya; raqamli platforma; fizika ta’limi; o‘yin elementlari; ijodiy fikrlash; analitik fikrlash; motivatsiya; innovatsion metod.

Iqtibos uchun: O’rinboyeva, K.S, Parpiyeva O.S. Gamifikatsion o‘yin elementlari yordamida o‘quvchilarda fizika fanidan ijodiy va analitik fikrlashni shakllantirish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). B.345–356.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО И АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПО ФИЗИКЕ С ПОМОЩЬЮ ЭЛЕМЕНТОВ ГЕЙМИФИКАЦИИ ИГРЫ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© К.С. Уринбоева[1]✉, О.С. Парпиева[2]✉
[1] Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан
[2]Академический лицей при Андижанском государственном техническом институте, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: рассматриваются теоретико-методические основы интеграции элементов геймификации в обучение физике в общеобразовательной школе. Показано, что игровые механики (баллы, рейтинги, бейджи, виртуальные лаборатории, онлайн-викторины) повышают интерес и вовлечённость учащихся.

ЦЕЛЬ: определить влияние геймификации на развитие творческого и аналитического мышления учащихся, повышение мотивации и результативности уроков физики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: теоретический обзор (отечественные и зарубежные источники), практические наблюдения и сравнительный анализ. Проведён эксперимент в контрольных (традиционные занятия) и экспериментальных (с геймификацией) классах с оценкой показателей: интерес к предмету, внутренняя мотивация, проявления творческого/аналитического мышления, самостоятельная деятельность; использовались Kahoot, Quizizz, Classcraft, симуляции виртуальных лабораторий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: геймификация сделала уроки более интерактивными, усилила среду сотрудничества и здоровой конкуренции; игровые задания способствовали анализу проблемных ситуаций, выдвижению гипотез и принятию решений. В экспериментальных классах показатели интереса, мотивации, творческого и аналитического мышления превзошли контроль; виртуальные лаборатории облегчали понимание сложных понятий через визуализацию и практику.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системная интеграция игровых элементов в уроки физики — действенное средство формирования творческого и аналитического мышления. Подход повышает устойчивую внутреннюю мотивацию и самостоятельность обучающихся, усиливая фасилитирующую роль учителя.

Ключевые слова: геймификация; цифровая платформа; обучение физике; игровые элементы; творческое мышление; аналитическое мышление; мотивация; инновационный метод.

Для цитирования: К.С. Уринбоева, О.С. Парпиева. Формирование творческого и аналитического мышления учащихся по физике с помощью элементов геймификации игры.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №10(1). С.345–356.

FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE AND ANALYTICAL THINKING IN PHYSICS USING GAME GAMIFICATION ELEMENTS

© Kumushoy S. Urinboyeva[1]✉, Oysanam S. Parpiyeva[2]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan
[2]Academic Lyceum at Andijan State Technical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper outlines the theoretical and methodological bases for integrating gamification into physics instruction at secondary schools, arguing that points, leaderboards, badges, virtual labs, and online quizzes can boost engagement and persistence.

AIM: to determine the impact of gamified instruction on students' creative and analytical thinking, motivation, and overall lesson effectiveness in physics.

MATERIALS AND METHODS: literature review (local and international sources), classroom observations, and comparative design. Control classes received traditional lessons; experimental classes used gamified activities via Kahoot, Quizizz, Classcraft, and virtual-lab simulations. Outcome indicators included interest in physics, intrinsic motivation, creative/analytical performance, and independence.

DISCUSSION AND RESULTS: gamification increased interactivity, collaboration, and constructive competition; game-based tasks promoted problem analysis, hypothesis formulation, and rapid decision-making. Experimental groups outperformed controls on interest, motivation, and creative/analytical measures; virtual labs supported conceptual understanding through visualization and practice.

CONCLUSION: systematic integration of gamified elements in physics lessons effectively cultivates creative and analytical thinking while stabilizing intrinsic motivation and fostering self-directed learning; the teacher's role shifts toward facilitation.

Keywords: gamification; digital platform; physics education; game elements; creative thinking; analytical thinking; motivation; innovative method.

For citation: Kumushoy.S. Urinboyeva, Oysanam S. Parpiyeva. (2025) 'Formation of students' creative and analytical thinking in physics using game gamification elements', Inter education & global study, vol.3, (10(1)), pp.345–356. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, fizika fanini o'qitishda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, tajribalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish kabi kompetensiyalarni shakllantirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, an'anaviy dars metodlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, gamifikatsion raqamli platformalar bilan uyg'unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda[1].

Gamifikatsiya – bu o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarning qiziqishini kuchaytirish, ularning faol ishtirokini ta'minlash va yuqori motivatsiya muhitini yaratish imkonini beruvchi innovatsion yondashuvdir. So'nggi yillarda dunyo ta'lim amaliyotida gamifikatsiya raqamli ta'lim platformalari bilan uyg'unlashtirilgan holda keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'quvchilarda o'yin orqali bilim olish, vazifalarni ijodiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hal etish va raqobat asosida o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon yaratmoqda[2,3].

Umumta’lim maktablarida fizika ta’limida gamifikatsion yondashuvdan foydalanish, bir tomondan, murakkab nazariy tushunchalarni soddalashtirib tushuntirishga, ikkinchi tomondan, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini yanada faol va samarali tashkil etishga yordam beradi. Fizika darslarida qo‘llaniladigan o‘yin elementlari – reyting tizimi, virtual laboratoriyalar, topshiriqlarni ballar asosida baholash, onlayn viktorinalar va boshqa interaktiv metodlar o‘quvchilarda ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi[4].

Shu bois, ushbu tadqiqotda fizika fanini o‘qitishda gamifikatsion o‘yin elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari, ularning o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash ko‘nikmalariga ta’siri hamda amaliy ahamiyati yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili.So‘nggi yillarda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda gamifikatsion yondashuvlar va raqamli platformalardan foydalanish masalasi ko‘plab olimlar va amaliyotchilar tadqiqotlarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, Yu.K. Babanskiy, V.P. Bespalko, P.Ya. Galperin, A.N. Leontyev kabi rus olimlari o‘quv jarayonining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilar ekan, ta’limda motivatsiya va faol ishtirokning o‘quvchilar intellektual rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab o‘tganlar. Keyingi bosqichda ta’limning raqamli muhitga o‘tishi ushbu nazariy qarashlarni yanada boyitdi.

J. Hamari, K. Huotari va S. Deterding kabi xorijiy tadqiqotchilar gamifikatsiya nazariyasini keng o‘rganib, uning asosiy tamoyillari – o‘yin mexanizmlarini qo‘llash, raqobat, reyting va rag‘batlantirish tizimlari orqali o‘quvchilarning qiziqishini va motivatsiyasini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berishgan. Ularning ta’kidlashicha, gamifikatsion elementlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi[5,6].

Shuningdek, D. Reeves, J. Gee, M. Prensky tadqiqotlarida o‘yinlashuv (gamifikatsiya)ning ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilishi bilan bog‘liq konseptual yondashuvlar ishlab chiqilgan. Xususan, Prensky o‘z ishlarida o‘yin elementlarini qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, balki ularni mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishini ko‘rsatib o‘tadi.

Markaziy Osiyo va O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham ushbu yo‘nalishda izlanishlar olib borishmoqda. Jumladan, N. Jo‘rayev, Sh. Toshpulatova, D. Abdurahmonova, Z. Xodjayeva va boshqa pedagog-olimlar zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini yoritib, ularning o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rnini asoslab berishgan. Ayniqsa, fizika ta’limida o‘quv jarayonini interaktiv va vizual shaklda tashkil etish, raqamli laboratoriyalar, simulyatsiyalar va gamifikatsion vositalar yordamida murakkab tushunchalarni osonlashtirish yo‘llari ilmiy izlanishlarda ko‘p marotaba qayd etilgan.

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar ham gamifikatsiyaning ta’limiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Masalan, S. Landers va R. Callan o‘z tadqiqotlarida gamifikatsion platformalarning o‘quvchilarda motivatsiyani oshirish, bilimlarni mustahkamlash va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tajribaviy asosda isbotlab berishgan. Shuningdek, ular gamifikatsiya elementlarining o‘quvchilarda “o‘yin orqali o‘rganish” jarayonini kuchaytirishini ham ta’kidlaydilar.

Fizika fanini o‘qitishda gamifikatsiya qo‘llanilishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham buni tasdiqlaydi. Xususan, R. Taspinar, C. Schmidt va A. Schuhbauer tomonidan olib borilgan izlanishlarda gamifikatsion vositalardan foydalanish fizika darslarida o‘quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishi, murakkab masalalarni ijodiy yondashuv asosida hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi ta’kidlangan[6,7].

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham gamifikatsion yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Respublikamizda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha davlat dasturlari umumta’lim maktablari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Natijada, fizika ta’limida ham raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, onlayn test tizimlari va o‘yin elementlarini qo‘llash tajribalari kengayib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlarda gamifikatsion yondashuvning o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish, ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, murakkab fanlarni, jumladan, fizika fanini samarali o‘zlashtirishda muhim omil ekanligi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar orqali isbotlangan. Ammo aynan umumta’lim maktablarida fizika fanini gamifikatsion o‘yin elementlari orqali o‘qitishning metodik asoslari va amaliy mexanizmlarini yanada chuqurroq ishlab chiqish ilmiy izlanishlar uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda gamifikatsion o‘yin elementlarini qo‘llash o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligi, motivatsiyasi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy darslarda ko‘plab o‘quvchilar fizika fanining nazariy tushunchalarini quruq ta’riflar va formulalar sifatida qabul qilsa, gamifikatsion metodlar yordamida ular ushbu bilimlarni amaliy vazifalar, o‘yinli topshiriqlar va interaktiv mashqlar orqali chuqurroq o‘zlashtiradi.

O‘tkazilgan kuzatuvlarda shuni aniqlash mumkinki, gamifikatsiya elementlari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilar orasida o‘zaro raqobat muhiti kuchayadi, bu esa ularning vazifalarni ijodiy va analitik yondashuv asosida bajarishga undaydi. Masalan, fizika darsida “ballar tizimi”, “reyting jadvali”, “tezkor javob” yoki “virtual laboratoriya sinovlari” kabi o‘yin mexanizmlaridan foydalanish o‘quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va natijalarni baholashga o‘rgatadi [8].

Shuningdek, gamifikatsion yondashuv o‘quvchilarda jamoaviy hamkorlikni kuchaytiradi. Guruhli o‘yin topshiriqlari orqali ular muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qiladi, fikr almashadi va yechimlarni ishlab chiqadi. Bu jarayon ularning nafaqat fan bo‘yicha bilimlarini mustahkamlaydi, balki kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi, liderlik va mas’uliyat hisini shakllantiradi.

Natijalarga ko‘ra, gamifikatsion elementlardan muntazam foydalanilgan sinflarda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash ko‘rsatkichlari an’anaviy metod asosida o‘qitilgan sinflarga qaraganda yuqoriroq bo‘ldi. O‘quvchilarning fizika fanidan masalalarni yechishda qo‘llagan usullari ko‘proq mustaqil yondashuv, mantiqiy izchillik va innovatsion fikrlar bilan boyitilganligi kuzatildi.

Muhokamalarda yana bir muhim jihat shundan iboratki, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi va ishtiroki doimiy rag‘batga bog‘liq. O‘yin elementlari faqatgina tashqi motivatsiyani emas, balki ichki motivatsiyani ham kuchaytirishi aniqlangan. Masalan, ball yig‘ish yoki reytingda yuqori pog‘onaga chiqish kabi tashqi rag‘batlantirish vositalari dastlabki bosqichlarda kuchli ta’sir qilsa, keyinchalik o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash va ijodiy yondashuv asosida topshiriqlarni bajarishdan ichki qoniqish olishni boshlashadi [9].

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatdiki, gamifikatsion yondashuv faqatgina o‘yin elementlarini qo‘llash bilan cheklanmasligi kerak. U o‘quv jarayonining butun metodik tizimiga uyg‘unlashtirilgandagina yuqori samaradorlik beradi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi va o‘quv maqsadlarini hisobga olgan holda o‘yin mexanizmlarini moslashtirishi zarur [10,11].

Eksperimental darslarda qo‘llanilgan gamifikatsion raqamli platformalar, xususan, Kahoot, Quizizz, Classcraft, Physionet kabi vositalar o‘quvchilarda tezkor fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni kreativ yechishga yordam bergan. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tanlangan platforma nafaqat bilimlarni mustahkamlaydi, balki analitik tafakkurni ham rivojlantiradi [12].

Natijaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

Gamifikatsion o‘yin elementlari o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi;

Fizika fanining murakkab tushunchalarini oson va qiziqarli tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi;


Ijodiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi;

O‘quvchilarda hamkorlik, raqobatbardoshlik va mustaqillik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi.

Shunday qilib, olib borilgan izlanishlar gamifikatsion yondashuvning nafaqat o‘quvchilar bilimini oshirish, balki ularning tafakkurini ijodiy va analitik yo‘nalishda rivojlantirishda ham katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

1-jadval

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



Jadvalda nazorat guruhi (oddiy o‘qitish) va tajriba guruhi (gamifikatsiya qo‘llangan) natijalari foizlarda taqqoslangan. Grafikda ko‘rinib turibdiki, gamifikatsion yondashuv qo‘llangan guruhda o‘quvchilarning fan qiziqishi, motivatsiyasi, ijodiy va analitik fikrlash darajasi, shuningdek, mustaqil faoliyati sezilarli darajada yuqori bo‘lgan [14].

Xulosa.Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda gamifikatsion o‘yin elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Gamifikatsiya elementlari yordamida dars jarayoni qiziqarli va interaktiv shaklga kiradi, natijada o‘quvchilarda fanga bo‘lgan ichki motivatsiya kuchayadi va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga erishiladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, gamifikatsion platformalar o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga yangicha yondashuv bilan qarash, tahliliy tafakkur va mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bunda reyting tizimi, ball yig‘ish, virtual laboratoriyalar, onlayn viktorinalar kabi o‘yin mexanizmlaridan foydalanish o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb qiladi va ularning mustaqil faoliyatini rag‘batlantiradi.

Gamifikatsion yondashuv, shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruhli topshiriqlar va o‘yinli musobaqalar jarayonida hamkorlik, raqobatbardoshlik, liderlik va mas’uliyat kabi sifatlar shakllanadi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat fizika fanini o‘zlashtirishida, balki ularning shaxsiy rivojlanishida ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Nazorat va tajriba guruhlari natijalari taqqoslanganda ham gamifikatsion elementlardan foydalangan darslarda o‘quvchilarning fan qiziqishi, motivatsiyasi, ijodiy va analitik fikrlash darajasi yuqori bo‘lgani kuzatildi. Bu esa gamifikatsion raqamli platformalarning fizika ta’limida qo‘llanishi nafaqat samarali, balki zaruriy metodlardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Umuman olganda, gamifikatsion o‘yin elementlarini fizika ta’limiga joriy etish:
murakkab tushunchalarni oddiy va qiziqarli shaklda o‘zlashtirishga imkon beradi;
o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
ijodiy yondashuvni shakllantiradi;
o‘quvchilarni o‘z bilimini baholash va rivojlantirishga undaydi.

Shunday qilib, fizika fanini o‘qitishda gamifikatsion raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy va analitik tafakkurini rivojlantirishda, ularning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda va ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim metodik yondashuv hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4884-son qarori. – Toshkent, 2020. – 12 b.
2. Hasanov, B. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
3. Yo‘ldoshev, J., Usmonov, S. Zamonaviy ta’limda pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 180 b.
4. Хуторской, А. В. Современные образовательные технологии: учебное пособие. – Москва: Академия, 2020. – 352 с.
5. Крылова, Н. Б. Игровые методы в образовании. – Санкт-Петербург: Питер, 2018. – 198 с.
6. Prensky, M. Digital Game-Based Learning. – New York: McGraw-Hill, 2007. – 320 p.
7. Gee, J. P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. – New York: Palgrave Macmillan, 2014. – 256 p.
8. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
9. Kapp, K. M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. – San Francisco: Pfeiffer, 2012. – 336 p.
10. Qodirova, N. Fizika o‘qitishda kreativ yondashuvlar va gamifikatsiya. – “Ta’lim taraqqiyoti” jurnali, №4, 2022, B. 44–52.
11. Seaborn, K., & Fels, D. I. Gamification in Theory and Action: A Survey. International Journal of Human-Computer Studies, 74, 2015, pp. 14–31.
12. Domínguez, A., Saenz-de-Navarrete, J., et al. Gamifying learning experiences: Practical implications and outcomes. Computers & Education, 63, 2013, pp. 380–392.
13. Лебедева, М. Б. Креативное мышление в образовательном процессе. – Москва: Изд-во МГУ, 2019. – 224 с.
14. OECD. The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 64 p.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

15. Zichermann, G., & Cunningham, C. Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2011. – 208 p.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi**, dotsent [**Уринбоева Кумушой Султонбек кизи**,доцент], [**Urinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi** associate professor]; manzil: Andijon shahar, Do'stlik ko'chasi, 4-uy, [адрес: город Андижан, улица Дустлик, дом 4], [address: 4 Dustlik Street, Andijan city].

✉**Parpiyeva Oysanam Sultonbek qizi**, o'qituvchi [**Парпиева Ойсанам Султонбек кизи**,преподаватель,], [**Parpiyeva Oysanam Sultonbek qizi** teacher]; manzil: Andijon shaxri Amir Temur ko'chasi 5-uy, [адрес: город Андижан, улица Амира Темура, 5], [address: 5 Amir Temur Street, Andijan city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA 5-SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MADANIY XUSUSIYATLARI

© M. Tashpulatova[1]✉
[1]Navoiy Davlat Universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda 5-sinf o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida madaniy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati tahlil qilinadi. O‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish nafaqat til materialini o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarda madaniyatlararo tushuncha, qadriyat va axloqiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ingliz tilidagi matnlar orqali o‘quvchilar turli madaniyatlar bilan tanishadilar, ularni o‘z milliy qadriyatlari bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maqolada o‘qish darslarida madaniy komponentni integratsiyalashning nazariy asoslari va amaliy metodlari keltirilgan.

MAQSAD: maqolaning maqsadi — 5-sinf o‘quvchilarida ingliz tilidagi o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida madaniy komponentning rolini aniqlash, o‘qituvchilar uchun samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish va o‘qish jarayoniga madaniy mazmunni integratsiya qilish usullarini ko‘rsatishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf ingliz tili darsliklari, “Kids English” o‘quv qo‘llanmalari va madaniy mazmundagi o‘quv matnlari tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyasi, kuzatish va eksperimental tahlil usullari qo‘llanildi. O‘quvchilar bilan o‘tkazilgan kichik amaliy tajriba jarayonida o‘qish mashg‘ulotlariga madaniy kontekst qo‘shilgan holat va an’anaviy yondashuvlar samaradorligi solishtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, madaniy mazmundagi o‘quv materiallari 5-sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. O‘quvchilar ingliz tilidagi matnlarda tasvirlangan kundalik hayot, bayramlar, urf-odatlar bilan o‘z milliy qadriyatlarini taqqoslash orqali tilni faolroq o‘zlashtiradilar. CLIL modeli asosida tashkil etilgan darslarda o‘qish tezligi va mazmunni tushunish darajasi 15–20% ga oshgani aniqlandi. O‘qituvchilar uchun madaniy komponentni qo‘shish o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish va kommunikativ faollikni kuchaytiruvchi omil bo‘lib chiqdi.

XULOSA: ingliz tili o‘qitish jarayonida madaniy xususiyatlarni hisobga olish o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini samarali shakllantirish, ularning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish va global fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. CLIL yondashuvi va madaniy integratsiyaga asoslangan darslar o‘quvchilarda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

til va madaniyatni uyg‘un o‘rganish imkonini beradi. Kelajakda o‘quv dasturlarida madaniy kontekstli o‘qish topshiriqlari ulushini oshirish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: o‘qish ko‘nikmasi, madaniy kompetensiya, ingliz tili, 5-sinf, madaniy kontekst, CLIL, o‘qish strategiyalari.

Iqtibos uchun: Tashpulatova M.. Ingliz tilini o‘qitishda 5-sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishning madaniy xususiyatlari . // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №10(1). B.357–363.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ 5-Х КЛАССОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

© М. Ташпулатова[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется значение учета культурных особенностей в процессе формирования навыков чтения у учащихся 5-х классов при обучении английскому языку. Развитие навыков чтения способствует не только усвоению языкового материала, но и формированию у учащихся межкультурного понимания, ценностей и нравственных установок. Через тексты на английском языке учащиеся знакомятся с различными культурами, получают возможность сопоставлять их со своими национальными традициями. В статье представлены теоретические основы и практические методы интеграции культурного компонента в уроки чтения.

ЦЕЛЬ: цель статьи — определить роль культурного компонента в процессе формирования навыков чтения у учащихся 5-х классов, разработать эффективные методические рекомендации для учителей и показать пути интеграции культурного содержания в процесс обучения чтению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы учебники английского языка для 5-х классов общеобразовательных школ, учебные пособия серии «Kids English» и тексты, содержащие культурный материал. Методологической основой послужили подход CLIL (Content and Language Integrated Learning), теория межкультурной коммуникативной компетенции, методы наблюдения и экспериментального анализа. В ходе небольшой практической работы с учащимися было проведено сравнительное исследование эффективности уроков с включением культурного контекста и традиционного подхода.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что учебные материалы с культурным содержанием значительно повышают интерес учащихся 5-х классов к чтению. Изучая тексты на английском языке, описывающие повседневную жизнь, праздники и обычаи, учащиеся активнее усваивают язык, сравнивая их с родной культурой. Уроки, построенные на модели CLIL, способствовали повышению скорости чтения и уровня понимания содержания на 15–20%. Включение

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

культурного компонента в процесс обучения оказалось фактором, усиливающим социально-эмоциональное развитие и коммуникативную активность учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: учет культурных особенностей при обучении английскому языку играет важную роль в эффективном формировании навыков чтения, развитии межкультурной компетенции и способности к глобальному мышлению у учащихся. Уроки, основанные на подходе CLIL и культурной интеграции, обеспечивают гармоничное усвоение языка и культуры. В дальнейшем рекомендуется увеличить долю заданий с культурным контекстом в учебных программах по английскому языку.

Ключевые слова: навык чтения, культурная компетенция, английский язык, 5-й класс, культурный контекст, CLIL, стратегии чтения.

Для цитирования: Ташпулатова М.. Особенности формирования навыков чтения у учащихся 5-х классов при обучении английскому языку. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №10(1). С.357–363.

CULTURAL FEATURES OF DEVELOPING READING SKILLS AMONG 5TH-GRADE STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

© Madina Tashpulatova[1]✉
[1]Navoiy State University, Navoiy, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the importance of considering cultural aspects in the process of developing reading skills among 5th-grade students in English language teaching. The development of reading skills contributes not only to the acquisition of linguistic material but also to the formation of intercultural understanding, values, and moral attitudes among students. Through reading texts in English, learners become acquainted with various cultures and gain the opportunity to compare them with their own national traditions. The article presents the theoretical foundations and practical methods for integrating cultural components into reading lessons.

AIM: the purpose of this study is to determine the role of cultural components in developing reading skills among 5th-grade students, to provide effective methodological recommendations for teachers, and to demonstrate ways of integrating cultural content into the reading process.

MATERIALS AND METHODS: the research analyzed English language textbooks for 5th-grade students, “Kids English” learning materials, and reading texts with cultural content. The methodological basis included the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach, the theory of intercultural communicative competence, and methods of observation and experimental analysis. A small-scale classroom experiment was conducted to compare the effectiveness of lessons with cultural integration and traditional approaches.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: the findings revealed that culturally enriched reading materials significantly increase 5th-grade students' motivation and interest in reading. Students engage more actively with the language when they compare descriptions of daily life, holidays, and customs in English texts with their native culture. Lessons based on the CLIL model showed a 15–20% improvement in reading speed and comprehension levels. For teachers, incorporating cultural components was found to enhance students' socio-emotional development and communicative engagement.

CONCLUSION: considering cultural aspects in English language teaching plays an essential role in effectively developing reading skills, fostering intercultural competence, and enhancing global thinking abilities among students. Lessons based on CLIL and cultural integration provide opportunities for learners to study language and culture in harmony. It is recommended that future curricula include a greater proportion of culturally contextual reading tasks.

Keywords: reading skill, cultural competence, English language, 5th grade, cultural context, CLIL, reading strategies.

For citation: Madina Tashpulatova. (2025) 'Cultural features of developing reading skills among 5th-grade students in english language teaching', Inter education & global study, vol.3 (10(1)), pp.357–363. (In Uzbek).

Hozirgi global axborot asrida ingliz tilini bilish xalqaro muloqot, ta'lim va madaniy almashuvning ajralmas qismiga aylangan. Shu bois maktab ta'limida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchilari uchun o'qish jarayoni nafaqat so'z boyligini oshirish, balki madaniy kontekstni anglash orqali dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi. Madaniyatga asoslangan o'qish o'quvchilarga tildagi ma'no, obraz, qadriyat va ijtimoiy xatti-harakatlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Ingliz tili darslarida madaniy komponentni integratsiyalash orqali o'quvchilar xorijiy madaniyatni o'rganish bilan birga o'z milliy qadriyatlarini ham qadrlashni o'rganadilar.

Mazkur tadqiqotda 5-sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida madaniy komponentning o'rni va CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvining samaradorligi o'rganildi. Tadqiqotning maqsadi — o'qish faoliyatini shunchaki so'zlarni talaffuz qilish yoki matnni ovoz chiqarib o'qish jarayoni sifatida emas, balki ma'noni chuqur anglash, tahlil qilish, baholash hamda madaniy jihatdan talqin etish jarayoni sifatida shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlarida o'quv materiali sifatida ingliz va o'zbek madaniyatiga oid matnlar, xalq ertaklari, zamonaviy hikoyalar hamda qadriyatlarni aks ettiruvchi adabiy parchalar tanlab olindi. Ushbu matnlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til tayyorgarligi, qiziqish darajasi va madaniy dunyoqarashini inobatga olgan holda tanlandi. Har bir matn asosida o'qish ko'nikmasining uchta asosiy bosqichi — tushunish, tahlil qilish va baholash — ketma-ketlikda tashkil etildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tadqiqot jarayonida CLIL yondashuvi asosida o‘qish faoliyatini til o‘rganish bilan bir qatorda madaniy kontekstni ham o‘z ichiga oluvchi jarayon sifatida tashkil etish ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda Story Mapping (voqealar xaritasi tuzish), Think–Pair–Share (fikr yuritish, juftlikda muhokama, umumiy baham ko‘rish), Character Comparison (qahramonlarni taqqoslash), Illustrated Reading (matnni tasvirli o‘qish) va Cultural Dialogue (madaniy muloqot) metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini, madaniyatlararo tafakkurini hamda o‘z fikrini madaniy asosda ifodalash malakasini rivojlantirishga xizmat qildi.

O‘qish darslarida o‘qituvchi tomonidan matndagi madaniy birliklar, idiomatik iboralar, tarixiy nomlar, xalqona obrazlar va konnotativ ma’nolarga e’tibor qaratildi. O‘quvchilarga bu birliklarning ingliz madaniyatidagi o‘rni tushuntirildi hamda ularning o‘zbek madaniyatidagi o‘xshashlik va farqlari muhokama qilindi. Shu orqali o‘quvchilarda madaniyatlararo tahlil qilish, o‘z fikrini taqqoslash asosida asoslash, va boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot yuritish kompetensiyasi shakllantirildi.

Eksperimental darslar ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda an’anaviy o‘qish metodlari (matnni o‘qish va savol-javob orqali tushunish) qo‘llanilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda CLIL asosidagi madaniy integratsiyalangan o‘qish metodlari joriy etildi. Natijalar o‘rtasidagi farq o‘quvchilarning faollik darajasi, so‘z boyligi, matnni anglash chuqurligi hamda muloqotdagi ishtirok faolligi orqali tahlil qilindi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘qish jarayoniga madaniy komponentni integratsiyalash o‘quvchilarda matnni nafaqat lingvistik, balki semantik, pragmatik va madaniy jihatdan tushunish qobiliyatini ham sezilarli darajada oshiradi. CLIL yondashuvi asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar o‘rganilayotgan tilni amaliy kontekstda qo‘llash, real madaniy holatlar bilan bog‘lash va o‘z fikrini mazmunli tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tajriba davomida aniqlanishicha, o‘quvchilar ingliz madaniyatiga oid ertak, afsona va hikoyalarni o‘qib, ularning mazmunini tahlil qilganda, ko‘pincha o‘zbek xalq og‘zaki ijodi bilan o‘xshashliklarni mustaqil tarzda topishga intildilar. Bunday taqqoslash faoliyati o‘quvchilarda madaniyatlararo tafakkurni shakllantirib, ularni boshqa millat madaniyatiga nisbatan hurmat, qiziqish va bag‘rikenglik ruhida tarbiyaladi.

CLIL asosidagi o‘qish metodlari, xususan Story Mapping va Cultural Dialogue, o‘quvchilarning matnni mazmunan tushunish va uni qayta ifodalash ko‘nikmasini sezilarli darajada rivojlantirdi. Think–Pair–Share metodining joriy etilishi esa o‘quvchilarda hamkorlikda fikrlash, muloqotda faol ishtirok etish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasini kuchaytirdi. Character Comparison orqali o‘quvchilar turli madaniyat vakillari obrazlarini tahlil qilib, ularning qadriyatlar, xatti-harakatlar va ijtimoiy munosabatlaridagi o‘xshashlik va tafovutlarni chuqurroq anglay oldilar.

Natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, madaniy jihatdan boyitilgan o‘qish darslari o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirgan, ularning matnni idrok etish sur’ati va aniqligini oshirgan hamda tahliliy fikrlashni rag‘batlantirgan. Shu bilan birga, o‘qish darslarida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

madaniy yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarda motivatsiyani kuchaytirgan, dars jarayonini yanada mazmunli va interfaol qilgan.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishda madaniy komponent va CLIL yondashuvini uyg‘unlashtirish nafaqat tilni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarda global madaniyatni anglash, madaniyatlararo muloqot olib borish va o‘z milliy qadriyatlarini chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. Shu asosda aytish mumkinki, o‘qish jarayonida madaniy integratsiyani yo‘lga qo‘yish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim metodik yechim sifatida o‘zini oqlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 5-sinf o‘quvchilari uchun o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida madaniy komponent va CLIL yondashuvini uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘qish jarayonining asosiy bosqichlari — tushunish, tahlil qilish va baholash — madaniy kontekst bilan boyitilganda, o‘quvchilar matnni nafaqat lingvistik, balki ma’naviy va ijtimoiy mazmunda ham chuqurroq anglay boshlaydilar.

Madaniy jihatdan yo‘naltirilgan o‘qish darslari o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni o‘z madaniyati bilan boshqa xalqlar madaniyatini taqqoslash, o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot olib borish, bag‘rikenglik, hurmat, ochiq fikrlilik va global tafakkur kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida CLIL metodikasining o‘qish darslarida qo‘llanishi nafaqat o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirdi, balki ularni mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va o‘rganilgan ma’lumotlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatdi. Story Mapping, Think–Pair–Share, Character Comparison, Illustrated Reading va Cultural Dialogue kabi metodlar o‘qish jarayonini interfaol, tahliliy va mazmunli shaklga keltirgan.

Shu asosda aytish mumkinki, madaniy komponentni o‘qish jarayoniga tizimli ravishda integratsiyalash, CLIL yondashuvi bilan uyg‘un qo‘llanilganda, o‘quvchilarning o‘qish malakasini rivojlantirish, matnni anglash samaradorligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirish va shaxsiy motivatsiyani kuchaytirishda yuqori natijalarga olib keladi.

Demak, o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishda madaniy yondashuvni qo‘llash nafaqat til o‘rganish jarayonini boyitadi, balki o‘quvchining shaxsiy, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini uyg‘un shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik tizim sifatida e’tirof etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford University Press.
2. Littlewood, W. (1981). Communicative Language Teaching. Cambridge: CUP.
3. Lazar, G. (1993). Literature and Language Teaching. Cambridge University Press.
4. Jalolov, J. (2012). Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Imomov, Q. (1974). O‘zbek satirik ertaklari. Toshkent.
6. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters.
7. Tashpulatova, M. (2025). Ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv va ertaklardan foydalanish. Ta’lim, fan va innovatsiya, 1-son.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tashpulatova Madina**, 2-bosqich tayanch doktoranti, Navoiy davlat universiteti [**Ташпулатова, Мадина** докторант второго курса, Навоийский государственный университет], [**Madina Tashpulatova**, 2nd-year PhD student, Navoi State University]; manzil: O‘zbekiston, Navoiy sh., Ibn Sino ko'chasi, 45-uy [адрес: Узбекистан, г. Навои, ул. Ибн Сино, дом 45], [address: Uzbekistan, Navoi city, 45, Ibn Sino Street]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM SIFATINI YAXSHILASHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ZARURATI (O‘YIN TEXNOLOGIYALARI MISOLIDA)

© K.S. O’rinboyeva[1]✉, M.M. Usmonova[2]✉
[1,2]Andijon davlat pedagogika Instituti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada oliy ta’limda ta’lim sifatini xalqaro mezonlarga mos ravishda oshirish uchun innovatsion texnologiyalar, xususan, o‘yin texnologiyalarini joriy etish zarurati asoslanadi. O‘yinli yondashuv talabalarning motivatsiyasi, hamkorlik va kommunikativ kompetensiyalarini kuchaytirishi ta’kidlanadi.

MAQSAD: o‘yin texnologiyalarining pedagogik-psixologik asoslari hamda ularning ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga ta’sirini tahlil qilib, samarali joriy etish shart-sharoitlari va tavsiyalarini ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: vygotskiy, Piaget, Bruner, Kolb, Kapp, Gee, Mayer va mahalliy tadqiqotchilar ishlari kontent-tahlil qilindi; gamifikatsiya, kvest, simulyatsiya, rol-o‘yinlari bo‘yicha tajriba va kuzatuv natijalari umumlashtirildi; xorijiy (Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya) amaliyoti bilan qiyosiy tahlil o‘tkazildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘yin texnologiyalari talabalarning ishtiroki va eslab qolish darajasini sezilarli oshirishi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni faollashtirishi ko‘rsatildi; onlayn platformalar (Kahoot, Quizizz, Mentimeter, Classcraft) samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Joriy etish uchun pedagoglarning malakasi, texnik baza, adolatli baholash mezonlari va ijobiy psixologik muhit muhim shart ekani aniqlandi; infratuzilma va raqamli savodxonlikdagi bo‘shliqlar asosiy to‘siq sifatida qayd etildi.

XULOSA: o‘yinli yondashuv oliy ta’limda sifatni oshirishning ilmiy-amaliy asoslangan yo‘nalishi bo‘lib, o‘qish motivatsiyasi, hamkorlik, muammo yechish va kasbiy kompetensiyalarni kuchaytiradi. Uni tizimli joriy etish metodik qo‘llanmalar, o‘qituvchi tayyorgarligi va baholash tizimi bilan uyg‘un kechishi lozim.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar; o‘yin texnologiyalari; gamifikatsiya; ta’lim sifati; oliy ta’lim; interfaol metodlar; raqamli ta’lim; motivatsiya.

Iqtibos uchun: O’rinboyeva.K.S., M.M. Usmonova Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini yaxshilashda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarurati (o‘yin texnologiyalari misolida). // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.364–372.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© К.С. Уринбоева[1]✉, М.М.Усмонова[2]✉
[1,2]Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: обоснована необходимость внедрения инноваций, прежде всего игровых технологий, для повышения качества обучения и вовлечённости студентов в системе высшего образования. Игровые подходы усиливают мотивацию, сотрудничество и коммуникативные навыки.

ЦЕЛЬ: проанализировать психолого-педагогические основы игровых технологий и их влияние на показатели качества образования, определить условия эффективного внедрения и разработать рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведён контент-анализ работ Выготского, Пиаже, Брунера, Колба, Каппа, Джи, Майера и др.; обобщены данные по геймификации, квестам, симуляциям, ролевым играм; выполнено сравнительное сопоставление с практиками Финляндии, РК, Сингапура и Японии.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: игровые технологии существенно повышают участие и запоминаемость, развивают критическое и творческое мышление; цифровые платформы (Kahoot, Quizizz, Mentimeter, Classcraft) показали высокую эффективность. Ключевые условия — компетентность преподавателя, техническая инфраструктура, прозрачные критерии оценивания и поддерживающая атмосфера; дефицит ресурсов и цифровой грамотности — основные барьеры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: игровые подходы являются научно обоснованным средством повышения качества высшего образования и формирования профессиональных компетенций. Масштабирование требует методической поддержки, повышения квалификации и интеграции с системой оценивания.

Ключевые слова: инновационные технологии; игровые технологии; геймификация; качество образования; высшее образование; интерактивные методы; цифровое обучение; мотивация.

Для цитирования: Уринбоева.К.С., Усмонова М.М. Необходимость применения современных инновационных технологий в повышении качества образования в системе высшего образования (на примере игровых технологий).// Inter education & global study.2025. №10(1). С.364–372.

THE NEED TO USE MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM (USING THE EXAMPLE OF GAMING TECHNOLOGIES)

© Kumushoy S.Urinboyeva[1]✉,Mohlaroyim M. Usmonova[2]✉
[1,2]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the paper substantiates the need to integrate innovative—particularly game-based—technologies in higher education to raise quality and student

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

engagement. Game approaches boost motivation, collaboration, and communication skills.

AIM: to examine the pedagogical and psychological bases of game-based learning, assess its impact on quality indicators, and outline conditions and recommendations for effective implementation.

MATERIALS AND METHODS: content analysis of seminal works (Vygotsky, Piaget, Bruner, Kolb, Kapp, Gee, Mayer, etc.); synthesis of evidence on gamification, quests, simulations, and role-play; comparative review of practices in Finland, South Korea, Singapore, and Japan.

DISCUSSION AND RESULTS: game-based tools increase participation and retention, cultivate creative and critical thinking, and work effectively via digital platforms (Kahoot, Quizizz, Mentimeter, Classcraft). Success depends on teacher readiness, infrastructure, fair assessment rubrics, and supportive climates; infrastructure gaps and limited digital literacy remain key constraints.

CONCLUSION: game-based learning is a research-backed pathway to improve higher-education quality and build professional competencies. Scaling requires coherent methodology, faculty development, and aligned assessment systems.

Keywords: innovative technologies; game-based learning; gamification; quality of education; higher education; interactive methods; digital learning; motivation.

For citation: Kumushoy S. Urinboyeva, Mohlaroyim.M. Usmonova. (2025) 'The need to use modern innovative technologies in improving the quality of education in the higher education system (using the example of gaming technologies)', Inter education & global study, (10(1)), pp.364–372. (In Uzbek).

Bugungi globallashuv jarayonida oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — ta'lim sifatini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida samarali ta'lim muhitini yaratishdan iboratdir. XXI asr – axborot, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asri sifatida, ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari hamda shakllariga yangicha qarashni taqozo etmoqda. Shu boisdan, ta'limda an'anaviy yondashuvlar o'rnini asta-sekin zamonaviy innovatsion texnologiyalar, jumladan, o'yin texnologiyalari, interfaol o'qitish metodlari va raqamli platformalar egallab bormoqda.

Oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirish nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Shu ma'noda, o'yin texnologiyalari o'quv jarayoniga motivatsiyani kuchaytiruvchi, raqobat muhitini shakllantiruvchi, hamkorlik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiruvchi samarali vosita sifatida kirib kelmoqda[1].

O'yin texnologiyalarining mohiyati o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish, ta'lim jarayonini interfaol muloqot asosida tashkil etish va har bir talabada o'qishga qiziqish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

uyg‘otishga qaratilgan. O‘yin orqali o‘qitish, ayniqsa, STEM yo‘nalishlari, ijtimoiy va gumanitar fanlarda, shuningdek, pedagogika va psixologiya fanlarida keng qo‘llanilmoqda. O‘yin elementlari (rol o‘ynash, simulyatsiya, kvest, muammoli vaziyatlar yechimi va boshqalar) ta’lim jarayonini yanada jonlantiradi, talabalar orasida musobaqalashuv ruhini oshiradi hamda bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’lim sohasini isloh qilishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlarida ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini alohida ta’kidlab o‘tgan. Jumladan, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonda ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy o‘qitish uslublarini amaliyotga joriy etish, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish hamda ta’limni insonparvarlik va kreativ yondashuv asosida tashkil etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan[1,2].

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’limda o‘yin texnologiyalarini tatbiq etish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqadi, ta’lim jarayonini yanada demokratik, ochiq va motivatsion muhitda tashkil etish imkonini yaratadi. O‘yinli yondashuv o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash, tez fikrlash, mas’uliyatni his etish va o‘z fikrini dalillar bilan asoslash kabi kompetensiyalarni shakllantiradi.

Shuningdek, o‘yin texnologiyalarining afzalligi shundaki, ular o‘quv jarayoniga ijobiy emotsional fon olib kiradi, talabalarning stress darajasini kamaytiradi va o‘rganish jarayonini tabiiy hamda quvonchli faoliyatga aylantiradi. O‘yin shaklidagi darslar, raqamli kvestlar, interfaol viktorinalar va simulyatsion mashg‘ulotlar orqali talabalarning bilish faoliyati faollashadi, bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Shu bois, mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlardan biri — o‘yin texnologiyalarining o‘rni, ularni samarali qo‘llash shart-sharoitlari, amaliy tajribalar va xorijiy ta’lim tizimlarida bu texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlil qilinadi. Maqola natijalarida o‘yin texnologiyalarini joriy etish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar taxlili.So‘nggi yillarda ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasi global miqyosda dolzarb mavzulardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda o‘yin texnologiyalarining o‘qitish jarayoniga ta’siri, ularning didaktik imkoniyatlari hamda motivatsion ahamiyati keng o‘rganilgan. Jumladan, J. Piaget[1] va L. S. Vygotskiy[2] kabi psixologlarning nazariy qarashlari ta’lim jarayonida o‘yin faoliyatining shaxs rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatini asoslab bergan. Vygotskiy ta’limni “yaqin rivojlanish zonasi” doirasida tashkil etish zarurligini ta’kidlab, o‘yin orqali o‘qitish bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantirishini isbotlagan.

J. Bruner[3] va D. Kolbning[4] tajribaviy o‘rganish nazariyalari ham o‘yinli

[1] Piaget, J. (1962). *Play, Dreams and Imitation in Childhood.* New York: Norton.
[2] Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Harvard University Press.
[3] Bruner, J. (1996). *The Culture of Education.* Harvard University Press.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yondashuvning ilmiy asosini tashkil etadi. Ularning fikricha, bilim faqat passiv o‘zlashtirish jarayoni emas, balki faol tajriba orqali shakllanadigan dinamik jarayondir. O‘yin bu jarayonga tabiiy tarzda integratsiyalashadi va o‘quvchini bilish faoliyatining faol sub’yektiga aylantiradi.

XXI asrda o‘yin texnologiyalari ta’lim sohasida “gamifikatsiya” (gamification) deb ataluvchi yo‘nalish sifatida rivojlanib, o‘quv jarayoniga raqobat, baholash, motivatsiya va interfaollik elementlarini olib kiradi. K. Kapp[5] (2012), J. Gee[6] (2015) va R. Mayer[7] (2019) kabi olimlar o‘yin texnologiyalari yordamida o‘quvchilarda chuqur o‘rganish, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanishini ta’kidlaydilar.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, o‘yinli yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. B. Ziyamuhamedov, S. X. Nishonov, A. Abduqodirov, N. T. To‘rayev, G. Qodirova va boshqalar o‘z tadqiqotlarida o‘yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning psixologik-pedagogik asoslari hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni faollashtirishdagi ahamiyatini yoritganlar.

B. Ziyamuhamedov[8] (2019) o‘yin texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilar ekan, ularning asosiy vazifasi talabaning o‘qishga qiziqishini uyg‘otish, faol ishtirokini ta’minlash va ta’limda ijobiy emotsional muhit yaratishdan iboratligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, S. Nishonov[9] (2020) o‘yin elementlarini qo‘llash natijasida talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, tahliliy fikrlash qobiliyati hamda jamoaviy faoliyati sezilarli darajada rivojlanishini isbotlab bergan.

Xorijiy tajribalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiya ta’lim tizimlarida o‘yinli yondashuv ta’limning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Masalan, Finlyandiyada “learning by playing” (o‘yin orqali o‘rganish) tamoyili boshlang‘ich va oliy ta’lim bosqichlarida keng qo‘llanadi. Bu yondashuv talabalarning mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Muhokama va natijalar.O‘yin texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash, avvalo, o‘qituvchi faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi. Zamonaviy pedagog, nafaqat bilim beruvchi, balki o‘rganish jarayonining dizayneri, fasilitatori va motivatori sifatida o‘z rolini yangilashi zarur. Shu jihatdan, o‘yin texnologiyalari ta’limni “sub’yekt–sub’yekt” tamoyili asosida tashkil etish, har bir talabani

[4] Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development.* Prentice Hall.
[5] Kapp, K. M. (2012). *The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education.* Pfeiffer.
[6] Gee, J. P. (2015). *Teaching, Learning, Literacy in Our High-Risk High-Tech World.* Teachers College Press.
[7] Mayer, R. E. (2019). *Computer Games for Learning: An Evidence-Based Approach.* MIT Press.
[8] Ziyamuhamedov, B. (2019). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot.* Toshkent: TDPU nashriyoti.
[9] Nishonov, S. X. (2020). *Interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati.* Oliy ta’lim jurnali, №4.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

faol o‘quvchi sifatida jalb etish imkonini beradi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, o‘yin texnologiyalari nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ta’lim sifatining asosiy ko‘rsatkichlari — o‘zlashtirish darajasi, ijodiy faollik, kommunikativ ko‘nikmalar va motivatsiyani ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida o‘yin texnologiyalarini qo‘llash — ta’lim sifatini oshirishning dolzarb, ilmiy va amaliy asoslangan yo‘nalishlaridan biridir.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni beqiyosdir. Oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy o‘qitish usullari o‘rnini bosuvchi interfaol, texnologik va shaxsga yo‘naltirilgan metodlar jadal sur’atda kirib kelmoqda. Zamonaviy talaba endilikda axborotni tayyor holatda emas, balki izlab topuvchi, tahlil qiluvchi, baholovchi va undan yangi bilim hosil qiluvchi faol sub’yekt sifatida shakllanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, o‘yin texnologiyalarini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish ta’limning mazmunini jonlantiradi, o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi va ta’limni raqamli muhitda samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘yinli yondashuv nafaqat dars jarayonida, balki mustaqil ta’lim, laboratoriya mashg‘ulotlari va loyiha ishlarida ham qo‘llanilishi mumkin.

Innovatsion texnologiyalar, jumladan gamifikatsiya, kvest o‘yinlari, simulyatsiya va rol o‘ynash mashg‘ulotlari talabalarning kognitiv (bilish), affektiv (emosional) va ijtimoiy faoliyatini kompleks tarzda rivojlantiradi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini qiziqarli, raqobatli va natijaga yo‘naltirilgan holga keltiradi.

O‘yin inson faoliyatining tabiiy shakli bo‘lib, u nafaqat bolalik davrida, balki kattalarda ham ijodiy tafakkurni faollashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida o‘yindan foydalanish – bu shunchaki vaqtni o‘tkazish emas, balki motivatsiyani kuchaytirish, o‘rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish va yangi bilimlarni mustahkamlashning ilmiy asoslangan shaklidir.

Psixologik nuqtai nazardan, o‘yinli o‘qitish Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga asoslanadi, ya’ni talaba o‘zining mavjud bilim doirasidan biroz yuqoriroq darajadagi topshiriqlarni bajarish orqali o‘sish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tarzda, o‘yin jarayoni orqali shaxsda kognitiv rivojlanish, tahliliy fikrlash va ijodkorlik faollashadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, o‘yin texnologiyalari darsni “sub’yekt–sub’yekt” munosabatiga asoslaydi. Bunda o‘qituvchi — boshqaruvchi emas, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, maslahat beruvchi, hamkorlikda bilim yaratishda vositachi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ta’lim jarayonini demokratlashtirishga, talabalarni mustaqil o‘rganishga jalb etishga xizmat qiladi.

O‘yin texnologiyalari mazmuni va shakliga ko‘ra turli ko‘rinishlarga ega. Oliy ta’lim tizimida quyidagi asosiy turlar eng samarali deb hisoblanadi:

Didaktik o‘yinlar — mavzuni o‘zlashtirish, tushunchalarni mustahkamlash va takrorlash jarayonida qo‘llaniladi. Masalan, “Kim tezroq topadi?”, “Bilim poygasi”, “Topshiriqlar zanjiri” kabi.

Rol o‘ynash o‘yinlari — talabalar turli kasbiy vaziyatlarga kirishib, muammoli

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

holatlarni hal etadi. Bu turdagi o‘yinlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Kvest o‘yinlari (Quest technology) — muammoli topshiriqlarni bosqichma-bosqich hal etishga asoslangan interfaol jarayon. Fizika, informatika, pedagogika fanlarida keng qo‘llaniladi.

Simulyatsion o‘yinlar — real hayotiy yoki kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarda tahliliy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Onlayn o‘yinli platformalar (Kahoot, Quizizz, Mentimeter, Classcraft) — raqamli muhitda o‘quvchilarning ishtirokini jonlantirish, reyting asosida baholash imkonini beradi.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida o‘yin texnologiyalarini qo‘llash natijasida talabalar ishtiroki 60–70 foizdan 90–95 foizgacha oshgan, ularning bilimlarni eslab qolish ko‘rsatkichi esa ikki baravar yaxshilangan. Shuningdek, o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar orqali talabalarning o‘zaro hamkorlikda ishlash, tez fikrlash va yechim topish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlangan.

O‘yin texnologiyalarini samarali tatbiq etish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:

Pedagoglarning tayyorgarligi — o‘qituvchilar o‘yin elementlarini darsga to‘g‘ri integratsiyalashni bilishlari, o‘yin maqsadini aniq belgilashlari zarur.

Texnik baza — raqamli vositalar, kompyuterlar, internet tarmoqlari va interfaol doskalar mavjud bo‘lishi kerak.

Dasturiy ta’minot — o‘yinli platformalar (Kahoot, Classcraft, Edmodo va boshqalar)ni o‘quv jarayoniga kiritish.

Psixologik muhit — talabalarning ishtirokini rag‘batlantiruvchi, musobaqa va ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlovchi ijobiy atmosfera yaratish.

Baholash tizimi — o‘yin natijalarini adolatli va aniq baholovchi mezonlar ishlab chiqilishi lozim.

Shuningdek, o‘yin texnologiyalarini tatbiq etishda o‘qituvchi har bir talabaning individual qobiliyatini hisobga olishi, ularning faolligini rag‘batlantiruvchi shaffof mexanizmlarni qo‘llashi muhim.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish quyidagi natijalarga olib keladi:

Talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi;

Bilimlarni mustahkamlash va amaliy qo‘llash darajasi ortadi;

Ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi;

Jamoada ishlash, liderlik va kommunikatsiya kompetensiyalari shakllanadi;

Dars jarayonida stress kamayadi, ijobiy emotsional fon vujudga keladi;

Ta’lim sifati bo‘yicha yakuniy baholash natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi.

O‘zbekistonning ayrim oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘yin texnologiyalarini tizimli qo‘llash natijasida talabalarning o‘zlashtirish darajasi 20–25 foizga oshgan, fanlarga bo‘lgan qiziqish esa 1,5 barobarga ortgan. Bu esa o‘yin texnologiyalarining ta’lim sifatini yaxshilashdagi kuchli omil ekanligini amalda isbotlaydi.

O‘yin texnologiyalarini joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham kuzatiladi:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnik infratuzilmaning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi, vaqt resurslarining cheklanganligi va o‘yin jarayonini noto‘g‘ri rejalashtirish.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

pedagoglar uchun malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish;

o‘yin texnologiyalarini fan mazmuniga mos didaktik qo‘llanmalar ishlab chiqish;

har bir oliy ta’lim muassasasida innovatsion laboratoriyalar tashkil etish;

o‘yin texnologiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni ta’lim sifatini nazorat qilish tizimiga integratsiya qilish.

Xorijiy ta’lim tizimlari, xususan Finlyandiya, Kanada, Janubiy Koreya va Singapurda o‘yin texnologiyalari ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu mamlakatlarda o‘yin asosida o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim elementi sifatida qaraladi. Ular o‘yinli metodlar yordamida talabalarda mustaqillik, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va hayotiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham bu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, ta’lim dasturlariga o‘yin texnologiyalarini integratsiya qilish, o‘qituvchilarni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va raqamli platformalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa.Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni, innovatsion texnologiyalarni, xususan, o‘yin texnologiyalarini keng joriy etishni talab etadi. Ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlashga, ijodkorlikka, hamkorlikda ishlashga undaydi. Shu bilan birga, o‘yinli yondashuvlar talabalarning bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘yin texnologiyalari o‘qitishning interfaol usullaridan biri sifatida ta’lim samaradorligini oshiradi, motivatsiyani kuchaytiradi hamda raqobatbardosh, tashabbuskor va ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. Ularning afzalliklari shundaki, ular o‘quv muhitini jonlantiradi, bilimlarni amaliy qo‘llashga sharoit yaratadi va ta’lim oluvchining shaxsiy rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Zamonaviy raqamli muhitda o‘yin texnologiyalarini joriy etish ta’lim tizimini modernizatsiyalashning muhim omillaridan biridir. Virtual va raqamli o‘yin texnologiyalari yordamida o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, amaliy tajriba orttirish hamda muammoli holatlarni tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi. Shunday qilib, o‘yin texnologiyalarini qo‘llash nafaqat ta’lim jarayonini qiziqarli qiladi, balki uni samarali, natijador va zamon talablari darajasida tashkil etishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, oliy ta’lim tizimida innovatsion o‘yin texnologiyalarini joriy etish — bu ta’lim sifatini oshirish, talabalarning kognitiv faolligini rivojlantirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir. Shu bois, pedagogik jarayonda o‘yin texnologiyalarini tizimli va metodik asosda tatbiq etish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

zamonaviy ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Piaget, J. (1962). Play, Dreams and Imitation in Childhood. New York: Norton.
3. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. Harvard University Press.
4. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall.
5. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. Pfeiffer.
6. Gee, J. P. (2015). Teaching, Learning, Literacy in Our High-Risk High-Tech World. Teachers College Press.
7. Mayer, R. E. (2019). Computer Games for Learning: An Evidence-Based Approach. MIT Press.
8. Ziyamuhamedov, B. (2019). Innovatsion pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDPU nashriyoti.
9. Nishonov, S. X. (2020). Interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Oliy ta’lim jurnali, №4.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–6108-son Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr.
11. Abduqodirov, A. (2021). Innovatsion ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
12. Qodirova, G. (2022). Gamifikatsiya orqali ta’lim samaradorligini oshirish usullari. Ta’lim va innovatsiya jurnali, №2

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **O’rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi**, dotsent [**Уринбоева Кумушой Султонбек кизи**,доцент], [**Urinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi** associate professor]; manzil: Andijon shahar, Do'stlik ko'chasi, 4-uy, [адрес: Город Андижан, улица Дружбы, дом 4], [address: 4 Druzhby Street, Andijan city]

✉ **Usmonova Mohlaroyim Muhammadjon qizi**, stajor o’qituvchi [**Усмонова Мохларойим Мухаммаджон кизи**, стажер-преподаватель], [**Usmonova Mohlaroyim Muhammadjon qizi** trainee teacher]; manzil: Andijon shahar, Do'stlik ko'chasi, 4-uy, [адрес: Город Андижан, улица Дружбы, дом 4], [address: 4 Druzhby Street, Andijan city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TALABALARGA INGLIZ TILINI O`QITISHDA SUN`IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

© N. Farmonova[1]✉

[1]Navoiy Davlat Universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada talabalarga ingliz tilini o`qitishda sun`iy intellect texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati to`g`risida ma`lumot beriladi. Sun`iy intellect terminining mohiyati yoritib beriladi va aynan shu texnologiyalar asosida o`qitishning nechog`lik samaradorligi asoslab beriladi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — ingliz tili ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va imkoniyatlarini aniqlash, ularning talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasiga va individual ta’lim jarayoniga ta’sirini baholashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni solishtirish, shuningdek, ChatGPT, Grammarly, Duolingo AI kabi sun’iy intellekt platformalaridan foydalanilgan eksperimental kuzatish usullari qo‘llanildi. Shuningdek, adaptiv va differensial ta’lim modellarining samaradorligi o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o‘quv jarayonini individuallashtirish, topshiriqlarni bilim darajasiga moslashtirish va o‘qituvchi vaqtini optimallashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI vositalaridan foydalanish leksik va grammatik materialni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni rivojlantirish zarurati va baholashning axloqiy masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

XULOSA: sun’iy intellekt texnologiyalari ingliz tili o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Ularning oqilona qo‘llanilishi ta’lim jarayonini optimallashtirish, talabalar fikrlashini rivojlantirish va moslashuvchan o‘quv muhitini yaratishga xizmat qiladi. Kelgusida AI texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, sun`iy intellect, pedagogika, differensial, optimallashtirish, moslashuvchan, metod.

Iqtibos uchun: Farmonova N. Talabalarga ingliz tilini o`qitishda sun`iy intellektdan foydalanish texnologiyasi. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №10(1). B.373–378.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

© Н. Фармонова[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: эта статья предоставит студентам информацию о важности использования технологий искусственного интеллекта в преподавании английского языка. Будет освещена суть термина искусственный интеллект и обоснована эффективность обучения на основе именно этих технологий.

ЦЕЛЬ: цель исследования — определить роль и возможности использования технологий искусственного интеллекта в совершенствовании процесса преподавания английского языка, а также выявить их влияние на мотивацию и индивидуализацию обучения студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы анализа педагогической литературы, сравнительного изучения традиционных и инновационных подходов, а также элементы экспериментальной апробации с применением AI-platform (ChatGPT, Grammarly, Duolingo AI). Рассматривались модели адаптивного и дифференцированного обучения с использованием интеллектуальных систем.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: применение искусственного интеллекта в обучении английскому языку способствует индивидуализации процесса обучения, адаптации заданий под уровень студента, а также оптимизации времени преподавателя. Анализ показал, что использование AI-инструментов повышает эффективность усвоения лексического и грамматического материала, развивает навыки самоконтроля и самостоятельной работы. В то же время, выявлены и проблемы — необходимость цифровой грамотности педагогов и этические вопросы автоматизированной оценки.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: технологии искусственного интеллекта являются перспективным направлением в преподавании английского языка. Их рациональное использование способствует оптимизации образовательного процесса, развитию критического мышления и формированию гибкой обучающей среды. В будущем необходимо разработать методические рекомендации по интеграции AI-технологий в педагогическую практику.

Ключевые слова: цифровые технологии, искусственный интеллект, педагогика, дифференциал, оптимизация, гибкость, метод.

Для цитирования: Фармонова Н. Технология использования искусственного интеллекта в обучении студентов английскому языку. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №10(1). С.373–378.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

TECHNOLOGY FOR THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING ENGLISH TO STUDENTS

© Naimaxon Farmonova[1]✉
[1]Navoiy State University, Navoiy, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article will provide students with information on the importance of using artificial intellect technologies in teaching English. The essence of the term artificial intellect is illuminated, and it is on these technologies that the effectiveness of training is justified.

AIM: the purpose of the study is to identify the role and potential of AI technologies in English language education and to assess their impact on students' motivation and individualized learning processes.

MATERIALS AND METHODS: the research is based on the analysis of pedagogical literature, comparison of traditional and innovative approaches, and experimental observations using AI-based platforms such as ChatGPT, Grammarly, and Duolingo AI. In addition, the effectiveness of adaptive and differentiated learning models was examined.

DISCUSSION AND RESULTS: the use of AI technologies allows for the individualization of the learning process, the adaptation of tasks to students' proficiency levels, and the optimization of teachers' workload. The results show that the integration of AI tools improves the efficiency of mastering lexical and grammatical materials, enhances independent learning skills, and increases engagement. However, issues of digital literacy and ethical aspects of AI-based assessment remain relevant.

CONCLUSION: artificial intelligence technologies represent a promising direction in English language teaching. Their rational application contributes to optimizing the learning process, developing students' critical thinking, and creating a flexible and adaptive learning environment. Further research is needed to develop methodological recommendations for integrating AI technologies into the educational process.

Keywords: digital technology, artificial intellect, pedagogy, differential, optimization, flexible, method.

For citation: Naimaxon Farmonova. (2025) 'Technology for the use of artificial intelligence in teaching english to students', Inter education & global study, vol.3 (10(1)), pp.373–378. (In Uzbek).

XXI asrda global raqamli o'zgarishlar ta'lim tizimiga tubdan yangicha yondashuvlarni olib kirdi. Dunyo bo'yicha xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'qitish jarayoni yangi bosqichga o'tdi — bunda ta'limning samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari faol joriy etilmoqda. SI — bu inson tafakkurini modellashtiruvchi, o'rganish va qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtiruvchi tizim bo'lib, u hozirda ta'limning deyarli barcha sohalarida o'z o'rnini topgan[1].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Raqamli transformatsiya sharoitida o‘quv jarayonining individuallashtirilgan, moslashuvchan va interaktiv bo‘lishi ta’lim samaradorligining muhim mezoniga aylandi. An’anaviy dars shakllari talabalarning ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti, chunki ularning o‘rganish uslublari, tezligi va motivatsiyasi har xil. Shu sababli, SI texnologiyalari asosida yaratilgan o‘quv tizimlari — masalan, ChatGPT, Grammarly, Duolingo Max, Elsa Speak va boshqalar — talabalar uchun individual ta’lim yo‘nalishini ta’minlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, *2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekistón Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to*g'risida" gi farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida ta’lim tizimini raqamlashtirish, sun’iy intellektni joriy etish, hamda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan[3]. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tili ta’limida SI texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb ilmiy muammo hisoblanib, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Tarixga nazar tashlasak, 1977-yilda Budapeshtda YUNESKO tomonidan tashkil qilingan xalqaro seminarda ta`limdagi texnologik jarayonning asosiy xususiyatlari ko`rsatib o`tildi:

1.Texnikani mukammal bilish va ishlatish.

2. Audiovizual materiallar fondi bilan tanishish.

3.Ularning samarali ishlatish metodikasini egallash va ijodiy yondashish[4]. Yangi ta`lim texnologiyaloari asosida o`qitish ta`limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu o`rinda bunday o`qitish usuli o`quvchilarning sifatli va samarali ta`lim olishiga zamin yaratmoqda desak mubolag`a bo`lmaydi.

O‘zbekistonda SI texnologiyalarining ta’lim tizimiga kirib kelishi, integratsion jarayonlar va innovatsion yondashuvlar haqida o`zining ilmiy maqolalarida tahlil etgan. Xorijiy davlatlar olimlaridan R. Luckin sun’iy intellekt ta’lim jarayonida “o‘qituvchi yordamchisi” sifatida ishlashi mumkinligini ta’kidlaydi[5].

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar asosan umumiy ta’lim jarayonida SI texnologiyalarining texnik imkoniyatlarini tahlil qilish bilan chegaralangan bo`lib, ingliz tili o‘qitish metodikasining psixolingvistik va didaktik jihatdan sun’iy intellekt yordamida takomillashtirilishi esa yetarlicha o‘rganilmagan. Ayniqsa, talabalarning mustaqil o‘rganish motivatsiyasiga, kommunikativ kompetensiyasiga hamda o‘qituvchi–SI–talaba o‘zaro hamkorligining samaradorligiga bag‘ishlangan kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Didaktik tizimda SI texnologiyalarining eng muhim jihatlaridan biri bu — o‘quv materialini optimallashtirishdir. Tizim talabalarning o‘rganish jarayonidagi xatoliklarini, javob tezligini va qiyinchilik darajasini aniqlab, shunga mos ravishda materialni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

soddalashtiradi yoki murakkablashtiradi [6]. Masalan, talaba bir mavzuda qiynalayotgan bo‘lsa, tizim unga avtomatik tarzda qo‘shimcha tushuntirish, misollar yoki interaktiv mashqlar taklif etadi. Aksincha, agar talaba materialni tez o‘zlashtirayotgan bo‘lsa, tizim keyingi bosqichdagi murakkab topshiriqlarni taqdim etadi. Bunday mexanizm ta’lim jarayonini differensial va moslashuvchan shaklga keltiradi [7]. Har bir talaba yoki o‘quvchilar guruhi uchun ularning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari, o‘zlashtirish tezligi va ehtiyojlariga qarab turlicha o‘quv materiallari, topshiriqlar yoki metodlar qo‘llaniladi hamda avtomatik ravishda talaba faoliyatiga moslashadi. Ya’ni o‘qituvchi emas, balki SI tizimi talabaning natijalariga qarab o‘quv jarayonini boshqaradi.

Holmes va hamkorlari qayd etganidek, SI asosida qurilgan ta’lim tizimlari inson o‘qituvchining kuzatuvchanligini algoritmik tahlil orqali kuchaytiradi, bu esa o‘qitish sifatini sezilarli darajada oshiradi [8]. Shu sababli, sun’iy intellekt asosidagi didaktik yondashuv o‘qituvchini to‘liq almashtirmaydi, balki uning faoliyatini samarali tarzda to‘ldiradi. Bundan ma`lum bo`ladiki, sun’iy intellekt ta’lim tizimida o‘qituvchining o‘rnini egallash uchun emas, balki uning pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va kuchaytirish uchun xizmat qiladi. SI texnologiyalari o‘quv jarayonida inson o‘qituvchining kuzatuvchanligi, tahlil qilish qobiliyati va qaror qabul qilish jarayonlarini kengaytiradi.

An’anaviy darsda o‘qituvchi barcha talabalarni bir vaqtda kuzatib, ularning bilim darajasini to‘liq baholay olmaydi. Ammo SI tizimi har bir talabaning faoliyatini (test natijalari, topshiriqdagi xatolar, javob berish tezligi va boshqalar) doimiy ravishda tahlil qilib, o‘qituvchiga aniq va tezkor ma’lumotlar beradi. Shu ma’lumotlar asosida o‘qituvchi kimga qo‘shimcha e’tibor kerakligini, kimga murakkabroq topshiriq berish zarurligini aniq bilib oladi. Natijada, SI o‘qituvchining ishini yengillashtiradi, vaqtini tejaydi va ta’lim jarayonini differensial hamda individual yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi. Demak, SI o‘qituvchini to‘liq “o‘rnini bosuvchi mexanizm” sifatida emas, balki intellektual yordamchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U insonning emotsional, ijtimoiy va tarbiyaviy rolini bajara olmaydi, lekin tahliliy, ma’lumotlarni qayta ishlovchi va natijalarni bashoratlovchi funksiyalar orqali o‘qituvchining samaradorligini oshiradi. Aytishimiz mumkinki, sun’iy intellekt asosidagi didaktik yondashuv o‘qituvchi va texnologiya o‘rtasidagi hamkorlik modelini shakllantiradi — bunda o‘qituvchi ijodkor, tarbiyachi va yo‘naltiruvchi rolida qoladi, AI esa tahlilchi, kuzatuvchi va tavsiya beruvchi sifatida uni qo‘llab-quvvatlaydi.

Sun`iy intellekt yordamida o‘qitish tizimi har bir talabaning bilim olish trayektoriyasini shakllantiradi. Bu trayektoriya talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq yo‘naltiriladi [9]. Natijada o‘quvchi yoki talaba o‘z o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu jihatdan, SI texnologiyalari didaktik tizimda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini amalga oshirishning eng samarali vositasi sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, Sun’iy intellekt asosida shakllangan didaktik tizim o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. SI yordamida o‘qitish metodlari individuallashtiriladi, o‘quv materiali optimallashtiriladi, natijada har bir talaba uchun eng samarali o‘quv muhiti yaratiladi. Bu tizim ta’limda inson va texnologiya hamkorligining yangi bosqichini ifodalaydi. SI asosidagi ta’lim platformalarida o‘quv

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jarayoniga o‘yin elementlari (ball to‘plash, reyting tizimi, badge yoki medallar, topshiriq bosqichlari va mukofotlar) kiritiladi. Bunday o‘yinlashtirilgan muhit o‘quvchilarda raqobat va hamkorlik ruhini uyg‘otadi — ular bir-birlari bilan bellashish, guruh bo‘lib ishlash yoki jamoaviy maqsadga erishish orqali ijtimoiy jihatdan faolroq bo‘lishadi. Shu jarayonda o‘quvchi o‘zining jamoaga qo‘shgan hissasini anglaydi va mas’uliyat hissi shakllanadi — ya’ni har bir topshiriqni bajarish nafaqat o‘zining, balki butun guruh muvaffaqiyati uchun muhimligini tushunadi. Shu sababli, SI texnologiyalarining didaktik tizimga chuqur integratsiyasi zamonaviy pedagogikaning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Russell, S., Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
2. Holmes, W., et al. (2021). Artificial Intelligence in Education. OECD.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5048-son qarori, 2021-yil 19-may.
4. R.A.Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K. Shirinov, S.Hafizov Umumiy pedagogika darslik, Toshkent- 2018 , 171-bet.
5. Luckin, R. (2022). *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education in the 21st Century.* London: UCL Press.
6. Woolf, B. P. Building Intelligent Interactive Tutors. – Burlington: Morgan Kaufmann, 2009.
7. Luckin, R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – UCL Institute of Education Press, 2018.
8. Holmes, W., et al. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – The Centre for Education Policy Research, 2019.
9. OECD. AI in Education: Policy Implications and Challenges. – OECD Report, 2022.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Naimaxon Farmonova,** 2-kurs doktorant, Navoiy davlat universiteti, [**Фармонова Наимахон,** аспирантка 2-го курса, Навоийский государственный университет], [**Naimaxon Farmonova,** 2nd-year Doctoral Student, Navoi State University]; manzil: O‘zbekiston, Navoiy sh., Galaba ko‘chasi, 45-uy [адрес: Узбекистан, г. Навои, ул. Галаба, д. 45], [address: Uzbekistan, 45 Galaba St., Navoi city]; e-mail: farmonovanaima@gmail.com, tel.: +99890 732 95 82.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BAQSHICHILIK AN'ANALARIDAN ZAMONAVIY TA'LIMGACHA: EPIK ASARLARNI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

© L.M. Maxammatdinova[1]✉

[1]O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya

KIRISH: Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida milliy madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, folklor va epik merosni ta'lim tizimida o'qitish, yosh avlod ongiga singdirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada Qoraqalpoq folklorida shakllangan baqshichilik va jirovlik an'analari, epik janrlarning tasnifi hamda obrazlar tizimi tahlil qilinadi. Shuningdek, doston ijrochiligi fanini o'qitishda an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg'unlashuvi, ustoz-shogird maktabining bugungi ta'limdagi o'rni va amaliy ahamiyati yoritilgan.

MAQSAD: Qoraqalpoq doston ijrochiligi an'analarini zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llashning pedagogik asoslarini o'rganish va ularning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi rolini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, kuzatuv va suhbat metodlaridan foydalanilgan. Baqshilar ijodi, og'zaki meros namunalarining o'rganilishi hamda ta'lim muassasalaridagi amaliy mashg'ulotlar kuzatilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpoq folklorida baqshichilik va jirovlik an'analari nafaqat badiiy meros, balki ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ustoz-shogird tizimi bugungi o'quv jarayonida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy model sifatida qayta tiklanmoqda. Epik asarlar orqali o'quvchilarda milliy g'urur, badiiy tafakkur va estetik didni rivojlantirish mumkin.

XULOSA: baqshichilik va jirovlik an'analarini o'qitish ta'lim jarayonini milliy ruh bilan boyitadi. Ularni o'quv dasturlariga integratsiya qilish yosh avlodni milliy o'zlik va madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Kalit so'zlar: folklor, epik asar, doston, baqshichilik, jirovlik, pedagogika, an'anaviy ijro, zamonaviy ta'lim, Qoraqalpoq, san'at.

Iqtibos uchun: Maxammatdinova L.M. Baqshichilik an'analaridan zamonaviy ta'limgacha: epik asarlarni o'qitishning nazariy va amaliy asoslari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №10(1). B.379–385.

ОТ ТРАДИЦИЙ БАХШИ ДО СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЭПИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Л.М. Махаммаддинова[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в период развития Новой Узбекистана развитие национальной культуры и искусства стало одним из важнейших направлений государственной политики. Особое внимание уделяется преподаванию фольклора и эпического наследия в системе образования, а также его внедрению в сознание молодого поколения. В статье анализируются традиции бахшичества и жировства, сформировавшиеся в каракалпакском фольклоре, классификация эпических жанров и система образов. Также рассматривается сочетание традиционных и современных педагогических подходов в преподавании искусства исполнения дастанов, роль школы «устоз-шогирд» в современном образовательном процессе и её практическое значение.

ЦЕЛЬ: изучить педагогические основы применения традиций каракалпакского эпического исполнительства в современном образовательном процессе и определить их роль в формировании духовных ценностей молодежи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы историко-аналитический, сравнительный, наблюдательный и интервью-методы. Исследованы произведения бакши, устная традиция и педагогический опыт.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что бакшистские и жыровские традиции не только художественное наследие, но и важный образовательный ресурс. Система «устоз-шогирд» возрождается как модель воспитания на основе национальных ценностей. Эпические произведения способствуют развитию эстетического восприятия, патриотизма и национального самосознания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: преподавание традиций бакшичества и жыровства обогащает образовательный процесс национальным духом и формирует уважение к культурному наследию.

Ключевые слова: фольклор, эпическое произведение, дастан, бахшичество, жировство, педагогика, традиционное исполнение, современное образование, Каракалпакстан, искусство

Для цитирования: Л.М. Махаммаддинова. От традиций бахши до современного образования: теоретические и практические основы преподавания эпических произведений. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №10(1). С.379–385.

FROM BAKHSHI TRADITIONS TO MODERN EDUCATION: THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF TEACHING EPIC WORKS

© Lola M. Maxammatdinova[1]✉
[1]Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Nukus, Karakalpakstan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

INTRODUCTION: in the era of “New Uzbekistan,” the development of national culture and art has become one of the key directions of state policy. In particular, teaching folklore and epic heritage within the education system plays a significant role in shaping young minds. This article analyzes the traditions of Bakhshi and Jirov performers in Karakalpak folklore, the classification of epic genres, and the system of artistic imagery. It also highlights the pedagogical integration of traditional and modern methods in teaching epic performance and the educational value of the “mentor-apprentice” system.

AIM: to study the pedagogical foundations of applying Karakalpak epic performance traditions in modern education and to determine their role in shaping the spiritual and cultural identity of youth.

MATERIALS AND METHODS: historical-analytical, comparative, observation, and interview methods were used. The works of Bakhshis, oral heritage, and educational practices were analyzed.

DISCUSSION AND RESULTS: the study revealed that Bakhshi and Jirov traditions are not only artistic heritage but also educational tools for cultural transmission. The mentor-apprentice model is being revived in modern pedagogy as a means of fostering national identity and moral values. Epic narratives enhance students’ creativity, aesthetic taste, and patriotic awareness.

CONCLUSION: incorporating Bakhshi and Jirov traditions into education enriches the learning process with national spirit and strengthens respect for cultural heritage among the younger generation.

Keywords: folklore, epic work, dastan, Bakhshi, Jirov, pedagogy, traditional performance, modern education, Karakalpak, art.

For citation: Lola M. Maxammatdinova. (2025) ‘From bakhshi traditions to modern education: theoretical and practical foundations of teaching epic works’, Inter education & global study, vol.3 (10(1)), pp.379–385. (In Uzbek).

Yangi O’zbekistonda jadal rivojlanayotgan bir pallada barcha kasb turlarida sezilarli o’zgarishlar, rivojlanishlar davri bo’lib tarix zarbaraxlarida yozilmoqda. Ana shunday tarixiy jarayonlardan biri bu musiqa san’atining yurtimizda Yuksalishidir. Milliy san’atimizning rivojlanishi kelajak bunyodkorlari uchun juda katta imkoniyatlar eshigi sifatida keng ochilmoqda. Qoraqalpoq diorida folklor atamasi eshitilishi bilan darrov kozoldimizda baqshi-jirovlar keladi. Ularning sehrli chalg’usi ovozlari qulog’imizda jaranglaydi.

An’anaviy san’at ta’limda o‘qituvchi ilm beruvchi, tarbiyalovchi, o‘quvchi esa bilim oluvchi hamda tarbiyalanuvchi shaxs: bunda ta’limning asosini dars tashkil etadi. Darslarning maqsadi esa uni tashkil etish va olib borishda qo‘llanilishi ilg‘or bo’lgan usullarga ko‘ra ta’limning natijasi, uning sifati yuzaga keladi. O‘qituvchi va o‘quvchi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

munosabatlari asosida muayyan fandan o‘quv dasturiga ko‘ra eng ko‘p darajada bilim egallash, ma’naviy jixatdan tarbiyalashni tashkil qiladi. [1-3].

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filialida olib borilayotgan ta’lim jarayonlarida bugungi kunda folklor va etnografiya kafedrasida bir qancha professor o’qituvchilar o’zlaring ustozlik vazifalarida yangi uslublardan foydalangan holda dars berib kelmoqdalar natijalari bilan esa maqolamiz songida bo’lishib o’tamiz.

Qoraqalpog’iston respublikasi sharoitida musiqa talimi pedagogikasining tomiri jirovlarga, baqshilarga borib taqaladi. Ularni bugungi kunga qadar olimlar o’z ilmiy ishlarida yoritib kelishmoqda shunday olimlardan I.Moyanov[2],
baqshilarga o’tiladigan darslardagi uslub va yangi texnologiyalarni isboti bilan keltirib o’tishgan. Bugungi davr pedagogikasi juda mukammal bo’lib, yoshlarning ongini faqat yaxshilikka eltuvchi uslublarini ko’paytirish respublikamiz rahbarlari ham qayta qayta takidlashmoqda va pedagoglarning maqomlarini ham yuqoriga olib chiqish borasida ham juda ko’plab ishlar respublika doisrasida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev tamonidan ham O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O‘RQ-901-son qarori[4] qabul qilinishi fikrimizning yorqin dalili.

“Bugungi ta’limda o‘quvchi faoliyatini jonlantirish uning ijodiy qobiliyatini o‘stirish, mustaqil fikr yuritish malakasiga ega qilish muhim hisoblanadi. Mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish omillaridan biri esa – bu ta’lim-tarbiya jarayonida epik asarlarini o‘rganish hisoblanadi”.[5-3]

“Dunyo folklorshunosligida qahramonlik eposi nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lgan yangicha yondashuvlarning paydo bo‘lishi, jumladan, epik janrning genezisi va tipologiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar takomillashtirilib, qahramonlik eposning genetik asoslarida farzandsizlik hamda botirning g‘ayritabiiy tug‘ilishi motivlarining o‘rin olishi haqidagi ilmiy yangicha qarashlar bilan boyitilib borilmoqda”[6-5]

Epik asar, avvalo, voqelikning obyektiv aks etishidir. V.G.Belinskiy ham epik turning bu bosh xususiyatini alohida ta’kidlaydi: eposda “voqea- qahramon-voqeadir”. Epik asarda ijodkor oddiy hikoyachi sifatida voqelik ortiga yashirinadi. Ammo bu epik asarda badiiy kechinma bo‘lmaydi degani emas. Eposning eng asosiy belgisi voqea tasviri, bayoni bo‘lgani uchun ham ko‘pincha bu turdagi asarlar nasr yo‘lida yoziladi. Lekin bu hol she’riy shaklda bitiladigan epik asarlar borligi va bo‘lishi mumkinligini inkor etmaydi. Qandaydir voqeani aks ettirish asosiga qurilgan she’riy va nasriy asarlar eposga mansubdir.

Eposda tasvirlanayotgan obrazlar tizimi katta ahamiyat kasb etadi. Obrazlar tizimi deyilganda faqat odamlargina emas, Eposda tasvirlangan jonivorlar, narsabuyumlar va tabiat hodisalari ham ko‘zda tutiladi. Eposda qatnashadigan obrazlarni shartli ravishda: bosh qahramonlar, personajlar yoki qahramonlar hamda yordamchi obrazlar sifatida 3 turga bo‘lish mumkin.

Epos badiiy tasvir qamroviga ko‘ra, katta, o‘rta va kichik kabi uchta janr guruhiga ajratiladi.

Katta epik janrlarga roman, epopeya, epik doston;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

O‘rta epik janrlarga qissa;

Kichik epik janrlarga afsona, badia, latifa, masal, novella, ocherk, rivoyat, ertak, esse, etyud, hikoya, hikoyat kabilar kiradi.

Eposni janrlarga ajratishda voqea-hodisalarning qamrovi yoki davomiyligi darajasi emas, balki tasvirning ko‘lami hisobga olinadi. Shuning uchun ham odamning bir soatlik holati aks ettirilgan romanlar bo‘lganidek, necha yillik voqealar tasvirlangan hikoyalar ham bo‘laveradi. Shuningdek, Eposni janrlarga ajratishda asarlarning hajmi ham asosiy o‘lchov bo‘lolmaydi. Eposni janrlarga tasniflashda muallifning estetik niyati ham hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shuning uchun ham ba’zan romandan katta hikoyalar, hikoyadan kichik qissalar yaratilishiga tabiiy hol, deb qarash kerak bo‘ladi. Asarlarning janr talablariga muvofiq bo‘lishini qat’iy talab etish yozuvchini qolipga solishga urinish bo‘lib, badiiy ijodga katta zarar keltirishi mumkin. Eposga mansub asarning qaysi janrga tegishli ekanini muallifning o‘zi belgilashi maqsadga muvofiqdir.

Epik asarlarni uch turga bo‘lishimiz mumkin: Mifologik dostonlar, Tarixiy dostonlar va diniy mazhabiy dostonlar. Ammo shuni bilish lozimki bu dostonlarni ijro etadigan rivoyatchilar kimlar edilar? Bular asosan klasik xonandalar hisoblanadilar. Epik asarlarning eng buyuk namunasi, bir necha asrlar davomida xalqlar orasida mashhur bo‘lib kelgan mislsiz asar, ya’ni Abulqosim Firdavsiyning "Shohnomasi"dir. Firdavsiy bu buyuk asarini hijriy 4-chi asrda ijod qildi.[7-7]

Qoraqalpoq folklorida biz bir qancha dostonlarni ijro etamiz va dars mobaynida esa taalabalarga ularning ijro usullarini o’rgatamiz. Endi shu joyda epik asarlardagi personajar, suyjetlar, syujjetlarning motivi va boshqa kompozitsion asardagi ikir chikirini qanday bo’la shundayligicha o’rgatilish ko’zda tutilsa, asarning bizga qadar etib kelish tarixini o’rganishga to’gri keladi sababi ustoz shogir an’anasi tarixiga nazar solsak har bir asarni har bir baqshi-jirov o’z yo’lida ijro etgan. Bugungi kunga qadar ularning ijro etish uslublari ijro texnikalari shu sababli saqlanib qolingan. Biz ulardan aslo voz kecha olmaymiz va buni imkoni yo’q. Biz uztoslardan o’rgangan texnikalarni shogirtlarimizga o’rgatamiz lekin bilan bu masalan Suyew baqshi bu dostonni yoki qo’shiqni shunday ijro etgan bo’lsa, Aqimbet baqshi bunday ijro etgan misolida.

Qoraqalpoq eposlarining qardosh xalqlar bilan birdek bo’lib kelishi bu turk xalqlari oldinlari bir tilde gaplashganidan daloalat beradi. Masalan Alpomish, Qoblan, Edige, Shora va boshqa shunga uqshash milliy orginal versiyalariga ega[8-220].

Biz doston ijrochiligi fanidan talabalar bilan dars o’tish jarayonlarida bizga jo’rnavoz bo’ladigan asboblar bor bo’lib ularning ijro uslubida ham ijroga qarab o’zgarishlar bo’lishi mumkunligi haqida bafurja to’xtab o’tamiz. Sababi baqshi ijro paytida o’ziga moslab tempa ritmni yaratadi asarda qochirimlarni ijro etish paytida bazida uning diafragmasida o’zgarishlar qandayda nosozlik bo’lishi mumkun har kimda har xil. Usha payda jornovoz chalg’ular bitta tempta emas balki baqshining ijrosidagi ritmga tushishi kerak undan o’zibyoki qolib ketib, o’z yo’licha ijro etishmaydi. Huddi shunday ijrodagi har xil vaziyatlarni ham ustozlar o’z shogirtlariga qayta qayta eslatishi kerak. Bu eslatma

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bo'lmasa asar ijrosi paytida ritmdan chiqib qoldim deb baqshi o'z asarini kamchiliklar bilan ijro etish xavfi paydo bo'lish ehtimoli katta.

Yuqorida keltirgan dars jarayonida misollar va asar ijro etish texnikalari bugingi rivojlangan davrimizda juda kerakli bo'lgan nozik bilimlar hisoblanadi. Sababi oldinlari ustozidan yillar mobaynida o'rgangan bo'lsa o'liy o'quv yurtlarida 4 yilda bitirib ko'plagan ko'nikmalarni eggalab olish zaruratiga vaqt etmay qolishi mumkunligi baxs munozalarga uchramoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida milliy madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, folklor va epik merosni o'qitish hamda uni yosh avlod ongiga singdirish ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Qoraqalpoq diyorida asrlar davomida shakllangan baqshichilik va jirovlik an'analari nafaqat badiiy meros, balki ta'limiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan boy tajriba manbai hisoblanadi. Epik asarlarning janr xususiyatlarini, obrazlar tizimini va ijro uslublarini talabalarga o'rgatish jarayoni ularning musiqiy tafakkurini, ijodiy salohiyatini va milliy qadriyatlarga hurmatini shakllantiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali folklor va etnografiya kafedrasida olib borilayotgan darslarda an'anaviy ijro uslublari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik yondashuvlar qo'llanilmoqda. Bu esa doston ijrochiligi fanini o'qitishda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, ustoz-shogird maktabining eng yaxshi jihatlarini zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkonini bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, folklor va epik asarlarni o'qitish jarayoni — bu nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni milliy madaniyat, tarix va qadriyatlar ruhida tarbiyalashning samarali vositasidir. Kelgusida bu yo'nalishda metodik materiallar, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni yanada keng qo'llash zarur. Bu esa milliy san'atimizni asrab-avaylash va uni yangi avlod ongiga chuqur singdirishning kafolatidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Отаева Г "Эпик асарларнинг ўрганилишида замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш йўллари" битирув малакавий иши 2017 йил 3 bet.
2. Моянов иқласбай жиенбаевич. "қорақалпоқ халқ мусиқаси асосида ўқувчи-ёшлар маънавий-ахлоқий фазилатларини шакллантиришнинг хусусиятлари" диссертацияси автореферати. Нукус – 2019.
3. **URL** http://lex.uz/docs/-6786401 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O'RQ-901-sonli qarori.
4. Isakov Ruslan Uzakbayevich Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi Avtoreferati. Nukus 2024.
5. Q.Maqsetov. Dastanlar jirawlar baqsilar. Nukus 1992. 220 bet.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. Muxammetdinova, Lola. "THE DEVELOPMENT OF THE ART OF GIVING IN NORTHERN PAKISTAN AS AN EXAMPLE OF THE YEARS OF INDEPENDENCE." *Modern Science and Research* 2.9 (2023): 74-78.
7. Makhammatdinovna, Makhammatdinova Lola. "As a Means of Providing Aesthetic Education to the Students of the Art of Embroidery." *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences* 2.3 (2023): 149-152.
8. Махамматдинова, Лола. "ЎЗБЕК ВА ҚОРАҚАПОҚ МУСИҚА МАДАНИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА БАСТАКОРЛАРНИНГ ҚЎШГАН ҲИССАСИ." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 782-786.
9. Askarova, Ziwar, and Lola Maxamatdinova. "Ceremonies Solemnly Held in Connection with Public Holidays." (2023).
10. Алламуратова, Улбоған, and Лола Махамматдинова. "ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДА ИЛИМ ҲӘМ МӘДЕНИЯТТЫҢ РАЎАЖЛАНЫЎЫНДА БАҚСЫШЫЛЫҚТЫҢ ОРНЫ." *Студенческий вестник* 12-5 (2021): 93-94.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Maxammatdinova Lola Maxxamatdinovna,** "Folklor va etnografiya" kafedrasi mudiri, dotsent, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, [**Махамматдинова Лола Махамматдиновна,** заведующая кафедрой «Фольклор и этнография», доцент, Государственный институт искусства и культуры Узбекистана], [**Lola Maxammatdinovna Maxammatdinova**, Head of the Department of Folklore and Ethnography, Associate Professor, Uzbekistan State Institute of Arts and Culture]; manzil: O'zbekiston, Toshkent sh., Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 35-uy [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, ул. Юсуф Хос Хожиб, 35], [address: Uzbekistan, 35 Yusuf Khos Khojib St., Tashkent city].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TALABALARDA PSIXOLINGVISTIK BILIMLARNING AHAMIYATI

© A.K.Shamshetova[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: psixolingvistika psixologiya va tilshunoslikning kesishgan nuqtasida shakllangan fan sohasi bo‘lib, u nutq faoliyati, fikrlash jarayoni va til o‘zlashtirish mexanizmlarini o‘rganadi. Talabalar uchun bu bilimlar tafakkur va nutqni izchil ifodalash, tilni ongli o‘zlashtirish va samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi talabalarda psixolingvistik bilimlarning o‘rnini aniqlash, chet tillarni o‘rganishda ularning amaliy ahamiyatini ochib berish hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli va samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda psixolingvistika sohasidagi nazariy adabiyotlar, A.A. Leontevning ilmiy ishlari hamda zamonaviy chet tillarni o‘qitishdagi psixolingvistik yondashuvlar tahlil qilindi. Shuningdek, nutq faoliyatini shakllantirish, afaziyalarni tuzatish va muloqotdagi psixologik mexanizmlarni o‘rganish usullari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, psixolingvistik bilimlarga ega talabalar chet tillarni o‘zlashtirishda so‘z va jumlalarni idrok etish, eslab qolish va muloqotda qo‘llashda yuqori natijalarga erishadilar. Bunday yondashuvlar ularning tafakkur faoliyatini rivojlantirib, nutq madaniyatini oshiradi.

XULOSA: psixolingvistik bilimlar talabalarga tilni o‘rganish, nutqni boshqarish, fikrni ifodalash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ular nafaqat ta’lim, balki kasbiy faoliyatda ham samarali muloqotni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, nutq faoliyati, chet tillarni o‘rganish, kommunikativ kompetensiya, tafakkur, nutq madaniyati.

Iqtibos uchun: Shamshetova A.K. Talabalarda psixolingvistik bilimlarning ahamiyati. // Inter education & global study. 2025. Vol.3. №10(1). B.386–390.

ВАЖНОСТЬ ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ У СТУДЕНТОВ

© А.К. Шамшетова[1]✉
[1]Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: психолингвистика — наука, возникшая на стыке психологии и лингвистики, исследующая механизмы речевой деятельности и усвоения языка. Для студентов эти знания способствуют осознанному усвоению языка, развитию логического мышления и формированию речевой культуры.

ЦЕЛЬ: цель исследования — определить значение психолингвистических знаний для студентов, выявить их практическую роль в изучении иностранных языков и повышение эффективности коммуникативных навыков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы теоретические труды по психолингвистике, включая работы А.А. Леонтьева, а также современные подходы к преподаванию иностранных языков с использованием психолингвистических методов. Применялись анализ, наблюдение и сравнительный метод.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что владение психолингвистическими знаниями способствует успешному усвоению иностранных языков, улучшает восприятие и воспроизведение речи и развивает когнитивные способности студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: психолингвистические знания служат фундаментом для развития коммуникативной компетенции, саморегуляции речи и эффективного взаимодействия студентов как в учебной, так и в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: психолингвистика, речевая деятельность, изучение иностранных языков, коммуникативная компетенция, мышление, культура речи.

Для цитирования: Шамшетова А.К. Важность психолингвистических знаний у студентов.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №10(1). С.386–390.

THE IMPORTANCE OF PSYCHOLINGUISTIC KNOWLEDGE AMONG STUDENTS

© A.K. Shamshetova[1]✉
[1] Uzbek State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: psycholinguistics, situated at the intersection of psychology and linguistics, explores mechanisms of speech activity and language acquisition. For students, such knowledge promotes conscious language learning, logical thinking, and the development of speech culture.

AIM: the aim of the study is to determine the significance of psycholinguistic knowledge for students, reveal its practical role in foreign language learning, and assess its contribution to the development of communicative competence.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed theoretical works on psycholinguistics, including those by A.A. Leontiev, and modern approaches to foreign language teaching based on psycholinguistic methods. Analytical, observational, and comparative methods were applied.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: the findings show that students possessing psycholinguistic knowledge achieve higher results in foreign language acquisition, speech perception, and reproduction, as well as enhanced cognitive performance.

CONCLUSION: Psycholinguistic knowledge provides a theoretical and practical foundation for students' communicative competence, helping them manage speech, express thoughts clearly, and interact effectively both academically and professionally.

Keywords: psycholinguistics, speech activity, foreign language learning, communicative competence, thinking, speech culture.

For citation: A.K. Shamshetova (2025) 'The importance of psycholinguistic knowledge among students', Inter education & global study, Vol.3. (10(1)), pp.386–390. (In Uzbek).

Psixolingvistika inson tafakkuri, nutqi va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganuvchi fan sohasi bo‘lib, u psixologiya va tilshunoslik fanlarining tutashgan nuqtasida shakllangan. Bugungi kunda talabalar uchun psixolingvistik bilimlarning ahamiyati nihoyatda katta, chunki bu bilimlar nafaqat nutq madaniyatini shakllantirish, balki tafakkur, muloqot va ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi . Psixolingvistik bilimlar talabaga nutq va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi. Bu esa talabaning fikrlash jarayonini aniq, mantiqiy va izchil shaklda ifodalash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Chet tilini o‘rganishda psixolingvistik yondashuv o‘quvchilarga tilni tezroq o‘zlashtirish, so‘z va jumlalarni idrok etish, xotirada saqlash va qayta tiklash jarayonlarini samarali tashkil etishga yordam beradi. Psixolingvistik bilimlar orqali talabalar muloqot jarayonining psixologik mexanizmlarini diqqat, xotira, motivatsiya, hissiyot va idrokni chuqurroq anglaydi. Bu esa ularda kommunikativ kompetensiyani, ya'ni samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi

Tilshunos mutaxassislar ona tili bilan birga xorijiy tillarni o‘zlashtirishda ham ba'zi psixologik to‘siqlarni ko‘p uchrayotganini keltirib o‘tadi. Bizga ma'lumki, bilingvlarning til o‘rganishi mushkul masala. Psixolog olimlar agar bola ikki va undan oshiq tilda so‘zlashiladigan oilada o‘ssa, u ikkala tilni ham bemalol o‘rgana oladi va ushbu tillarda ravon so‘zlashadi-deb ta'kidlab o‘tishadi. Tilshunoslikda psixologiya tillarni o‘zlashtirishda qisman ishtirok etadi yoki qisman psixologiyadan foydalanamiz deb hisoblamaslik kerak. Psixologiyada alohida psixolingvistika yo‘nalishi lingvistik fanlarga tegishli bo‘lgan murakkab fan sifatida o‘rganiladigan sohalardan, chunki u nutqni o‘sishi, tilni o‘zlashtirish jarayonlarini psixik hodisa sifatida o‘rganadi. Psixolingvistika bu psixologik va lingvistik jihatlarni o‘rganadigan fan hisoblanib, inson nutq faoliyati, individual xususiyati, fikrlash qobiliyati bilan bog‘liq o‘rganiladi.

A.A.Leontev psixolingvistika maktabining asoschisi va zamonaviy psixolingvistikaning yetakchi nazariyotchisi hisoblanadi, u psixolingvistikaning predmeti umuman nutq faoliyati va uni kompleks modellashtirish qonuniyatlarini o‘rganib

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

berishgan.

Psixolingvistik bilimlarni qo‘llash sohalari har xil va nazariy bilimlarni qayerda qo‘llash mumkinligini tasavvur qilish qiyin, ammo shu bilan birga ularni qo‘llash doirasi juda keng. Jumladan: Ona va chet tillarini o‘qitish metodikasini ishlab chiqishda, nutq patologiyalarini davolash yoki tuzatish uchun psixolingvistikadan foydalanish (tug‘ma yoki orttirilgan), bayonotlarni yozishda, matnning mualliffigini aniqlashda va boshqada sohalarda qullab kelishadi.

Psixolingvistika yozuvchilar va jurnalistlarga matn tuzishda, matn uslubini tanlash, hissiy komponentlarga e’tibor qaratishiga potensial o‘quvchilarni izlashga amaliy yordam berib keladi. Bundan tashqari, turli davrlar uchun dolzarb bo‘lgan umumiy ilmiy yondashuvlar dinamikasini va u yoki bu tomondan qo‘yilgan aniq tadqiqot vazifalarini hisobga olgan holda, birinchi navbatda nutqni ishlab chiqarish va tushunishda tilni o‘zlashtirish va tilning ishlashi muammolari ko‘rib chiqiladi. Psixolingvistik tadqiqotlar metodologiyasi, nutqni yeshitish va o‘qishdan tushunishdagi farqlar, tovushli nutqni idrok yetish, so‘zlarni yeshitishdan tanib olish, o‘qiyotganda so‘zlarni tanib olish, noaniq so‘zlarni qayta ishlashda kontekstning roli, jumlalarni qayta ishlash, majoziy tilni tushunish ham o‘rganib keladi. Muloqot jarayonlarida nutq, fikr tushunchalarini talqin qilishda yangi yondashuvlarni hisobga olgan holda so‘zning ma’nosiga katta e’tibor beriladi. Insonning ichki intellektual faoliyati qanday shakllanishi va yuzaga kelishini ham tushuntirish zarurdir. Nutq yoki nutq muammolari bilan shug‘ullanadigan har qanday mutaxassis uchun nutqning shakllanishi, nutq faoliyati amalga oshirilishi va aloqa jarayoni qanday sodir bo‘lishini tushunish kerak. Masalan, nutq terapevtlari, nutqni tuzatish, nutq patologlarini o‘z vaqtida aniqlash va boshqada psixologik baryerlarni aniqlash va ularni korreksiya qilish ishlari davr talabiga mos kelishi lozim.

Bizga ma’lumki, nutq faoliyati uning o‘ziga xosligi, nutq faoliyati usullarini, nutq shakllari va uning funksiyalarini keng o‘rganib borishni talab qiladi. Tadqiqotlarda inson nutqining lingvistik va psixologik xususiyatlari, odamlar o‘rtasidagi muloqotda til qanday ishlatilishi, tilning ijtimoiy, psixologik va siyosiy xususiyatlari batafsil o‘rganilgan. Shunday bo‘lsada, nutq faoliyatini amalga oshirishda bir qator muammolar haligacha o‘z yechimini kutmoqda. Masalan, kommunikativ faollikni ta’minlashda, sababi inson hayotida barcha nutq shakllari muhim o‘rin tutadi, ular ma’lum bir maqsadda ishlatiladi. Inson nutqi bir vaqtning o‘zida dunyoqarashni, ijtimoiy yehtiyojni, aqliy va tashqi sharoitlarni birlashtiradi.

Psixolingvistika sohasi xorijiy tillarni o‘zlashtirayotgan bir davrda talaba yoshlarga nazariy, amaliy jihatdan yordam beradi. Psixolingvistikaning nazariyasida nutq psixologiyasi, badiiy adabiyot va she’riyatning yuzaga chiqishini ilmiy tushuntirib berishga harakat qiladi. psixolingvistikaning amaliy jihati til o‘rganish muammolari, nutqni rivojlantirish patologiyasi va nutq faoliyati muammolarini o‘rganib berishadi. Bunda nutq afaziyalari, nutq korreksiyalari mashqlarini beradi.

Kelajakda o‘qituvchi, psixolog, tarjimon yoki jurnalist sifatida faoliyat yurituvchi talaba uchun psixolingvistik bilimlar zaruriy nazariy va amaliy tayanchdir. Ular inson psixikasini, nutq xatti-harakatlarini tushunib, o‘quvchi yoki suhbatdosh bilan to‘g‘ri

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

munosabat o‘rnatadi.

Ushbu ilmiy yo‘nalish doirasida tilshunoslik va psixologiyaning falsafiy masalalari, til va ong, til va tafakkurning o‘zaro ta’siri o‘rganiladi. Til va psixikaning o‘zaro aloqasini bilgan talaba o‘z nutqini ongli ravishda nazorat qiladi, so‘z boyligini to‘g‘ri qo‘llaydi, nutqidagi psixologik holatlarni boshqara oladi. Bu esa ijtimoiy muloqotda ishonch va muvaffaqiyat keltiradi.Fanlararo psixolingvistikaga quyidagi ilmiy sohalarni ham kiritish mumkin: etnopsixolingvistika – turli madaniyatlar va yetnik guruhlarning lingvistik ko‘rinishlari. Sosiolingvistika-jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasidagi lingvistik faoliyatdagi farqlar, ularning lingvistik xatti-harakatlari. Ko‘rib turganimizdek, psixolingvistika inson faoliyatining turli sohalarida keng qo‘llaniladi. Psixolingvistik bilimlar talabalar uchun nutqni to‘g‘ri idrok etish, ifodalash va boshqarish, fikrlashni takomillashtirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish kabi jihatlarda katta ahamiyatga ega. Bu bilimlar nafaqat ta’lim jarayonida, balki hayotiy va kasbiy faoliyatda ham muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., «Сов. Энциклопедия», 1966.
2. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. М.: "Смысл", 1999.
3. Shamshetova A.K . Xorijiy tillarni o’qitishning motivasion yondashuvlari. Ilm-fan innovatsiya 2024. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami. 2024 yil 25 aprel.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **A.K.Shamshetova**, psixologiya fanlari doktori (DSc) [**А.К.Шамшетова**, доктор психологических наук (DSc)], [**A.K.Shamshetova** Doctor of Psychological Sciences (DSc)]; manzil: Toshkent shahri. Kichik halqa yo`li ko`chasi G9-A 21-uy, [адрес: Город Ташкент. Малая Кольцевая улица G9-a 21], [address: The city of Tashkent. Malaya Koltsevaya Street G9-a 21.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI INKLYUZIV TA’LIMGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORLASHNING AMALIY ASOSLARI

© S.K. Bazarov[1]✉

[1]Guliston davlat pedagogika instituti, Guliston, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlashning dolzarbligi, insonparvarlik va teng imkoniyatlar tamoyillari bilan uyg‘unligi yoritiladi. O‘zbekiston qonunchiligi asosida olib borilayotgan islohotlar sharoitida o‘qituvchining empatiya, tolerantlik va kommunikativ madaniyatga ega bo‘lishi zarurligi asoslanadi.

MAQSAD: inklyuziv ta’limga tayyorgarlikning amaliy asoslarini aniqlash, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar orqali bo‘lajak pedagoglarda zarur kasbiy-psixologik sifatlarni shakllantirishning samarali yo‘llarini belgilash.

MATERIALLAR VA METODLAR: mavzuga doir xalqaro va milliy manbalar tahlili, kuzatuv va refleksiv tahlil, trening va holat (case) simulyatsiyalari, amaliyot jarayonidagi pedagogik monitoring natijalari umumlashtirildi. AKT vositalaridan foydalangan masofaviy mashg‘ulotlar va kollaborativ o‘qitish elementlari qo‘llandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar psixologik tayyorlik (empatiya, hissiy barqarorlik), inklyuziv kompetensiyalar (moslashtirilgan rejalashtirish, baholash) va real amaliyot sinovlari o‘zaro uyg‘unlashganda tayyorgarlik samaradorligi oshishini ko‘rsatdi. Real inklyuziv muhitdagi amaliyotlar stereotiplarni kamaytirib, hamkorlik va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini kuchaytirdi; refleksiya asosidagi baholash mezonlari ishonchliligini oshirdi.

XULOSA: inklyuziv ta’limga tayyorlash nazariya va amaliyot integratsiyasiga tayanadigan kompleks jarayon bo‘lib, shaxsiy qadriyatlar va kasbiy mas’uliyat bilan birga AKT hamda simulyatsion metodlarni tizimli joriy etishni talab etadi. Bunday yondashuv ta’lim sifatini, ijtimoiy integratsiyani va har bir bolaning salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, empatiya, refleksiya, AKT, amaliyot, kompetensiyaviy yondashuv.

Iqtibos uchun: Bazarov S.K. Bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlashning amaliy asoslari. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.391–398.

ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© С.К. Базаров[1]✉
[1]Гулистанский государственный педагогический институт, Гулистан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья раскрывает актуальность педагогико-психологической подготовки будущих педагогов к инклюзивному обучению в контексте гуманизма и равных возможностей. Показана необходимость развития эмпатии, толерантности и коммуникативной культуры на фоне проводимых в Узбекистане реформ.

ЦЕЛЬ: определить практические основы подготовки к инклюзии и наметить эффективные пути формирования профессионально-психологических качеств у будущих учителей через компетентностный, личностно-ориентированный и деятельностный подходы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: выполнены анализ международных и национальных источников, наблюдение и рефлексивный анализ, тренинги и кейс-симуляции, обобщён мониторинг практик. Использованы ИКТ, дистанционные занятия и элементы коллаборативного обучения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: установлено, что сочетание психологической готовности (эмпатия, эмоциональная устойчивость), инклюзивных компетенций (адаптированное планирование, оценивание) и опыта реальной практики повышает результативность подготовки. Практика в инклюзивной среде снижает стереотипы, усиливает сотрудничество и социальную адаптацию; рефлексивные процедуры повышают надёжность оценивания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подготовка к инклюзивному обучению — комплексный процесс, основанный на интеграции теории и практики, личностных ценностей и профессиональной ответственности при системном внедрении ИКТ и симуляционных методов. Такой подход повышает качество образования, способствует социальной интеграции и раскрытию потенциала каждого ребёнка.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагогико-психологическая готовность, эмпатия, рефлексия, ИКТ, практика, компетентностный подход.

Для цитирования: Базаров.С.К. Практические основы педагогико-психологической подготовки будущих педагогов к инклюзивному образованию.// Inter education & global study. 2025. №10(1). С.391–398.

PRACTICAL FOUNDATIONS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS FOR INCLUSIVE EDUCATION

©Sardor K. Bazarov[1]✉
[1] Gulistan State Pedagogical Institute, Gulistan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this paper examines the pedagogical-psychological preparation of prospective teachers for inclusive education within a framework of humanism and

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

equal opportunities. It substantiates the need to develop empathy, tolerance, and communicative culture amidst ongoing reforms in Uzbekistan.

AIM: to identify the practical foundations of readiness for inclusion and outline effective pathways for building professional-psychological qualities through competence-based, learner-centered, and activity-based approaches.

MATERIALS AND METHODS: we synthesized international and national literature, classroom observations, reflective analyses, training and case simulations, and monitoring data from school placements. ICT-supported distance sessions and collaborative teaching elements were employed.

DISCUSSION AND RESULTS: findings show that readiness improves when psychological preparedness (empathy, emotional stability), inclusive competencies (adapted planning and assessment), and authentic field practice are integrated. Practice in inclusive settings reduced stereotypes and strengthened collaboration and social adaptation; reflection-driven assessment increased reliability.

CONCLUSION: preparing teachers for inclusion is a complex process that integrates theory and practice, personal values, and professional responsibility, while systematically introducing ICT and simulation methods. This approach enhances educational quality, deepens social integration, and expands opportunities for every learner to realize their potential.

Keywords: inclusive education, pedagogical-psychological readiness, empathy, reflection, ICT, practicum, competence-based approach.

For citation: Sardor.K. Bazarov. (2025) ‘Practical foundations of pedagogical and psychological training of future teachers for inclusive education’, Inter education & global study, (10(1)), pp.391–398. (In Uzbek).

Zamonaviy ta’lim tizimi insonparvarlik, adolat va teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslangan holda shakllanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta’lim – jamiyatning har bir a’zosiga, shu jumladan jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan bolalarga ham ta’lim olish huquqini ta’minlovchi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishning asosiy sharti – pedagoglarning ushbu jarayonga tayyorligi, ya’ni ularning pedagogik-psixologik tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Bo‘lajak pedagoglar nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki inklyuziv muhitda ishlash uchun zarur bo‘lgan empatiya, tolerantlik, psixologik sezgirlik va kommunikativ madaniyatga ega bo‘lishlari zarur.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, Prezident farmon va qarorlarida inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslari yaratilgan. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, ta’lim jarayonida bevosita faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning malaka va psixologik tayyorgarligiga bog‘liqdir. Shu

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bois, bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlash masalasi nafaqat dolzarb, balki amaliy jihatdan ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Pedagogik-psixologik tayyorlik tushunchasi murakkab ko‘p komponentli tizim bo‘lib, u kasbiy bilim, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, shaxsiy motivatsiya va psixologik barqarorlikni o‘z ichiga oladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida bu tayyorgarlik o‘qituvchining har bir o‘quvchiga individual yondashuvi, ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit yaratish, turli rivojlanish darajasiga ega o‘quvchilarni o‘zaro hamkorlikka jalb etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorligini inklyuziv yondashuv asosida tashkil etish, o‘quv jarayonini psixologik-pedagogik diagnostika, amaliy mashg‘ulotlar, trening va simulyatsiyalar bilan boyitish zarur.

Mazkur jarayonning amaliy asoslari sifatida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, faoliyatga asoslangan pedagogika hamda refleksiv tahlil mexanizmlarini qo‘llash muhimdir. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak pedagoglarda inklyuziv ta’lim tamoyillarini amalda tatbiq etish, maxsus pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va ularni turli o‘quv sharoitlariga moslashtirish imkonini beradi. Shuningdek, psixologik tayyorgarlik jarayonida talabalarda nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan ijobiy munosabat, empatiya va kasbiy mas’uliyat hissini shakllantirish alohida e’tibor talab etadi.

Bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga tayyorlashda amaliy asoslarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi ta’lim tizimining insonparvarlik ruhini mustahkamlaydi, ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtiradi hamda har bir shaxsning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga sharoit yaratadi. Shu bois, inklyuziv ta’limni amalga oshirishda pedagogik-psixologik tayyorlikning amaliy jihatlarini o‘rganish, ularni tizimlashtirish va metodik jihatdan asoslash bugungi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlash masalasi so‘nggi yillarda jahon va milliy ta’lim tizimida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Inklyuziv ta’lim g‘oyasining shakllanishi inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va ta’limdagi adolat tamoyillariga asoslanadi. UNESCO (1994) tomonidan qabul qilingan Salamanka deklaratsiyasi inklyuziv ta’limning global konseptual asoslarini belgilab berdi. Unda barcha bolalarning umumta’lim muassasalarida birgalikda ta’lim olishi insonparvar jamiyatning ajralmas belgisi sifatida e’tirof etilgan. Shundan so‘ng Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada va Yaponiya tajribalarida pedagoglarni inklyuziv ta’limga tayyorlashning ko‘p darajali tizimlari ishlab chiqildi (Florian & Black-Hawkins, 2011; Ainscow, Booth, Dyson, 2006). Ushbu tadqiqotchilar inklyuziv ta’limni “o‘zgarishlarni boshqarish jarayoni” sifatida talqin qilib, o‘qituvchining kasbiy va psixologik tayyorligini asosiy determinant sifatida ko‘rsatadilar.

Psixologik jihatdan inklyuziv ta’limga tayyorlik masalasini tahlil qilgan G. Vygotskiy, L. S. Rubinshteyn, A. Maslou, K. Rojers kabi klassik olimlar insonning shaxsiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va o‘zini anglash jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini asoslab bergan. Ularning nazariyalarida har bir shaxsning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu yondashuv keyinchalik inklyuziv pedagogikaning psixologik poydevorini yaratdi. Shuningdek, Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, G. Gardnerning ko‘p intellektlar konsepsiyasi ham inklyuziv ta’limda differensial yondashuvning ilmiy asoslarini mustahkamlab berdi.

Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, Finlandiya, Shvetsiya, Germaniya, Koreya va Avstraliya kabi mamlakatlarda pedagog kadrlarni tayyorlash dasturlariga “Inclusive Pedagogy”, “Special Needs Education”, “Collaborative Teaching” kabi maxsus modullar kiritilgan bo‘lib, ular talabalarning ijtimoiy sezgirligini, moslashuvchanligini va o‘zaro hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu yo‘l bilan o‘qituvchi nafaqat nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga, balki turli ijtimoiy va madaniy qatlamdan bo‘lgan bolalarga individual yondashishni o‘rganadi.

Shunday qilib, tahlil qilingan manbalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish jarayonida xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, innovatsion metodlar (ko‘p darajali treninglar, interaktiv mashg‘ulotlar, refleksiv kuzatuvlar, holatli o‘yinlar)ni joriy etish zarur. Ilmiy manbalarning umumlashtirilgan tahlili mazkur yo‘nalishda tizimli o‘qitish modelini ishlab chiqish, psixologik diagnostika va pedagogik monitoring mexanizmlarini joriy etishning metodik asoslarini shakllantirish uchun mustahkam nazariy poydevor yaratadi.

Tahlil va natijalar

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlash jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etuvchi jarayondir. Bu jarayonning samaradorligi bir nechta omillar — psixologik tayyorlik darajasi, kasbiy kompetensiyalar tizimi, individual qadriyatlar va shaxsiy motivatsiya bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, inklyuziv ta’limga tayyor o‘qituvchi shunchaki o‘quv jarayonini boshqaruvchi emas, balki ijtimoiy integratsiyaning faol ishtirokchisi sifatida harakat qiladi.

Birinchidan, psixologik tayyorlik darajasi inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim komponent sifatida ajralib turadi. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning ko‘pchiligi nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonida dastlab hissiy qiyinchiliklarga duch keladilar: bu — o‘zini noqulay his qilish, noto‘g‘ri yondashishdan qo‘rquv, yetarli tajribaning yo‘qligi bilan bog‘liq. Shu sababli, pedagogik-psixologik tayyorgarlik jarayonida empatiya, tolerantlik, hissiy barqarorlik va kommunikativ madaniyatni rivojlantirishga alohida e’tibor berish zarur. Refleksiv mashg‘ulotlar, treninglar, muammoli vaziyat tahlillari bu borada ijobiy natijalar beradi.

Ikkinchidan, pedagogik tayyorlik tarkibida inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirish asosiy o‘rinni egallaydi. O‘qituvchi turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bolalarni o‘qitish, baholash va tarbiyalash jarayonini moslashtira olishi kerak. Tadqiqotlar

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

natijalariga ko‘ra, o‘quv dasturlariga “Inklyuziv ta’lim asoslari”, “Maxsus pedagogika va defektologiya”, “Pedagogik muloqot psixologiyasi” kabi fanlarni kiritish talabalarda inklyuziv fikrlashni shakllantiradi, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va ijtimoiy javobgarlikni kuchaytiradi.

Uchinchidan, ta’lim muassasalaridagi amaliy faoliyat bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv tayyorligini oshirishda eng samarali mexanizmlardan biridir. Tajriba-sinov natijalari ko‘rsatadiki, real inklyuziv muhitda — ya’ni umumta’lim maktablaridagi maxsus sinflarda yoki ijtimoiy moslashuv markazlarida o‘tkazilgan amaliyotlar talabalarning kasbiy o‘zini anglashini chuqurlashtiradi, stereotip qarashlarni yo‘qotadi va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, inklyuziv tayyorlikni baholash mezonlari ishlab chiqilganda, faqat bilim ko‘rsatkichlari emas, balki shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy hissiyotlar va kasbiy qadriyatlar ham e’tiborga olinishi lozim. Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, guruhiy tahlil, kuzatuv kundaliklari kabi usullar orqali talabalarning psixologik tayyorlik darajasi ancha ishonchli baholanadi.

Beshinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inklyuziv tayyorlikni oshirishning yangi imkoniyatlarini ochmoqda. Masofaviy treninglar, virtual laboratoriyalar, simulyatsion o‘yinlar, “case-study” platformalari talabalarda nogironligi bo‘lgan bolalarning ehtiyojlarini tahlil qilish, ularning o‘quv jarayonidagi ishtirokini modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday texnologiyalar real tajriba yetishmaydigan sharoitda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlash samaradorligini oshirish uchun quyidagi shartlar muhim ahamiyat kasb etadi:
— ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvni kuchaytirish;
— inklyuziv kompetensiyalarni shakllantiruvchi maxsus modullarni joriy etish;
— amaliy mashg‘ulotlarni real inklyuziv muhitda tashkil etish;
— psixologik treninglar va interaktiv metodlardan tizimli foydalanish;
— o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim madaniyatiga mos ijtimoiy qadriyatlarga yo‘naltirish.

Demak, o‘tkazilgan tahlil va tajribalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlikni shakllantirish faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki amaliy faoliyatda o‘zini namoyon etuvchi ijtimoiy-axloqiy va hissiy tayyorgarlik jarayonidir. Bunday tizimli yondashuv orqali bo‘lajak pedagoglarda inklyuziv dunyoqarash, ijtimoiy mas’uliyat va shaxsiy empatiya rivojlanadi, bu esa zamonaviy ta’lim tizimining insonparvarlik tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqarishning eng muhim omillaridan biriga aylanadi.

Xulosa

Bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga pedagogik-psixologik tayyorlash zamonaviy ta’lim tizimining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda har bir inson, shu jumladan jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan shaxslarning ham sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash – demokratik va insonparvar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jamiyatning asosiy belgilaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish o'qituvchining kasbiy mahorati, psixologik tayyorgarligi va ijtimoiy mas'uliyatiga bevosita bog'liqdir.

O'tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida aniqlanishicha, bo'lajak pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayoni integrativ yondashuvni talab etadi. Bunda pedagogik-psixologik tayyorlikning barcha tarkibiy qismlari – nazariy bilimlar, kasbiy kompetensiyalar, empatiya, kommunikativ madaniyat va tolerantlik o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlantirilishi zarur. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyatga asoslangan o'qitish, refleksiv tahlil, trening va amaliy mashg'ulotlar tizimi bu yo'nalishda eng samarali metodlar sifatida o'zini oqlagan.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Inklyuziv ta'lim psixologiyasi", "Maxsus pedagogika", "Pedagogik diagnostika" kabi fanlarni joriy etish, ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish tizimi orqali talabalar real inklyuziv muhitda o'z bilimlarini sinab ko'rish, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijtimoiy muloqot va moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limga tayyorlikni baholashda faqat nazariy yondashuv yetarli emas — o'qituvchining shaxsiy qadriyatlari, ijtimoiy hissiyotlari, empatik munosabati ham asosiy mezon sifatida e'tiborga olinishi lozim. Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayonida insonparvarlik, hamjihatlik va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlashni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarni inklyuziv ta'limga pedagogik-psixologik tayyorlash tizimini takomillashtirish — nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish, har bir bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishiga imkon yaratish demakdir. Bunday yondashuv orqali o'qituvchi shaxsida nafaqat bilim beruvchi, balki insonparvar, empatik, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs tarbiyalanadi. Shu bois, inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishda pedagogik-psixologik tayyorlikni chuqurlashtirish, uni ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish bugungi pedagogika fanining dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ainscow, M., Booth, T., Dyson, A. Improving Schools, Developing Inclusion. — London: Routledge, 2006. — 215 p.
2. Florian, L., Black-Hawkins, K. Exploring Inclusive Pedagogy. // British Educational Research Journal. — 2011. — Vol. 37, No. 5. — P. 813–828.
3. Выготский, Л. С. Психология развития человека. — М.: Смысл, 2005. — 527 с.
4. Маслоу, А. Мотиватsiя и личность. — СПб.: Питер, 2019. — 400 с.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Bazarov Sardor Kenjaboy o‘g‘li**, o‘qituvchi [**Базаров Сардор Кенжабой ўғли**,преподаватель], [**Bazarov Sardor Kenjaboy o‘g‘li** teacher]; manzil: 120101.Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 49-uy., [адрес: 120101.Сырдарьинская область, г. Гулистан, ул. Студенческая, д. 49.], [address: 120101.Syrdarya region, Gulistan, Studencheskaya str., 49.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN O‘SMIRLARDAGI ZO‘RAVONLIK NAMOYON BO‘LISH DARAJALARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

© E.A. G‘ulomqodirov[1]✉
[1]“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikni aniqlash va baholash universal ta’riflarning yo‘qligi, madaniy kontekstlar farqi va etik cheklovlar sabab murakkabdir. Zo‘ravonlikning jismoniy, ruhiy va verbal ko‘rinishlari ko‘pincha “intizom” bilan adashtiriladi, bu esa diagnostikani qiyinlashtiradi. O‘zbekistonda moslashtirilgan psixometrik vositalarni ishlab chiqish zarurati yuqori.

MAQSAD: oilaviy zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlarda zo‘ravonlik namoyon bo‘lish darajalarini psixologik jihatdan tavsiflash va xavf guruhlarini aniqlovchi tashxisiy mezonlarni ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: 13–15 yoshli 723 nafar o‘quvchi bilan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi. 20 bandli, “ha/ba’zida/yo‘q” formatidagi instrument to‘g‘ri va teskari baholanuvchi savollardan tuzildi (0–2 ball), umumiy ball 0–40. Shkalalar: jismoniy/ruhiy zo‘ravonlik, emotsional xavfsizlik, oilaviy muhit, erkinlik va qadr-qimmat, ta’limga ta’sir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ishtirokchilarning 47% jismoniy jazo epizodlarini (ba’zan yoki tez-tez) bildirdi; 40% o‘zini “keraksiz/yomon” deb his qilishini ma’lum qildi; 54% cho‘chish va qo‘rqinchli tushlar epizodlarini qayd etdi. 29% oiladagi nizolarga guvoh bo‘lgan; 80% ota-ona qo‘llab-quvvatlovini sezadi, 88% esa shaxs sifatida hurmat qilinishini ta’kidladi. Integral ball bo‘yicha 1-guruh (1–16) — yuqori xavf (22 nafar), 2-guruh (17–28) — o‘rtacha xavf (236), 3-guruh (29–40) — xavf yo‘q (465).

XULOSA: so‘rovnoma asosidagi tashxisiy yondashuv oilaviy zo‘ravonlik riskini qatlamlash va erta psixologik aralashuv choralarini rejalashtirishga imkon beradi. Emotsional xavfsizlikni mustahkamlash, avtoritar uslublarni yumshatish va ota-onalarga psixoedukatsiya berish o‘smirlar salomatligi uchun muhim.

Kalit so‘zlar: oilaviy zo‘ravonlik, o‘smirlik, psixodiagnostika, ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma, xavf guruhlari, emotsional xavfsizlik, avtoritar ota-onalik.

Iqtibos uchun: G‘ulomqodirov E.A. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlardagi zo‘ravonlik namoyon bo‘lish darajalarining psixologik tavsifi. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.399–412.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА УРОВНЕЙ ПРОЯВЛЕНИЯ НАСИЛИЯ У ПОДРОСТКОВ, ПОДВЕРГШИХСЯ НАСИЛИЮ В СЕМЬЕ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Э.А. Гуломкодиров[1]✉
[1] Научно-исследовательский институт” семья и гендер", Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: диагностика насилия в отношении детей затруднена из-за отсутствия универсальных определений, культурных различий и этических ограничений. Физическое, психическое и вербальное насилие нередко маскируется под «дисциплину», что снижает выявляемость. Необходима разработка культурно адаптированных психометрических инструментов.

ЦЕЛЬ: психологически охарактеризовать уровни проявления насилия у подростков, переживших домашнее насилие, и верифицировать диагностические критерии стратификации риска.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведён опрос 723 подростков 13–15 лет. Инструмент: 20 утверждений с ответами «да/иногда/нет», прямое и обратное шкалирование (0–2 балла), суммарный балл 0–40. Шкалы: физическое/психическое насилие, эмоциональная безопасность, семейный климат, свобода и достоинство, влияние на обучение.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: 47% отметили эпизоды физического наказания; 40% — переживание собственной «ненужности/плохости»; 54% — пугливость и повторяющиеся страшные сны. 29% были свидетелями конфликтов дома; 80% чувствуют поддержку родителей, 88% — уважение к себе как к личности. По суммарному баллу: группа 1 (1–16) — высокий риск (22), группа 2 (17–28) — средний риск (236), группа 3 (29–40) — без риска (465).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: опросник позволяет стратифицировать риск и планировать ранние вмешательства. Усиление эмоциональной безопасности, смягчение авторитарных практик и психообразование родителей — ключевые направления профилактики.

Ключевые слова: домашнее насилие, подростки, психодиагностика, социально-психологический опрос, группы риска, эмоциональная безопасность, авторитарное воспитание.

Для цитирования: Гуломкодиров.Э.А. Психологическая характеристика уровней проявления насилия у подростков, подвергшихся насилию в семье.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.399–412.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LEVELS OF VIOLENCE AMONG ADOLESCENTS WHO HAVE BEEN SUBJECTED TO DOMESTIC VIOLENCE

©Eldorjon A. G‘ulomqodirov[1]✉
[1] Scientific Research Institute ”Family and Gender", Tashkent, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

INTRODUCTION: assessing child-directed violence is challenged by the lack of universal definitions, cultural variability, and ethical constraints. Physical, psychological, and verbal abuse are often mislabeled as “discipline,” hampering detection. There is a pressing need for culturally adapted psychometric tools in Uzbekistan.

AIM: to provide a psychological profile of violence-manifestation levels among adolescents exposed to domestic violence and to validate diagnostic criteria for risk stratification.

MATERIALS AND METHODS: a socio-psychological survey was administered to 723 adolescents (13–15 years). The 20-item instrument used “yes/sometimes/no” responses with direct and reverse scoring (0–2 points), total score 0–40. Scales covered physical/psychological abuse, emotional safety, family climate, autonomy and dignity, and impact on schooling.

DISCUSSION AND RESULTS: forty-seven percent reported episodes of corporal punishment; 40% felt “unwanted/bad”; 54% reported startle responses and recurrent nightmares. Twenty-nine percent witnessed family conflicts; 80% perceived parental support, and 88% felt respected as persons. Score-based groups: Group 1 (1–16) high risk (n=22); Group 2 (17–28) moderate risk (n=236); Group 3 (29–40) no risk (n=465).

CONCLUSION: the questionnaire enables risk stratification and planning of early interventions. Strengthening emotional safety, moderating authoritarian practices, and providing parental psychoeducation are critical for adolescent well-being.

Keywords: domestic violence, adolescents, psychodiagnostics, socio-psychological survey, risk groups, emotional safety, authoritarian parenting.

For citation: Eldorjon A. G‘ulomqodirov. (2025) ‘Psychological characteristics of the levels of violence among adolescents who have been subjected to domestic violence’, Inter education & global study, (10(1)), pp.399–412. (In Uzbek).

Bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikni tadqiq etish –kompleks va murakkab jarayon bo‘lganligi sababidan bir qancha metodologik muammolarga egadir. Avvalo zo‘ravonlik tushunchasining universal ta’rifi ishlab chiqilmagan. Jumladan BMT Bosh Assambeliyasining “Bola huquqlari to‘g‘risidagi” Konvensiyasi 19-moddasida “Ishtirokchi-davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikning, haqoratlash va suiste’molliklar, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo‘lish, qo‘pol muomala qilish yoki ota-ona, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g‘amxo‘rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiste’molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoyalash maqsadida jamiki zarur qonuniy, ma’muriy, ijtimoiy va ma’rifiy chora-tadbirlarni ko‘radilar” deb qayd qilingan [1]. Ammo zo‘ravonlik, ekspluatatsiya qilish, haqoratlash, suiste’mol qilish kabi tushunchalar mazmun-mohiyati ochib berilmagan. Qolaversa mental xususiyatlar va oilaviy qadriyatlar jihatidan bu tushunchalar turlicha talqin etilishi mumkin. Zo‘ravonlik va normal holat o‘rtasidagi chegara aniq belgilanmagan. Aksar holatlarda oilardagi bolalarga nisbatan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

zo‘ravonlik xatti-harakatlari ularni intizomga chorlash, tanbeh berish maqsadida tarbiya vositasi sifatida qo‘llanishi orqali oqlanadi.

Madaniy muhitga moslashtirilgan psixometrik vositalar yetishmasligi, madaniy jihatdan zo‘ravonlik holatini normal qabul qilish, tadqiqot o‘tkazishda etikaviy masalalar, bolalar holatni yashirishi kabi faktorlar muammoni tadqiq qilishdagi metodologik muammolar qatorida sanash mumkin.

Bolalar va o‘smirlarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik oldini olish, aniqlash va oqibatlarini bartaraf etish uchun madaniy muhitga mos diagnostik metodikalarni yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Odatda, oilaviy zo‘ravonlik muammosini tadqiq qilish ikki asosiy yo‘nalishda olob boriladi. Birinchi yo‘nalish bolaga nisbatan zo‘ravonlik yoki shafqatsiz muomala faktini aniqlash (masalan, jinoiy ish qo‘zg‘atish uchun) bilan bog‘liq. Ikkinchi yo‘nalish esa oilaviy zo‘ravonlik bolaning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish bilan bog‘liq[2]. Aksar insonlar zo‘ravonlik kontekstida jismoniy zarar yetkazishni tushunishadi. Lekin bolalar bilan munosabatdagi agressiv holat nafaqat uning jismoniy holatiga, balki psixik rivojlanishdan ortda qolishiga, ijtimoiylashuv jarayonida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Albatta bunday holatlar psixodiagnostik vositalar orqali aniqlanadi.

Metodlar. Psixologik tadqiqotlarda ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalardan foydalanish keng tarqalgan. Psixometrik vosita sifatida qisqa vaqtda standartlashtirilgan savollar bilan muammoni tadqiq etishga yordam beradi. Ijtimoiy psixologik so‘rovnoma psixologiya metodlari doirasida muhim o‘ringa ega bo‘lib, u ijtimoiy tendensiyalar, odamlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini o‘rganish uchun keng qo‘llaniladi. Ijtimoiy psixologiyaning metodlari orasida so‘rovnoma samarali metod sifatida tanilgan bo‘lib, u respondentlardan aniq savollarga javob olish orqali ma’lumot yig‘ishga imkon beradi[3]. Psixologik tadqiqotlarni tashkil qilishda ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalardan keng foydalaniladi. Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma – bu tadqiqotning markaziy vazifasi bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lgan savollar to‘plamidan iborat bo‘lib, unda respondent eng mos javoblarni tanlashi yoki ularga o‘xshash o‘z javoblarini taklif qilishi mumkin. So‘rovnoma usuli yordamida bir necha kishilardan bir vaqtning o‘zida aniq javoblarni olish mumkin.

Oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan o‘smirlardagi zo‘ravonlik namoyon bo‘lishining darajalarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda dastlabki vazifa aynan zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlarni aniqlab olishdan iborat. Maktabdagi sinf rahbarlar, psixolog va o‘qituvchilardan ekspert so‘rovi asosida bunday toifadagi o‘quvchilarni saralab olish mumkin. Ammo ularni alohida ajratib olgan holda tadqiqot o‘tkazish bola huquqlariga va tadqiqotning axloqiy me’yorlariga ziddir. Shu sababli oilaviy zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlarni saralash va ularda zo‘ravonlik belgilari namoyon bo‘lish darajalarini aniqlash uchun ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma tuzdik. So‘rovnoma 20 ta tasdiq-mulohazadan iborat bo‘lib, “ha”, “ba’zida” yoki “yo‘q” deb javob berishni talab qiladi. Savollar oiladagi holatlar, munosabatlar, bolaning ichki hissiyotlari haqida so‘raydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

So‘rovnoma to‘g‘ri tartibda baholanadigan savollar va teskari tartibda baholanadigan savollardan tashkil topgan. To‘g‘ri tartibda baholanadigan savollarda agar sinaluvchi ha deb javob bersa 2 ball, ba’zan - 1 ball, yo‘q - 0 ball beriladi. Teskari tartibda baholanadigan savollarda agar sinaluvchi ha deb javob bersa - 0 ball, ba’zan - 1 ball, yo‘q - 2 ball beriladi. So‘rovnoma quyidagi shkala va baholash me’yorlariga ajratilgan:

1. Bolaga jismoniy va ruhiy zo‘ravonlik o‘tkazish: 2, 5, 10, 11, 18, 19 savollar. Uyda bolaga nisbatan amalga oshirilgan zo‘ravonlik, tahqir, jazo, va og‘ir mehnat kabi holatlarni baholaydi.

2. Boladagi emotsional xavfsizlik va qo‘rquv: 7,8, 9, 15 savollar. Bolaning uyda o‘zini qo‘rquv, xavotir, tashvish, yolg‘izlikda his qilishini baholaydi.

3. Oilada farzandlar bilan munosabat muhiti:1, 3, 14, 16, 17 savollar. Oilaviy munosabatlar, nizo va qo‘llab-quvvatlash darajasini baholaydi.

4.Farzandning ota-ona bilan munosabatdagi erkinligi va qadr-qimmati: 4, 12, 13, 20 savollar. Bolani ota-onaga o‘z fikrini bildirishi va ular tomonidan shaxs sifatida qabul qilinishini baholaydi.

5.Oilaviy munosabatning bolani ta’limiga ta’siri: 6 –savol. Oiladagi munosabat va sharoitni bolaning o‘qish faoliyatiga ta’sirini baholaydi.

Natijalar. Oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan o‘smirlarda zo‘ravonlik namoyon bo‘lish darajalarini aniqlash doirasida o‘tkazilgan tadqiqot doirasida Farg‘ona, Toshkent va Navoiy viloyatlarida tahsil oluvchi jami 723 nafar 13-15 yoshli o‘smir o‘quvchilar ishtirok etdi. Dala tadqiqotini o‘tkazish usun hududlarni tanlab olishda statsitik ma’lumotlar o‘raganib chiqildi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish bo‘yicha sud statistikasi, MICS tadqiqot natijalari, statistika agentligida mavjud ma’lumotlar asosida ushbu uchta viloyat tanlab olindi. Tadqiqot ishtirokchilari asosan 7-8 sinf o‘quvchilaridan iborat. Psixologik adabiyotlarda o‘smirlik davri turlicha yosh oraliqlari bilan belgilangan. Xususan, E.E.G‘oziyev klassifikatsiyasida o‘smirlik davri 10-11 -14-15 yosh deb belgilangan. Tadqiqot o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilishi belgilangani uchun aynan 13-15 yosh oralig‘idagi o‘quvchilar sinovga jalb qilindi. Quyidagi 1-jadvalda so‘rovnoma savollari bo‘yicha ishtirokchilarning javoblari keltirilgan:

1-jadval

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma bo‘yicha sinaluvchilarni javoblari

T/R	Savollar	Ha	Ba’zida	Yo‘q
1	Uyda o‘zingizni xavfsiz his qilasizmi?	645	50	28
2	Uyda sizni jazolash (masalan, urish, shapaloq urish) holatlari bo‘lganmi?	79	261	383
3	Ota-onangiz yoki qarindoshlaringiz o‘rtasida nizo va kelishmovchilklar bo‘lib turadimi?	35	171	517
4	Uyda o‘z fikringizni erkin ayta olasizmi?	531	152	40

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5	Sizni tahqirlovchi so‘zlar (masalan, “ahmoq”, “ovsar”) bilan chaqirishganmi?	44	160	519
6	Uyda bo‘layotgan holatlar sizni maktabga borishga yoki o‘qishingizga ta’sir qilganmi?	62	115	546
7	Uyda o‘zingizni keraksiz yoki yomon bola deb his qilgan paytingiz bo‘lganmi?	93	199	431
8	Har qanday tovush yoki harakatdan cho‘chib ketasizmi?	102	288	333
9	Tushlaringizda sizni qo‘rqitadigan voqealar takrorlanadimi?	138	257	328
10	Uyda idishlar va narsalar qasddan sindirilgan holatlar bo‘ladimi?	40	81	602
11	Siz aybdor bo‘lmagan holatda jazolanganmisiz?	118	197	408
12	Muammolarni yashirish uchun yolg‘on gapirasizmi?	115	394	214
13	Ba’zida ota-onangiz siz uchun juda qattiqqo‘llik qilayotganday tuyuladimi?	124	266	333
14	Kelajakda farzand tarbiyasida ota-onangizga o‘xshab yo‘l tutasizmi?	406	106	171
15	Uydan qochib ketish haqida o‘ylab ko‘rganmsiz?	80	91	552
16	Ota-onangiz sizning qiziqishlaringizni qo‘llab-quvvatlaydimi?	579	102	42
17	Ota-onangiz sizni shaxs sifatida hurmat qilishadimi?	601	89	33
18	Xatolaringiz uchun yaqinlaringiz tomonidan jismoniy jazo olganmisiz?	66	141	516
19	Uyda siz uchun jismoniy og‘ir ishlarni bajarasizmi?	89	246	388
20	Ota-onangiz sizni tengdoshlaringiz bilan taqqoslab, ularning yutuqlarini e’tirof etadimi?	125	271	327


Quyidagi jadvallarda har bir savol bo‘yicha sinaluvchilarning javoblarini tahlil qilib chiqamiz.

Oilaviy yoki yaqin munosabatlar o‘rtasidagi munosabatlarda hissiy ifoda darajasi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muhum ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Hissiy ifoda(expressed emotion) tushunchasi birinchi marta 1972-yilda Jorj Braun tomonidan qo‘llanilgan. Ingliz psixiatri Jorj Braun ushbu tushunchani ruhiy kasallikka chalingan bemorlarga nisbatn oila a’zolari tomonidan ayblanishi, xatolari ta’kidlanishi, salbiy his-tuyg‘ularni ochiq ifodalash, haddan tashqari g‘amxo‘rlik ko‘rinishidagi muomila munosabatlariga nisbatan ishlatgan. Tadqiqot ishtorokchilarining 89%i uyda o‘zlarini xavfsiz his qilishlarini aytib o‘tgan(1-savol natijalariga qarang). Bundan xulosa qilish mumkinki, ko‘plab sinaluvchilar barqaror va qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muhitda tarbiya topishadi. Hissiy ifoda ko‘rsatkichi past hisoblanib, noo‘rin tanqid va nafratlarsiz sog‘lom psixologik muhit qaror topgan. Umumiy tadqiqot ishtirokchilarining 7 % va 4 % i boshqa javob variantlarini belgilashgan.

1-diagramma.



Tadqiqot ishtirokchilarining 47 % i oilada urish, shapaloq kabi jismoniy jazo choralaridan ba’zida yoki har doim foydalanishini tasdiqlagan. Bu holatni bola tarbiyasidagi rag‘bat va jazo tandemining bir qismi sifatida jismoniy jazolash chorasidan foydalanish deb izohlash mumkin. Oregan ijtomoiy tadqiqotlar markazi asoschisi Gerald Pattersonning “Majburlash sikli” deb nomlangan yondashuvida ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etadi. Yondashuvning asosiy g‘oyasi ota-ona va bola o‘rtasidagi salbiy xatti-harakatlar zo‘ravonlik siklini hosil qilishidan iborat. Masalan, bola biror narsani xohlaydi, lekin ota-ona uni ta’qiqlaydi. Bola qarshilk ko‘rsatadi, yig‘laydi. Ota-ona jahli chiqib ayni shu bosqichda o‘z reaksiyasini jazolash bilan ifoda qiladi. Ammo bola yana qarshilik qiladi, ota-ona bolaga yon berishga majbur bo‘ladi. Shu zaylda har bir bosqichda harakatlar yanada tajavuzkorroq bo‘lib boradi. Avtoritar uslubdagi ota-onalar “intizom” talabi ostida bolalarga agressiv xatti-harakatlar qilishga moyil bo‘ladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Gazeta.uz rasmiy saytida e'lon qilingan Unicef hisobotlariga ko'ra, O'zbekistonda 1-14 yosh oralig'idagi bolalarning 29%i jismoniy zo'ravonlikka uchragan. Ulardan 37 foizi 3−4 yoshdagi, 35 foizi 5−9 yoshdagi, 24 foizi 1−2 yoshdagi, 22 foizi 10−14 yoshdagi bolalardir. O'zbekistonda ota-ona va tarbiyachilarning 11 foizi jismoniy jazo bolalarni tarbiyalash/o'qitish uchun zarur deb hisoblaydi, 29 foizi esa uni qo'llashi keltirilgan. Hisobotda ta'kidlanishicha, bolalarga nisbatn oilaviy zo'ravonlikning asosiy omillari quyidagilar:

- avlodlar o'rtasidagi tushunmovchilik;
- bolaligida zo'ravonlikka uchragan insonlar;
- iqtisodiy qiyinchiliklar;
- ijobiy ota-onalik to'g'risida bilimlarning yetishmasligi.

O'zbekistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning 60 foizigacha psixologik tajovuzga uchraydi, ulardan 61 foizi o'g'il bolalar, 58 foizi qizlardir. Ushbu yosh guruhida psixologik tajovuzdan eng ko'p 5−9 yoshdagi bolalar (65%), 3−4 yoshdagi bolalar (63%), 10−14 yoshdagi bolalar (60%) va 1−2 yoshdagi bolalar (44%) aziyat chekadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari ichida bolalarni qasddan o'ldirishning eng yuqori darajasi O'zbekistonda qayd etilgan: 2018 yilda 0 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan har 100 ming bolaga 2,5 nafar jabrlanuvchi bola to'g'ri kelgan[4]. Bolalarning nafaqat oilaviy zo'ravonlik ishtirokchisi bo'lishi, balki unga guvoh bo'lishlari ham ularga ijtimoiy-emotsional rivojlanishoga salbiy ta'sir qiladi.

Tadqiqotimiz asosida olingan natijalarga ko'ra, sinaluvchilarning 29% i ota-ona yoki qarindoshlar o'rtasidagi nizolar guvohi, bilvosita oilaviy zo'ravonlik ishtoirokchisi ekanligi qayd qilingan. Qolgan 71 % i ishtorokchilar yaqinlar o'rtasida oilaviy zo'ravonlik holatiga guvoh bo'lmaganini belgilashgan. Boven nazariyasiga ko'ra har qanday ikki kishilik munosabatlarda stress ortganda, munosabatlarda barqarorlikni saqalsh uchun uchunchi odam jalb qilinadi. Guruhdagi uchinchi tomonning mavjudligi yangi kuzatuvchi mavqeyiga ega bo'ladi. Yangi paydo bo'lgan munosabatlar tizimiga jiddiy yangi hissa qo'shadi: bu "uchinchi" nizolashayotgan pozitsiyalardan biriga o'z hissasini qo'shishi mumkin. Psixolog Yan Shchepanskiy fikricha, eng kichik miqdorga uchinchi kishining kiritilishi, guruhdagi munosabatlar harakteriga katta o'zgarishlar olib keladi. Uch kishilik guruh endi diada va monogo (ozchilik) bo'linishi va bu guruhdagi munosabatlarni o'zgartirib yuborishi mumkin. Shoir Hudoyberdi Komilovning "Tarjimon" she'rida ushbu holat ifodasini ko'rish mumkin:


Garchand chet tilidan bahoim "yomon",
Ammo uyimizda o'zim "tarjimon".
Dadam der - oyinga aytib qo'y Omon,
Targ'il sigirga tashlasin somon.
Oyim der, -dadangdan so'rab qo'y Omon,
Kechqurun ne qilay, sho'rvami lag'mon?
Bir hafta bo'ldiki tilmochman hamon,
Bu gal "tarjimonlik" cho'zildi yomon.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

“Uyda o‘z fikringizni erkin ayta olasizmi?” deb so‘ralgan savolga sinaluvchilaring 89 %i ha deb javob bergan. Ma’lumki, ijtimoiylashuv va jismoniy kamolot aynan o‘smirlik davriga xos xususiyat hisoblanib, endi o‘smir bola emas, biroq katta odam ham emas. Ko‘p oilalarda qaror qabul qilishda o‘smirlarning ishtiroki, o‘z fikrlarini erkin ayta olishi oiladagi sog‘lom psixologik muhitdan darak beradi.

Boshqa insonlarga nisbatan zarar yetkazishga qaratiladigan agressiv xulq-atvor ko‘rinishlaridan biri verbal agressiyadir. 5-savolda verbal agressiya bo‘yicha zo‘ravonlik holatlari haqida savol berilgan. Umumiy 28% sinaluvchilar ba’zan yoki har doim ota-onalari yoki yaqinlari tomonidan verbal agressiyaga uchrashlarini belgilashgan. Bolalarga nisbatan og‘zaki zo‘ravonlik ularni tahqirlash, yutuqlarini kamsitish va ahamiyatsiz ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Oqibatda bolada devalvatsiya – ruhiy zo‘ravonlik natijasida o‘ziga bo‘lgan ishonch pastlashi kuzatiladi.

2-diagramma.



PISA tadqiqotlariga ko‘ra, ota-onalik uslubi, ularning farzandlar ta’limidagi ishtiroki va yuqori baholar o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik qayd qilingan[5]. Sinaluvchilarning 9% i uydagi nizolar, konfliktlar ta’lim jarayoni va baholariga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlashgan. Ilmiy adabiyotlarda uy-maktab ta’sirining ko‘chishi tushunchasi qo‘llaniladi. Bu ta’sirlanish ikki yo‘nalishda uy-maktab va maktab-uy ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uydagi nizolar yoki ijobiy qo‘llab-quvvatlov dars jarayonida bolaning diqqat va topshiriqlarni bajarish sifatiga ta’sir qiladi. 16% qatnashchilar ba’zan deb javob berishgan. Bu holatni vaqtinchalik nizolar va imtihon jarayonidagi qiyinchilklar natijasi deb talqin qilish mumkin.

Tadqiqotda ishtirok etgan 40% ishtirokchilar har doim yoki ba’zan o‘zlarini keraksiz, yomon bola deb his qilishlarini belgilagan. Ayniqsa ba’zi sinaluvchilar, o‘zlarining dunyoga kelishlarini eng katta xato deb hisoblashlari – oilaviy munosabatlar

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tizimini qayta ko‘rib chiqish, suitsidial holatlarda ogohlikka chorlaydi. O‘ziga nisbatan past baho, stigmalar, boshqalar bilan taqqoslash va shartli mehr berish oilada bolalar o‘zlarini keraksiz deb his qilishlariga olib keladi. Oiladagi sibling maqomiga ko‘ra ham bolalarga beriladigan e’tibor, ma’suliyat farqlanadi. Odatda, ota-onalar katta farzandlardan barcha orzu-havaslari, erisholmagan armonlarini ushalishini kutadi. Har bir inson individual, turli xarakter va qobiliyatlarga ega hisoblanadi. Katta farzandlarning ota-ona kutilmalariga mos bo‘lmagan xatti-harakatlari oilada kamsitish, taqqoslash, tahqirlash kabi psixologik zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin.

Oiladagi konfliktlar, zo‘ravonlik holati bolada psixologik tarvma qoldiradi. Shubhalanish, xavotirlanish hissi oshib boradi. Zo‘ravonlik tajribasiga ega bolalar juda ishonuvchan yoki umuman hech kimga ishonmaydigan, shubhalanuvchan insonga aylanadi. Xavotirlanish hissining asosiy tashqi belgilari doimiy xavsirash, “kurash-qochish” rejimining tayyorligi bilan xarakterlanadi. 8-savolda 54% sinaluvchilar turli xil ovoz yoki yorug‘lik ishoralaridan cho‘chib ketishlari qayd qilingan. Bu holatni faqat oilaviy zo‘ravonlik holati bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. Umuman olganda, barcha stressdan keying travma holatlarida bunday xavotirlanish kuzatiladi. Shuningdek, 54% sinaluvchilar uyqudagi qo‘rqinchli tushlar (nighmare disorder) takrorlanishini belgilashgan. Chuqur uyqu bosqichida tez-tez takrorlanuvchi bunday tushlar stress, psixik travmalar, uyqusizlik oqibatida kelib chiqishi mumkin.


Agressiya xulq-atvor ko‘rinishi sifatida turli xil ko‘rinishlarda yuzaga keladi. Oilada zo‘ravonlik holatlari namoyon bo‘lishining ko‘rinishlaridab biri uy jihozlari, idishlarni qasddan sindirish hisoblanadi. Bu yerda qo‘rqiqtib qo‘yish, hukmronlikka intilish faoliyatning asosiy motivi bo‘lib hizmat qiladi. Ayni shu mazmundagi “Uyda idishlar va narsalar qasddan sindirilgan holatlar bo‘ladimi?” savoliga sinaluvchilarning 6%i ha, 15%i ba’zida deb javob berishgan.

Avtoritar ota-onalik sulubida farzandlardan haddan tashqari intizom talab qilsh, qattiqqo‘llik bolalarni noo‘rin jazolashga olib keladi. Shu mazmundagi savol natijalari 16% -ha, 27% -ba’zan va 57% - yo‘q degan javob qayd etildi. Bolalar o‘rtasaidagi kelishmovchilklar haqida noto‘g‘ri ma’lumot yoki ularni tartibga chorlash uchun barchasini jazolash ba’za bolalarda adolat hissini shubha ostiga oladi. Lekin ko‘p holda bunday qattiq jazo choralari ota-onalik uslubi bilan bog‘lanadi. Jazolash – tarbiyaning asosi deb hisoblaydigan ota-onalar bolaning arzimas xatolari uchun ham ko‘r-ko‘rona jazolashadi.

3-diagramma.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3




Bola tarbiyasida avtoritar uslubning asosiy xususiyatlari qattiqqo‘llik, farzandlar fikri, qiziqishini inobatga olmay doim men aytganim bo‘ladi degan qarash mavjudligi, yuqori kutilmalar bilan ajralib turadi. Shu mazmundagi 13-savolga sinaluvchilarning 17% -ha, 37% -ba’zan, 46% -yo‘q deb javob berishgan. Xalqimizda “Ursang eti qotadi, so‘ksang beti qotadi” degan naql bor. Avtoritar uslubdagi ota-onalar yaxshi niyatdagi yomon amallari bilan bola tarbiyasida xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi.

15-savolda so‘ralgan uydan qochish niyati mavjudligi psixologik zo‘riqish va noxush hissiyotlarning ifodasi hisoblandi. O‘z-o‘zini kamsitish va o‘ziga bo‘lgan nafrat o‘zini keraksiz inson deb bilish, atrofdagilarga og‘ir yuk deb his qilishiga olib keladi. Odatda uydan qochish haqidagi niyat yolg‘izlikdan, tegishlilik hissi yo‘qligidan kelib chiqadi. Hissiyotlarni boshqariishdagi qiyinchilik uydan qochish ko‘rinishidagi noadekvat regulyatsiyaga olib keladi. Bu savol bo‘yicha natijalar 24 % ishtirokchi ba’zan yoki ko‘pincha uydan qochish haqida o‘ylaganini belgilashgan.

16-17 savollar mazmunan yaqin bo‘lib, shaxsning qadr-qiymati, ota-ona qo‘llab-quvvatlovi haqida fikr-mulohazalar so‘ralgan. 80% ishtirokchilar ota-onasi ularni qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlashgan. Albatta bu o‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa deya har bir farzandiga alohida e’tibor beradigan, mehr-shafqat ko‘rsatadigan bolajon o‘zbek xalqiga xos holat hisoblanadi. Shu bilan birga. 14% ishtirokchilar ba’zan degan javob variantini tanlashgan. Bu holatni iqtisodiy resurslar yetishmasligi bilan izohlash mumkin. Farznadning kichik yutuqlaridan ham quvonish, ularni yanada katta yutuqlar, muvaffaqiyatlatr sari ilhomlantirish ota-onasga xos xulq-atvor ko‘rinishlaridan biridir.

4-diagramma.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



Tadqiqot ishtirokchilarining 88%i oilas a'zolari va yaqinlari ularni shaxs sifatida hurmat qilishini aytib o'tishgan. O'smirlik davri bolalik dunyosidan kattalar olamiga qadam bosadigan oraliq davr, ko'prik bo'lib hizmat qiladi. Ayni shu davrda ijtimoiy munosabtlardagi sifat va son o'zgarishlar bolada inqirozni yuzaga keltiradi. Psixolog olinlarimiz ham: "O'smirlik davri tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning katta odamga aylanishi jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir" - degan fikr bildirshgan[6]. O'smirlik davri inqirozida ota-onaning qo'llab-quvvatlovi asosiy omillardan biridir. Bu qo'llab-quvvatlov bolani tinglash, katttalarga xos bo'lgan munosabatlarda uning fikrini so'rash, shaxs sifatida e'tirof etish bilan yuzaga keladi.

18-savol savol zo'ravonlik akti sodir bo'lganligini bevosita so'rayapti. Bu savol bo'yicha 29% sinaluvchilar ha yoki ba'zan javobini tanlashgan. Oilaviy zo'ravonlikka olib keladigan omillar yuqorida qayd etib o'tildi. UNICEFning 2025-yil oktabr oyidagi bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonliik holati bo'yicha Markaziy Osiyo va Yevropadagi holat tahlillari ushbu mintaqalarda har 3 boladan biri oilaviy zo'ravonlik qurboni ekanligi aytiladi. Ba'zi jamiyatlarda zo'ravonlik holati normallashgani yoki zo'ravonlik deyilganda ko'pincha jismoniy zo'ravonlik tushunilgani sababli ham mavjud statistic ma'lumotlar asl haqiatni ochib berolmayapti.

So'rovnomadagi yana bir qiziq savollardan biri bolalarni boshqalar bilan taqqoslash holati haqidagi savoldir. 20-savol bo'yicha natijalar 54 % qatnashchilar ota-onalari tomonidan shu holatga duch kelganini ko'rsatdi. Oqibatini bilmasdan ko'pchilik ota-onalar farzandlarini o'zining aka-uka, opa-singillari, tengqurlari bilan taqqsoslaydi. Ularning yutuqlarini e'tirof qilib, ularga o'xshashga targ'ib qiladi. Lekin bu holatlar

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bolaning kelgusi hayotida o‘zining aks ta’sirini bermasdan qolmaydi. Bolada o‘ziga bo‘lgan ishonch kamayadi, o‘z-o‘zini baholash pastlab ketadi.

Muhokama. Yuqorida so‘rovnomadagi asosiy savollar va tanlangan javoblarni izohlab o‘tioshga harakat qildik. Psixologik sabablar va ularning oqibatlari haqida qisqacha ma’lumot keltirildi. Ha bir sinaluvchining javoblari jami 40 ballik mezonda baholandi. Bunda har bir savol 0-2 ball oralig‘ida baholanadi, umumiy yig‘indi 40 ballga teng bo‘ladi. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlardagi zo‘ravonlik namoyon bo‘lish darajasi 3 ga ajratildi. Quyidagi jadvalda guruhlar va ularga mos ballar oralig‘i, umumiy ishtirokchilar ulushi keltirilgan.

2-jadval.

Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlardagi zo‘ravonlik namoyon bo‘lish darajalari

Guruhlar	Ballar oralig‘i	Javoblar soni	Xavf guruhi
1-guruh	1-16	22	Yuqori xavf
2-guruh	17-28	236	O‘rtacha xavf
3-guruh	29-40	465	Xavf yo‘q

Xulosa. Oilaviy zo‘ravonlik, psixologik nuqtayi nazardan, murakkab va ko‘p qirrali muammo sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlar oilaviy zo‘ravonlikni shaxslararo munosabatlardagi nazorat, tajovuzkorlik va manipulyatsiya mexanizmlari orqali namoyon bo‘luvchi salbiy hodisa sifatida tushuntiradi. Psixologik jihatdan oilaviy zo‘ravonlikning paydo bo‘lishi, takrorlanishi va natijalari individual va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq tarzda o‘rganiladi.

Oilaviy zo‘ravonlik shaxsning individual xususiyatlari va psixologik holati bilan uzviy bog‘liq. Tajovuzkor (agressor) shaxs ko‘pincha bolalik davrida zo‘ravonlikka duch kelgan yoki bunday muhitda o‘sgan bo‘lib, o‘zining his-tuyg‘ularini boshqara olmaslik va salbiy emotsiyalarni nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Psixologik manbalarda bunday shaxslarning yuqori impulsivlik, empatiya yetishmasligi va kognitiv buzilishlarga moyilligi haqida fikrlar mavjud. Masalan, Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, odamlar o‘zlarining xulq-atvorini kuzatish va taqlid qilish orqali shakllantiradi. Shuning uchun zo‘ravonlikni ko‘rgan bola kelajakda tajovuzkor bo‘lib yetishishi mumkin.

Zo‘ravonlikni tushunish, uni oldini olish va psixologik reabilitatsiya choralari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu muammoni samarali hal qilish uchun kompleks yondashuv zarur. Zo‘ravonlikka qarshi kurashda psixologik ta’lim, oilaviy maslahatlar va psixoterapevtik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari Milliy bazasi(LexUZ). Bola huquqlari to‘g‘risida Konvensiya. –URL: https://Lex.uz/docs/-2595913

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. Исаева, О.М. (2017). Диагностика насилия над детьми // Монография. Глава 4. — Н. Новгород.
3. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/psixologiya/ijtimoiy psixologiyaning-metodlari
4. https://www.gazeta.uz/uz/2025/10/15/unicef/
5. https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume i_53f23881-en.html
6. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: o‘quv metodik qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2004. – 43 bet.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **G‘ulomqodirov Eldorjon Axmadjon o‘g‘li**,doktorant[**Гуломкодиров Элдоржон Ахмаджон угли**,докторант], [**G‘ulomqodirov Eldorjon Axmadjon o‘g‘li** doctoral student]; manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko‘chasi, 25-uy, [адрес: 100000, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Чиланзар, д. 25], [address: 25 Chilanzar St., Tashkent, 100000.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

O‘SMIRLAR MA’NAVIY QIYOFASINI RIVOJLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK TRENINGLARNING TASHKILIY-METODIK JIHATLARI

© J.A. Jabborov[1]✉

[1]Xalqaro innovatsion universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola o‘smirlar ma’naviy qiyofasini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglarning tashkiliy-metodik asoslarini ochib beradi hamda kommunikativ qobiliyat, o‘z-o‘zini nazorat qilish va ijodiy salohiyatni faollashtirishdagi o‘rnini asoslaydi.

MAQSAD: o‘smirlar uchun psixologik treninglarni maqsadli loyihalash va tashkil etishning samarali usullarini tizimlashtirish, ularning ma’naviy-axloqiy rivojiga ta’sir mexanizmlarini ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: adabiyotlar sharhi, tizimli va konseptual tahlil; ijtimoiy-psixologik trening texnikalari (rolli o‘yin, guruh muhokamasi, simulyatsiya, refleksiya); yosh va motivatsion xususiyatlarni inobatga olgan metodik loyihalash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: «qarama-qarshi harakatlar», «Kulma», «Psixologik vaqt», «Vaqtda yurish», «Taqiqlangan so‘zlar», «Muz va olov», «Fikr kuchi» kabi mashqlar ixtiyoriy o‘zini boshqarish, nutqiy nazorat, diqqatni jamlash va ideomotor vizualizatsiya ko‘nikmalarini kuchaytirdi. Xavfsiz, erkin muloqot muhiti hamda qat’iy tashkil etilgan tartib ijtimoiy moslashuv va ma’naviy qadriyatlarni ichkilashtirishni jadallashtirdi.

XULOSA: bosqichma-bosqich, interaktiv va reflektiv tarzda tashkil etilgan treninglar o‘smir shaxsida ma’naviyat, mas’uliyat, insonparvarlik va mustaqil fikrlashni barqaror rivojlantiradi; integratsiyalashgan metodlar trening samaradorligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: psixologik trening; o‘smir ma’naviy qiyofasi; shaxs; o‘z-o‘zini nazorat; kontsentratsiya; vizualizatsiya; ma’naviy hayot; ijtimoiy moslashuv.

Iqtibos uchun: Jabborov.J.A. O‘smirlar ma’naviy qiyofasini rivojlantiruvchi psixologik treninglarning tashkiliy-metodik jihatlari. // Inter education & global study. 2025. №10(1). B.413–423.

ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ, РАЗВИВАЮЩИХ ДУХОВНЫЙ ОБРАЗ ПОДРОСТКОВ

© Ж.А. Жабборов[1]✉

[1] Международный инновационный университет, Карши, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: статья раскрывает организационно-методические основы психологических тренингов, развивающих духовный облик подростков, и их вклад в коммуникативность, самоконтроль и творческую активность.

ЦЕЛЬ: систематизировать эффективные способы проектирования и проведения тренингов для поддержки духовно-нравственного развития подростков и укрепления саморегуляции.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: обзор литературы; системный и концептуальный анализ; техники социально-психологического тренинга (ролевые игры, групповые дискуссии, моделирование, рефлексия) с учётом возрастных и мотивационных особенностей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: упражнения «Противоположные движения», «Не смейся», «Психологическое время», «Шаг во времени», «Запрещённые слова», «Лёд и огонь», «Сила мысли» усиливают произвольную регуляцию, речевой контроль, концентрацию и навыки визуализации/идеомоторики. Безопасный групповой климат и чёткая организация ускоряют социализацию и интериоризацию ценностей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: поэтапные, интерактивные и рефлексивные тренинги устойчиво формируют у подростков нравственные ценности, ответственность, гуманистические установки и самостоятельное мышление; интеграция методов повышает результативность.

Ключевые слова: психологический тренинг; духовный облик подростка; личность; самоконтроль; концентрация; визуализация; духовная жизнь; социальная адаптация.

Для цитирования: Жабборов.Ж.А. Организационно-методические аспекты психологических тренингов, развивающих духовный образ подростков.// Inter education & global study.2025. №10(1). С.413–423.

ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF PSYCHOLOGICAL TRAININGS THAT DEVELOP THE SPIRITUAL IMAGE OF ADOLESCENTS

©Jamshid A. Jabborov[1]✉
[1] International Innovation University, Karshi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines organizational-methodological foundations of psychological trainings that foster adolescents' spiritual development, highlighting effects on communication, self-control, and creative activation.

AIM: to systematize effective designs and delivery modes of trainings that promote adolescents' moral growth and strengthen self-regulation.

MATERIALS AND METHODS: literature review; systemic and conceptual analysis; socio-psychological training techniques—role-plays, group discussions, simulations, and guided reflection—tailored to age-related and motivational factors.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: exercises such as “Opposite Movements,” “Don’t Laugh,” “Psychological Time,” “Walking the Minute,” “Forbidden Words,” “Ice and Fire,” and “Power of Thought” enhanced voluntary regulation, speech control, attentional focus, and ideomotor visualization. A safe group climate and clear structuring facilitated social adaptation and internalization of values.

CONCLUSION: staged, interactive, and reflective trainings reliably cultivate spiritual values, responsibility, humanistic attitudes, and independent thinking in adolescents; integrated methods increase overall effectiveness.

Keywords: psychological training; adolescent spiritual development; personality; self-control; concentration; visualization; spiritual life; social adaptation.

For citation: Jamshid A. Jabborov. (2025) ‘Organizational and methodological aspects of psychological trainings that develop the spiritual image of adolescents’, Inter education & global study, (10(1)), pp.413–423. (In Uzbek).

Psixologik trening - bu o‘yinlar orqali shaxslararo o‘zaro munosabatlarda modellashtirilgan va munozaralar davomida amalga oshiriladigan hayotiy tajribani o‘zlashtirish hamda tushunish orqali faol o‘rganish.

Psixologik treninglar o‘z ichiga turli ko‘rinishdagi o‘yinlarni qamrab oladi. Ushbu turdagi mashg‘ulotlar, ayniqsa, o‘smirlik davrida, muloqotga bo‘lgan ehtiyoj kuchaygan va hayotiy tajriba yetarli bo‘lmagan, ammo uni egallash istagi aniq ifodalangan paytda dolzarbdir. Trening, bir tomondan, eng «kontsentrlangan» shaklda, ikkinchi tomondan, uni tushunishni osonlashtiradigan psixologik jihatdan xavfsiz sharoitlarda tajriba orttirishga imkon beradi. «Usul sifatida mashg‘ulot ishtirokchilarga qandaydir faoliyatni o‘zlashtirishga yordam berishga qaratilgan. Lekin qanday sharoitlar yangi faoliyatni o‘zlashtirishni ta’minlaydi? Shubhasiz, odam: 1) buni qilishni xohlaydi; 2) buni qanday qilishni bilishi kerak; 3) buni qila olishi kerak «degan his bilan yashashi lozim [2; 18]. Trening ishtirokchilarga maxsus simulyatsiya qilingan vaziyatlarda u bilan bevosita aloqada bo‘lish orqali faoliyatni o‘zlashtirishga imkon beradi.

Psixologik treninglar xilma-xil va yosh doirasida qamrab olinsa, o‘zining samaradorligini ko‘rsatadi. Keng ma’noda, ijtimoiy-psixologik trening - bu guruhlarning o‘zaro ta’siri mexanizmlari asosida amalga oshiriladigan har qanday faol ijtimoiy-psixologik trening (masalan, kognitiv jarayonlarni - diqqat, xotira, fikrlash va boshqalarni rivojlantirish bo‘yicha treningdan farqli o‘laroq) samarasi tanlangan metdoikaga bog‘liq. Shunday qilib, L.A. Petrovskaya [3; 7] va L.F. Ann [1; 33] ushbu atamani guruh ishining faol usullariga asoslangan psixologik ta’sir amaliyotini bildiruvchi mulohaza sifatida qo‘llashgan. Ba’zan «ijtimoiy psixologik trening» tushunchasi ham torroq bo‘lib, keng ma’noda dramatizatsiya elementlari bilan rolli o‘yinlar orqali muloqot qilish ko‘nikmalarini yaxshilashga qaratilgan psixologik trening sifatida tavsiflash mumkin.

Psixologik treninglar bir qator umumiy xususiyatlarga ega.

1. Ishtirokchilarning faolligi, sheriklik aloqasi, shaxslararo o‘zaro ta’sir jarayonida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ishtirokchilarning tadqiqot pozitsiyasi va fikr-mulohazalarni amalga oshirish kabi printsiplarga rioya qilish.

2. Guruh ishining faol usullaridan foydalanish. Ikkita asosiy usul mavjud: rolli-o‘yinlar va guruh muhokamalari. Shu bilan birga, ular asosida yaratilgan maxsus o‘quv mashqlari soni minglab o‘lchanadi. Art-terapiya, amaliy psixodiagnostika, tanaga yo‘naltirilgan usullar va boshqalar kabi boshqa usullar ham qo‘llaniladi, ammo ular, ba’zi bir yuqori ixtisoslashtirilgan treninglar bundan mustasno, odatda bo‘ysunuvchi xususiyatga ega.

3. Guruh a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni qabul qilish, intensiv shaxslararo o‘zaro ta’sir. Treningning asosiy ta’lim salohiyatini ta’minlaydigan hayotiy tajriba o‘zaro munosabatlarni o‘yin modellashtirish jarayonida yuzaga keladi va guruh muhokamalari jarayonida xabardorlik predmetiga aylanadi.

4. Ishtirokchilar o‘rtasida intensiv muloqot qilish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni ta’minlash va chalg‘itishni minimallashtirishga qaratilgan tashkilot. Jumladan, bunga ishtirokchilarni aylanaga tez-tez joylashtirish, mustaqil ovoz o‘tkazmaydigan xonaning mavjudligi, mashg‘ulot vaqtini aniq tartibga solish, o‘zaro munosabatlar qoidalarini joriy etish yordam beradi.

5. Bo‘shashgan va erkin muloqot muhiti. Trening sharoitida muloqot oddiy shaxslararo aloqalarga qaraganda ancha qizg‘in, hissiy, ochiq va samimiydir. Guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichlarida rahbarning asosiy vazifasi tegishli muhitni yaratish, bunday muloqot uchun psixologik xavfsiz sharoitlarni modellashtirishdir. Keyinchalik, agar trening muvaffaqiyatli davom etsa, ochiqlik va samimiylik guruhdagi o‘zaro munosabatlarning umumiy qabul qilingan normasiga aylanadi.

6. Ko‘p yoki kamroq doimiy guruhning mavjudligi. Uchrashuvlarni o‘tkazib yuborish qabul qilinmaydi va guruhda sodir bo‘layotgan voqealarni undan tashqarida muhokama qilish taqiqlanadi, chunki bu ish jarayonida to‘planishi kerak bo‘lgan hissiy energiyaning yo‘qolishiga olib keladi. Ba’zan ochiq guruhlar tashkil etiladi, ularning tarkibi har bir darsda o‘zgarishi mumkin, ammo bunday ish bir qator uslubiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq va nisbatan kamdan-kam hollarda qo‘llaniladi.

7. Guruh ishtirokchilariga psixologik yordam berishga e’tibor qaratish. Trening natijasi faqat ishtirokchilarda bilim va malakalar tizimini shakllantirish bilan cheklanmaydi; ruhiy holatni sub’ektiv yaxshilash va keyingi o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun impuls olish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun o‘qitish samaradorligining ob’ektiv mezonlari bilan bir qatorda sub’ektiv mezonlari ham hisobga olinadi.

Treningda qatnashayotgan o‘smirlarni ishning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqmi? Bu o‘rinli ko‘rinadi, chunki ishtirokchilar trening ularga nima berishini tushunishlari kerak. Aks holda, rahbar ularga ommaviy tomoshabin sifatida ko‘rinadi va ular faqat ko‘ngilochar xarakterdagi mashqlarni bajonidil bajaradilar. Albatta, o‘quv maqsadlarini tushuntirish qisqa, mazmunli, tinglovchilar uchun tushunarli bo‘lishi kerak, murakkab terminologiyadan foydalanmasdan. Bundan tashqari, ishtirokchilar treningda ishlash uchun shaxsiy maqsadlarni ham belgilashlari mumkin. Amerikalik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muallif R. Smid hatto rahbar va guruhga tashrif buyurgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida tuzilgan yozma shartnomada maqsadlarni aks ettirishni tavsiya qiladi. Bufungi kun o‘smirlari bilan ishlashda ushbu harakatni nusxalash, ehtimol, to‘liq oqlanmaydi, lekin ishtirokchilar tomonidan ishning maqsad va vazifalarini butunlay saqlab qo‘yish shart [5].

Ishtirokchilarga trening maqsadlarini ko‘rsatish uchun (ayniqsa, shaxsiy o‘sish sohasida) taqdimotchilar ko‘pincha Jo Luft va Garri Ingramlar nomi bilan deb ataladigan oynadan foydalanadilar (uni ishlab chiquvchilari - Jo Luft va Garri Ingramlar nomi bilan atalgan).

Mazkur maqolamizda o‘smirlarning o‘z-o‘zini nazorat qilish bo‘yicha samarali bo‘lgan trening mashg‘ulotlari haqida ham ma’lumotlar (mashg‘ulotning maqsadi, psixologik tavsifi va ma’nosi) keltirib o‘tamiz.

Mashg‘ulot vaziyatlarda o‘z holatini ixtiyoriy ravishda tartibga solish qobiliyatini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, bu hissiy tarang, stressli sharoitlarda o‘zini ishonchli tutish qobiliyatiga ega bo‘lish uchun muhimdir. Bir tomondan, tavsiya etilgan mashqlar tashqi, xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishini nazorat qilishni o‘rgatadi, boshqa tomondan - o‘zining ichki psixologik holatini kuzatish.

«Qarama-qarshi harakatlar» mashqi

Mashqning tavsifi. Ishtirokchilar juftlarga bo‘lingan. Hamkorlardan biri musiqaga har qanday o‘z-o‘zidan harakat qilishni boshlaydi. Boshqa sherikning vazifasi, uning nuqtai nazari bo‘yicha, birinchisiga qarama-qarshi bo‘lgan harakatlarni bajarishdir. Bir yarim-ikki daqiqadan so‘ng ishtirokchilar rollarni o‘zgartiradilar va o‘yin takrorlanadi. Uni sokin raqs musiqasi bilan kuzatib borish maqsadga muvofiqdir.

Mashqning psixologik ma’nosi. Ishtirokchilar o‘z harakatlarini ixtiyoriy ravishda tartibga solishni o‘rganadilar, bunday vaziyatda sherikning harakatlarini «ko‘zgu» qilish, ularni tom ma’noda takrorlash uchun tabiiy istakni bostirishadi. Bundan tashqari, mashq sheriklar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni oshiradi, jamoaning birlashishiga yordam beradi.

Munozara. Kimga ko‘proq yoqdi - harakatlarni ko‘rsatish yoki aksincha takrorlash? Qachon haqiqiy hayotda sizga ko‘rsatilgan narsani emas, aksincha, buni qila olish muhimmi?

«Kulma» mashqi

Mashqning tavsifi. Ishtirokchilar birgalikda ba’zi -harakatlarni bajaradilar, ular darhol ularning ko‘pchiligida kulgiga sabab bo‘ladi. Masalan, quyidagilar:

♦ Rahbar qarsak chalganda, barcha ishtirokchilar qo‘llarini yuzlariga ko‘tarib, «uzun burun» jo‘r ovozda «Men Pinokkioman» (yoki boshqa ertak qahramonlari) deb aytiladi.

Bu 2-3 soniya oralig‘ida takrorlanadi.

Barcha ishtirokchilar aylana bo‘ylab harakatlanishadi, cho‘kkalab, qo‘llarini tizzalariga qo‘yishadi, ularning har biri o‘z navbatida: «Men oyni o‘tkazuvchiman!»

♦ Rahbar o‘z navbatida ishtirokchilarga har qanday mazmundagi savollarni so‘raydi va ular ularga «kolbasa» so‘zi bilan javob berishlari kerak. (“Ko‘ylagining ustidan nima kiyasan? – Kolbasa!” va hokazo).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

♦ Ishtirokchilar aylanada o‘tirishadi va ularning har biri o‘ng tomonidagi qo‘shnining tirsagini qitiqlaydi.

♦ Har bir ishtirokchi navbatma-navbat hazil aytadi, -filmdagi kulgili iborani aytadi va hokazo.

Vazifa sizning yuzingizda butunlay jiddiy ifodani saqlab, bunday harakatlarni bajarishdir va hech qanday holatda kulmang. Kim tabassum qilsa yoki kulsa, raund oxirigacha o‘yindan chetlatiladi (garchi siz hali ham o‘ynayotganlarni o‘zingizga yoqqan usulda kuldirishingiz mumkin). G‘oliblar o‘yinda eng uzoq qolgan ishtirokchilardir.

Mashqning psixologik ma’nosi. O‘z xatti-harakatlarini tartibga solish ko‘nikmalarini o‘rgatish. Odatda g‘alaba qozonganlar tomonidan qo‘llaniladigan ushbu mashqni bajarishning eng samarali usuli - bu sodir bo‘layotgan narsadan ichki masofani bosib, diqqatni qandaydir -begona fikrlarga qaratishdir.

Munozara. O‘yinda boshqalardan ko‘ra ko‘proq qolganlardan bunga erishish uchun qanday usullardan foydalangani, ularni kuldirishga urinishdan chalg‘itishga nima yordam bergani bilan bo‘lishish so‘raladi. Keyin ishtirokchilardan kulishni nazorat qila olish muhim bo‘lgan hayotiy vaziyatlarga misollar keltirish so‘raladi.

«Psixologik vaqt» mashqi

Mashqning tavsifi. Ishtirokchilardan o‘tirishlari, dam olishlari va ko‘zlarini yumishlari so‘raladi. Ularning vazifasi uy egasining signalidan keyin aniq bir daqiqa qachon o‘tishini imkon qadar aniq aniqlashga harakat qilishdir. Ulardan boshlarida oltmishgacha hisoblamasliklari, balki sezgilarini tinglashlari so‘raladi. Ishtirokchi nuqtai nazaridan, daqiqa o‘tib ketganda, ular jimgina qo‘llarini ko‘taradilar, lekin ko‘zlarini ochmaydilar. Mezbon bu vaqtgacha qancha vaqt o‘tganligini qayd etadi (agar ishtirokchilar ko‘p bo‘lsa, ularga bir yoki -ikkita yordamchining yordami kerak bo‘ladi).

Keyin ishtirokchilar ikki guruhga bo‘linadi: daqiqa haqiqatdan ko‘ra tezroq o‘tganini his qilganlar (ularning vaqti 60 soniyadan kam) va u uzoq davom etganini his qilganlar. Ushbu kichik guruhlarda psixologik vaqt haqiqatdan ko‘ra «tezroq» yoki «sekinroq» o‘tadigan odamlarning xususiyatlari muhokama qilinadi.

Mashqning psixologik ma’nosi. Vaqtning ichki tuyg‘usini rivojlantirish, vaqt haqiqatdan tezroq o‘tadi deb o‘ylaydiganlar va aksincha o‘ylaydiganlar o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish. Qoida tariqasida, bu farq turli xil hayotiy vaziyatlarda juda aniq namoyon bo‘ladi. Vaqt tezroq o‘tadiganlar «Va yashashga shoshiladi va his qilishga shoshiladi» tamoyiliga ko‘ra mavjud. Vaqt haqiqatdan ko‘ra sekinroq o‘tadi deb o‘ylaydiganlar odatda o‘lchovli va shoshilmasdan yashashni afzal ko‘radilar. Bundan tashqari, vaqtni idrok etish insonning qanday holatda ekanligiga bog‘liq: u juda faol, hayajonli bo‘lsa, vaqt o‘z yo‘nalishini tezlashtirgandek tuyuladi.

Munozara. Har bir kichik guruh vakillari hozirgi vaqtda psixologik vaqt real vaqtdan ko‘ra sekinroq o‘tadigan va u tezroq o‘tadigan odamlarga nima xos bo‘lganligi haqida o‘z nuqtai nazarlarini bildiradilar. Keyin boshqa ishtirokchilardan ushbu fikrlarni taqqoslashlari va masala bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishlari so‘raladi.

«Vaqtda yurish» mashqi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Mashqning tavsifi. Ishtirokchilarga 6 x 10 m uzunlikdagi masofa beriladi va so‘raladi: ko‘zlarini yumib, unga bir daqiqa sarflang. Boshlanish bir vaqtning o‘zida bir nechta ishtirokchilar uchun beriladi (ularning soni birinchi navbatda xonaning kattaligiga bog‘liq), yetakchi har bir ishtirokchi marra chizig‘ini kesib o‘tgunga qadar qancha vaqt o‘tganligini qayd etadi. Vaqti aniqroq bo‘lgan kishi g‘olib hisoblanadi. O‘yinni to‘xtatish buyrug‘i oxirgi o‘yinchilar marra chizig‘ini kesib o‘tganda beriladi.

Ushbu startda qatnashmagan ikki yoki uchta ishtirokchi rahbarning yordamchisi etib tayinlanadi. Ularning vazifalari marraga adashganlarni yo‘naltirish, shuningdek, masofani bosib o‘tganlarni to‘xtatishdir. Boshqa ishtirokchilarni chalg‘itmaslik uchun bu so‘zsiz, ularning yelkalariga yengil teginish orqali amalga oshiriladi.

Mashqning psixologik ma’nosi. Odatiy harakatlarni qat’iy sekin sur’atda bajarishingiz kerak bo‘lgan vaziyat – sizning xatti-harakatlaringizni nazorat qilish va ixtiyoriy ravishda tartibga solish qobiliyatini rivojlantirish uchun samarali bo‘ladi. Bundan tashqari, mashq ichki vaqt tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi va u nimaga bog‘liqligini va qaerda talab qilinishini muhokama qilish uchun material beradi.

Munozara. Ishtirokchilar ushbu mashqni bajarishda paydo bo‘lgan his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ularini baham ko‘rishadi. Masofani bosib o‘tish vaqtini saqlaganlar, ularning nuqtai nazari bo‘yicha, ularga nima yordam berganini, kerakli vaqt oralig‘ini qanday aniqlashga muvaffaq bo‘lganligini eng aniq aytib beradi.

«Taqiqlangan so‘zlar» mashqi

